TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

HUSAYN JOVID

59

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

HUSAYN JOVID

59

1619322

"O'ZBEKISTON"
TOSHKENT — 2022

UO'K 821.512.162-3
KBK 84(5Ozar)
H 84

Tahrir hay'ati:

Xayriddin Sulton – hay'at raisi,
Ibrohim G'afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo'ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo'riboyev, G'ofur Eshmurodov, G'ayrat Bozorov,
G'ayrat Majid, Tohir Qahhor, Rustam Musurmon,
Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi

Azimjon Shoimov

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat "Turkiy adabiyot durdonalari" deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g'oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo'lib O'zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko'lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro'yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san'atga ko'rsatilayotgan ulkan g'amxo'rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so'z san'atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8725-6-1

©"O'zbekiston" nashriyoti, 2022

ULUG‘ SHOIR VA DRAMATURG

Haqiqiy adabiyot har qanday vaziyat va sharoitda ham erkka intilib, erk maslagi va ozodlik idealiga sodiq qoladi. Afsuski, hamma yozuvchi va shoir ham buni teran anglay olmaganidek, qalbi hurlik ishqi bilan yongan qalam ahli yanada siyrak uchraydi. Hurriyatsevar shoir Abdulhamid Cho‘lpon mustabid sovet davlatining bosqinchilik va qullik siyosatiga qarshi chiqib millatdoshlariga “Kishan kiyma, bo‘yin egma, Ki sen ham hur tug‘ilg‘onsen”, deya hayqirgandi. Ammo uning maqsad-muddaosi, ko‘zlagan erk maydoni yanada teran va hayotiyroq edi.

Davr, zamon, tuzum, jamiyat, muhit doirasida qisinib yashagan va shular ta’siridan chetga chiqolmagan ijodkor hech vaqt na ruhda, na tafakkurda erkin bo‘lolmasligini turkiy adabiyotning Cho‘lponga zamondosh va maslakdosh buyuk vakillarining aytarli barisi bag‘oyat aniq va chuqur anglagandi. Shuning uchun ham ularning rasmiy siyosat va mafkuraga qarashlarida botiniy qarshilik hamda shiddat yuqori bo‘lgan. Ayni paytda ular adabiy shaxsiyatning parchalanishi, kuch-quvvatni yasama g‘oya, o‘tkinchi mavzular targ‘ib-u tashviqiga sarflashdan o‘zlarini saqlay olishgan. Bu, birinchidan, ma’naviy mag‘lubiyat yo‘lini to‘sgan bo‘lsa, ikkinchidan, Navoiy aytmoqchi, har ne istasa o‘zidan istash tuyg‘usini quvvatlantirgan. Uchinchidan, ularda adabiyotga xiyonat etish, adabiyotni sotish o‘limdan-da mudhishroq fojia ekaniga to‘la ishonch hosil qilgan. Buyuk shoir, dramaturg, faylasuf Husayn Jovid Ozarbayjon xalqining benazir farzandi, ana shunday e’tiqoddagi san’atkorlardan. Kuchli shaxsyati olmosday porloq va serqirra adabiy merosi jahon adabiyotidagi nodir va kamyob hodisalardan bo‘lgan.

Jovid 1882-yili Naxchivonda tavallud topgan va shu yerda dastlab madrasada tahsil olgan. Keyin tahsilni Tabrizda davom ettirib “Tolibiya” maktabida fors va arab tillarini ham qunt bilan o‘rgangan. 1905–1908-yillarda esa Istambulda saboq olgan va did, sa-

viya, dunyoqarashining o'sishida ko'p yutuqlarni qo'lga kiritgan. Jovid Istanbuldan do'stlaridan biriga yozgan maktubida shunday deydi: "Mening tabiatimni bilasiz. Men faqirlikni, xizmatkorlikni ko'p sevaman. Фақат... menligimni sotish, qaram va asir bo'lishni istamayman (asir bo'lganim biror nima bo'lsa, u ham Haqiqat va Muhabbatdir)...". Jovid "Bir ohi mazlumona", "Yodi moziy", "Ilmi bashar", "Navha" kabi ilk she'rlaridayoq xalq va vatan dardi bilan nafas olayotgan shoir siymosida e'tiborni qaratgan edi. U jafokash yurtiga:

Seni bu hola soldi g'aflatimiz,
Bizni afv et, yetar nadomatimiz, —

deya, murojaat etgandi. Eng muhimi, Jovid salaflariga ham, xalaflariga ham o'xshamaydigan, she'riyatda ham, dramaturgiyada ham hech kimni takrorlamagan, san'atkorlikda o'z sozi va ovozining sehr-u jozibasiga ko'pchilikni iqror aylay bilgan iste'dod sohibi edi. Eng og'ir va beshafqat davr, eng qattol zamonda ham u haqiqat yo'lidan chekinmaganligi bois zamondoshlaridan biri "Husayn Jovid hech bir vaqt san'atkorlik vijdoniga xiyonat etmagandir", — deb yozgandi. Darhaqiqat, Jovid hamma narsaga boshqacha nigoh bilan qarar, hayotda ham, adabiyotda ham uni pokiza va boqiy mohiyatlar qiziqtirar, shuningdek, u millat va vatan ishqining majnuni o'laroq ulg'aygandi. Bugina emas, uni "she'riyatimizning Hamleti" deguvchilar ham bo'lgan. Chunki uning dunyoni mushohada qilishi, tafakkur va qalb iztirobi, ma'naviy jafokashligi Hamletnikidan qolishmagan.

Zamondosh ijodkorlarining xotirlashi bo'yicha, Jovid Sharq va G'arbning dohiy ijodkorlaridan Dantening "Ilohiy komediya"sini, Gyotening "Faust"ini, Tolstoy asarlarini, Sa'diy, Hofiz, Xayyom she'riyatini maroq bilan mutolaa etgan. Albatta, uning Nizomiy, Nasimiy, Navoiy va Fuzuliyga sevgisi yanada yuqori bo'lganligi shubhasizdir.

Faylasuflardan Spinoza, Spenser, Shopengauyer, Nitsshe asarlari bilan u jiddiy qiziqqan.

"Rusiyada, — deydi Jovid, — Nitsshening tarafdorlari oz emas. Rusiyaning daho adibi va ruhshunos F.M. Dostoyevskiy Nitsshe yo'li, Nitsshe g'oyasini adabiyotda ancha avval joriy etgandi..."

Jovidning "Men san'atdan olganim zavqni hech bir narsadan ololmayman" degan e'tirofi e'tiborga olinsa, uning ilm-fan, din tasavvuf va falsafaga bog'lanish ehtiyoji ham bir qadar ravshanlashadi. Aslida Jovid zamin dardi bilan yashab, bashar kulfati va baxtsizliklariga chora axtargan samo shoiri ("Yerga inmasmen, chun samo shoirimen..."). Jovid moziy bag'riga chuqur kirib borib, zamonning og'ir, favqulodda murakkab va qiynoqli savollariga tarix tili bilan javob bergan faylasuf dramaturgdir. Uning dramalarida zamon fojialari, zulm va zo'ravonlikdan tug'ilgan ijtimoiy, siyosiy haqsizlik va bedodliklar o'tmish oynasida jonli va yorqin zuhurlantirilgandir. Husayn Jovid kitoblarini ixlos va ishtiyoq ila bir bora o'qigan kishi ulardan umrbod ajralolmaydi va ular har gal varaqlanganda fikr, tuyg'u, holat, xayol-u xotirada bir yangilanish, kutilmagan siljish yuz beradi. Buni men shaxsiy tajribamdan ham bilaman.

1985-yil bahori hayotimdagi sira unutilmas bir fasl bo'lgan. Ayni shu ko'klamda Ozarbayjon Fanlar akademiyasi Nizomiy nomidagi Adabiyot institutiga bir yil muddatga malaka oshirishga borganman. O'shanda men ko'rgan, muloqotda bo'lgan Baxtiyor Vahobzoda, Xalil Rizo, Yashar Qorayev, G'affor Kendli kabi shoir-u olimlar bugun yo'q — bu foniy dunyoni tark etishgan. Biroq ularning aziz siymolari, adabiy, ilmiy, ma'rifiy zakovatlari xotiramda o'rnashib qolgan. Bokuda bo'lgan gurung, bir-biridan dilkash va mazmundor voqea-hodisalarni eslashdan esa ko'ngil har gal orziqadi.

Kitobxonlikni men avvaldan yaxshi ko'raman. Ammo Bokuda aspirantlar uyining yettinchi qavatida o'qilgan kitoblarni eslasam, unaqasi boshqa takrorlanmaganidan xafa ham bo'laman. Xullas, menga juda kuchli ta'sir o'tkazgan kitoblarning dastlabkilari Husayn Jovid asarlarining to'rt jildligi bo'lgandi. Uning birinchi jildi shoir she'rlari, bir poema va ikki dramadan tarkib topgan edi. To'rtala tomni ham muallifning qizi Turon Jovid nashrga tayyorlagan va muharrir sifatida filologiya fanlari doktori Akram Ja'far ularga izoh va qaydlar yozgan. So'zboshi muallifi esa Jovidga bag'ishlab alohida monografiya e'lon qilgan olim Mamed Ja'fardir. Tasavvufni o'rganishga kirishganim tufayli bo'lsa kerak, ki-

tobdagi bir qancha she'rlar, ayniqsa, mana bunday misralar menda o'zgacha taassurot va fikr uyg'otgandi:

Amin bo'l qayerda nafs bo'lsa hokim,
Haqiqiy ishqni mahv etmish zolim.
Kimning ulviy esa ruhi, so'z uningdir,
Asiri nafs bo'lgan doim zabundir.

Ana shu zabunlikdan qutulgan ulviy ruh sohiblarining peshvosi Shayx San'ondir. Olamga mashhur bu shayx haqida drama yozishdan avval Jovid uning qabrini ziyorat qilib "Shayx San'on" nomli bir she'r ham bitib uni shunday so'zlar bilan tugatgan ekan:

Muhabbatsiz butun ma'noyi xilqat shubhasiz hechdir,
Maqsad yolg'iz muhabbatdir bu purafsona xilqatdan.

Jovid o'zini ahli holga, ya'ni dunyoni hol orqali idrok etib, go'zallikka hol ko'zi bilan boqib, hol zavqi bilan yashash sirlaridan voqif oshiq va oriflarga izdosh hisoblaydi. Go'zallik singari sevgining ilohiyligiga ham ishonadi:

Har gulning jahonda bir panohi bor,
Har ahli holning bir qiblagohi bor,
Har kimning bir ishqi, bir Ollohi bor,
Maning Tangrim go'zallikdir, sevgidir.

Shoir majoziy sevgining voqelikdagi ahvolini ham nazardan soqit qilmaydi va boshqa bir she'rida "Har muhabbat bir xiyonat, har kulish bir hiyladir", degan xulosani bildiradi. Yigirmanchi asrning kutilmagan va tuzalmas fojiasi — go'zallik va muhabbat fojiasi. Biror bir asr go'zallik, nafosat va ishqni yigirmanchi yuz yillik qadar qo'pollik, shafqatsizlik va yovuzlik bilan qadrsizlantirmagan. Mehr-muhabbat, muruvvat va himmatning bashariyat qalbidan yiroqlashuviga bosh sabab ham ana shu. Bu yo'qotish va ma'naviy musibatga Jovid dramalarida alohida urg'u berib, ayrim axloqiy tanazzullarni oldindan bashorat etgan. Masalan, "Iblis"

bilan tanishgan o'quvchi Jovidning oldindan ko'rish va anglash qobiliyatiga qoyil qoladi.

She'r, drama, maqola va maktublari Jovidning buyuk shaxsiyati, nodir shaxsiy xislat va fazilatlarini yetarli darajada gavdalantiradi. Lekin Abbos Zamonov so'zboshisi bilan bosilgan "Jovidni xotirlarkan" (Boku, 1982) va G'ulom Mamadalining adibning hayot va ijod solnomasi yoritilgan kitobini (Boku, 1982) o'qish adibning matonati, haqparastligi, yurt, millat va adabiyotga sadoqatini yanada keng miqyosda ko'rishga yaqindan yordam beradi. Olomon va unga sarbonlik qilgan ziyolilar Jovidni nimalar deb va qanday ayblar to'qib qoralashmagan, deysiz? Ulardan birini eshiting: "Nihoyatda iste'dodli shoir bo'lmish Husayn Jovid ijtimoiy inqilob davrida yashagani holda bizning inqilobimiz ma'nosini hanuz anglay olgani yo'qdir. U inqilobiy muhitdan tamoman ajralib, fantaziyalar olamida yashamoqda..."

Siyosiy xurofotga berilish va adabiyotning asosiy vazifasini nazarga ilmaslik hamisha so'zdan miltiq yoki qilich o'rnida foydalanishga erk beradi.

Abdulla Shoiq "Jovidning shoh asarlari, shubhasiz, "Shayx San'on" va "Iblis" fojialaridir", - deydi. Boshqa dramalar, aytaylik, "Payg'ambar", "Siyovush", "Xayyom", "Iblisning intiqomi" muhiblari bu fikrga qo'shilmasligi mumkin va bunga ular haqli, deb o'ylayman. Masalan, "Xayyom" har nimadan avval hayot sevgisi, yashash zavq-shavqini tarannum qilgan va haqiqiy shoir ruhining mahobatini gavdalantirgan asardir. Unda Xayyom sevgisi dramaturgni buyuk rind va faylasuf shoirga ruhdosh, maslakdosh aylagan tasvir va talqinlar oz эмас...

Muddat tugab, 1986-yil bahorida Bokudan Toshkentga qaytganimda qayta qurish va oshkoralik to'lqinlari bizning ziyolilarimizni ham, qatag'on etilgan adiblarimiz — Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon nomini to'la oqlab kitoblarini ommaga yetkazishga ilhomlantirgandi. Men ham Cho'lponning "Bahorni sog'indim" nomli she'riy majmuasini nashr ettirdim. Va bu she'riyatimiz uchun o'ziga xos bir bayram bo'lganini to'plam taqdimotiga ishtirok etganlar unutmagan bo'lishsa kerak. Mustaqillikdan keyin esa

asarlarini Fitrat, Cho'lpon, Oybekday ulug'larimiz sevib o'qigan va e'zozlagan Husayn Jovidning hayoti, ijodiyotiga bag'ishlab maqolalar yozilib, maxsus tadqiqotlar yaratildi. Ammo bularning soni singari sifat va salmog'i ham qanoatlanarli emas, albatta. Jovidshunoslikning mavqeyi va ko'lami bizda nasimiyshunoslik yoki fuzuliyshunoslikdan past bo'lmasligi lozim. Jovidni benazir san'atkor maqomiga yuksaltirgan oliy orzu, g'oya va haqiqatlarning tamalini turkiy xalqlarning o'zaro hamjihatligi, insoniyat havas qilsa arzirli mehr-muhabbati, ma'naviy, ilmiy, adabiy zafarlari tashkil qiladi. Jovidning shaxsiyati va ijod tajribasidan ko'p narsa o'rganish, yuqori saviyada undan ibrat olish zarurdir. Husayn Jovid abadul-abad qullik, jaholat, milliy noshudlik, siyosiy nayrangbozlikning tolmas mujohidi va g'olibi bo'lib qolaveradi. Shu ma'noda Jovid umrining jovidligiga zarra qadar bo'lsin ishtiboh etib bo'lmaydi.

Ibrohim Haqqul,
filologiya fanlari doktori

SHAYX SAN'ON

To'rt pardali fojia

Izoh

"Shayx San'on" sahnaga qo'yilganda ikkinchi pardaning birinchi sahnasi bilan ikkinchi sahnasi bir yerda ko'rsatiladi. Uchinchi pardaning ikkinchi sahnasi bilan asar so'ngidagi ilova olib tashlanadi.

Ishtirok etuvchilar:

Shayx Kabir — fozil va orifligi, piri komilligi, mujtahidligi bilan mashhur, oq soqolli nuroniy bir shaxs.

Shayx Abuzar — Shayx Kabir oilasining mahrami, uning uy ishlarini nazorat etib boruvchi bir chol.

Zahro — Shayx Kabirning qizi.

Azro — Zahroning o'rtog'i, Shayx Abuzarning qizi.

Shayx San'on — o'ttiz yoshlardagi xushbichim talaba.

Shayx Hodi
Shayx Sadro } Shayx San'onning yaqin do'stlari
Abululo

Shayx Marvon — bir ko'zli, o'rta yoshli kishi.

Shayx Naim — Shayx Marvonning maslahatdoshi.

Shayx Abullahyo
Shayx Ja'far } o'rta yoshli zohid maslagidagi ikki do'st. Faqat Abullahyoning soqoli haddan tashqari uzun.

O'g'uz
O'zdamir } ikki baquvvat yigit.

Darvish — nuroniy bir chol.

Ikki ko'r arab, tuyakash, malaklar, boshqa shayx va muridlar.

Xumor, (Tamara) — nihoyatda go'zal, nazokatli, ma'suma gurji qizi.

Nina — Xumorning o'rtog'i.

Anton
Simon } ikki olifta yigit.

Platon — Xumorning otasi.

Sergo — Platonning xizmatchisi.

Pop — baquvvat, nuroniy bir ruhoniy.

Boshqa yigitlar, qizlar va bolalar...

Shayxlar va muridlar arab qiyofasida, gurjilar esa qadimiy gurji qiyofasida.

BIRINCHI PARDA

I sahna

Madinayi munavvarada, Shayx Kabirning hovlisida ulamoga xos bir qabulxonasi... Xonaning ikki eshigi, uch-to'rt derazasi (darchasi) bor. Eshiklardan biri Shayxning ichkari hovlisiga ochiladi.

Derazalardan ikkitasi orqali xurmozor va bir go'zal bog' ko'rinib turibdi.

Parda ochilganda Shayx Abuzar xonaning bir burchagida asr namozini tugatib, qo'llari va yuzini ko'kka qaratganicha duo bilan mashg'ul.

Zahro

(Azro bilan birga ichkari hovlidan chiqib keladi)

Shayx, yo Shayx!

Azro

Shayx!

Shayx Abuzar

(munojot qilib)

Yo Alloh!

Zahro

Menga boq...

Shayx Abuzar

(munojot qilib)

La ilaha illalloh!

Zahro

(yaqinlashib)

Shayx Abuzar!

Shayx Abuzar

(o'girilib)

Ne gap, qizim?

Zahro

Hamon
Dom-daraksizdirmu Shayx San'on?

Shayx Abuzar

Men uyiga bordim ikki-uch bora...

Zahro

Xasta emasmikan San'on bechora?

Shayx Abuzar

Qo'shnilar deydiki, uzun kechalar
Uxlamay chiqarmish to tongga qadar.
Har sahar ketarmish biyobonlarga,
Qo'shilmay qo'yganmish hech insonlarga.
Ahvoli pajmurda, misoli majnun,
Bilmaslar, bu holga tushmish u nechun?!
Madina ahli ham ko'p azobdadir,
Uning bu holidan iztirobdadir.

Zahro

Yolvorib men senga iltijo etgum,
Bir xabar olib kel...

Shayx Abuzar

Ma'qul. Men ketdim.

(O'rnidan turib chiqa boshlaydi.
Chiqayotganida Zahroga ma'noli bir qarab)

Bunda bir sir borkim, etib bo'lmas fosh,
Ne uchun, bilmayman, ajab bu talosh!?

Azro

Ortiqcha emasmi bu ishing, Zahro?

Zahro
Sen so‘rma, men aytmay, azizim, Azro!..
Azro
Senda shunday go‘zal bir joziba bor,
Kimki ko‘rsa, qolmagay sabr-u qaror.
Seni San’onning o‘zi izlab kelur,
Ishq husnga doimo moyil bo‘lur.
Zahro
Qolmadi menda sira sabr-u qaror,
Men uchun San’onsiz ushbu olam tor.
Olti yildirki, zor-u darbadarman,
U bois goh shod, goh xunjigarman.
Olti yilkim, unga ipsiz bog‘liqman,
Uning ishqida mast-u mustag‘riqman.
Menda bo‘lsa bir qadar husn-u jamol,
Unda bor ham husn-u ham ilm-u kamol.
Azro
Kimsasiz bir sho‘rlikdir Shayx San’on,
Senda bor najiblik, senda — shuhrat-shon.
Jahonga mashhur bir otang bor, axir,
Fozil-u benazir Shayx Kabir.
Zahro
To‘g‘ri, juda to‘g‘ri so‘zlaring, ammo,
Nasabga daxli yo‘q buning mutlaqo.
Qora quldan pastroq bo‘lsa-da, ishon,
Men uchun sharafli erur Shayx San’on.
Azro
(derazadan qarab)
Ana, u kelmoqda, ko‘zlaring oydin...
Zahro
(shoshib)
Kim u? Kim kelmoqda?
Azro
(qo‘li bilan ko‘rsatib)
Sho‘rlik ko‘p g‘amgin...

Zahro

(o'sha yoqqa qarab)

Oh, San'on! Ahvoli buncha g'aribdir.
Bizni yolg'iz qoldir...
(xonadan chiqayotgan Azroga)
So'ng o'zim bir-bir
Senga so'zlaydirman hamma-hammasin.

Juda bezovtalik bilan eshikka yaqin borib kutib turadi. Shayx San'on kirib keladi. Zahroni ko'rgan zahoti avzoyi o'zgaradi.

San'on, nechun tushding bunday holga sen?
(Shayx San'on sukutda)
Boshingga tushgan bu balo, ayt, nima?
(Shayx San'on javob bermaydi)
Ayt, axir, ayta qol...

Shayx San'on

Yo'q-yo'q, qiynama.

Zahro

Ko'nglingda bir dunyo asror bor, sir bor,
Ayt, axir, bevafo, ayt menga bir bor.
Ko'zingda nechun yosh, buncha rangparsan?

Shayx San'on

Hozir ket, keyinroq, keyin anglarsan.

Zahro

Bilmadim, bu qanday tole ekan — shum,
Nahot mening holim senga noma'lum.
Olti yil asiring bo'ldim yagona,
Endi men sen uchun nahot begona?
Ne holga tushding sen? Shahd-shiddating yo'q,
Insofing yo'q sening, marhamating yo'q.
Qani va'dalar-u vafolar, aytgin,
Niyating mengami jafolar, aytgin?
O'shal muhabbatdan porlagan ko'zlar
Endi o'zgacha bir mojaro so'zlar.
Oh, mayli, gul kabi so'ldirgin meni,
Tark etma, yaxshisi, o'ldirgin meni.

Shayx San'on
Seni tark etmoq? Yo'q, mumkinmas aslo,
Yodingga keltirma buni hech, Zahro.
Sen malakdirsan, sevimli ofatsan...
Zahro
(Shayx San'onning ko'ksiga bosh qo'yib)
Oh, sen xoliqi fazilatsan.

Shu orada sahna qorong'ulashadi, orqadan ikkinchi parda ko'tariladi. Biroz yuqorida nihoyatda afsonaviy, jozibador, jannatga o'xshash bir manzara namoyon bo'ladi. Zar qanotli farishtalar qo'l ushlashib, qo'ltiqlashib, yengil tabassumlar, shirin kulgilar og'ushida kezib yurishadi. Tabiiy malak qiyofasida bo'lgan X u m o r ham ular orasida.

Xumor
Shayx, kel, kel! Sevimli San'on, kel!
Senga loyiq emas u yerlar, yuksal!
Shayx San'on
(shoshib qolgan, hayajonda)
Oh, u... nozli malak, jannatiy pari!
Meni chorlayotir yuksaklik sari.
Zahro
San'on, senga nima bo'ldi, ajabo?
Ko'zingga ko'rindi qandayin ro'yo?
Shayx San'on
Qaragin, jannat, axir, jannatda malak!
Zahro
Qayda?
Shayx San'on
Boq, tingla, hozir so'zlayajak.
(Zahro qattiq hayratda)
Xumor
(Shayx San'onga)
Qani, yuksal! Anisi ruhim, kel!
Xayollarga tolma. Kel, yuksal!
Ko'zlaringda porlar bir nuri daho,

Yuksal, ey shayx!
Kelgin, marhabo!..

Shayx San'on

Mendan ne istaysan? Ket, ket, ket, axir,
Hol-u jon qolmadi, insof et axir.

Xumor g'urur va istig'no bilan ketmoqchi bo'ladi. Shayx San'on cheksiz bir iztirob va nadomat bilan

Ketmoqda... oh... ketma, zor etma meni!
Marhamat qil, omon, unutma meni!
Ketdi, e-voh, ketdi...

Zahro

San'on, kim?

Shayx San'on

(Xumorga)

Ketma, kel, oh mening nozli malagim!..

Xumor

(chekina turib)

Xayr endi, yaxshi qol, ey ulug' San'on!
(Ortdagi sahna bekiladi, sahna yorishadi)

Shayx San'on

Ketdi, e-voh, ranjib ketdi... Al'amon!

Majnunona bir faryod chekib, hushidan keta boshlaydi.

Zahro

(darhol uni tutib, boshini tizlari ustiga oladi)

Bu qanday falokat, ne hol, ey Xudo?

Azro

(kirib kelib)

Bu ne dahshat! Nima bo'ldi, ajabo?

Shu payt eshik oldida Shayx Marvon bilan Shayx Abuzar paydo bo'ladi.

Shayx Marvon

(istehzoli bir ohangda)

Shayx Abuzar! Bu holni tamosha ayla,
Neki ko'rgan bo'lsang, hammaga so'yla.

Zahro og'ushida turar Shayx San'on,
Ikkisi bo'libdir bir tan-u bir jon.

Azro

(ularni ko'rgach, Zahroga)

Kelishdi, yo Tangrim, turgil, ketaylik.
Yur, Zahro!..

Zahro

Bu sho'rlik!..

Azro

Yurgil, ketaylik!

Har ikkisi chiqib ketadi. Shayx Abuzar bilan Shayx Marvon kelib San'onning boshiga egiladilar.

Shayx Abuzar

Bu ne pajmurda hol... Omon, Shayx San'on!

Shayx Marvon

Bular bari hiyla, inon...

Shayx Abuzar

Shayx San'on!

Shayx Marvon

Ovdagi tulkiday turishiga boq,
Damini chiqarmas, xoin, quv, olchoq!

Shayx Abuzar

Bas qil!

Shayx Marvon

Ishonma, bu tulkidir, tulki.

(istehzoli kuladi)

Shayx Abuzar

Xo'p yaxshi bilki!..
Bu nima deganing!

Shayx Marvon

(istehzoli kuladi)

Ahli hol ishq uchun hushdan ayrilar,
Zahroni chaqirsang, o'ziga kelar.

Shayx Abuzar

Bas qilgin, kelmoqda, ana, Shayx Kabir.

Shayx Marvon
Kelsin, bunga qilsin biron-bir tadbir...

Shayx Kabir boshqa shayxlar va muridlar bilan kirib keladi. Qattiq hayrat bilan atrofdagilarga boqadi. Shayx Hodi San'onning boshini qo'llari orasiga oladi.

Shayx Kabir
O'g'lim San'on! Bu ne hol, axir?
(Shayx Abuzarga)
Darhol suv keltirgin!
Shayx Hodi
Kechikma, yugur!
(Shayx Abuzar ketadi)
Shayx Kabir
Sababsiz ro'y bermas bu mudhish ahvol!
Shayx Hodi
Hushi yo'q... Ko'z ochgali yo'qdir majol.
Shayx Kabir
Shubhasiz, bu holda bir falokat bor.
Hamma
Shubhasiz, shubhasiz bunda illat bor.
Shayx Marvon
To'g'ri, har amalning bordir boisi,
O'zi tortsin jazosin, tortsin o'zi.
Shayx Kabir
So'yla, Marvon, ne jazo, qanday amal!?
Shayx Marvon
Muhtaram shayx!
Bundan olti kun avval
Shayx San'on ila biz bahs ayladik.
Baqirib bizlarga u so'yladi tik:
"Me'rojga chiqsa — ruh chiqadi, ayon,
Jismonan me'rojga chiqmoqlik — yolg'on.
Payg'ambar ham odam, deya urdi dam,
Qandoq chiqsin, — deydi, — arshlarga odam?"

Hamma

(hayrat bilan)

Yo Alloh!

Shayx Hodi

Yo‘q, yolg‘on, bu gapga ishonmang, ummat,
Shayx San’on so‘ylagan bu gaplar faqat
Shubhadir... Siz uni tushuning ammo,
Shubhadan o‘zga hech aybi yo‘q aslo!

Suv keltirishadi, San’onga suv ichirib, boshini uqalaydilar.

Shayx Kabir

Shubhadir har haqiqatning onasi,
Shubhadir ahli hikmatning otasi.
Shubha aylamakka haqlidir inson,
Chunki har kimsaga erurkim ayon:
Butun borliqlarga nur sochar Xoliq,
Zamonning, makonning unga farqi yo‘q...
Yo‘q ersa Xoliqqa xos bo‘lak ma’vo,
Arshlarga chiqmoqda bormi bir ma’no?

Shayx Naim

San’on bir merojni etmaydi inkor,
Hatto tavhidga ham unda shubha bor.
“Xoliqning o‘zini ko‘rmasdan, axir,
Unga sig‘inmoqdan tortinaman”, — der.

Shayx Marvon

Bu — ayni zalolat...

Shayx Hodi

Sen jim tur birpas!

Shayx Marvon

Deylik, men jim turdim. Lekin bu gap — rost!

Shayx Kabir

(Og‘ir bir o‘yga botgandan so‘ng)

Agar shubha ortsa, ishonch ham ortar,
Ma’rifat nuri shu shubhadan porlar.
Yanglishmagan, manim fikrimcha, San’on,
Chunki Xalloq uchun sharafli makon

Ezgu, pok ko'ngillar bo'lmog'i kerak...
Kimki istar bo'lsa Allohni ko'rmak,
Izlasin qalb shu'layi aflokidan,
Izlasin ul o'z ruhi pokidan.
Bo'lsa kimning ruhida, ko'nglida nur,
Doim haqni his etur, haqni ko'rur.
Kimda faylasufona ruh bo'lsa, bas,
Hargiz Allohdan u ayri yashamas.

Shayx San'on ko'zlarini ochib, atrofga so'lg'in nazar tashlaydi.

Shayx Kabir
"Va minal moi kulli shay'un hey".
Shayx Hodi
Har narsaga suvdan hayot tayin, hey!
Shayx San'on
Oh...
Shayx Hodi
San'on!
Shayx Kabir
Ahvoling nechuk, o'g'lim, ayt?
Hamma
Ming shukr!..
Shayx Marvon
Yo'lingdan pushmon etgil, qayt,
Endi hech shubha qilma!..
Shayx Sadro
(Marvonga)
Bas, yohu!
Shayx San'on
(behol o'tirganicha)
"Vahdahu la ilaha illa hu".
Shayx Kabir
(Shayx Marvonga)
Uyating bormi hech?
Shayx Hodi
Gung bo'lding nega?

Shayx Naim

Hali "Shaqqulqamar" hikoyatiga
Ming xil boshqa ma'no berajakdir, bas.

Shayx Kabir

(Naimga)

Bas, sen ham jim bo'lgin!..

Shayx Hodi

(achchiqlanib)

Eh razil, pastkash!..

Shayx Marvon

(Naimga, alohida)

Hali Zahro bilan!..

Shayx Naim

Xo'sh-xo'sh?

Shayx Marvon

Ajoyib bir sir.
U ham o'ziga xos bir razolatdir.

Shayx Kabir

(pichirlashayotgan Shayx Marvon bilan Shayx Naimga)

Bundayin mahdud ruh, xo'p yaxshi biling,
Sizga joiz emas... Endi bas qiling!

(tirsaklanib o'tirgan San'onga)

San'on, ayt, ne bo'ldi? Bu ne holdir, hay?

Shayx San'on

Shayxim, sen so'rmagil, men esa aytmay!

Shayx Kabir

Uch kun biz muntazir. Sen qayda eding?
Qaylardasan, ayt...

Shayx San'on

(uyalgan holda)

Oh-h, meni afv eting.

Shayx Kabir

Tortinib yashamoq juda ham og'ir,
Uyalsang, o'zingga qiyindir, axir.
Bunday qiynalmoqdan foyda yo'q senga,
Ne bo'lsa, tortinma, aytaver menga.

Shayx San'on
Juda dahshatlidir men ko'rgan ro'yo...
Shayx Kabir
So'yla...
Shayx San'on
Aytmoqqa til bormaydi aslo.

Shu orada Zahro bilan Azro yarim ochiq eshik ortida paydo bo'lib, ularni katta qiziqish bilan eshitib turadilar.

Shayx Hodi
(San'onga)
Bu taraddud, ishonkim, ko'p bejodur.
Shayx Kabir
Haqiqat emas bu, balkim ro'yodir.

Shayx San'on o'rnidan turib ko'rgan ro'yosini ayta boshlaydi. Shayx Kabir uning so'zlarini tinglar ekan, boshi bilan tasdiqlab, davom et, degan kabi ishoralar qilib turadi.

Shayx San'on
Ey Shayxim! Atrofga yoqimli, inja
Nurlar yog'ilganin ko'rdim tushimda.
Koinotga shu'la sochgan bir kecha —
Kim ko'rsa ayrilur shu on hushidan.
Ruhni zabt aylagan go'zal mohtob
Dam-badam olamga sochardi mavj-nur.
Bir shayx keldi shu payt — yuzida niqob,
Meni ko'rgan zahot bo'ldi ko'p masrur.
Go'yo bola edim... Ochdi-yu quchoq,
Erkaladi, otib-tutib o'ynatdi.
So'ngra yelkasiga o'tqazib, uzoq
Men bilan yayradi, yashnab sayr etdi.
Men o'shal muhtaram shayxning, oqibat,
Tarsaki yog'dirdim yuzi-ko'ziga.
Undan xalos bo'lsam der edim faqat,
Yolvordi, boqmadim hech bir so'ziga.
Xiyla fursat o'tdi, ul shayxi pinhon

Sekin so‘z boshladi: “Qara, ey San’on!
Mana bu tubsiz jar, dahshatli o‘pqon —
Sening so‘ng manziling. Bil, bu — Gurjiston!”
Boqsam, yelkasidan otib, itqitib,
Shayx meni beomon etajak halok.
Yolvorardim Haqqa tavallo etib,
Imdodimga yetdi bir nurli malak...

Shayx Kabir

So‘ngra?

Shayx San’on

So‘ngra shayxga tikilganim payt,
Chuqur titroqlarga soldi bir hayrat.

Shayx Kabir

Kim u shayx?

Shayx San’on

So‘rma!..

Shayx Kabir

Ayt. Deganing — deding.

Shayx San’on

Sen eding o‘sha shayx, ha-ha, sen eding!

Hamma chuqur hayratda. Shayx Kabir esa boshini ma’noli tarzda og‘ir tebratib, biroz sukutga ketadi.

Shayxim, meni kechir, ma’zurman,
Nechunkim, mazlumman, ojiz, manfurman.

Shayx Marvon

(yarim tovushda, Naimga)

Xo‘sh, mana ko‘rdingmi? Bu qandoq xoin!..

Shayx Naim

(Shayx Kabirni ko‘rsatib, ayni ohangdagi istehzo bilan)

Ko‘raylik, nima der ekan bosh kohin!

Shayx Hodi

(San’onga tasalli berib)

Bu dahshatlar, ishon, bari bejodir.

Shayx Sadro

Bezovta bo‘lmagin, bu bir ro‘yodir.

Shayx Kabir

(San'onga)

O'g'lim, bir kun tutar jahonni oting,
Afsona bo'lgay haq yo'ling — irshoding.
Johil-orif, katta-kichik, kambag'al-boylar
Seni izlar, sevar, tavoflar aylar.
Bir kuni xalq meni mutlaq unutgay,
Seni-chi, ishq ahli boshida tutgay.

(Hammaning yuzida shubhali bir hayrat.)

Shayx Hodi

(do'stlariga)

Bu ne qismat, ne fazolatdir?!

Shayx Sadro

Shubhasiz, bu — eng buyuk saodatdir.

Abululo

O'zgalar gadosi bu shon-shuhratning...

Shayx Kabir

Faqat umri qisqa bu saodatning.

(San'onga)

Chunki sen ro'yoda ko'rganing o'pqon —
Seni mahrum etar bu fayzdan ayon.
Boshingga shunday kun ko'rilmish loyiq —
Ki nafrat aylagay sendan xaloyiq.
Ruhing tuban ketar, tuban ketar, rost,
Seni tuban aylar bir kun ehtiros.

Shayx Marvon

(Naimga)

Bu fazilat emas, razolat, axir...

Shayx Naim

(Marvonga)

Bu saodat emas, safohat, axir.

Shayx San'on hayrat bilan biroz xayolga cho'madi. So'ng yig'lagulik darajadagi bir hayajon bilan Shayx Kabirning oyoqlarini quchadi. Shayx Kabir uning qo'ltig'idan tutib ko'taradi va yelkasiga qo'lini qo'yadi.

Shayx Kabir
Sen onadan tug‘ilganding Turonda,
Keyin biroz yashab turding Eronda.
Ilm-u urfon izlab, fazilat izlab,
Oxir Erondan ham ketding olislab.
Arabiston azmin etding ixtiyor,
Hali yosh ekansan — nom topding dongdor.
Lekin so‘nggi yering, ey dono San’on,
Oxirgi manziling bo‘lgay Gurjiston.
Gumroh bo‘lma zinhor, bo‘l doim ogoh,
Bir kun qabring bo‘lgusi ziyoratgoh.
Shayx San’on
Shayxim, afu etgil, bitta arzim bor.
Shayx Kabir
So‘ylagin, jigarim, qiynalma zinhor.
Shayx San’on
Yashirma, ne bois falokatimga,
Nima sabab bo‘lur halokatimga.
Zahro
O-h-h!
Shayx Kabir
U faqat ayoldir, ha, faqat ayol!
Shayx Marvon
(istehzoli bir qiyofada Shayx Abuzarga)
Zahroni tabrik et, bor, suyunchi ol!
Shayx San’on
(ko‘kka iltijo qilib)
Ey buyuk Tangri, ey Rahim, Rahmon!
Har quling fikri, holi o‘zingga ayon.
Meni sendan yaxshi bilgan, tanigan
Biron zot bormi, ayt, aytgil, mehribon!
(Shayx Kabirga)
O‘ttiz yil jahonda zohid bo‘ldim, zor,
Qiz, ayol neligin bilmadim zinhor.
Hissu hayot mag‘lub etolmas mani,
Ehtirosning dushmaniman, dushmani!

Menga begonadir zavqi nafsoniy,
Ko‘nglimda jo‘sh urar ishqi ruhoniy...
Boshqa bir ishq uchun qalbimda, ishon,
Zarracha joy yo‘qdir, yo‘q, yolg‘on... yolg‘on...

Shu orada yana sahnaning shu’lasi pasayadi, ikkinchi parda ko‘tarilib, avvalgi jannat manzaralari namoyon bo‘la boshlaydi.

Xumor

(ginali bir ohangda)

San’on!
Buncha tez unutding?

Shayx San’on

Omon!..
Men shoshdim. Sen bunga ishonma!

Xumor

Yolg‘on!..

Hamma qattiq hayratda.

Shayx San’on

Kel, gulim, kela qol, ishonma aslo!..

Shayx Kabir

Nima u?
Ayt, o‘g‘lim?

Shayx San’on

Bu — o‘sha!.. Qaragin, bu o‘shadir, o!

(Xumorga)

Meni kechir!..

Xumor

Sevimli San’on, kel!
Kel, kel!.. Bo‘lsang-da pushaymon, kel!

(ketmoqchi bo‘ladi)

Shayx San’on

(Xumor tomon shoshib, majnunona)

Ketmoqda... O-h-h, ketma!

Shayx Kabir

Kim axir u, kim?

Ikkinchi parda asta-sekin bekila boshlaydi.

Shayx San'on

(iztirob va hayajonda)

Ketmay tur!..
Ketmagil, nozli malagim!

(Borib Xumorni quchmoqchi bo'ladi, lekin yeta olmay hushidan ketib yiqiladi.)

Shayx Kabir

Yo Alloh, axir bu nechuk afsona!?

Shayx Marvon

Xuddi devonadir, xuddi devona!..

Shayx San'onning bu dahshatli ahvolini ko'rib turgan Zahro juda dardli va chuqur oh tortib, zaif bir holda Azroning qo'llariga yiqilib tushadi; parda asta-sekin bekila boshlaydi.

Parda

II Sahna

Makkayi mukarramadagi kattakon bir yo'l... Yo'l chetida bir qator uylar, uzoqlarda ulkan jome'lar, xususan, qora mato o'ralgan Ka'ba ko'zga tashlanadi. Voqea o'n yil keyin ro'y berayotganligi uchun birinchi sahnadagi shaxslar sezilarli darajada o'zgarganlar.

Parda ochilganda qo'lida oftoba ko'targan kichkina arab qizining yo'ldan o'tib borayotganligi ko'zga tashlanadi. Shayx Sadro bilan Abululo ikkinchi tomondan chiqib keladilar.

Shayx Sadro

Bu ne mudhish havo!.. tashnalik, chanqoq
Yoqib-yondirmoqda etgudek halok.

Abululo

(Ka'bani ko'rsatib)

Baytulloh bo'lmasa bu joyda, balkim
Yashamagay edi hech qachon hech kim.
Bunda istiqomat bir mashaqqatdir,
Endi bilsam, Madina bir jannatdir.

Shayx Sadro

(yo'ldan o'tayotgan qizga)

Kel, qizim, bir qultum suv bergin menga.

(Qiz mamnun bir qiyofada jilmayganicha ko'zani beradi)

Abululo

Bu havo o't-otash solar joningga.

Shayx Sadro

(biroz suv ichib, ko'zani qaytarar ekan)

Alloh ajr bersin, qizginam, senga.

Abululo

Suv qanday? Muzdekmi?

Shayx Sadro

So'rama!

Abululo

Nega?

Shayx Sadro

Istasang, ichib ko'r, rost erur so'zim —
Suv emas, bu xuddi yelimning o'zi.
Chiqarmoqchi edik bir nafas hordiq,
Yo Alloh! Ruh bunda qiynaldi ortiq.
Holim yomon, evoh, yuragim g'ashdir,
Yutganim olovdir, o'tdir, otashdir.

Har ikkisi og'ir bir vaziyatda chiqib ketadi. Shu orada Shayx Marvon bilan Shayx Naim paydo bo'ladi.

Shayx Naim

(Shayx Marvonga)

Xayollar surasan, ingraysan goho,
Marvon, bu qanday dard, bu qanday balo?
Madinadan chiqqach o'zgardi holing...

Shayx Marvon

O-h-h, so'rma, dil — yarim, yurak — yarali.
Yaxshiydi ko'r bo'lsa ko'zlarim manim,
Koshki ko'rmasaydim Zahroni, Naim!..

Shayx Naim

Gap-so'zing shu qadar chiroyli, raso,
Nahot rom etmading uni!?

Shayx Marvon
Yo‘q, aslo,
Tashabussim edi mukammal, to‘kis,
Xarob bo‘lajakdir kim bo‘lsa ojiz[1].
Shunchalar ifloslik, shuncha razolat,
Dam-badam ko‘nglimda uyg‘otur nafrat.
Shayx Naim
Botinda ne bo‘lsa, zohirda ayon.
Shayx Marvon
Bir yolg‘on keltirar ba’zan shuhrat-shon.
Shayx Naim
Buncha gumonlaring behuda... Zero,
Shayx Hodi, Abululo ham Shayx Sadro
Bir-biridan zakiy, go‘zaldir, inon,
Zahroday muhtaram erur Shayx San’on!
Shayx Marvon
(g‘azabli)
Buni hech kim bilmas Xalloqdan bo‘lak.
Shayx Naim
Yo‘q, yo‘q, manglayga baxt bitmog‘i kerak.
Shayx Marvon
(yo‘lga termulib, toqatsizlanganicha)
Ular qayda qolib ketdi, ajabo!
Shayx Naim
Yur-chi, bir kori hol ro‘y berdimi yo!

Har ikkisi ortga qaytadi. Shu payt ko‘zlari ojiz ikki arab paydo bo‘ladi, birinchisi hazin va ezgin ohangda ud chaladi, ikkinchisi esa qayg‘uli ohangda Hijoz maqomida quyidagi g‘azalni o‘qiydi:

Na ishq o‘lgaydi, na oshiq, na nozli ofat o‘lgaydi,
Na xalq o‘lgaydi, na Xoliq, na ashki hasrat o‘lgaydi.
Na dard o‘lgaydi, na darmon, na baxt o‘lgaydi, na motam,
Na oshiyonayi vuslat, na bori firqat o‘lgaydi.
Ko‘ngilda nuri muhabbat, ko‘zimda pardayi zulmat...

[1] Kull ma’yub mardud.

Na nur o'lgaydi, na zulmat, na bo'yla xilqat o'lgaydi.
Nadir bu xilqati bemarhamat, bu pardali hikmat,
Bu zulma qarshi netgay birda-bir adolat o'lgaydi.
Tugandi toqat-u sabrim, adolat! Oh, adolat!
Na avval oncha saodat, na so'ng bu zillat o'lgaydi.

G'azal tugar ekan, tuyakash qiyofasidagi bir arab tez o'tib keta boshlaydi.

Birinchi ko'r
Hoy aziz birodar!..
Tuyakash
Muroding ne, ayt?
Birinchi ko'r
Xudo haqi, bizga San'onni ko'rsat.
Tuyakash
Makkadan kelmoqda hozir shu tomon.
Birinchi ko'r
Bizni qiynayotir bir dard beomon,
Unga San'on topur ehtimol davo...
Tuyakash
Dardingiz qanday dard ekan, ajabo?
Birinchi ko'r
Eshitdikki, qancha-qancha ko'r-u kar,
Soqov, cho'loq, mayib-majruh barobar
Shayx San'onga iltijo etisharkan,
Undan shifo topibon ketisharkan.
Biz ham ko'rmiz, qilib unga iltijo,
So'raylikkim, bizga bersin u shifo.
Tuyakash
(achchiq-achchiq kulib)
Shundoq karomatli bo'lsa gar San'on,
Nechun Shayx Marvonga aylamas darmon?!
Qani ochib ko'rsin uning ko'zini,
Tomosha qilsin xalq bu mo'jizani.
Birinchi ko'r
Shayxni ko'rsat, balki topar bir tadbir...

Tuyakash
Shunda kutib turing, u kelgay hozir.

Tuyakash ketadi. Ko'rlar ma'yus bir holda xayolga cho'mishadi. Shu payt Zahro bilan Azro erkak qiyofasida namoyon bo'ladilar. Zahro endilikda juda o'zgarib ketgan, ozib-to'zib qolgan. Sariq gul yaprog'i kabi so'lg'in, hamisha xayolchan va mahzun.

Azro
Xastasan, xasta... Nozanin Zahro,
Seni bir kun xarob etar bu havo.
Bu qanday rang-u ro'y? Bu qanday azob,
Nega Madinadan chiqdik, vo ajab?
Zahro
Qolmadi menda bir ixtiyor aslo,
Naylayin, boshqa hech chora yo'q, Azro!
Umrim bitdi. Topgin o'zing bir tadbir...
Azro
Qo'limdan ne kelur, e-voh, Shayx Kabir
Mone bo'ldi sening saodatingga,
O'z otang sababchi falokatingga.
San'onga dediki: "O'zni qo'lga ol,
Dushmaning ayoldir, ha, faqat ayol!.."
Shayxning bu gapini eshitgani on,
San'on bo'lib qoldi boshqa bir inson...
Zahro
Endi hech chora yo'q, kechgani kechdi,
Chunki San'on sidqidildan ont ichdi.
Barcha ayollardan qilur u nafrat,
O'zga xayollar-la yashaydi faqat.
(hazin bir oh tortib)
So'nggi damda uni bir bor ko'rsaydim,
Yurakda qolmasdi hasratim, dardim.
Tuyakash
(ketgan yo'lidan qaytib o'tarkan, ko'rlarga)
Muridlari bilan kelmoqda San'on,
So'rang, balki sizga topar bir darmon...

Ko'rlar

Tangri bersin senga baraka-yu qut.

Birinchi ko'r udni to'rva ichiga solib qo'yadi.

Zahro

(Azroga)

Nedir bo'ldi menga, oh, qo'limdan tut.

Azro

Sal chetga chiqaylik, jonim, yuraqol.

Zahro

O-h-h, holim qolmadi, tugadi majol.

Azro

Ado bo'lasan-ku bu holda, Zahro!

Zahro

(Azroning madadi bilan bir chekkaga chiqib)

Men tirik jasadman, ishongin, Azro!
Shayx San'ondan tokim ajragan zamon,
Ko'zlarimga zindon ko'rinur jahon.

Shu orada shayxlar va muridlar ko'rina boshlaydilar.

Shayx Marvon

Hech anglay olmadim, bu qanday safar?!

Shayx Naim

Ha, shundoq yuribmiz kezib darbadar.

Abululo

Bizlarning burchimiz itoat erur.

Shayx Sadro

Har xil so'z so'ylamak jaholat erur.

Shayx Abullahyo

Ne ma'no behuda bu sayohatdan,
Mahrum etar xalqni u ibodatdan.

Shayx Ja'far

Menimcha, hech shubha yo'qdir, ins-u jin
Yaratilmish faqat ibodat uchun.

Shayx Sadro

Idrokingiz shunga yetmaydi nahot,
Shayxingiz qadriga yetmaysiz, hayhot.

Agar kimning qalbi ko‘r bo‘lsa, ayo,
Shayx San’on holini anglamas aslo!

Abululo

Shayximiz sohibi karomat erur,
Neki aytsa, ayni shu hikmat erur.

Tuyakash

(shoshib qaytib keladi)

Ajabo, shayx qayda?...
Bor toqat bitdi,
Yuk og‘ir, tuyalar ezilib ketdi.

Shayx Marvon

Tabiiy, yuk bosgan jon eziladi.

Shayx Sadro

Betoqat bo‘lma, Shayx hozir keladi.

Tuyakash shoshganicha kelgan tomoniga ketadi.

Birinchi ko‘r

Bizga madad bering!

Ikkinchi ko‘r

Jim turgin hali!

Abululo

(yo‘lga tikilib, birodarlariga)

Ana, kelayotir Shayxning o‘zlari!

Hamma bir chekkaga chiqib, shayxning yo‘liga muntazir turadi, Shayx San’on, Shayx Hodi va Shayx Abuzar jadal kirib kelishadi.

Shayx Hodi

(hammaga qarab)

Aziz birodarlar, o‘n yil ilgari
Shayx Kabir ketmishlar baqolik sari.
Shayx San’on ushbu kun bahri hikmatdir,
Shayx Kabir qoldirgan bir omonatdir.
O‘n yilkim, Shayx San’on bizning pirimiz,
Uni ustod deb bildik har birimiz.
Azm etmishlar endi bul zot Turonga,
So‘ngra o‘tmoqchilar mulki Eronga.

Bul tadorik maqsadin anglang, axir,
Ko‘p ulug‘dir bu safar ham ko‘p og‘ir!
Men esa, yonimda bir to‘p do‘stlarim,
Yo‘l tadorigin ko‘rurmiz Hind sari.
Ko‘p ulug‘ bu yo‘ldagi niyatimiz,
Shu qadar bo‘lsin ulug‘ himmatimiz.
Bitta maqsadkim, Muhammadning dini
Qamrab olsin tez butun yer yuzini.
Kufr-u kafforat nihoyat topgusi,
Yo‘ldan ozganlar hidoyat topgusi.
Dini islom yo‘lining hech haddi yo‘q,
Qoplagay olamnikim, sarhadi yo‘q.
Ushbu yo‘lda kimki qilsa jon fido,
Unga imdod bergay Rasuli Xudo...

Shayxlar

Ha, shundoq, shundoq....

Muridlar

To‘g‘ri, haqqi rost.

Ko‘rlar

Shayxim, ayo, shayxim!

Shayx Abuzar

Sabr eting biroz.

Shayx San’on

(porlab turgan quyoshni ko‘rsatib)

Do‘stlarim! Tashlang bu quyoshga nazar,
Uning fayzi hamma uchun barobar.
U turk, hind, arab-u ajamni bilmas,
Shu’la sochib yotar, nuri kam bo‘lmas.
Ma’naviy yana bir quyosh bor biroq,
U — islom dinidir, shu’lavor, porloq.
Jahonni nurlarga g‘arq etadi u,
Haqni, haqiqatni sharh etadi u.
Bizning maqsadimiz ulug‘, muqaddas,
Lekin shuni zinhor unutmangki, bas,
Ba’zi olimnamo xoinlar chiqib,
Qo‘ymishlar islomga rahnalar so‘qib.

1619322

Bir to‘da aylab jihodi bema’no,
Bosh ko‘targay haqligin aylab da’vo.

Shayx San’on so‘zlar ekan, ko‘kni, Ka’bani, hamoyilidagi Qur’onni ishorat bilan bir-bir ko‘rsatib turadi.

Bittadir Xoliqi koinot, axir,
Bu Qur’on, bu Ka’ba, axir, bittadir.
Ushbu birlik deya o‘zni chog‘ladik,
Isbot-u g‘ayratga belni bog‘ladik.

Shu orada Abululo, Shayx Abullahyo va Shayx Ja’far o‘zaro gaplashib turadilar. Shayx San’on so‘zida davom etadi.

Birodarlar! Bu yo‘lning zahmati bor,
Istirohatlari yo‘q, mehnati bor.
Zo‘rlik yo‘q, zorlik yo‘q, istagan qolsin,
Kimdaki rag‘bat yo‘q, ortga yo‘l olsin.

Abululo

Shayx Abullahyo hamda Shayx Ja’far
Qolmoqchi. Ma’qulmas ularga safar.

Shayx Ja’far

(Shayx San’onga)

Ixtiyor bizda, shayx! Ma’zur tutgaysiz,
Safardan qo‘rqamiz. Bizsiz ketgaysiz.

Shayx Abullahyo

Izn etgil, orqaga qaytib biz butkul,
Faqat ibodatda bo‘laylik mashg‘ul.

Shayx Hodi

(ma’noli va istehzoli qahqaha bilan Shayx Abullahyoga)

Egilib-turmoqchi, yemoq-ichmoqchi,
So‘ngra qil ko‘prikdan oson kechmoqchi!

(har ikkisiga)

Ixtiyoringiz! Tul xotinlar ham bu kun
Jon fido etgusi shu maqsad uchun!
Voh ajabkim, hazrati Rasulullo
Barcha as’hob — goh Ali, Umarni goh
Harb-u zarbga muttasil yo‘lladilar,

Haq yo'lini doimo qo'lladilar.
Ne sababdan? Aylangiz meni ogoh.
Balki xatodir bu?
Shayx Ja'far va Shayx Abullahyo
Astag'furuloh!..

Shayx San'on

(har ikkisiga)

Hechqisi yo'q, qayting Madinaga siz,
Shuni unutmangki va lekin hargiz,
Quruq, bo'sh sajdaning yo'q oqibati,
Haq sevar faqat ahli ma'rifatni.

Ko'rlar

Ey buyuk shayx, madad ber, madad!..

Shayx San'on

Siz nima istaysiz?

Birinchi ko'r

Shayxim, sen faqat
Dodimizga yetgil, o'zing ber shifo!
Ko'rmiz, bu dunyoni ko'rmaymiz aslo.

Shayx San'on

Bunday mo'jizakor insonni zinhor
Yaratgani yo'q Haq Parvardigor.
Men ham bir bandaman haqir va ojiz,
Har xil yolg'onlarga ishonmangiz siz.
Dunyoni ko'rishda yo'q hech fazilat,
Qayg'u bor, kulfat bor, azob-aziyat.
Garchi ko'rmoq o'zga bir ne'mat erur,
Ko'rmaslik — eng buyuk saodat erur.

Birinchi ko'r

Bizni rad etma, oh, inoyat qil!

Ikkinchi ko'r

Netar, axir, shayx, bir karomat qil!..

Shayx San'on

Qachon ko'r bo'ldingiz, xo'sh, azizlarim?

Birinchi ko'r

Onadan tug'ma ko'r mening ko'zlarim.

Shayx San'on
Ayol jinoyati!.. Hirs savdosidir!
Bu gunoh — insonning ehtirosidir!
Shum xayollar nega tug'ib-tug'ilur,
Oh, ayollar nega tug'ib-tug'ilur!

(ikkinchi ko'rga)

Xo'sh, tug'ma ko'rmisan sen ham bu kabi?
Birinchi ko'r
Yo'q, yo'q, ko'rligimning boshqa sababi...
Bir ayolni sevdim, qismat sho'r bo'ldi,
Ishqda yig'lay-yig'lay ko'zim ko'r bo'ldi.
Shayx San'on
Ayol jinoyati!.. Hirs savdosidir!
Bu gunoh — insonning ehtirosdir!

(shayxlar va muridlarga)

Har safolatga ayollardir sabab,
Har falokatga ayollardir sabab.
Momo Havo — ul ehtirosli onamiz
Qildi bir zo'r jinoyat, izma-iz
Bizni quvdirdi bog'i jannatdan,
Ayladi mahrum qurbi rahmatdan.
Haqdan insonni judo aylar ayol,
Boshga ming-minglab balo shaylar ayol.

(ko'rlarni ko'rsatib)

Nega dod-faryod chekar bu ikki ko'r,
Hammasiga shu ayol bois erur!..
Birinchi ko'r
Shayxim, ayo, shayxim, ko'zimizni och!
Ikkinchi ko'r
Noumid etmagil, topgil bir iloj.
Shayx San'on
Neni ko'rmoqchisiz, hayronman men ham?
Axir, zulm ichida yonmoqda olam!
Ko'rmassiz bu iflos ishlarni aslo,
Shu bois shukr eting, Haqqa ming sano...

Tuyakash

(kirib kelib)

Shayxim, buyuringiz!..

Shayx San'on

Ha, barakallo,
Ketaylik, yo'lchiga yo'l bosmoq avlo...

(Ketadilar)

Zahro

(Azro bilan birga kirib kelib)
Ketdilar, oh, ketdilar...

Azro

Zahro!
Qo'y, o'zing qiynama!

Zahro

(yolvorib)

Ne qilay, Azro!..

Azro

(qo'li bilan ko'rsatib)

Ana, qaytdi San'on, biz tomon kelur,
Kelmoqda, qaragin, naqadar masrur...

Zahro

Oh, Senga ming shukur,
Ming shukur, yo Rab,
Ammo qaytmog'iga ne bo'lmish sabab?..

Shoshganlaricha besh-olti qadam chekinib kutib turadilar.Shayx San'on, Shayx Abuzar, Shayx Abullahyo va Shayx Ja'far birgalikda qaytib keladilar.

Shayx San'on

Shayx Abuzar! Yoshing hammadan ulug',
Biroq yuragingda iqtidoring yo'q.
Sen ham bular bilan bo'lib do'sti yor,
Ravzayi Payg'ambar panohiga bor.
Unda et Haqqa mudom hamd-u sano,
Qolmish erdi xasta holinda Zahro.

(har uchalasiga)

Undan xabar oling tun-kun muttasil,
Unutib qo'ymangiz, bo'lmangiz g'ofil.
Ham nazokatdir bu, ham savob ishdir.

Azro

(Shayx San'onga yaqinlashib)
Zahro senga vido uchun kelmishdir.
(Shayx San'onda chuqur-chuqur bir hayrat...
Azro Zahroni ko'rsatib)
Mana, titrab turgan sho'rlik qizdir ul,
Qarshingda turibdi so'ylayotgan gul!..

Shayx San'on

Oh, Zahro, mushfiqa, so'nayotgan nur,
San'on huzuringda doim tiz cho'kur.
Senga ta'zim darkor, ehtirom darkor,
Senda bir ilohiy pokizalik bor.
Meni afu et, ey shikasta hayot!
Sen malaksan... Faqat... Afu et... Hayhot!..

Zahro

Oh, San'on!..
Shafqat qil! Rahm ayla, San'on!..
(Azroning qo'llariga hushidan ketib yiqildi)

Shayx San'on

(og'ir, iztirob va dahshatli bir sukutdan so'ng)
Shayx Abuzar! Undan hushyor bo'l har on,
Taskin ber, ko'nglini ko'targin, illo
Ko'p og'ir xastadir...
(Azroga)
Hushyor bo'l, Azro!
Sen ham undan ko'zing uzmagil aslo.
(to'rt-besh qadam uzoqlashib)
Alvido!.. Alvido!.. Alvido!.. Zahro!..

Parda

IKKINCHI PARDA

I Sahna

Qofqozda, xozirgi Tiflis atrofidagi kichik bir tog‘ etagidagi xushmanzara joy... Bir tomonda Kur daryosi, ikkinchi tomonda toqqa o‘ralab ketgan egri-bugri so‘qmoq ko‘zga tashlanadi. Qarshida ikki-uch chodir tikilgan. Muridlardan bir necha kishi chodirlardan chiqib, qo‘llarida oftoba ko‘targanlaricha Kurdan suv keltirishadi.

Bahor fasli... Gurji diniy bayrami. Asr mahali... Quyosh botish arafasida...Shayx San’on Shayx Sadro bilan birga sayrayotgan bulbullarni tinglab, hayratga tushgancha atrofni tomosha qilib yurishibdi...

Shayx San’on

(jozibadan hayratga tushib)

Mana Qofqoz!.. Jozibali bir ma’vo!
Yo Allohim, qanday go‘zal bu havo!?
Tengi yo‘q bir maskan, tengi yo‘q xilqat,
Go‘yo yerga enmish falakdan jannat.
Hammasi tush kabi, xuddi bir xayol,
Insonni bu diyor lol etadi, lol.
Bu yashil adirlar tahsinga shoyon,
Ko‘zga zavq, ruhlarga solur g‘alayon.
Har yonda oq, qizil gullar isyoni,
Yurakni o‘rtaydi bulbul fig‘oni.
Suvlarning allasi dillarga taskin,
O‘rmonlar bag‘riga chorlaydi sokin.
Burgut parvozida ne-ne viqorlar,
Tog‘larning boshida mangulik qorlar.
Bulutlar naqadar rang-barang, sirli,
Ohanglar buncha ham jozib, sehrli?!
Oftobning mehriga shubha-gumon yo‘q,
Tunlarning vasfiga sharh-u bayon yo‘q.
Oyning yog‘dulari yog‘ib yotgan dam,
Kur nahrining o‘zi boshqa bir olam.
Goh teran sukutga tolib qoladi,

Goh yig'lab dunyoga faryod soladi.
Ko'klarda kabutar parvozi tinmas,
Bu yerda go'zallik ovozi tinmas.
Ko'ngilga nurafshon hayratlar solar —
Dolg'alar ortidan kelgan dolg'alar...
Karvondek bu daryo jazm etib borar,
Yo'qlik olamiga azm etib borar.
Bu shundoq safarkim, mutlaqo mavhum,
G'oya mavhum erur, ibtido mavhum.
Insonlar dunyodan shundoq o'turlar,
Bilmasalar — ne uchun kelib-keturlar?!

Shu payt quyidagi qo'shiq eshitila boshlaydi, barcha nihoyatda berilib tinglaydi.

Baland tog'lar oshdim, o'rmonlar kechdim,
Go'zallar ichinda bir go'zal sechdim[1],
Men u kundan Yaratganga ont ichdim,
Dunyo go'zal bo'lsa, qaytmam yorimdan.
Manim yorim ol yonoqli malakdir,
Endigina ochilgan bir chechakdir,
Qaytgan nomard, men yetmog'im kerakdir,
Dunyo go'zal bo'lsa, qaytmam yorimdan.

Bu qo'shiqni aytayotgan O'zdamir bilan O'g'uz namoyon bo'lishadi.

Shayx San'on
To'xtang, birodarlarim!
O'zdamir
Amr etingiz!
Shayx Sadro
Qaysi urug'dansiz? Nadir diningiz?
O'zdamir
Urug'imiz turkdir, dinimiz — islom...

[1] **Sechmoq** — tanlamoq, saylamoq.

Shayx San'on
Juda soz!..
Shayx Sadro
Ko'rgaysiz bizdan ehtirom.
Shayx San'on
Bu atrofda sizlar ozmi yo bisyor?
O'zdamir
To'qqiz-o'nga yaqin qishlog'imiz bor.
O'g'uz
Shayxim! Tashrifingiz qaysi o'lkadan?
Shayx San'on
Ka'badan, mukarrama shahri Makkadan...

Har ikkalasi chuqur ehtirom va sidq-u samimiyat bilan Shayx San'on va Shayx Sadroning qo'lini o'padilar.

Shayx San'on
Birodar, ismingiz nadir?
O'zdamir
Qulingiz — O'zdamir...
Shayx San'on
Juda soz, uniki?
O'zdamir
O'g'uz...
Shayx San'on
Qayga bormoqdasiz endi bu choqda?
O'zdamir
Biroz yumush bordir qo'shni qishloqda.
O'g'uz
(yo'lga tikilib, hayratga tushgan holda)
O'zdamir, O'zdamir, qara bu yoqqa,
Ana, dalli darvish bu yon kelmoqda.

Shu payt oq libosli nuroniy bir darvish yo'l qirg'og'ida namoyon bo'ladi. Hayratomuz va keskin bir nigoh bilan tikilib qoladi.

Shayx San'on
Ajabo!?

O‘zdamir
So‘ylashni ham bilmaydir.
O‘g‘uz
Dallidir, shayxim, bu juda dallidir.
Shayx Sadro
Kim bilsin, balki bir hiyladir.
O‘g‘uz
Aslo!
Bu darvish balodir, shafqatsiz balo...
O‘zdamir
Tinglamaydi zinhor biror kimsani,
O‘zining gapida yo‘qdir bir ma’ni.
Yemak-ichmagida yo‘q sira tayin,
Odamzodga aslo kelmaydi yaqin.
Shayx San’on
(darvishga yaqinlashib)
Kimdirsiz? Maslag-u tariqatingiz
Nimadir, iltimos, bizga aytingiz.
Darvish javob bermaydi.
Shayx Sadro
(hayratlanib)
Ajab!.. Bu yo gung, yo tilsiz darbadar.
Shayx Marvon
(yaqin kelib)
Yo‘q, yo‘q, aldanmanglar,
bu ham sehrgar,
Hamda ashaddiy bir riyokor, qallob...
Shayx San’on
Nazari buzuqlar shunday der, ammo
Menga juda issiq, yaqin bu siymo,
Ko‘zidan yog‘ilib turibdi zako.
(darvishga)
Bunchalar sukutga cho‘mding sen og‘ir,
Qaysi dinga mansub erurusan, axir,
Qaysi mazhabdansan, qayerdan, kimsan,
Bayon et, darvishim, ne uchun jimsan?

Darvish dasht-sahro kezuvchi darbadar maqomida, beg'am, beparvo, majnunona bir ohangda, faqat zangulasiz qo'shiq ayta boshlaydi.Shayx San'on hayrat bilan tinglaydi. Boshqa shayx va muridlar ham bir-bir kelib uning atrofiga to'planadilar.

Darvish
So'rma zinhor! Bir dalli-devonaman men,
Chirpirab uchguvchi ul parvonaman men.
Otam — hayrat, onam — shubhadir... Ammo
Kimsa bilmas — men kim? Shayxmi, avliyo!
Bu dunyoni kezib yurgan sayyohman,
Shariatdan, tariqatdan yiroqman.
Haqiqat istagim, yolg'iz haqiqat,
Yetar endi shariat yo tariqat.
Quloq solmasman endi hech xitobga,
E'tiqod qilmagayman hech kitobga.
Bali, Qur'on, Zabur, Injil-u Tavrot
Ro'yokim, izoh etmak qiyin, hayhot!
Axir ro'yoga o'xshar alvohi olam,
Bari afsona — jannat yo jahannam.
Shayx San'on
Bor ekan dilingda ancha sir-asror,
Nechun yashirarsan, qilmassan oshkor.
Insondan qochmoqda bor qanday ma'no,
Yaxshisi, bizlarga bo'la qol hamroh.
Darvish
Go'yo afsonadir har bir savoling,
Ko'zingdan ayondir fikring, xayoling.
Ruhingda kulmoqda bir jozib xulyo,
Boshingga tushgusi ajab bir savdo.
Yolg'izlik neligin bir kun bilursan,
Bu ramzni borib so'r, Allohdan o'rgan!
Agar favqulbashar bo'lmoq tilarsan,
Yiroq bo'l doimo bani bashardan!..
(Achchiq va beparvo bir qahqahadan so'ng muridlarni ko'rsatib)

Bu johil elga parvo qilmagil zinhor!
Faqat hikmat qidirgil, o‘zgasi bekor!

(Keskin va ma’noli bir qarashdan so‘ng ketmoqchi bo‘ladi)

Shayx San’on

(unga yaqinlashib)

Omon, ey piri murshid, marhamat qil!

Darvish

(Uzoqlashar ekan, buyuk bir g‘urur bilan)

Chekil mendan, chekil, ey mardumi g‘ofil!
Taraddud dardi bordir ko‘zlaringda,
Chekil, ket! Yo‘q sadoqat so‘zlaringda.
Seni domiga tortgay o‘zga bir xulyo,
Boshingga tushgusi bir og‘ir savdo.

Shayx San’on

(unga talpinib)

Omon! Ey pokdomon pirim, afu et!
Omon! To‘xta, so‘zim bor...

Darvish

(beparvo)

Istamam, ket!

Darvish “ket!” ma’nosini anglatadigan bir harakat bilan qo‘l siltaydi. Faylasufona qarashlar bilan, majnunona qadamlar bilan uzoqlashib ketadi. Shayx San’on ulkan bir taraddud va xayollar og‘ushida qoladi. Ma’yus tortganicha bir chekkaga chekinadi.

Shayx Sadro

(unga taskin berib)

Shayxim, bir narsani tushun bir qadar,
Senga loyiq emas bu g‘am, bu kadar.
Aslo foydasi yo‘q, chekma hech tashvish,
Sen — buyuk bir shayxsan, u esa — darvish.
Uch-to‘rt mubham so‘zga qilma hech parvo,
Bunday aqidaning na’fi yo‘q aslo.

Shayx San’on

Ostin-ustun bo‘lib ketdi jahonim,
Birpas meni yolg‘iz qoldirgin, jonim.

Shayx Sadro itoat va ta'zim ila chekinadi. Shu orada uzoqlardan nafis va dardli ohangda cholg'u asbobi yangray boshlaydi. Shayx va muridlar suv bo'lib tinglaydilar. Shayx Marvon va Shayx Naim hamda muridlardan ba'zilari quloqlariga barmoqlarini tiqib, bu ohangni to'smoq istaydilar.

Shayx Sadro

(hayrat va tanbih ohangida)

Ko'p g'aroyib ushbu ahvol!.. Inchunun,
Berkitib olmish qulog'ingiz nechun?
Hech gunoh yo'qdir bu ohanglarda, ya'ni
Tinglamay bo'lgaymi hech bu nag'mani!
Musiqa, san'at, go'zallik o'lmagay,
Hikmat aslo unga mone bo'lmagay.
Navbahor yellari chopgaydir bu kun,
Bir-birin yaproqlar o'pgaydir bu kun.
Har butoqda bulbul afg'on aylagay,
Dilni nozli kulgular qon aylagay.
Qolgan hazrati Dovuddan xush sado
Va yoxud bitta she'r, bir go'zal navo —
Musiqa ermasmi dilga sola nur?

Shayx Marvon

(kinoya va istehzo bilan)

Shundoq!
Bu purhikmat bir jihod erur.

Shayx Sadro

E'tibor bersangiz — gar jihod nadir,
U ham o'ziga xos bir musiqadir!..

Yon tarafdagi so'qmoqdan oldinda cholg'uchilar bo'lgani holda bezanib olgan gurji qizlari, alvon kiyimli bolalar va yigitlar chiqib kela boshlaydi. Shayxlar va muridlar bir chekkaga chiqib ularni tomosha qilib turishadi.

Qizlar va bolalar

(quyidagi sharqi (qo'shiq)ni cholg'u bilan birgalikda aytadilar)

Esar nasimi dilkusho,
Bahor berar dilga shifo,
Chaman, chechak, quyosh, havo —
Ki, jannatiy diyor etar.

Yigitlar

Safolidir chaman, chechak,
Faqat na chora aylamak —
Ki, har boqishda bir malak
Ko'ngillarni shikor etar.

Qizlar va bolalar

Muhabbat ahli doimo
Bo'lur baloga oshino,
Jafoga etmas e'tino,
Nigorga joń nisor etar.

Yigitlar

Ko'zlarining vafosi yo'q,
Jafosi bor, safosi yo'q,
Bu so'zlarning asosi yo'q,
Na etsa yorga yor etar.

Yigitlardan to'rt-beshtasi shayxlar bilan salomlashadi, biri chol-g'uchilarga "chal" deya bir qiz bilan raqsga tushib ketadi. O'g'uz va O'zdamir ham ularga yaqinlashib, qarsak chalib turishadi. So'ng yigitlardan bir-ikkisi O'g'uzni qo'l va ko'z ishoratlari bilan o'yinga da'vat etishadi. U ham bir qiz bilan lazgicha o'yinga tushib ketadi. Raqs tugagandan so'ng hammalari birgalikda avvalgi laparni kuylay-kuylay olislab ketishadi. O'zdamir bilan O'g'uz shayxlar bilan yengilgina xayrlashib, ularning ortidan ketishadi.

Shayx Marvon

(O'zdamir bilan O'g'uzni ko'rsatib, istehzoli qahqaha bilan)

Kelgil, Shayx San'onga anglatgil bu dam,
Musulmon bo'ldimi shu ikkisi ham?

Shayx Sadro

Ular zohiriga boqmagin aslo,
Yuraklari qandoq toza, beriyo.

Ba'zi bir shayxlar bor bu dunyo aro,
Zohiri tup-tuzuk, yuragi — qaro.
Shaytanat, vasvasa yaqin koridir,
Yolg'on-u riyolar hamdam, yoridir...

Shayx San'on

(parishon bir holda darvish ketgan tomonga qarab)

O, darvish, olamda sen o'zga olam!..

Shayx Sadro

(San'onga yaqinlashib)

Shayxim, ko'zingizda nega buncha g'am?!

Shayx San'on

Qani darvish? Qayga ketdi, ko'rsatingiz?

Shayx Marvon

U darvish bir telba ekan, shakkok, dinsiz.

Shayx San'on

Telbalik ham ayri bir fazilatdir,
Dinsiz o'lmoq ham bir tariqatdir.
Telbadir, lek so'zlarida ma'no bor,
Darbadar, lek boshida zo'r savdo bor.
Zohiran Mansur emas, devonadir,
Ko'zlarinda lek "Analhaq" yonadir.

Shayx Sadro

(ketib borayotgan San'oning ortidan borib)

Shayxim, ketdi darvish, olis ketdi u,
Bilmam, qayerlarga borib yetdi u.

Shayx San'on

Bas, boshqa so'zlamang, tugandi holim,
Bir lahza siz meni qoldiring xoli.
Kurning sohilida o'zim toq-tanho
Kezinmak istayman...

Shayx Marvon

Nechun, ajabo?!
Nahot istamaysiz bizdek mahramni?

Shayx San'on

Yangidan tirnamang mening yaramni.

Shayx Naim

(kelib)

Shayxim!..

Shayx San'on

Nari turgin, johil, benavo!

Shayx Sadro

Xo'sh, men-chi?

Shayx San'on

(qo'l ishorati bilan uni ham rad etib)

Kerakmas... men o'zim... tanho!..

Jadal odimlar bilan uzoqlashib ketadi. Hamma dahshatli bir hayratda qotib qoladi va shayx ketib borar ekan, parda tusha boshlaydi.

Parda

II sahna

Yo'l chetidagi kichik bir ko'shk... Uning qarshisida gullar ochilib yotgan bog'cha... Kunduzi...

Sergo

(quyidagi qo'shiqni aytganicha bog'chani sug'orish bilan mashg'ul)

Uzoq kutdim gulimdan, sevgilimdan,
Ayro tushdim vatanimdan, elimdan,
O'rtanurman, hech ish kelmas qo'limdan,
Yor-yor deya kecha-kunduz yig'larman.

Kunlar o'tdi, nozli yorni ko'rmadim,
O'pmadim, gul yuzidan gul termadim,
Gulyuz bilan davr-u davron surmadim,
Yor-yor deya kecha-kunduz yig'larman.

Anton

(qo'lida bir dasta gul ko'targani holda bog'cha tomondan chiqib kelarkan)

Sergojon, Sergo!..

Sergo

E, keling, afandim!

Anton

(biroz choychaqa bilan guldastani Sergoga beradi)

Lutfan buni eltib Xumorga bergin...

Sergo

Tushundim!

Men unga nima dey tag'in?

Anton

Bu gullarni Anton taqdim qildi deb aytgin.

(Chekinib, ko'rinmas bir joyda poylab turadi)

Sergo

(ayvonga chiqib, eshikka yaqinlashadi va pastroq ovozda)

Chiq, Xumor, qaydasan, Xumor, menga boq!

Xumor

(oq libos kiygan holda chiqadi, Sergoning qo'lidagi guldastani ko'rib)

Bu gulni kim berdi?

Sergo

Anton...

Xumor

(g'azabli)

Voy ahmoq!

Olib ket gullarni, qolsin ordona.

E'tiborsiz bir qiyofada ichkari kirib ketadi. Sergo qaytib, tag'in guldastani Antonga beradi.

Anton

Ne dedi?

Sergo

Rad etib qaytardi yana...

Nahotki bilmaysiz tabiatini?

Xudo olsin uning bu xislatini.

Anton

(guldastani yerga otib toptar ekan, zaharxandalik bilan)

Sen ham mening holimga tushgin,
Ezil! Tuproqlarga qorishgin.

(ma'yus bir holda chiqib ketadi)

Sergo

(ham Antonga, ham ayvonga boqar ekan, hayrat bilan)

Qiz emas, boshga bitgan bir balodir,
Otashkim, olamga o'tlar solodir.

(bir tomonga chekinib ketadi)

Simon

(ma'yus va xayolchan odim tashlaganicha yo'ldan o'tib borar ekan, ko'zi ayvonga tushib)

Oh, bu koshonada yashar bir malak,
Men uning dardida hamon jonhalak.
Olis osmonlarga otilib ketsam,
Minglab yulduzlarni kezsam, sayr etsam,
Hech biri ko'nglimni ochmagay aslo,
Yolg'iz shu go'zaldir menga tasallo!
Qalbimning yagona sarvari o'sha,
Pajmurda ruhimning gavhari o'sha.

Shu payt Xumor qo'lida ipak kashta ko'targani holda ayvonga chiqadi.

Simon

(uni ko'rar-ko'rmas)

Qolmadi menda sira sabr-u qaror,
Rahm-u shafqat aylagil, jonim Xumor!

Xumor

Ortiqcha ko'pirma, lof urma bekor,
Ketaver, bu yerda sen turma bekor.
Bilaman, siz yonib-kuymoqdadirsiz,
Menda yo'q bu tuyg'u, menda yo'q bu his!

Shayx San'on

(tolg'in holda yo'ldan o'tib borar ekan, boshini ko'tarib, Xumorga ko'zi tushgan zahoti hayrat bilan)

Bu nima! Bu o'sha tushimmi, e-voh!
O'shami? La ilaha illalloh!..

(Yana taraddudlangan va ma'yus odimlar tashlaganicha yo'lida davom etadi)

Simon

(biroz o'ylanib turgach, Xumorga)

Ne bo'lur, kelaqol, bu fikringdan qayt!..

Xumor

Bas endi, tushingni suvga borib ayt!

Platon

(shirakayf holda ichkaridan chiqib)

Kimdir u bu yerda qiyl-u qol aylar?

(qattiq ta'sirlanib, parishon holda uzoqlashib ketayotgan Simonni ko'rib)

Yana bir oshiqmi arzi hol aylar?

Xumor boshini quyi soladi, shu orada Platonning do'stlaridan biri bo'lmish yo'g'on va do'rilloq ovozli bir pop yo'ldan o'tib borar ekan, Platonni ko'rib.

Pop

E, Salom, afandim, qandoq holingiz?

Platon

Keling, birpas nafas rostlab olingiz.

Bir-biri bilan qo'l siqishib ko'rishadi. Xumor ham popning qo'lini o'padi.

Pop

(qo'li bilan Xumorning sochlarini silab)

Yana bir o'zga hol ko'rurman sanda,
Shodlik yo'q sevimli, go'zal chehrangda.
Mayli, borib menga jinday suv keltir,
Siqilma, har ish o'z paytida bitur.

Platon

Suvni qo‘ying, unda lazzat yo‘q zinhor,
Ichkari kiraylik, zo‘r sharobim bor.
Eski, olti yillik mayi nob,
Podshohlar ichgulik ajoyib sharob.

Pop

(Xumorga diqqat ila razm solarkan, ma’noli ohangda)

Mayni yaxshi niyat-o‘ylarga asrang,
Bir kuni bo‘lajak to‘ylarga asrang.

Platon

(qahqaha urib)

Bu yaxshi niyat-ku, behuda ammo,
Bu so‘zlar Xumorga mavhum muammo.
Uning fikr-u zikri faqat uzlat deng,
Er qilmoq Xumorga o‘lim bilan teng!..

Pop

Bu uzlat behuda bir orzudir, bas,
Yo‘q, yo‘q, Xumor buni qilmagay havas.

(Xumorga)

Ne-ne zo‘r yigitlar sengadir asir,
Sening bu niyating kulgulik, axir.

Platon

(popning qo‘lidan ushlab)

Qo‘yingiz, bu gaplar to‘g‘ri-ku, ammo
Unga ta’sir etmas, tinglamas aslo.
(popning ko‘ksidagi xochga ishora qilib)
Men Bibi Maryamga, ruhi Isoga,
Bu ulug‘vor xochga ham kalisoga
Ahd etib, yurakdan qasamyod qildim —
Xumorni ilk bora so‘rab kelsa kim —
Kim bo‘lsa ham mayli, qilmagayman rad,
Bas, pichoq suyakka yetdi nihoyat!

Pop

Seni majbur etmish qaysi bir gumroh,
Nechun ont ichding sen?
Axir bu — gunoh!..

Platon

Savobmi yo gunoh... bo'lgani bo'ldi,
Aytganim aytgandir, bas, sabrim to'ldi.

Pop bilan Platon ichkari kirib ketishadi. Xumor qo'lini manglayiga tirab ayvondagi o'ridiqqa o'tirganicha xayolga toladi.

Nina

(bog'cha tomondan chiqib kelib)

Bu ne parishonlik, bu qandayin hol?
Hamisha hamdaming ma'yus bir xayol...
Qancha qiz o'stirsa ona Gurjiston,
Sen kabi malakni ko'rmagay, ishon.
Senga katta-kichik — har inson maftun,
Sen nechun doimo parishon, mahzun?..

Xumor

Nina, hamma gaplar o'zingga ayon,
O'zga hech choram yo'q mening, o'rtoqjon!..
Onam vasiyatin etmasam bajo,
Qarg'ishi tutgaydir meni... E Xudo...
Degandi: "Qizginam, tinglagil mani,
Er qilmoq — o'pqonga uchmoq degani...
Erkakalarda yo'qdir sidq-u sadoqat,
Uzlatdan topursan faqat farog'at!"

Nina

Otaning jabridan, ne qilsin sho'rlik,
Ko'ziga keng dunyo qilardi torlik.
Otang bosh ko'tarmay ichavergach, ul
G'amdan o'lib ketdi misli so'lgan gul.

Shayx San'on

(takror qaytib o'tarkan, Xumorni ko'rib)
O-h! Bu xuddi o'sha! Ko'rganim ro'yo...

(yaqinlashib)

Bu — o'sha nozanin, tushdagi savdo!..

Xumor

Sen kimsan?..

Shayx San'on

Bechora maftun...

Nina

Kim bilur... Ehtimol...

Xumor

Ehtimol, majnun...

Shayx San'on

Balki majnundirman, etmayman inkor,
Faqat boisi bu husni maftunkor...

Sergo

(kelib)

Bu kim?.. Va nima deb dam urmoqda, bas?

(Shayx San'onning yoqasidan tutib baqirganicha)

Kimsan?.. Maqsading ne?!

Platon

(qo'lida sharob to'ldirilgan qadah tutganicha pop bilan ichkaridan chiqib kelarkan, g'azab bilan Sergoga)

Shoshmagin birpas!
Bir musofir kelsa, izzat-ikrom et,
Bu baqirmoq ne? Qani, daf bo'l, ket!

(Sergo bir tomonga chekinadi, Platon San'onga)

Shayx! Biron amringiz bormi, ajabo?

Shayx San'on

Anglay olmay qoldim o'zim ham aslo...

Platon

So'ylang, taraddudga hojat yo'q, zero...

Shayx San'on

O-oh, bu — tush, bu o'sha ko'rganim ro'yo!

Platon

Nedir demoqchisiz shekilli, albat...

Shayx San'on

(Xumorga ishora qilib)

Istaganim faqat — tarahhum, shafqat.
Bir tabassum bul go'zal dilbardan,
Bir navozish bul moviy ko'zlardan...

Pop

(yo'g'on bir qahqaha bilan)

Aftidan, Xumorga oshiq bechora.

Shayx San'on

(Xumorga)

Men nechun bunchalar zor-u ovora,
Ayt o'zing barchasin! So'yla, parizod!
Hammasin buncha tez unutding, nahot?
Sen o'shal yulduz emasmi porlagan,
Meni "kel-kel!" deb o'ziga chorlagan!..

Platon

(hayrat bilan Shayx San'onga)

Bu voqea bo'lgandi qaysi ma'voda?

Shayx San'on

Kechaning ro'yosi, arshi a'loda.

Pop

(zaharxandalik bilan)

Shubha yo'q, shubha yo'q, bu bir majnundir.

Platon

Aftidan, Xumorga bu ham maftundir.

Shu orada shayxlar va muridlar yetib kelishadi.

Shayx Marvon

Shayx bunda...

Shayx Naim

Xayriyat, topdik nihoyat.

Shayx Sadro

Yo Alloh, ahvoli og'ir-ku g'oyat.

Platon

(popga, past ovozda)

Manimcha, shayx juda muhtaram bir zot.

Pop

Fozil bir insonga o'xshaydi...

Shayx San'on

(shayxlarga ma'noli bir ohangda)

Hayhot!..

Shayx Sadro
Muhtaram shayx! Sizni bir to‘p olomon
Unda kutayotir intizor, giryon.
Butun islom ahli to‘planib ming-ming,
Sizni kutayotir...
Shayx San’on
Bo‘ldi, bas, keting!
Endi foyda yo‘qdir mendan baribir,
O‘zingizga toping boshqa bitta pir.
Hammasi tugadi, ishondim endi,
Eski o‘zligimdan men tondim endi.
Boshqa bir yo‘l sari ravonaman men,
(Xumorni ko‘rsatib)
Uning ishqi bilan devonaman men.
Shayx Marvon
Avval ayollardan qo‘rqarding yomon,
Ne uchun o‘zgarding endi beomon?
Shayx San’on
(Shayx Marvonga)
Sen anglay olmassan bu farqni, beshak,
Ayol emasdir u, malakdir, malak!..
(jo‘shgan holda hammaga)
Qarang, uning husni kimni etmas lol,
Nigohlari buncha jozib, bezavol.
Ko‘zlari go‘zallik timsoli erur,
O‘zi ilohiylik misoli erur.
Shayx Naim
Shayxim, maqsadingni unutma zinhor,
Zimmangda buyuk bir mas’uliyat bor.
Ka’ba qarshisida ichgan eding ont,
Bir qiz deb baridan kechasan, nahot?
Shayx San’on
Vatanim, jamiyki niyatim, Ka’bam —
Endi shu, undan voz kechmayman hech ham.
Platon
(popga)

Koshki ont ichmagan bo'lsaydim... Yo'q-yo'q,
Sen biron chora top.

Pop

Ko'ngling bo'lsin to'q,
Hozir voz kechadi...
(Shayx San'onga)
Mayli-ku, biroq
Bu qizga nisbatan yoshing ulug'roq.

Shayx San'on

Ma'naviy bir ishqning oldida bari —
Insonlar teng erur, yo'q yosh-u qari.

Pop

Anov bag'ringdagi nimadir?

Shayx San'on

Qur'on.

Pop

Xo'sh, qani, isbotlab ber-chi sen bu on!
Nasroniy bir go'zal, isoviy bir qiz
Musulmonga tegsa, erurmi joiz?..

Shayx San'on

Toki Haq bir ekan, bittadir din ham,
Xalqlarni ajratgan johil, muttaham.
Inson tuyg'ulari birdir baayni...

Pop sharob to'la qadahni Platondan olib Shayxga beradi.

Pop

Unda ichib ber-chi mana bu mayni.

Shayx San'on

Zotan, shu maysiz ham sarxushman yomon...

Pop

Yo'q, yo'q, ich, ichmasang gaplaring yolg'on!

Shayx San'on iltijoli nigohlar bilan Xumorga tikiladi va qadahni olib ichmoqchi bo'ladi, biroq bunga jasorat qila olmay, taraddudlanib qoladi. Nihoyat qat'iy bir qarorga kelib, sharobni so'nggi tomchisigacha ichadi. Shayx Sadro afsusli bir ifoda bilan tikilib turadi.

Hamma

(Shayx San'on sharobni ichib tugatayotganda)

Shayx, to'xta!

Shayx Marvon

(istehzoli ohangda Shayx Naimga)

Mana bu — rivoji islom!..

Shayx Naim

(San'onga)

Ajabo, ichganing emasmi harom?

Shayx San'on

Shariatda bordir ichmakda miqyos.

Pop

(cho'ntagidan kichik bir xoch chiqarib Shayxga beradi)

Endi ol bu xochni va bo'yningga os.

Shayx San'on

(olib bo'yniga osar ekan, qahqaha bilan)

Maryam o'g'li Iso osildi dorga,
Hojat bormi edi yana takrorga.
Shu nahot Isoning arshi me'roji,
Men kimman... Jonli bir dorning og'ochi...

Shayx Marvon

Senga loyiqmidi ushbu ish, yohu!

Shayx San'on

Atigi bir parcha kumush erur bu;
Buni osmoq bilan uzukni taqmoq,
Menimcha, bir narsa, uqdingmi, ahmoq!

Pop

(Shayx San'onga)

Jim bo'l! Gunoh erur bundoq istehzo...

Shayx San'on

Yo'q-yo'q, shundayin ham hazrati Iso
Biz uchun muhtaram, buyuk bir siymo...

Pop

Bizlar maqsadingni angladik, ammo
Endi Qur'onni ol, olovda yondir.

Shayx San'on
Uni kuydirmakda ne ma'no, axir?

Hamma hayajon va hayratda.

Pop
Ortiqcha — har qanday bahona, uzr,
Qur'onni yoqasan...
Shayx San'on
(Qur'onni chiqarib beradi)
Ol, o'zing yondir!
Hamma
Shayx, Qur'on yoqilmas!..
Shayx San'on
Ammo maqsad bor.
Shayx Sadro
Jim turing, balki bir boshqa hikmat bor.
Shayx San'on
Qur'on hukmi mangu yuksak, sarafroz,
Yonsa — siyoh yonur, yonadi qog'oz.

Shu orada havoni bulut qoplaydi va shiddatli momaqaldiroq boshlanadi. Bu qaldiroq pardaning oxirigacha o'qtin-o'qtin dahshatli bir holda takrorlanib turadi.

Pop
(Qur'onni olmay, o'jarlik bilan)
Uni sen olovda yoqmaguncha to —
Bizning bu imtihon tugamas aslo!
Shayx San'on
Kim Qur'on hukmini mensimasa gar,
Uni o'tda yoqqan bilan barobar.
Behuda sen o'rlik qilmagin zinhor,
Bunda Maryam bilan Iso nomi bor.
Xumor va Nina
O-h!..
Platon
Shayx, mayli, qo'yaqol, yoqmoq kerakmas.

Hamma

Tavba, shayx, ming tavba!..

Shayx Sadro

Jim bo‘lingiz, bas!..

Shayx San’on

Ishqdan boshqasiga yo‘q menda toqat,
Ming tavba!.. Bariga ayladim nafrat.

Shayx Naim

Shayxim, unutmagin Ka’bani.

Shayx Sadro

Jim tur!

Shayx San’on

(Xumorga ishora qilib)

Endi Ka’bam budur, jannatim budur.

Pop

(Platonga)

Hech chora qolmadi. Ne desang, faqat
Endi bu yo‘q demas. Qilgay itoat.

Platon

Hoy shayx, endi bitta shart qoldi yolg‘iz,
Sen rosa ikki yil boqasan to‘ng‘iz.

Hammada norozilik, g‘alayon.

Shayx Sadro

(Shayx San’onga)

Yo‘q, endi bunisi eng yomon tahqir,
Sen uchun eng jirkanch haqorat, axir...

Shayx San’on

(Platonga)

Uning ishqi bilan zor, darbadarman,
Nima buyursangiz qabul etarman.

Shayx va muridlar “oh!” deya qattiq ta’sirlangan holda ortga chekinadilar.

Ketingiz, do‘stlarim, endi ketingiz!
Boshqa biror shayxning qo‘lin tutingiz.
Menki noildirman bugun visolga,

Topdim Haq nurini, yetdim jamolga.
Mayli, koinotni kezing, surining,
Haq nurin topmoqqa siz ham urining.
Siz sho'rlik San'onni yoddan chiqaring,
Bu telba insonni yoddan chiqaring.

Shayx Sadro

Muhtaram shayx, axir, tasavvur eting...

Shayx San'on

Bas, yetar, men keting dedimmi — keting!

Shayx Marvon

Qani u avvalgi g'oyayi omol?

Shayx San'on

(qahrlangan, g'azablangan holda baqirib)
Ko'zimga ko'rinmang, daf bo'ling darhol!

Shayx Sadro chuqur bir hayrat va parishonlik bilan xayolga toladi.

Muridlardan birinchi qismi

(kuchli ta'sirlangan holda, afsuslar bilan)
Ketaylik, to'g'ri Ka'baga boraylik,
Xoliqi koinotga yolboraylik.
Balki Alloh marhamat aylar,
Shayximizni mag'firat aylar.

Ikkinchi qism

(Marvon va Naim bilan birgalikda)
Shayximiz otdi hukmi Qur'onni,
Shayximiz sotdi din-u iymonni.
Avval erdi piyrlikka u munosib,
Chiqdi din-u mazhabdan xoch osib.

Birinchi qism

Ketaylik, Haqqa iltijo etaylik,
Ketaylik, shayx uchun duo etaylik...

Ikkinchi qism

Ketaylik, biz-da yo'ldan ozmaylik,
Ketaylik, gardanga xoch osmaylik...

Shayx San'on
Ketingiz, hiyla, firib sizlarga xos,
Menga ishqdan yuksak olam yo'q, xolos!..

Barcha shayxlar va muridlar chekinib keta boshlaydilar. Yolg'iz Shayx Sadro eng oxirida qolib, ma'yus va g'amgin odimlar bilan og'ir, ikkilangan holda uzoqlashib ketadi.

Parda

UCHINCHI PARDA

I sahna

Bir yarim yildan so'ng... kuzning oydin kechasi... Sahnaning oldida cho'chqaxonaga xos bir bino... Bino oldida 2-3 ta to'ng'iz yotibdi, yon tomonda bir suv ko'zasi (oftobasi) bor. Ichkarini zaif bir shu'la yoritib turibdi. Ancha narida Xumorning ko'shki ko'zga tashlanadi. Uning derazasidan taralayotgan nafis bir oydinlik diqqatni jalb etadi, atrof daraxtzor.

Sergo qo'lida sharob idishi, yog'och bir qadah va 2-3 dona non ko'tarib, qo'shiq ayta-ayta shirakayf va beparvo-beg'am holda cho'chqaxonadan chiqadi.

Sergo
(osmonga boqib)
Ko'k yuzini bezar porloq yulduzlar,
Yer yuzini bezar gul yuzli qizlar,
Yor ishqinda bu ko'ngul yonar, bo'zlar,
Insof, marhamat yo'q nomard falakda...
(Qo'lidagilarni yerga qo'yib,
eshik oldida o'tiradi,
sharobdan bir qadah to'ldirib ichadi)
Uf... Go'yo yondi ichimda chiroq.
(Shayx San'onni chaqiradi)
Hoy, cho'pon shayx! Qaydasan?
Menga boq!

Shayx San'on

(gurji cho'ponlariga xos bir qiyofada, soch-soqollari o'sib ketgan holda bog' tomondan chiqib keladi)

Bundaman,Sergo!..

Sergo

Kel, yeylik-ichaylik.

Shayx San'on

Sen ye-ich, birodar, mening qornim to'q.

Sergo

Kel, jonim, boshqacha bir sharobdir bu...

Shayx San'on

Odatim o'zingga yaxshi ayon-ku!

Sergo

Ajoyib bir kecha, kela qol...

Shayx San'on

Yo'q-yo'q!

Sergo

(qadahni to'ldirib)

Xumor ishqi uchun, kel, bir qadah ich!

Shayx San'on

Yo Xudoyim, bu axir bir zahrimor,
Ichgulik joyi yo'q!

Sergo

So'ylama bekor,
Yaxshisi, nay chal yo ertak so'ylagin,
Yo go'zal bir hikoyat naql aylagin.

Shayx San'on

Afu et... Holim yomon, yo'qdir majol!

(bir tomonga ketadi)

Sergo

(sharobdan bir qadah ichib, qahqaha bilan)

Angladim dardingni, borgin, bora qol!..

(yana bir qadah to'ldirib icharkan, qo'shiq ayta boshlaydi)

Jo'shqin sharob ishq o'tini so'ndirmas,

Yor ko'nglima orom bermas, tindirmas,
Taqdir menga ko'z bergan-u, nur bermas,
Insof, marhamat yo'q nomard falakda...

Shu orada bog'ning bir chekkasidan itning vovullashi eshtiladi.

Birov keldimikan, ajabo?
(baqirib)
Kimsan?
O'zdamir
(qo'lida xurjun,
O'g'uz bilan chiqib keladi)
Bu biz, Sergo, yo'qdir begona kimsa.
Sergo
E, afandim, qandoqsiz?

O'zdamir
Tuzuk, rahmat.
Sergo
Kelinglar...
O'zdamir
Shayx qayda?..
Ketmog'imiz shart.
Sergo
Yolg'iz Xudo bilur uning joyini.
O'zdamir
(xurjunni Sergoga beradi)
Buni shayxga bergin; bor ashyoyini
Tez bo'shatinglar... biz qaytib ketamiz.
(Jadal odimlar bilan chiqib ketadilar)
Sergo
Qo'rqma, hammasini bajo etamiz.

Xumor Nina bilan birga qo'lida bir tovoq taom ko'targani holda xonasidan chiqib keladi.

Xumor
Menga qara,Sergo!..

Sergo
Gapir, sultonim!
Xumor
Shayx yotdimi?
Sergo
U aslo yoturmi, jonim!
Uning kecha-kunduz tabiati shu...
Xayoliga kelmas yeb-ichmak, uyqu.
Tunda oy, yulduz bilan suhbat etar,
O'y surib chiqadi to tongga qadar.
Xumor
(taomni Sergoga berar ekan)
Iloji boricha uni hurmat qil,
Neki amr aylasa, kel, menga aytgil.
Nina
Juda nazokatli zot ekan San'on.
Xumor
(Nina bilan birga uyi tomon ketar ekan, uni tasdiqlab)
Shundoq, eng muhtaram, ajoyib inson...
Nafaqat zo'r kamoli, ma'rifati,
Unda bor bir avliyolik sifati.

Sergo darhol xurjunni olib, bo'shatmoq uchun cho'chqaxonaga kiradi.

Shayx San'on
(Bir tomondan chiqib kelar ekan, ketayotgan Xumorni ko'rib)
Ketadir anda nozli jononim,
Ketadir oshinoyi vijdonim,
Ketadir, vahki, din-u iymonim,
Ketadir sabr-u toqatim, jonim...
(Mahzun va ta'sirlangan holda cho'chqaxonaga yaqinlashadi)
Sergo
Birodar! Kel, ovqat keltirdi Xumor.

Shayx San'on
Ishtaham yo'q...
Sergo
Kel!
Shayx San'on
Istamam zinhor,
Charchadim, jonimda issiq bor biroz.
(ichkari kiradi)
Sergo
Jinday orom olsang bo'lur edi soz.
(chekkaga)
Aftidan, dardi tozalandi yana,
Chunki jonon ko'rindi ko'zlarina.
Simon
(ikki yigit bilan birgalikda kelib)
Sergojon, Sergo!
Sergo
E, Simon, kel...
Simon
T-s-s!
Xo'sh, San'on qayerda?
Sergo
Sho'rlik, ming afsus,
Doimo g'amzada, doimo tushkun...
Yotibdi, ahvoli ko'p yomon bu kun.
Simon
Sen ne deb o'ylaysan, bu sayoq Platon
Qizini San'onga bergaymi?..
Sergo
Simon!
U bir nasli buzuq, tayini yo'q zot,
Isoning nomiga ichgan qasamyod.
Injilga qo'l bosgan... Beradi, ishon...
Simon
Juda irimchidir chindan bu nodon.
Qizi bu badbaxtni qiladi ado.

Sergo

(boshini likillatib)

Menimcha, shu yerda qilursan xato.
Chunki qiz mutlaqo boshqa bir xilqat,
Uni ko'rganlarning ko'zida hayrat.
Shayxga boshqacha bir muhabbati bor,
Doim karam aylar, zo'r hurmati bor.

Birinchi yigit

Hamisha uzlat deb yonardi Xumor,
Buncha tez o'zgardi?

Sergo

(cho'chqaxonani ko'rsatib)

Bir monelik bor.
Xumorga mana kulbayi vayron
Har qanday uzlatdan aziz, qadrdon.
Bu uning sajdagohi, qiblasidir,
Shayx uning haykali muqaddasidir.

Birinchi yigit

(Simonga)

Xo'sh, endi ne deysan? Shubha yo'qdir hech,
Demak, qiz — Shayxniki, sen undan voz kech!

Sergo

Tugab bormoqdadir muddat ham... Zinhor
Shayxni rad etmagay, albatta, Xumor.

Simon

(qahr bilan)

Simon o'lgani yo'q, tirikdir hamon,
Bunga yo'l qo'ygaymi?

(g'oyat hayajonli)

Aslo! Hech qachon!..

(Cho'ntagidan pul to'la bir hamyon chiqarib, yuqoriga bir otib-tutib olarkan, Sergoga berib)

Buning ichi to'la kumush, oltin, ol!
Bu uning xun bahosi bo'lsin, ol!

Avval Simon, so'ng uning sheriklari xanjarlarini chiqarib, Shayxning yotog'iga hujum qilmoqchi bo'ladilar.

Sergo

(Simonga)

Sening niyatingni angladim, biroq

(har uchalasiga)

Hozir payti emas, keling sal kechroq.

Shu payt O'zdamir kelib, bir chekkada yashirinib turganicha ularning suhbatini tinglaydi. Nina ham Xumorning xonasidan chiqib, katta hayrat bilan bu holatni kuzatib turadi.

Birinchi yigit

(Simonga)

Buning gapi to'g'ri... Tayyor har anjom,
Qilaylik keyinroq kelib saranjom.

Simon

Fursat — qanotli qush. Bir uchsa daydib,
Qo'lingga hech qachon kelmaydi qaytib.

Yana hujum qilmoqchi bo'ladi, Nina qattiq iztirobda kuzatib turadi. O'zdamir chiqib, Simonning bilagidan ushlab qoladi, uning qo'lidagi xanjar tushib ketadi. Yigitlarning har ikkisi ikki tomondan kelib, O'zdamirni mahkam ushlab oladilar va uning qimirlashiga imkon bermaydilar.

Birinchi yigit

(O'zdamirga)

Joningdan umiding bo'lsa gar tek tur!

Shu payt O'g'uz chiqib kelib, og'ir va mag'rur bir boqishdan so'ng orqadan har bir qo'li bilan bittadan yigitning bo'g'zidan tutib qattiq siqadi. Har ikkisi ham bo'g'ilib o'layozgan bir holga tushadi, hamma dahshatda.

O'g'uz

Mana, xoinlarning jazosi shudir!

O'zdamir

(Simonga)

O‘yla, er kishiga nomus, uyat bu,
Qabohat ichra eng zo‘r qabohat bu.
Shayx sho‘rlik muhtaram, beozor bir zot,
Musofir, g‘arib va ojizdir, hayhot...
Nahotki, yo‘q senda zarracha vijdon,
Shu qadar ham nomard bo‘lurmi inson!?

O‘g‘uz

Bu ishga qo‘l urgay xoin, qo‘rqoqlar,
Vijdonin yo‘qotgan ablah, olchoqlar.
Sizmi yo Shayx San’on o‘limga loyiq —
Shu xanjar hal etar. Boshqa chora yo‘q!

(darhol xanjarini chiqarib
Simonga hujum qiladi)

O‘zdamir

(O‘g‘uzni tutib qolib, og‘ir bir ohangda)
Yo‘q, to‘xta!.. Mard o‘chin bunday olmagay,
Yo‘qsa, bu qotildan farqing qolmagay.

O‘g‘uz

Qo‘y meni!

O‘zdamir

Yo‘q, shartmas to‘kmoq endi qon,
Kuchli ojizlardan olmas intiqom.

(Simon bilan birodarlariga)

Endi tez yo‘qoling, daf bo‘ling!.. Ammo
Shuni yodingizdan chiqarmang aslo.
Kim Shayxning qonini to‘kmoq bo‘lsa gar,
Mening qo‘llarimdan ajalin topar.
Har uchalasi qurollarini olib chiqib ketadi.

Shayx San’on

(cho‘chqaxonadan chiqarkan)

Nima gap? Aytinglar, bu qanday vahm?

O‘zdamir

Aytarli hech gap yo‘q, muhtaram shayxim!..

O‘g‘uz

(Sergoning qo‘lidagi hamyonni olib)
Bu nima? Qani, ayt, ko‘zing qilma lo‘q!

Sergo

(duduqlanib)

Bilmayman... i-ye, bu hamyon-ku...
Yo‘q-yo‘q...

O‘g‘uz

Qotillarning senga saxosidir bu,
Shayx uchun balki xun bahosidir bu?

(unga keskin va qattiq bir shapati tortadi)

Shayx San’on

Yo Alloh, O‘g‘uz, bu ne qiliq, axir?..

O‘g‘uz

Qasdingga sherik bu past xoinni bir
Odobga chaqirib qo‘ydim... Shu, xolos.

Shayx San’on

Bechora!.. bu ojiz banda-ku, xolos...

(falakka qarab)

Bu falokatlarning butun sababi
Faqat men... faqat men... Kechirgil, Rabbim!..

O‘g‘uz

(Sergoga)

Tosh qotib turma, qani, hamyonni ol!
Senda bir yumush bor, yur endi, battol!

(Sergo yerdan hamyonni olib
O‘g‘uzning ortidan ergashadi)

O‘zdamir

Shayxim, o‘z fikringni endi et ayon,
Menimcha, oxiri tugar ko‘p yomon.
Seni ochiq-oydin ranjitar bular,
Shubhasiz, bir kuni rad etar bular.
Vaziyat, rosti, biroz qo‘rqqulidur,
Kim bilur, balki jinoyat ham bo‘lur.
Istasang, ul qizni olib ketamiz,
Qarshi chiqsa kim agar — mahv etamiz.

Shayx San’on

O‘zdamir, o‘ldirsa ham meni ming bor,
Bundoq nohaq ishni qilmayman zinhor.

O'zdamir

Ra'yingga qarshi hech so'zim yo'q, hayhot,
Faqat ehtiyot shart, juda ehtiyot...

Shayx San'on

Ketingiz, chunki ko'p uzoq yo'lingiz,
Meni Tangrim qo'rir, amin bo'lingiz.

O'zdamir

(xurjunini yerdan olib,
Shayxning qo'lini o'par ekan)

Bir qazo sodir o'lsa, Shayxim, ishon,
Biz boramiz, sen uchun fidodir bu jon.
Doimo burchimiz itoat erur,
Bizga sening amring saodat erur.

(chiqib ketadi)

Shayx San'on

Izzat-ikromingdan tog' bo'ldi ko'nglim,
Tashakkur, hech qachon kam bo'lma, o'g'lim.

(O'zdamirning olislab borayotganini ko'rib)

O'pqondir, oh, hamma tomonim o'pqon,
Bu shum tole qayga boshlar, noayon?!
Bu ne falokatdir, javob ber, yo Rab!?

Nina

(Sassiz qadamlar bilan chekinadi.
Xumorning xonasiga kirar ekan)

Buning hammasiga Sergodir sabab.

Shayx San'on

(falakka boqib)

Shikoyat emasdir aslo bu nido,
Chunki Xumor uchun bari, yo Xudo!
Har balo go'yo bir saodat erur,
Har jafo men uchun muhabbat erur.

Eshik oldidagi oftobani olib, suv keltirish uchun bog'ning bir chetiga qarab ketadi. Birozdan so'ng oq libosli Anton boshqa tomondan chiqib keladi. Badqovoq bir gurji kirib, qo'lida yondiruvchi modda va bir dasta gul tutgani holda unga ergashadi.

Anton

(past tovushda)

Sergojon! Sergo...

Birodari

Baqirma, jim tur.

(Cho'chqaxonaga qarab)

Shayx San'on yotoqda... Dong qotib yotur.

Anton

Sergo!..

Birodari

Kerakmas...

Men o'zim boplab tashlayman,

Shayxni mayda-mayda to'g'rab tashlayman.

(lip etib o'zini ichkariga uradi)

Anton

(eshikdan qarab)

Ur yana! Yana bir... Yana bir...

(o'z-o'ziga)

Endi Xumor

Anglaydi, men kimman, qanaqa shunqor!

Birodari

Bu battol, bilmadim, ne sehr etmish,

G'alati bir holkim, juda ham mudhish!..

Shuncha xanjar urdim — qilmaydi ta'sir.

Har holda... Endi bu oxirgi tadbir.

(Eshikni bekitadi, shu orada ichkarida olov yona boshlaydi)

Anton

Uyga o't qo'ydingmi?

Birodari

Yo'q o'zga chora,

Yonib kul bo'lgaydir San'on...

Anton

Bechora!..

Endi bermoq kerak Xumorga xabar,

Bu holni ko'rsin-u yig'lasin dilbar.

Xumor Nina bilan xonasidan chiqadi, ularni ko'rishi bilanoq qattiq hayrat va sarosma ichida qoladi.

Birodari

(Antonga istehzoli kulganicha)

Endi San'on yotib mangu ro'yoda,
Zavq surar jannatda, arshi a'loda.

(sarosimaga tushib)

Ko'p turmoq yaxshimas... Bu joy xatarlik,
Ketamiz, qani bo'l...

Anton

Mayli, ketaylik.

Tez-tez yurib chiqib ketadilar.

Xumor

Oh!.. bundan kelmoqda jinoyat hidi.

Nina

Og'ir bir musibat, falokat hidi.

Shu payt shiddatli shamol esadi, momoqaldiroq gumburlaydi, yong'inning charsillab yonishi eshtiladi. Bu tovushlar pardaning oxiriga qadar davom etadi.

Xumor

(Nina bilan birga sarosimaga tushgan holda cho'chqaxonaga yaqin kelib)

Endi hammasini bildim... voy jonim!

(g'azab va sarosimada)

Sergo, kel! Qaydasan!?

Sergo

(paydo bo'lib)

Shundaman, xonim.

Xumor

Qani, kel!.. Bo'l tezroq!.. Och eshikni, och!

Nina

Xoin, sotqin, olchoq! Och eshikni, och!

Sergo eshikni ochgani hamono yong'indan hosil bo'lgan alanga sahnani yoritib yuboradi.

Kir, Shayxni olib chiq. Qani bo'l, olchoq!

Xumor

Oh!.. Tezroq qutqazing!.. Kuymasin!.. Tezroq!..

Sergo ichkari kirmoqchi bo'ladi, biroq yuragi betlamaydi.

Qo'shnilar

(uch-to'rt kishi kirib)

Nima gap? Ne bo'ldi?

Xumor

Omon! Al'omon!..
Yondi, kuyib ketdi bechora San'on.

Qo'shnilar

Ko'raylik-chi, balki tirikdir...

Nina

(Sergoga g'azab bilan)

Jallod!..

Xumor

O-h, bechora Shayx! Imdod!.. O-h, imdod!..

Hushidan ketib yiqilayozgan bir holga tushadi. Nina darhol uni suyab qoladi. Shu payt qo'lida oftobda tutganicha bir tomondan Shayx San'on chiqib keladi, hamma hayratdan dong qotib qoladi.

Shayx San'on

(ta'zimkorona bir qiyofada)

Shayxni siz o'ldiga chiqarmang zinhor!
Mana, qarshingdaman, azizim Xumor!
Dilda yonsa ishq degan otash agar,
Unga ta'sir etmas bu otashlar.
Men o'limdan endi qo'rqib netaman,
Xalqni tark aylab Xoliqqa yetaman.
Abadiyat mangu mozorim bo'lur,
Chunki ishqning sultoni yorim bo'lur.
Ishq uchun kim aylasa jonin nisor,
Mangu gulshan ichra topgaydir qaror.
Balki qismat bul vujudni mahv etur,
Ruhim o'lmas, samoviy ishqqa yetur.

Uchar ul, cheksiz fazolardan oshar,
Yana jannatda sening birla yashar.

Oxirgi bayt tugayotganida parda bekiladi.

Parda

II sahna

Madinada bo'yra tashlangan bir xona... Atrofda o'tirib suyanish uchun yostiq-to'shaklar... Ikki eshik... Bog'ga qarab ochiladigan ikki-uch deraza... Quyosh endigina chiqib kelayotgan bir payt...

Parda ochilganda xizmatchi qora arab yostiq-to'shaklarni tuzatib chiqib ketadi. Shu payt Shayx Hodi va Abululo kirib kelishadi.

Shayx Hodi
Ming shukur, ming shukur Rabbanomizga,
Yana qaytib keldik Madinamizga.
(Derazalardan birini ochib)
Muqaddas havosi tanlarga darmon,
Insonga yangidan baxsh etadi jon.
Ruhlarga ajoyib safolar berur,
Qalblarga tuganmas shifolar berur.
Abululo
Shayx Hodi! Ne deysiz, men chiqib agar —
Nima gap, nima so'z — bir olsam xabar?
Shayx Hodi
Mayli, bilib kelgin borib birma-bir,
Qanday voqealar bo'lmishdir sodir.
(derazani bekitib)
Men esa toliqdim, bunda qolayin,
Bir lahza cho'zilib orom olayin.
(Abululo chiqar ekan)
Faqat eng avvalo sen Shayx San'ondan
Xabar so'r!..
Abululo
Albatta!

Shayx Hodi

So‘ng chiqib undan
Zahroning holin so‘r, ahvolini bil,
Xasta yotgan bo‘lsa, bor, ziyorat qil.

Abululo chiqib ketadi. Shayx Hodi ridosini ustiga yopib cho‘ziladi. Shu payt sahnaning shu’lasi so‘nib, ortidagi ikkinchi parda ochiladi.

Shayx San’on

(olovlar, yong‘inlar ichida namoyon bo‘lar ekan, yarim mahzun, yarim mamnun holda bir faryod bilan)

Yondim, Alloh!.. Ushbu kulfatlar nadur?
Ne bu dahshat?.. Oh, bu lazzatlar nadur?!
Otashi ishq ham mukammal baxt emish,
Angladim, bul o‘zi ham jannat emish.
Garchi yo‘q senga shikoyat, yo Rab!..
Senda yo‘qmi bir inoyat, yo Rab?!..
Oh, meni qandoq baloga otding,
Sen meni ne uchun, nevchun yaratding?!

Ba’zi mavhum, noma’lum qo‘llarda xanjarlar, qilichlar porlab, Shayx San’onga hujumlar qilinishi ko‘rinib turadi.

Bir malak

(ko‘kdan tushib kelgan kabi)

Hech tashvish tortmagin, muhtaram San’on,
Tangrim unutmagay seni hech qachon.
Rabbim senga panoh!.. Qanoat tilar,
Hamda Rasulullоh shafoat tilar.
Malaklar uchun sen muqaddas, suyuk,
G‘am chekma, Shayx San’on, buyuksan, buyuk!

Shayx San’onni qo‘lidan tutib chekkaga tortib ketishi bilan ortdagi parda tushadi. Sahna yorishadi.

Shayx Hodi

(dovdirab qolgani holda sapchib uyg‘onib)

Ajabo!? La ilaha illalloh!

Bu qanday dahshatli holdir?!

Shayx Abuzar

Yo Alloh!

(U Shayx Abullahyo va Shayx Ja'farlar bilan kirib keladi. Quchoqlashib ko'rishadilar)

Shayx Hodi

Marhamat!

Shayx Abuzar

Ahvollar nechuk?

Shayx Hodi

Ming shukur.

Shayx Abuzar

Jihodingiz bo'lsin munavvar, purnur,
Ajr ato aylasin, Shayx, sizga Xoliq.

Shayx Hodi

Ko'rdingizmi Abululoni?..

Shayx Abuzar

Yo'q, yo'q.

Shayx Hodi

Zahroning sog'lig'i yaxshimi, axir,
Tuzalib ketdimi?

Shayx Abuzar

Ahvoli og'ir.
Yuribdi joni yo'q bir jasad kabi.

Shayx Hodi

O'zing madadkorsan, shifo ber, Rabbim!

Shayx Abuzar

Yemaydi-ichmaydi. Ko'zlarida g'am...
Yig'lamas... Holiga yig'laydi olam.
Ahvoli parishon, ko'p pajmurdadir,
Sudralib yurgan bir tirik murdadir.
Hamisha rasulning qabriga borar,
Allohga iltijo qilib yolborar.

Shayx Hodi

Bu g'amli qissani so'ylama... yetar!..
Ayt-chi, Shayx San'ondan bormi bir xabar?

Shayx Abuzar
Biz so'rab turibmiz uni hammadan...
Yo'lchi bor Makkayi mukarramadan.
So'zlagan so'zlari rost bo'lsa agar,
Shayx San'on ertaga shu yerda bo'lar.
Shayx Hodi
Ming shukur. Xudoyim, senga ming shukur!
Shayx Abuzar
Xo'sh, o'zing qandoqsan, o'zingdan gapir.
Cho'zilib ketdi-ku bu galgi safar.
Birodar, dunyoda ne gap, ne xabar?
Shayx Hodi
Oh, so'rmang aslo!.. Bir qiyomat bo'ldi,
Bu safar — safarmas, falokat bo'ldi.
O'n kishi ichindan oqibat, illo,
Bir men omon qoldim, bir —Abululo.
Har uchalasi
(qattiq bir motam va hayrat bilan o'ziga xos qiroat ila)
"Inna-lillahi va inna-ilayhi rojiun..."
Shayx Abullahyo
(chuqur bir sukutdan so'ng)
Naqadar dahshatli falokat, yo Rab!
Shayx Ja'far
Ne emish, vo ajab, bu holga sabab?
Shayx Abuzar
E voh!.. Bu xabardan ko'nglimiz vayron...
(Shayx Hodiga)
Qani, barin bir-bir aylagin bayon!
Shayx Hodi
Ka'badan biz huv o'sha chiqqan kuni
Boshladik va'z birla tablig' ishini.
Kezdik ozmi-ko'pmi Yaman diyorin,
Shundan so'ng otlandik bizlar Hind sori.
Duch kelgan har joyda nutq etdik irod,
Xalqni to'g'ri yo'lga boshlamoq — murod.

Ahli islom shod bo'lib xushlar edi,
Qayga borsak bizni olqishlar edi.
Boshqa dinda qolgan insonlar zalil,
So'rgay erdi bizdan isbot-u dalil.
Bahslashib ko'rdilar, mulzam bo'ldilar,
So'ng dini islomni qabul qildilar.

Shayx Abullahyo

Ha, islom yuksalib boradi, enmas.

Shayx Ja'far

Nuri Haq doimo porlagay, so'nmas.

Shayx Hodi

O'shal diyorlarda shundoq bir muddat
Himmatlar ko'rsatdik, ayladik da'vat.
Nogahon boshlanib o'lat-u vabo,
Ko'p inson qirildi topmayin davo.
Chorasiz qaytdik uqubatlar bilan,
Hindni tark etdik nadomatlar bilan.
Bahri Ummon ichra qo'pdi bir to'fon,
Ostin-ustin bo'ldi go'yo bu jahon.
Yarmidan o'tganda tun ham, nihoyat,
Bostirib keldi-ku qizil-qiyomat.
Bu dahshat oldida bizlar nimamiz!?
Pista po'chog'idek o'ynar kemamiz.
Dolg'alar yoprilar bir balo kabi,
O't sochib pishqirgan ajdaho kabi,
Bo'ronlar quturib, guvlab kelganda,
Dosh bera olmayin kema, yelkan-da
Bir onda bo'linib, sochilib ketdi,
Faryod, oh-fig'onlar falakka yetdi.
Ojiz bechoralar yig'lar, baqirar,
Iltijolar qilar, ingrar, chaqirar.
Necha xalq Haqqa munojot aylashib,
Bir najot, imdod tilar dod aylashib.
Chirpirab borarkan suvda har inson,
Yanada battarroq quturdi ummon.
Qaldiroq gumburlar dam-badam, takror,

Sillalar quridi, qolmadi mador.
Bir yonda muttasil yaltirab yashin,
Suvlarga sanchardi qilich otashin.
Bir sarhad qolmadi yer-u ko'k aro,
Yer — balo, ko'k — balo, muhit — bir balo...
Yo'lchini har lahza bir dahshat kutar,
Dengiz o'z qurbonin qa'riga yutar.
Taqdir bir najotsiz chohga tashladi,
Bizning kemamiz ham cho'ka boshladi.

Shayx Abullahyo

Ko'p yomon tasodif, falokat bo'lmish.

Shayx Ja'far

Kutilmagan dahshat, halokat bo'lmish!..

Shayx Hodi

(davom ettirib)

Yo'lchilar chorasiz qolibon, nogoh,
Ikki — bir, uchi — bir bo'ldilar hamroh.
Suvlarga otildi hamma g'amdiyda,
Hamma o'z jonining edi g'amida.
Suvda ancha suzdik urib qo'l-qanot,
Hech majol qolmadi, yo'q edi najot.
So'zlab bo'lmas muztar bu holatimni,
Aytdim kalimayi shahodatimni.
Umidim goh yonib, so'nib gohida,
Borardim... Bir tovush keldi sohildan.
Sas kelgan tomonga suzib ketdim rost,
Alloh madad berdi, men bo'ldim xalos.
Bilmadim, bu kecha qanday surindi,
Nihoyat, tong otdi... Quyosh ko'rindi.
Afsus, oramizda ko'p edi qurbon,
Men va Abululo qolgandik omon...

Shayx Abuzar

O'lganlarga bo'lsin Tangri rahmati,
Mag'firat aylasin, Rasul hurmati.
Sizga etsin sabr-u qanoat ehson,
Umringizni uzoq aylasin Subhon.

Abululo

(kirib kelib)

Shayx Sadro muridlar bilan shu zamon
Kelmoqda...

Shayx Hodi

Juda soz... Biroq Shayx San'on?!

Abululo

Uni men ko'rmadim, u yo'qdir...

Shayx Hodi

(bezovta va hayratomuz bir holda)

Hayhot!
Tushda ko'rganlarim rost bo'lsa nahot?!

(derazani ochib osmonga boqqanicha)

Oh, mening ko'zimga tor keldi fazo,
Shayxning boshida bor ekan qazo.

Ma'yus bir holda xayolga cho'madi. Shayx Sadro boshchiligida barcha shayx va muridlar horg'in odimlar bilan kirib keladilar. Shayx Hodi boshini ko'taradi. Kelganlarga og'ir va keskin nigoh bilan razm solib chiqqandan so'ng Shayx Sadroga.

So'yla, Shayxingizga ne bo'ldi, Sadro?
Sizlarga aytdimi abadiy vido?

Shayx Sadro taraddudlangan holda o'ylanib qoladi.

Bundoq hayrat bilan surmagin xayol,
Ne bo'ldi? Hammasin so'yla. To'kib sol!..

Shayx Sadro

Shayxni judo qildi bizdan Gurjiston,
Avvalgi San'onmas, u boshqa San'on...

Shayx Hodi

O'zi sog'mi?

Shayx Sadro

Albatta!

Shayx Hodi

(osmonga qarab)

Ming shukur, yo Rab!

(Shayx Sadroga)

Nechun ayrildingiz, ne bo'ldi sabab?

Shayx Sadro sukut saqlaydi.

Xo'sh, gapir, yashirma!

Shayx Marvon

(Shayx Sadroga)

Qani, ayt, aytgin!

Shayx Hodi

(Shayx Marvonga)

Qani, yo'qsa sen ayt, sen davom etgin!

Shayx Marvon

Shayximiz sotdi dinni, iymonni,
Shayximiz otdi hukmi Qur'onni.
Hammasidan bitta qizni deb kechdi,
Bo'yniga xoch osdi, sharob ham ichdi.
Bir payt ayollardan qochardi San'on,
Endi to'ng'izboqar — bechora cho'pon.

Shayx Hodi

(ma'noli bir ohangda)

Bu holda ko'rganda, shubhasiz, uni,
Tuygansiz nafratli, jirkanch tuyg'uni!

(istehzoli qahqahalar bilan)

Va ortga qaytgansiz?.. siz Shayx San'onsiz!..
Hammangiz bir quruq jasadsiz — jonsiz.
Ajabo, nahotki shundoq bir ustod
Qilingay ta'na-yu la'nat bilan yod!?

Shayx Marvon

Uni kofir deya atagan inson
Nahotki gunohga botadi?

Shayx Hodi

(juda g'azablangan holda)

Marvon!
Ko'rmadim men xuddi sen kabi nonko'r,
Bir ko'zing ko'r emas, senda vijdon — ko'r.

Hamma sukutga cho'madi.

(barchaga)

Sizda insof yo'qdir, hamiyat yo'qdir,
Piri benazirga hech hurmat yo'qdir.
Chunki ruhingizda yo'qdir yuksaklik,
Qalbingiz tubandir, yo'q zarra poklik...
Tutsa ham dunyoni shu'layi hikmat,
Ojizlar bu nurni ko'rolmas faqat.
Shayx San'on, ul charog'on oftob
Kofir o'ldi, xoch osdi, ichdi sharob.
Neki qilgan bo'lsa u, ildam shuni —
Qilmog'ingiz shart edi siz ham shuni.
Nega bo'lmadingiz sizlar ham tarso,
Gunohga botmoqdan qo'rqqandirsiz, o!..
Holbuki, bu kufri Shayx San'onning,
U fozil inson, piri urfonning
Sizdagi iymondan yuksak, avlodir,
Haq bilgay, u sizdan ming bor a'lodir.

Barcha

Biz rosa yolvordik, ammo rad etdi.

Shayx Marvon

Bizni nafrat bilan tark etib ketdi.

Shayx Hodi

Chunki siz — egridil, xoinsiz, xolos,
Zohiran — tup-tuzuk, botinan — iflos...
Sizda bo'lsa edi zarracha vijdon,
Shayxingizni bilib Ka'bayi iymon,
Unga hech ta'nalar so'ylamasdingiz,
Yo'ldan ozgan deb o'ylamasdingiz.

(Shayx Sadroga)

Yo'qsa, bu gaplarim yolg'onmi, Sadro!?

Shayx Sadro

To'g'ri, juda to'g'ri. Biz qildik xato!

(boshqacha bir ohangda)

Shubha yo'q, sizningcha biz manfurmiz,
Ammo bunda ozmi-ko'pmi ma'zurmiz.

Shayx Hodi
Masalan?... fikringni ochiq so'ylagil!
Shayx Sadro
Shayxni tark aylagach, biz raso bir yil
Undagi xalqlarga kelib yuzma-yuz,
Dinni tablig' etdik... Afsus, ming afsus!..
Bir kuni San'ondan biz olsak xabar,
U cho'pon bo'libdi, ha, to'ng'izboqar.
Ikki kun yolvorib tavallo etdik,
Unga kecha-kunduz iltijo etdik.
Yana u rad etdi... Bo'lmishdir asir,
Hech qanday iltijo qilmadi ta'sir.
Shayx Hodi
Juda soz, Shayx shunga aylabdi jazm,
Siz ham qolmog'ingiz edi-ku lozim!
Shayx Sadro
Mana, birodarlar barchasi guvoh,
Qolaylik, dedim men, bular-chi, evoh,
So'zimga quloq ham solmadilar, rost,
Faqat bildirdilar qattiq e'tiroz.
Shayx bilan qolmoqchi bo'ldim men tanho,
San'on istamadi buni mutlaqo.
Hammamiz yurakdan qayg'urib, ma'yus,
Unga vido aytdik. Afsus, ming afsus.
Shayx Hodi
Shayx San'on — u buyuk bir ummon,
Unda yo'q qa'ru ibtido, poyon.
Uki idrok uchun kamol istar,
Ahli zavq istar, ahli hol istar.
Oh, hozir ko'rganim bir tush, bir ro'yo
Qandayin og'ir bir lavhadir... E-voh!..
Shayx Marvon
(Shayx Naimga istehzoli)
Ajabo?!
Shayx Sadro
(Shayx Hodiga)

Bu ne tush, aytingiz, Shayxi padarim.

Shayx Hodi

Hali ko'rdimki, u Shayx — darbadarim
O't olib yonmoqda...
Ko'ngli g'ash erur,
Har tomoni o't erur, otash erur.
Unga kimlardir qilich sanchmoq bo'lar,
Xanjarin sanchib qonin ichmoq bo'lar.

Hamma chuqur bir hayratda.

Bir malik shunda qanotin zar qilib,
Tushdi-ku ko'kdan tabassumlar qilib.
Shayx-la uchdi o'zga dunyolar sori,
Qurbi mavlo, arshi a'lolar sori.

Barcha

Shayximiz rahnamoyi urfon erur!..

Shayx Abuzar

Shubhasiz, Haq lutfiga shoyon erur.

Birinchi Shayx

E-voh, shundoq Shayxni nega tark etdik?

Ikkinchi Shayx

Xatolar qildik biz, ko'p tuban ketdik!

Shayx Hodi

Chunki siz ko'rdirsiz... u — manbayi nur...

Abululo

Tavba etsak, bul gunoh afv qilinur.

Birinchi Shayx

Shayxni qayta izlabon ketmoq kerak.

Ikkinchi Shayx

Shubhasiz, dargohiga yetmoq kerak.

Shayx Sadro

(boshini sarak-sarak qilib, istehzoli va ma'noli bir ohangda)

Soxta tuyulmasin sizga, ajabo,
Jinday xira tortsa havo mabodo,
Sevinib ketadi ko'rshapalaklar,

Aldanib raqs etar joni halaklar.
O'ylashar: shu'lalar olib ketdi bosh,
Go'yoki chiqmagay endi hech quyosh...
Biroz muddat o'tgach, porlabon takror,
Olamni to'ldirsa bir ajib anvor,
Qochgani joy topmay qoladilar lol,
Naqadar botildir bu o'y, bu xayol!..

Shayx Hodi

Bu bir dahshat erur, bu bir qabohat,
Bo'lgani bo'ldi... hech chora yo'q, faqat,
Tangrim, o'zing endi bizga yo'l ko'rsat...
Endi g'animatdir har on, har fursat.
Hozir Rasulullo qabriga borib,
Ziyoratlar qilib, Haqqa yolborib
O'ltiraylik biz qanoatlar tilab,
Rahm-u shafqat ham shafoatlar tilab.
Yo'l olaylik so'ngra Shayx San'on sari,
Yo'l olaylik rahbari urfon sari.

Barcha

Qani ketdik, Shayximizga intizor,
Qani ketdik, Shayximizga jon nisor.

Shayx Hodi bilan Shayx Sadro chiqishadi. Barcha Shayx va muridlar ularga ergashadi.

Shayx Marvon

(chiqib ketar ekan, Shayx Naimga)

Barchasi yolg'on xayolga aldanur,
Kufri zulmatni nuri Haq deb tanur!..

(eng keyin Abululo chiqar ekan, ma'noli ohangda har ikkisiga)

Abululo

Bir haqiqat borki, hech eskirmagay,
Ko'rlar aslo nuri Haqni ko'rmagay...

Parda

TO‘RTINCHI PARDA

I sahna

Ikkinchi pardaning sahnasidagi kabi yo‘l chekkasidagi kichik bir ayvon... Qarshisidagi gulzor bog‘cha, may oylari... Yakshanba kuni... Parda ochilganda to‘rt-besh gurji yigiti sarxush holda yo‘ldan o‘tib boradi. Ulardan biri ilgarida cholg‘u chalib boradi, biri esa gandiraklab, kulgini qistaydigan holda o‘ynaydi, boshqalari chapak chalib uni olqishlab boradilar. Nina ayvonga chiqib ularni tomosha qilib turadi. Yigitlar chalib-o‘ynaganlaricha uzoqlashib ketadilar. Shu payt Xumor ham chiqib keladi.

Nina

(Xumorga)

Biz go‘yo xonaga qamalgan mahbus,
Mundoq sayilga ham chiqmaymiz, afsus...
Bugun har ko‘ngilda bir dunyo havas,
Odamlar sayr etar, o‘ynab-kular, bas,
Qara, tabassumlar qilmoqda jahon,
Faqat sen bu fayzdan begona, pinhon...

Xumor

Meni sen malomat qilmagin, gulim!
Na iloj, yorishmas bu xasta ko‘nglim.
Dunyo yashnar, gullari xandon qilur,
Bul manim dardimni ming chandon qilur.

Shu payt avval qizil libos kiygan qizlar va bolalar, so‘ngra yigitlar nash’ali, munis bir ohangda qo‘shiq ayta-ayta kirib keladilar.

Qizlar va bolalar

Ochdi binafsha, sunbul,
Xandon etar qizil gul;
Sayrab misoli bulbul —
O‘ynatadi xayolni...

Yigitlar

Quyosh sochar tillolar,
Ming jilva-yu jilolar.

Lol etadi sarosar
Manzari ahli holni...
Qizlar va bolalar
Dunyo sururga to'lmish,
Bir parcha jannat o'lmish,
Ruhlar musaffo bo'lmish,
Har dil ochiq, safoli...
Yigitlar
Har ko'zda bir muhabbat,
Har yuzda bir saodat;
Zavq ahli aylar ishrat
Sarmast-u louboli...

Shu payt kalisoda juda tez sur'atlar bilan chalinayotgan jom sadosi eshtila boshlaydi.

Xumor
Nina, tingla bu jozib jom sasini,
Tingla umrning shikasta nolasini.
Ahli el bir yonda qo'shiq aytadi,
O'z-o'zin o'ynab-kulib shod etadi.
Bir tomonda bir bechora dard bilan,
Zavqli dunyoga boqar hasrat bilan.
Borgali xesh-aqrabo, diyori yo'q,
G'am-alamdan o'zga do'st-u yori yo'q...
Nina
Parvo qilma, har ko'ngildan dod chiqar,
Bitta farddan necha bir faryod chiqar.
Xumor
Ruhimni ezmoqda bu kuy, bu ohang!
Ammo nima iloj?!
Nina
(yo'lga qarab)
Bas, keldi otang!
Xumor
(pop bilan otasini ko'rgach, jirkanish bilan)

Bu — o‘sha ruhoniy, oh, xiyonatkor,
Aftidan, yana bir xiyonati bor.

Har ikkalasi yetib keladi, tag‘in jom sadosi eshtiladi.

Pop
Eshitmoqdamisan, tingla, Platon?
Platon
Birov o‘ldimikan?
Pop
Ha, sho‘rlik Simon.
Platon
Voy essiz... Xo‘sh, unga ne bo‘ldi, aytgil?
Pop
Xumorni sevardi... Rosa ikki yil
Yig‘ladi, bo‘zladi... o‘rtandi og‘ir,
O‘zin suvga otib g‘arq bo‘ldi oxir.
Platon
Eh attang!.. Zo‘r yigit edi-ya Simon.
Pop
Hali Antonni ayt. Bechora Anton!..
Ko‘zida hayotdan asar yo‘q aslo,
U ham Xumor uchun bo‘ladi fido.
Platon
Iloj yo‘q... San’onga men berdim va’da,
Va’dani buzmaslar ikki dunyoda.
Pop
U — muslim. Qaytib ol axir so‘zingni,
O‘rlik etib badbaxt qilma qizingni.
Platon
(parvosiz qahqaha urib)
Ko‘p qiziq!.. Xumordan chekma sen tashvish,
Unga farqi yo‘qdir — yozmi yoki qish.
Ajib bir beparvo qiz erurkim ul,
Mangulik bog‘ida bir g‘ururim ul,
Shodlik va qayg‘uni teng ko‘rar so‘lim,
Unga baribirdir hayot va o‘lim.

Pop
Bilmadim, bu qanday yolg‘on, bu ne lof,
Platon, senda o‘zi bormi hech insof?
Platon
(Popning qo‘lidan tutib)
Maqsading angladim... Basdir bu masal,
Ko‘ramiz — ne yozgan bu hukmi azal.

Har ikkisi ichkari kiradi. Shu payt Shayx San’on bardam va nuroniy bir qiyofada, faqat soch-soqoli butunlay oqargan, qo‘liga bir cho‘pon tayog‘ini tutgan holda bog‘ tomonda paydo bo‘lib, og‘ir va xayolchan odimlar bilan ayvon tomon yuradi. Shu payt Xumor ham ayvonga chiqadi.Shayx San’on Xumorning qarshisida to‘xtab, ma’noli va so‘z aytmoqchi bo‘lgan bir qiyofada tikilib turadi.

Xumor
Biron-bir istaging bormi, ayt, San’on?
Qalbingda ne bo‘lsa, aylagin bayon...
Shayx San’on
So‘yla, ey oshinoyi vijdonim!
So‘yla, sen so‘yla, nozli sultonim.
So‘yla, sen so‘yla, menda toqat yo‘q,
Arzi holga, ehtimol, hojat yo‘q.
Yaxshi ma’lumdir senga ahvolim,
Sensan axir pariyi omolim...
Xumor
(nazokat bilan)
Fikring tumanlidir, judayam mubham,
Anglamam ne deganningni ham...

Biroz sukut.

Sergo
(kelib, Shayx San’onga)
Kelibon bir to‘da ridoli odam,
Shayxim, so‘rashmoqda seni damo-dam.
Eski do‘stlar bari, tanishdir beti,
Hademay bu yerga kelishar yetib.

Shayx San'on

(g'azabli va bezingan bir qiyofada)

Ular past kimsalar, aslo sharhi yo'q,
San'on boqqan to'ng'izlardan farqi yo'q.
Ko'rgali ko'zim yo'q ularni zinhor,
Daf bo'lsin, barchasin qaytarib yubor!

Sergo darhol uzoqlashib ketadi.

(ta'zimkor bir vaziyatda)

Anglagil holimni, nozanin Xumor,
O'zingga ma'lumdir hamma sir-asror.
Ketdi-ku yo'lingda dinim, iymonim,
Bekor bo'ldi ulug' shuhratim, shonim.
Unutib jumla hukmi Qur'onni,
Oqibat bo'ldim-ku to'ng'iz cho'poni.

(boshini ochib)

Sochim, soqolimga yog'ib o'tdi qor,
Ikki yil bir bora kulmadim zinhor.
Men yashadim o'zga bir ro'yolar bilan,
O'zga dunyo, totli xulyolar bilan.
Doimo hasrat-u dardlarda yonib,
Yashadim bitta xayolga aldanib.
So'ylagin, amring nedur, aylay bajo,
Yo bekormi shuncha men chekkan jafo?

Xumor

(samimiy va ta'sirlangan holda)

Muhtaram shayx!.. Ey buyuk San'on!..

(so'zini ortiq davom ettira olmaydi)

Shayx San'on

So'ylagin, ey ruhim! So'ylagin, omon!
So'ylayver tortinmay, chekinmay, Xumor,
Sen neki amr etsang, mana men tayyor.
Har xitobing menga bir ehson kabi,
Har itobing jismim ichra jon kabi.
So'yla, shod et bu ruhi nolonimni,
Kul, sevintir bu qalbi giryonimni.

Menga qilsang qanchalar ranj-u g‘azab,
Qayta-qayta sog‘inar ko‘nglim, ajab.
Yo‘lingda jon bermoq hidoyatimdir,
Balki shu eng buyuk saodatimdir...

Shu payt Pop, Platon va Nina ayvonga chiqib keladilar.

Platon

(Xumorga)

San’on tag‘in nima istar, ajabo?

Shayx San’on

Men vafo istayman, birdan-bir vafo.

Pop

Muddaong nimadir? Qani, izhor et!

Shayx San’on

So‘zimning daxli yo‘q senga, nari ket!

Pop

(Platonga)

Bu kimsa sog‘ emas, harqalay, majnun.

Shayx San’on

(zaharxandalik bilan)

Majnunning dardini anglagay majnun.

Platon

Xumordan so‘raylik...

Pop

Yo‘q, bo‘lmas, ishon,
Undan so‘rmoqqa aslo yo‘q imkon.
Bu g‘anim qaytdi-ku bergan so‘zidan,
Tag‘in yurib ketdi eski izidan.

Platon

Nelar demoqdasan, tushuntir, jonim!?

Pop

Amin bo‘lavering, menga ishoning.
Bu bir betayindir, yo‘q e’timodi,
Xudosi yo‘q uning, yo‘q e’tiqodi.
Tag‘in Qur’on o‘qir, qiladi namoz,
Islomga e’tiqod qo‘ymishdir u boz.

Shayx San'on

(Platonga)

Yo'q, yolg'on! Bo'hton bu! Siz undan qoching!

Pop

(hujum qilib Shayxning ko'ksini ocharkan)

Xo'sh, qani ko'rsat-chi, qayerda xoching?

(xochni topmagach,
g'oyat g'azablangan holda)

Qani, javob bergin, ey beburd xoin!
Senda bormi tayin biror mazhab, din!?

Shayx San'on

(zaharxandalik bilan)

Orif bo'l, orif bo'l!.. Yutma vijdonni,
Ko'ngildan izlagin dinni, iymonni.

(Popning ko'ksidagi kattakon
xochga ishorat bilan)

Zohiring ko'p go'zal, yashnab turibdi,
Ichingda shaytonlar o'ynab yuribdi.

Pop

(sarosima va g'azab bilan)

Bas!.. Inson suratli ey iblis. Basdir!

Shayx San'on

Men-ku bas qilurman, ammo bu — rostdir.

Pop

Bo'ldi, ket! Daf bo'lgin, ket shitob endi!
O'zingga boshqa bir panoh top endi!

Xumor

O-h!

Platon

(Popga)

Yo'q, yo'q! U sho'rlikni haydama yiroq!

Pop

(Shayx San'onga)

Ket, yo'qol ko'zimdan!.. Darbadar olqoch!

Shayx San'on

Men olchoq? Darbadar?!

Pop

Daf bo'lgin, fosiq,
Sen shunday jazoga loyiqsan, loyiq...

Darhol Xumor bilan Platonni ushlab, ichkariga tortib kiradi. Faqat Nina tashqarida qolganicha sarosimali bir holda dovdirab turadi.

Shayx San'on

(Xumor ketganini ko'rgach, ojiz va majnunona)

Ketma, kel! Ey nozanin Xumorim, kel!
Qolmadi hech sabr-u ixtiyorim, kel!
Men o'lurman sensiz, ey, qutqaz meni,
Kelgin, ey jonim, hayotim mazmuni!..
Hammasi bo'ldi bekor... Kel, qani kel,
Yo'qsa, eng so'nggi vido aytgani kel.
Shuni loyiq ko'rdimi azal, malagim!

(ortga chekinib, yo'l ustida qattiq ta'sirlangan holda tikilganicha)

Alvido!.. Alvido!.. Go'zal malagim!..

(taraddudlangan va majnunona qadamlar bilan o'ng tomondan chiqib ketadi)

Xumor

(chiqib, Ninaga)

Qani San'on, qaydadir?

Nina

Ketdi yiroq!
Ketdi majnun ishqini aylab chiroq.

Xumor

Shu buyuk ko'ngilni sindirdilarmi,
Tahqirlab, ul shamni so'ndirdilarmi?

(yo'lga tikilib, Shayx ketgan tomonga qaraganicha)

Ey buyuk Shayx! Ey buyuk San'on,
Bir lahza kutib tur, ketma, al'omon!..

Darhol tushib, shayxning ortidan ketadi. Nina ham Xumorga ergashadi. Shu payt O'zdamir va O'g'uz boshchiligida Shayx Hodi, barcha shayxlar va muridlar birgalikda yo'lning so'l tomonidan chiqib keladilar.

Barcha

(hayajonli bir ohangda)

Qaydadir, qaydadir rahbari vijdon?
Aytingiz, qayerda qiblayi iymon?
Shayximiz qayerda, qaydadir San'on?
Aytingiz, qayerda Ka'bayi urfon?..

Pop

(Platon bilan birga ayvonga chiqar ekan)
Kimni izlayapsiz? Nima gap, axir!?

Barcha

Yaxshisi, bizga ayt, San'on qaydadir?

Pop

Bu yerda qolmoqning topmay chorasin,
Daf bo'lib ketdi u, o'chdi qorasi!

Barcha

(hayajonli va dovdirab qolgan bir holda popga)

Senga loyiq emas bundoq bir ta'bir,
Hadding yo'q etgali sen uni tahqir.
Bundoq aljirashlar joizmi shu on,
O'ylab ko'r, ey razil, ey tuban inson.

Qizlar, bolalar va yigitlar birgalikda qorishiq ovozlarda musiqasiz kirib keladilar. Hamma ularga iltifot ko'rsatib turadi.

Ochdi binafsha, sunbul,
Xandon o'lur qizil gul;
Sayrab misoli bulbul —
O'ynatadi xayolni...

Shu payt Nina juda bezovta bir holda o'ng tomondan otilib kirib, hammaning e'tiborini tortadi.

Nina

Ketdi, evoh, ketdi!.. Ketdi-ku Xumor!
San'onga ergashib ketdi o't-sharor.

Platon

(qattiq g'azablanganicha popga)

Ko'rdingmi, ey johil, besharm banda!
Olamga qilding-ku meni sharmanda...

Pop

(yo'ldan o'tayotgan gurjilarga)

Ninaning so'zlarin anglang, xaloyiq,
Bu katta isnoddir bizga noloyiq!

Gurjilar

Fursati o'tmasin, darrov ketaylik!
(darhol yugurib ketadilar)

Shayx Hodi

(yonidagilarga)

Ketaylik, bizlar ham shayxga yetaylik.

Barcha

Qani ketdik, shayximizga intizor,
Qani ketdik, shayximizga jon nisor!..

Ular ham hayajonli va jadal odimlar bilan gurjilarga ergashadilar. Oxirgi bayt tugab borar ekan, parda bekiladi.

Parda

II sahna

Oqshom payti, bir tomonda Kur daryosi, uning yoqasida, beriroqda yalang'och bir qoya... Chekkada, qoyaning ortida bir o'rmoncha... qoyaning ortidan, ko'rinmas tomonidan qoyaga chiqadigan yo'l bo'lsa-da, sahna tomoni faqat o'pqondan iboratdir.

Parda ochilganda uzoqlardan cho'pon nayning sahroyi va mahzun ohangi ruhlarni o'rtab turadi.

Shayx San'on, qo'lida tayoq, boshi ochiq, sochlari patila-patila, qayg'uli va horg'in bir qiyofada qoya tepasida paydo bo'ladi. Og'ir-og'ir nafas olib, bir necha qadam chekinib, ortga boqadi. Bir-ikki marta chuqur oh chekib, yengi bilan peshonasining terini artadi. Shu payt keksa, nuroniy Darvish daraxtzordan chiqib keladi. Shayx San'onni bu holda ko'rib, istehzoli qarab turadi va beparvo, og'ir qahqahalar urib kuladi. Shayx esa cho'chinqiragan, hurkak bir qiyofada Darvishga o'girilib qaray boshlaydi.

Darvish

Bu ne qiyofat! Bu ne holdir, vo darig'!?
Soch-soqol oppoq! Rang-u ro'ylar sarig'!
So'yla, ey shayx, boshingga tushmish nalar?
Qani u avvalgi shayxlar, xojalar?
Aytgil, ey shayx — darbadar, so'yla, ne hol?
Qani ul avvalgi hashmat, zuljalol?!

Shayx San'on

(yon tomonga boqib, qo'li bilan Darvishga ko'rsatib)

Faqat shayxlar emas ushbu kun yakto —
Meni izlamoqda poplar ham hatto.
Menga ta'zimdadir butun bu olam,
Endi o'zgachadir ulug'ligim ham.
Faqat bir islomga emasman rahbar,
Menga ergashmoqda nasroniylar-da.

Darvish

(Shayx ko'rsatgan tomonga boqib, hayrat bilan)

Bu kelishda bir falokat hidi bor,
Yaxshiroq boqqil, jinoyat hidi bor!
Hammasi qon uchun jo'shib kelurlar,
Intiqom olgali shoshib kelurlar.

Shayx San'on

(diqqat bilan tikilib)

Oh!.. Ular hammasi bevafo, g'addor,
Hammadan oldinda kelmoqda Xumor!

Darvish

Sababsiz emasdir bu g'azab, bu kin?

Shayx San'on

Ixtilof boisi — mazhab ila din...

Darvish

(yarim qahqaha urib)

Ana, ko'rdingmi, din nalar tug'dirar,
Ne balolar, ne fitnalar tug'dirar.
Bir bo'lsaydi din yer yuzinda agar,
Baxtiyor bo'lardi bu bani bashar.

Shayx San'on

(olis ufqlarga boqarkan, dahshatli va azobli bir ohangda)

Ayo, shayx, holimni, kel, tamosho qil,
O'z ra'yim o'tida yondim men g'ofil.
Sening o'gitingga boqmadim aslo,
Ayoldan keladi kelsa har balo!

Darvish

(jilmayganicha)

Xayoliy bu xitob, ajab, kimgadir?

Shayx San'on

Oh, tirik bo'lsaydi hozir Shayx Kabir,
Ko'rardi ajoyib bashoratini,
O'zin mo'jizaviy karomatini.

Darvish

Boqma, Shayxim, bu holi purg'amingga,
Kirajaksan haqiqat olamiga.
Fazli haq zuhr etadi kamolingda,
Porlagay Haq nurlari jamolingda,
Senda bir ahli hol alomati bor,
Senda endi Xudo qiyofati bor.

Shayx San'on

(bezingan bir qiyofada)

Bas, yetar, ket endi sen ham. Ket shitob!..
Ket yonimdan, o'zga bir dardsizni top!
Bas, yetar, jonimga tegdi mavhumot,
Menligim tugandi, tugandi hayot!
Meni sen aylading bu dardga duchor,
Ket endi, daf bo'lgin!..

(Xumorning kelganini ko'rib)

Oh, Xumor, Xumor!
Ne uchun kelding sen menga izma-iz,
Meni o'ldirmoqmi yo niyatingiz?

Xumor

(yaqinlashib)

Yo Shayx! Hayallama, tez bo'l, iltimos,
Qochaylik, ulardan bo'laylik xalos.

Shayx San'on

(dovdirab qolib)

Oh, mendan tag'in ne istaydirsan? Ket!..

Xumor

(yanada biroz yaqinlashib)

Shayxim, o'jarlikni endi sen tark et.

Darvish

Shayxim, ortiqchadir ta'na-yu tahqir,
O'z ishidan pushmon bo'lganni kechir.

Xumor

Meni afv et, gunohim ko'pdir, omon!
Sendadir ko'nglim, faqat senda... Ishon!
Men uchun ham ko'p muqaddasdir sening
Har amaling, har tariqating, dining.

Shayx San'on

(Xumorning sochlari silab)

Demakkim, sen meni izlab kelgansan,
Demakkim, bevafo emas ekansan.

Darvish

(boshini sarak-sarak qilib, yarim qahqaha bilan)

Ba'zi malaklarning holi, Shayx San'on,
Bir-ikki so'zida bo'lmas namoyon.
Uni ta'qib etsang, sendan qochadi,
Yuz bursang, oldingga tushib uchadi.

Yana ma'noli tarzda boshini sarak-sarak qilganicha beparvo odimlar tashlab g'oyib bo'ladi. Shayx xayol, Xumor esa hayrat og'ushida qoladi. Shu payt yon tomondan O'zdamir bilan O'g'uz, barcha shayx va muridlar shoshib kelishadi. Shayx San'onni qoya tepasida ko'rib.

Barcha

Ana shayx! Qoyada turibdi qoyim!
O'zingga ming qatla shukur, Xudoyim!..

Shayx San'on

(hayratomuz va istehzoli bir tabassum bilan)

Darbadarlar, sho'rlik g'ofillar!
Keting, yo'ldan ozgan johillar!

Shayx Hodi

(Shayx San'onning oqarib ketgan soch-soqoliga razm solib)

O'zgarib ketibdi u siymoyi pok.

Shayx Sadro

(San'onga)

Shayxim, pastga tushgin, u joy xatarnok.

Shayx San'on

Yuksalgan o'lsa ham pastga enmagay,
Haq nuri doimo yongay, so'nmagay!

Shayx Hodi

Bu sovuq loqaydlik boisi nadir?
Shayx, nahot unutding bizlarni, axir?
Pastga tush, qo'lingni ko'zga suraylik,
Barcha mojaroni so'ylab beraylik.

Shayx San'on

Yo'q, tuban tushmayman, istagan kelsin,
Kimki meni sevsa, chiqsin, yuksalsin.

Abululo

Shayxim, afu etgil, ta'na qilmasmiz,
Begona eldir bu, yo'lni bilmasmiz.

Shayx San'on

Kim yo'lni bilmasa, holiga voydir,
Menga eng ma'quli — mana shu joydir.

O'g'uz

(Shayx Hodiga)

Boshqa bir yo'l ham bor,
yuring, ketaylik.

Barcha

(O'g'uzga ergashib)

Ketaylik, ketaylik, shayxga yetaylik.

Shoshilib ketadilar.

Xumor

(atrofga boqar ekan, bezovtalik bilan)

Qochaylik, bizni ta'qib etmoqdalar,
Biznikilar kelibon yetmoqdalar.

Shayx San'on
Boq, Xumor! Har tomon o'pqondir, o'pqon...
Xumor
Istasang, sen bilan bo'lurman qurbon.

Pop va Platon boshchiligida gurjilar qoyada paydo bo'la boshlaydilar. Xumor "oh!" deganicha Shayx San'onning og'ushiga siqiladi, gurjilardan bir-ikkitasi hujum qilmoqchi bo'ladi.

Pop
(gurjilarga)
Biroz sabr qiling...
(Xumorga)
Xumor, ey Xumor!
Senga loyiqmidi ushbu ish zinhor?
Nima qilib qo'yding, tushun, begoyim?
Yuzin o'girdimi sendan Xudoyim?
(Shayx San'onga ishora qilib)
Oh! U inson suratli shayton erur,
Ayril undan, u xoin inson erur!
Xumor
Sen bu gapni aytmakim, gunoh bo'lur,
Jon jasaddan, ayt-chi qandoq ayrilur.
Platon
Xumor, sen g'azabga uchraysan tamom,
Va meni olamga qilursan badnom.
Shayx San'on
(Xumorga rahmi kelib)
Bor, otangdir ul, Xumor, itoat qil,
Har ne amr etsa eshit, ijobat qil!
Xumor
Shayxim, endi meni qiynama zinhor,
Sensiz — hayot bekor, yashamoq — bekor!
Pop
(botib borayotgan quyoshni
Xumorga ko'rsatib)

Qaragin, ne uchun alvondir quyosh,
Nomusdan qizarmish ko'tarolmay bosh.
U ham xafa bo'lmish zalolatingdan,
U ham ranjimishdir bu holatingdan.

Xumor

(achchiq tabassumlar bilan)

E-voh, men ham hozir botib borurman,
Boshqa bir olamga yetib borurman.

Shayx San'on

(Xumorni og'ushiga olib)

Yo'q, pastga enmaymiz, pastda nima bor?
Arshi a'lolarga uchamiz, Xumor!
Haq sari uchgaymiz yuksalib raso,
Xuddi shunday uchgan hazrati Iso.

Pop

(g'azab bilan, gurjilarga)

Ne uchun turibsiz ko'zni qilib lo'q,
Ortiqcha kutmoqda endi foyda yo'q.

Gurjilardan bir qismi hujum qilmoqchi bo'ladi, shu payt Shayx Hodi yonidagilar bilan jadal yetib keladi.

O'zdamir

(hujumga hozirlangan gurjilarga)

Shoshmanglar!..

O'g'uz

To'xtangiz!

Shayx Hodi

Nima gap?

Pop

San'on
Qizni bermayotir...

Shayx Hodi

(hayrat bilan)

Bu ne vijdon!..
Shayx San'on Xumorning tolibi erur,
Qiz shayxning dushmani, raqibi erur.

(Shayx San'onga yaqinlashib)

Shayx!..

Shayx San'on

Yaqin kelma zinhor!.. Tur unda qoyim!
(barmog'i bilan xayoliy bir doira chizib)
Baytulharam erur mana shu joyim.
Begona kirishi man' etilgan, man',
Sen ham sir-asrorga begonadirsan!

Shayx Marvon

(bir qadam ilgari yurib)

Shayx!

Shayx San'on

Daf bo'l, nari ketgin... Johil, benavo!

Pop

Bu qanday dahshatli holdir, yo Xudo?!

Shayx San'on

(Xumorga)

So'yla, amring nedur?

Xumor

Bo'lsaydim xalos!

Shayx San'on

(ortdagi daryoni ko'rsatib)

Bir najot yo'li shu — o'pqondir, xolos.

Platon

(sarosimaga va hayajon bilan)

Xudoyim!.. Qo'ymanglar...

Xumor

(Shayx San'onga)

Bo'ldi, qochamiz...

Shayx San'on

(daryo tomon boqib)

Uchamiz, Haqqa peshvoz uchamiz!

Platon

Oh, Xumor!

Xumor

Alvido!..

Shayx San'on
Yo Alloh!..

Har ikkalasi qo'l ushlashib daryoga otiladilar.

Gurjilar
Ketdilar...
Shayx va muridlar
Uchdilar...
Platon
Xudoyim, e-voh!..
(deya beixtiyor daryoga otilmoqchi bo'ladi, O'g'uz monelik qiladi)
Pop
(g'azab bilan)
Platon!
Platon
Oh!.. Ketdi...
Pop
(sovuqqonlik bilan)
Qo'yaver, bo'tam!
Platon
(devonavor bir holda)
Bariga sen sabab... Razil, muttaham!
(xanjar bilan popga hujum qiladi, gurjilar uni tutib qolishadi)
Shayx Hodi
(daryo tomonga qarab)
Boraylik, topilgay balki bir najot!
Shayxlar va muridlar
Yuringlar...
Gurjilar
Bizlar ham boraylik!..
Platon
Hayhot!..

Parda

ILOVA

Oydin bir may kechasi... Kurdan biroz chekkadagi yam-yashil gullarga ko'milgan tog' kamari...

Shayx San'on Xumorni qo'llarida ko'tarib olgan bir holda og'ir nafaslar olib, horg'in qadamlar bilan tog' tepasiga chiqmoqchi bo'ladi, biroq yurishga majoli yo'qligidan Xumorning jonsiz, harakatsiz jasadini yerga qo'yadi va boshini tizzasiga olib, to'zg'igan sochlarini silay boshlaydi.

Shayx San'on
Ruhim!..
Ey g'unchayi bahor, Xumor!
Nozanin dilbarim, Xumor, Xumor!
Sen nechun bunchalar jim bo'lib qolding?
Ne mushkul bir yerda uyquga tolding?
(chuqur bir hayrat va joziba bilan)
Buncha jozib,
buncha nozik, so'lg'in nur,
Yo Xudoyim!
Buncha shirin uxlab yotur!
(qo'llarini o'pib)
Xumor, bu sukutni ilohiy bilib,
Malaklar kelgaydir ta'zimlar qilib.
Husni ishq xudosi,
Xalloqi olam
Seni muqaddas deb bilgay, malikam.
(sochlarini silab)
Uxla, ey sen muqaddas gulniholim!
Uxla, ey nozanda iffat misolim!
Uxla, ey sen yori jonim, uxlagin,
Uxla, ey sen mehribonim, uxlagin!..

Shayx Hodi

(jadal kirib kelar ekan)

Ketaylik, tur endi,
ketaylik, Shayxim.

Shayx San'on

(majnunona)

Nelar demoqdasan?..
Sen kim o'zi, kim?..

Shayx Hodi

Seni o'ldirgali kelur johillar,
Ketaylik, o'zga bir chora yo'q magar.

Shayx San'on

Telibamisan? Qayga ketamiz, jonim,
Bunda uxlab yotsa jon-u jahonim!

Shayx Hodi yanada yaqin kelib Xumorning nabzini (tomirini) ushlab ko'rmoqchi bo'ladi. Shayx San'on unga bir qattiq shapaloq tortar ekan, g'azab bilan.

Sen unga qo'lingni tekkizma zinhor,
Xoinsan, sotqinsan, olchoq, nobakor.

Shayx Hodi

Shayxim, o'jarliging behuda, bekor,
Olis-olislarga ketmishdir Xumor.
Senga begonadir endi bu go'zal,
Sizlarni ajratdi beshafqat ajal.

Shayx San'on

(devonavor)

Nelar demoqdasan? O'lgaymi malak?

Shayx Hodi

Shayxim, og'ir bo'lgin...

Shayx San'on

(juda g'azabli)

Xo'sh, bu ne demak!?
Maqsading nimadir, so'yla, ey inson!

Shu payt Shayx Marvon kelib yaqinlashmoqchi bo'ladi.

Shayx Hodi

(Shayx Marvonga)

Shoshma!..

Shayx San'on

Yaqinlashma, ey sen, ko'r shayton!

(har ikkisiga)

Bizni o'ldirmoqmi sizdagi matlab?
Ketingiz... Ketingiz... Daf bo'linglar, daf!

Har ikkalasi bir chekkaga chiqib turadi. Shayx Marvon xafa va g'azablangan, Shayx Hodi afsuslangan va marhamatli nigohlar bilan Shayx San'onning ahvolini tomosha qilib turadilar.

Uyg'on endi, Xumor, uyg'on, ketamiz,
Biz bu iflos muhitni tark etamiz.
Har tomondan bostirib ag'yor kelur,
Uyg'on endi, ey Xumor, tur endi, tur!

(Xumorning qo'llarini olib o'padi, lekin bu qo'llarni qo'yib yuborganida ularda hayotdan asar yo'qligini payqab ahvoli o'zgaradi, takror yuz-ko'zini, sochlarini o'pib, silar ekan, o'zini yo'qotib, sarosimaga tushgan bir holda)

Bizga dushman erur bu jumla olam,
Shafqat ayla, ey Xumor, qilma sitam.

(Biroz majnunona va telbavor boqib turadi, so'ng shiddatli, biroq qo'rqinchli bir qahqaha bilan)

Ochilib kelganda, oh, baxtim mening,
Qaydadir ey bevafo, ahding sening?
Meni tashlab ketma, mohimdir o'zing,
Dunyoda yolg'iz panohimdir o'zing.

(yana zaharxandalik bilan)

Oh, bu sukutingda qandoq ma'no bor,
Mendan ranjidingmi, azizim Xumor?!

Gunohdir, ko'zlarni yoshlab ketmaslar,
Yo'lda yo'ldoshlarni tashlab ketmaslar.

(o'zgargan bir ohangda)

Yo'q-yo'q, qocholmassan, yig'lab-bo'zlarman,
Men seni darbadar bo'lib izlarman.

(biroz majnunona boqishlar bilan Xumorga qarab turadi, so'ngra dovdirab qolib, qayg'uli bir ohangda)

Turgil, uyg'on, dilbarim, turgil, uyg'on, ketamiz,
Shafqat ayla, ey Xumorim, tur endi, jonon, ketamiz!

(Xumorni turg'izmoqchi bo'ladi, biroq ruhsiz va jonsiz bir jasad ekanligini anglagach, ma'yus va telbavor bir holda osmonlarga qarab)

Marhamating yo'qmi? Aytgil, Subhonim,
Adolating qani!?

(Xumorga)

Xumorim, jonim!..

(Iztirobli va chuqur ohlar chekib goh ko'kka, goh Xumorga boqadi. So'ng majnunona bir qiyofada, iztirob ichida ham kulmoqchi, ham yig'lamoqchi bo'ladi, lekin hech biri qo'lidan kelmaydi. Ko'zlari o't sochgan holda Shayx Hodi va Shayx Marvonga hujum qilmoqchi bo'ladi. Qo'qqisdan qayrilib Xumorga boqadi, ilohiy bir sarxushlik bilan yarim ovozda "oh!" deya yiqilib tushadi)

Shayx Hodi

Ketdi...Shayx San'on yo'q endi,
So'ndi... E-voh... Hikmat shu'lasi so'ndi.

Shayx Marvon

(soxta bir sarosimada)

Ehtimol, bordir biror chora-najot...

Shayx Hodi

Hech bezovta bo'lma, chora yo'q, hayhot!
So'ng dam Xumor uni qo'ymadi yolg'iz,
U qandoq yashasin axir Xumorsiz?

Oy quyoshdan hech qachon bo‘lmas judo,
Gar quyosh bo‘lmasa, oy sochmas ziyo.

Shayxlar va muridlar

(kirib keladilar, alohida bir ohangda)

Na mudhish saodat! Na dilbar falokat!
Uyg‘on, tur! Uyg‘on, ey asiri muhabbat!
Uyg‘on, Shayx!
Uyg‘on, ey sohibi karomat!
Bekordir bu rohat, bu istirohat!
Uyg‘on, Shayx, uyg‘on,
Shayx, uyg‘on Shayx San’on,
Uyg‘on bu g‘aflatdan, ey piri urfon!

Gurjilar

(kirib kelishar ekan,
alohida ohang bilan shayxlarga)

Ne bo‘ldi, aytgin, ey bashar,
Nedur bu holi purfig‘on?
Bu lavha nuri g‘am sochar,
Nedur bu xobi noz, omon?

(Xumorga)

Uyg‘on, e guli navbahor!
Uyg‘ongil, ey ofatijon!
Uyg‘on, Xumor, uyg‘on, Xumor,
Uyg‘on, uyg‘on, Xumor, uyg‘on!

Shayxlar va muridlar

Qovushding, ulug‘ Shayx, dilbar Xumora!
Falak rahm etmadi... Ammo na chora.
Bahor ummidingga fasli xazon keldi,
Yor-u ag‘yorga vido bir zamon keldi.
Uyg‘on, Shayx, uyg‘on,
Shayx, uyg‘on, Shayx San’on,
Uyg‘on bu g‘aflatdan, ey piri urfon!..

Gurjilar

Xumor, ko‘z och, go‘zal malak!
Bu na bo‘lakcha holating!

So'ldi go'yoki bir chechak —
Tarovating, latofating.
Visolga yetmading, demak,
Ko'ngilda qoldi hasrating...
Uyg'on, Xumor, uyg'on Xumor,
Uyg'on, uyg'on, Xumor, uyg'on!

Darvish

(tog'ning tepasidan tushib kelar ekan, istehzoli qahqahalar bilan)

Shayx qayda, yo Xumor qaydadir, hayhot!
Xudoyim, buncha ham johil odamzod!?
Bilmayman, ne uchun bu faryod, bu zor?

(jasadlarni ko'rsatib)

Bularning tuproqdan nima farqi bor?

Muridlar

(Darvishga)

Darding bor, shekilli, aylagin ayon!

Gurjilar

Ne demak istarsan? Bizga et bayon!

Barcha juda katta qiziqsinish bilan jasadlarning atrofini o'rab oladi.

Darvish

(barchaga)

Ajab, men nima dey? Hamangiz faqat
Dunyoda kezingan jonli bir jasad.
Shayx San'on Xumorni izlab jonhalak,
Ko'kda kezib yurar misli bir malak.
Sizda yo'q vahmi Xudo, dahshat yo'q,
Fikr-u idrok yo'qdir, basirat yo'q.
Kimki ko'r tutmas esa vijdonni,
Ko'rgay ul Xumor ila San'onni.

Bu gaplardan so'ng hamma sarosimaga tushib qoladi. Darvish o'ng qo'li bilan ufqlani ko'rsatib.

Qarang, arsh-a'loga ketur beg'ubor
Buyuk Shayx San'on-u nozanin Xumor!

Hamma diqqat-e'tibor bilan ufqlarga tikiladi. Shayx Hodi bilan Shayx Sadro g'amgin, Darvish esa mag'rur va louboli bir vaziyatga kiradi.

Shayx Marvon
Bari yolg'on...
Barchasi bir mavhumot...
Shayx Naim
Barchasi bir bema'ni yolg'on...
Darvish
Hayhot!
Kimningki ko'r bo'lsa agar vijdoni,
Idrok etolmas ul nuri Yazdonni.

Shu payt sahnaning shu'lasi so'nadi, orqadagi ikkinchi parda ochiladi. Xumor bilan Shayx San'onning qo'l ushlashib bulutlar ichida uchib yurganlari namoyon bo'ladi.

Darvish
(qayta ko'rsatib)
Qaranglar!..
Gurjilar
(tasdiq bilan)
O'shalar, yo Parvardigor!..
Muridlar
Shayx uchib yuribdi!..
Gurjilar
Uchmoqda Xumor!
Darvish
Malakdek uchmoqda ikkisi ma'sum.
Barcha
Uchar!.. Yuzlarida go'zal tabassum.
Darvish
Yo Xudoyim, bunchalar jozib ular,
Ko'kdagi yulduz izin yozib ular.
G'aybga ketmoq istayurlar, g'aybga...
Barcha
Oh!..

Shu payt Pop kirib keladi va sarosimaga tushgan holda qarab turadi.

Muridlar
G‘aybga ketdi ikki gavhar, g‘aybga...
Gurjilar
E-voh!..
Darvish
Ikkisin oldi og‘ushga malakut,
Ey olam, saqla sukut!.. Saqla sukut!..

Yuqoridagi parda bekilib, sahna tag‘in yorishadi.

Pop
(ilgari chiqib, yo‘g‘on va keskin ovoz bilan, o‘ziga xos ohangda barchaga)
Ey siz ojiz, bechoralar!
Aldanmangiz har kohinga.
Ey yuraksiz ovoralar,
Aldanmangiz har xoinga!
Aldanmangiz, aldanmangiz!
Afsunchidir, devonadir.
Aldanmangiz, aldanmangiz!
Aytganlari afsonadir!
Barcha
(Popga)
Sen bexabarsan, shubhasiz,
Qalbingda yuz ming shubha bor.
Ko‘rdik faqat biz barchamiz,
G‘ayb bo‘ldilar, g‘ayb bo‘ldilar.
Muqaddasdir chindan, inon,
Ham Shayx San’on hamda Xumor.
Yo‘l oldilar jannat tomon,
G‘ayb bo‘ldilar, g‘ayb bo‘ldilar!
Pop
(g‘azab bilan)
Gumroh insonlarga magar

Jannatda yo‘q aslo makon.
Aldanmangiz, aldanmangiz,
Uchmoq yolg‘on, ko‘chmoq yolg‘on!..
Aldanmangiz, devonalar!
Ucholmaydi ahli bashar.
Ular axir bebol-u par
Osmonlarga qandoq uchar?..

Barcha

(olis ufqlarga ishorat qilib)

Yuksaldilar Iso kabi,
Qayg‘ulardan qutuldilar.
Ruhoshino ro‘yo kabi
G‘ayb bo‘ldilar, g‘ayb bo‘ldilar!
Yuksaldilar, yuksaldilar,
Jannatda rohat qildilar.
Yuksaldilar, yuksaldilar,
G‘ayb bo‘ldilar, g‘ayb bo‘ldilar.

Tamom

PAYG‘AMBAR[1]

To‘rt pardali drama

Bi’sat[2]. Da’vat. Hijrat. Nusrat.[3]

Bi’sat

Oydin, yulduzli bir kecha. Makka yaqinidagi Hira tog‘i. Atrofda g‘orlar, yuksak qoyalar, xafvli so‘qmoqlar, qo‘rqinch jarliklar... Payg‘ambar manglayini tutgancha chuqur o‘yga tolgan. U qirq yoshda, ko‘rkam, viqorli siymo. Peshonasi, ko‘ksi, yelkalarining orasi keng; rangi qoracha, chehrasi nuroniy... Sochlari jingalak ham, tekis ham emas; bir tutam soqoli o‘ziga yarashgan. Bilaklari, qo‘llari yo‘g‘on-yo‘g‘on, quvvatli. Katta boshli, yoy qoshli; kipriklari uzun-uzun, ikki qoshining orasi ochiq; qirra burunli, yumaloq yuzli; o‘rta bo‘yli, suyaklari yirik va salobatli shaxs. Ko‘zlari qora va katta-katta... Xayolga g‘arq; o‘ychan ko‘zlar-la tevarakka boqarkan, kecha jimligini allalayotgan hazin va elituvchi ud tovushiga quloq tutarkan, mudroq va bexud ko‘rinadi. Shu chog‘da pushti, moviy va binafsha nurlar ichida oltin qanotli, fusunkor bir malak ko‘klardan tusha keladi va ilohiy ohangda Payg‘ambarga xitob eta boshlaydi.

Malak
Ey ulug‘ yo‘lboshchi, ey buyuk daho!
Tur, senga intizor bu yer-u samo!
Tabiat, har taraf ro‘yoga tolmish,
Ruhlarga she’r-u ishq savdosin solmish.

---

[1] *Tarjima qilingan manba*: Hүsejn Чavid. Əsərləri. Dərd чilddə. Ychүnchү чild. Bakы, “Jazыchы”, 1984. (“Rejg‘əmbər”, 5-92 s.)

[2] **Bi’sat** — Payg‘ambarning yuborilishi.

[3] **Nusrat** — Allohning yordami, g‘alaba.

Bu kecha, yulduzlar xayolga oshno,
So'yla, seni tinglar bu jimjit fazo...

Payg'ambar

(boshini ko'tarib, hayrat va iztirob ila)

Ajab, bu tushimmi-o'ngimmi va yo?
Sen kimsan, ayt?

Malak

Menmi? So'rama aslo!
Azaliyat shafag'inda yuz ochgan
Bir g'unchaman, oq-qizg'ish bir yulduzman...
Abadiyat ufqlarida bir izman,
Tangri dargohida yetishgan qizman,
She'r, hikmat, zakoning ilohasiman,
Ulug' dohiylarning nadimasiman.[1]*
Ayni chog' ikkimiz garchi ayromiz,
Ammo bir rubobdan chiqqan sadomiz.

Payg'ambar

Bilmam, nechun kelding, izlarsan neni?

Malak

(ko'kka qarab)

Unga olib bormoq istarman seni.

Payg'ambar

Ey voh, sen kelib-da qiynaysan har gal,
Menga shu jumboqni etib bergil hal:
Sen o'zing kimsan-u, ochiq ayt, kim men?

Malak

Bilki, men malakman, payg'ambarsan sen.

Payg'ambar

(lol qolib, biroz orqaga chekiladi)

Hay-hay, sen, demakki, malaksan! Hayrat!

Malak

Men senman, sen ham men, budir haqiqat
Men sening aqlingman. Faqat bil shuni,
Har gal shu holatda ko'ryapsan meni.

---

[1] **Nadima** — suhbatdosh.

Payg'ambar
Yaqin kel, kela qol,.. Holing na go'zal!
Yo'q, kelma, to'xtay tur!
So'yla, shu mahal
Yana iztirobda o'rtandi ruhim,
Tag'in titramoqda qalbi majruhim,
Shavq-u hasrat ichra tag'in to'lg'onar,
Qahr otashida qaytadan yonar:
Xuddiki ichimda boshlandi to'fon,
O'tlar sochilmoqda boshimda har on,
Yonmoqda o'ylarim, o'zligim bu payt,
Chora top, topmasang, maxv etgay bu dard.
Malak
Eng yaxshi chora, bil, azm-u sabotdir.
Yana: hech bo'lmagin hislarga asir.
Ojizlikni otib, yuksal bu zamon,
Yuksal, ey yo'lboshchi, shonli qahramon!
Paytidir, qanot ker arshi a'loga,
Yuksal, sen loyiqsan yuksak ma'voga!
Payg'ambar
Boq, menda qanot yo'q, men bir ojizman,
Kimsasiz yo'lchiman, tasallisizman.
Atrofim g'orlar-u tosh, qum, quzg'unlar,
Qoyalar, bir to'da safil ozg'unlar;
Jarliklar, o't sochgan vahshiy o'valar,
Ruhimni siquvchi og'ir havolar...
Bunda bir oqar suv, chaman yo'q, hayhot,
Ko'rgan, eshitgan yo'q; yo'q ishq-u hayot!..
Malak
(ko'kka qarab)
Boq, shu cheksiz fazo, shu jimjit dengiz...
Naqadar yoqimli, na go'zal, dog'siz...
Uchishar har yonda porloq yulduzlar,
Raqs aylar go'yoki nozanin qizlar...
Bunda har ne shoir, sen ham bir shoir,
Bularning barchasi ishqqa oiddir.

Payg'ambar
Olmos parchalarin sochguvchi shu tun
Qanchalar muhtasham... faqat men mahzun,
Muhitga boqarkan, qaynaydi qonim,
Yuragim o'ynaydi, siqilar jonim.
Bilmam, shu o'lchovsiz borliq kim uchun?
Shu naqshin parda, shu qorong'u nechun?
Meni o'ylantirar ana shu jumboq,
Har doim ongimda ana shu so'roq.
Shu qora chorshaf g'ov, to'siq har mahal,
Agar ucha olsam, bilki, eng avval
Uni yirtardim-da, otib har yoqqa,
Yetishar edim ul husni mutloqqa.
Malak
Bundan ketmoq qulay...
Biroq sen alhol
Ichingdan ne kelsa, unga quloq sol.
Tingla koinotni, tomosha ayla,
Bilki, har bir quyosh undan bir shu'la!..
Har bir mitti zarra, har kichik yaproq
So'ylar U ramzdan, anglatar porloq.
Payg'ambar
Mening dunyodagi tilagim har choq
Unga intilmoqdir, Unga yetishmoq...
Malak
Bu ham bo'lar; bu chog' to'g'ri yo'lni tut:
Otalardan qolgan eskini unut!
Xurofotni yiqit, butlarni sindir,
Yo'ldan ozganlarni sen Haqqa chaqir.
Ko'ngillardan yasab ko'kka zinalar,
Vujudi mutloqqa yuksal, porla, bor!..
Payg'ambar
Shunday asr keldi, buzuldi jahon,
Zulm-u vahshat ichra qovrilib, yonar.
Yuzini o'girdi Tangridan inson,
Kufr-u jaholatni ma'rifat sanar.

Tamom mahv etildi yurak va vijdon,
Zolimlar haqli-yu mazlumlar haqsiz...
Boshchidir har xalqqa bir to'da shayton,
Barchasi munofiq[1], orsiz, axloqsiz.
Yorug'lik ustidan kuladir zulmat,
Fazilat ustidan kular fisq-fujur.
Ey voh, adolat-u huquq, hurriyat
Oyoqlar ostida toptalib turur!..

Malak

Mayli, san sabr ayla, azm-u sabot et,
Bor-da, shu qorong'u muhitni yorit!
Haqni tushuntir-da, bo'lma hech ma'yus.

Payg'ambar

Meni biror kimsa tinglamas, afsus.

Malak

Bu Tangri farmoni, bor, xalqqa so'yla!
Sen Uning tilidan so'yla, nutq ayla!

Payg'ambar

Qaysi mo'jiza-la so'ylay? Ojizman,
Kimsasiz bir qulman, himoyasizman.

Malak

(oltin muqovali kitob beradi)

Haqni bildirmoq-chun shudir rahbaring,
San'ati kalom[2] bu, bo'lgay hunaring.
Soxtadir, bil, boshqa bor mo'jizalar,
Mana shu kitobdir eng buyuk rahbar:
Tushuncha bergay ul ishq-muhabbatdan,
Injular sepadir ilm-u hikmatdan.

Shu chog' bir Arvoh goh bo'g'iq va qo'rqinchli, goh istehzoli va sovuq qahqahalar urib, tuproq tusli yopinchiqqa burkalganicha Payg'ambar qarshisida paydo bo'ladi.

---

[1] **Munofiq** — nifoq soluvchi, ikkiyuzlamachi kimsa; hazrat Muhammad zamonida kofirlikda davom etgani holda o'zini musulmon deb ko'rsatgan kimsalar sifati.

[2] Qur'on ko'zda tutilmoqda.

Arvoh

Qanday shoirona, totli bir xayol!
Boladay o'ylash bu, xayoli muhol!
(yopinchig'ining ostidan yalang'och qilich chiqaradi)
Inqilob istasang, menga quloq tut,
Ol keskir qilichni, kitobni unut!
Yaltillab turmaskan qo'lingda qurol,
Doim ezilgaysan, yasharsan behol.
Yordam qilolmaydir hech ilm-u hikmat,
So'nar, foyda bermas mehr-u muhabbat.
Ha, faqat qilichda quvvat-u qudrat,
Bunda haq, haqiqat, sharaf, hurriyat!
(ketishga chog'lanadi)

Payg'ambar

Nimasan, kimsan, ayt?

Arvoh

Piri nadimman,
Tarix ramzi, faylasufi qadimman.
Quchog'im bo'ldi har dahoga beshik,
Seni ham ayni chog' eturman tabrik.
Ha-ha, peshonangda porlagan yulduz
Meni jalb ayladi; endi ayni kez
Ilmi hikmat darsin olgaysan mendan.
Bo'lmasa, ko'nglingda tiklangan gulshan
G'unchasi gul ochmay, xarob bo'ladir,
Orzungdagi dengiz sarob bo'ladir...

Achchiq-achchiq qahqaha otadi va chekiladi. Payg'ambar andishalanib, chuqur o'yga toladi.

Malak

(totli tabassum ila)

Bilmam, tag'in nechun xayolga tolding,
Neni o'ylading-da, sal shoshib qolding?
Mehrdan yaxshimi sencha o'tli kin,
Yo'q, qilich so'zchalik emasdir keskin!

Avval yer g'arq edi qon-u qahrga,
Tangri mamnun — endi to'la mehrga.

Payg'ambar

Mehr-u muhabbatga asir men... har on,
Har zamon shu holda bo'lsaydi jahon!..
Butun koinotga to'lsin mehr-u ishq,
Ko'ngillar yuksalsin, bo'lmasin to'siq!
Viqor-la raqs etsin muhtasham bir his,
Ko'rib, qayg'ulansin, yig'lasin Iblis!
Hech qon to'kilmasin, har kun, har sahar
Shafaqdan sochilsin oltin g'unchalar.
Bunda hech bo'lmasin zulm-u riyolar,
Jonni erkalasin rangin ro'yolar...
Oh, menga kulsaydi shu nozli xayol,
Ushbudir mendagi g'oyayi a'mol.

Payg'ambar shu so'zlarni aytarkan, qo'llarini ko'ksiga qo'yib, tiz cho'kkanicha, maftun va majzub, ya'ni ilohiy ishqdan devonavor holatda boshini ko'tarib, ko'kka termuladi. Malak esa, ilohiy qarashlar-la, bosiq va sezilmas harakat-la yuksaklarga chekiladi.

DA'VAT

Oradan ancha vaqt o'tgan. Makka. Keng bir yo'l. Uzoqda qora yopqichli Ka'ba ko'rinadi... Yo'l chetidagi butsotar do'koni, unda bir chol but yo'nmoqda. Do'kon oldiga bir necha tayyor butlar sotishga qo'yilgan... Qarshidagi eshigi ko'rkam, chiroyli qurilgan uydan yoqimli ud sadosi eshitiladi.

Chol

(taralayotgan ud sadosiga hamohang qo'shiq aytadi)

Kecha bola edim, chol bo'ldim bugun.
Har zamon o'zgacha hukumat, qonun.
Insonlar ruhida davron jarangi,
Har kuni yangi but, yangi bir tangri...

Kecha xor-zor edim, bugun baxtiyor,
Har onning bir zavqi, bir maloli bor...
O‘z qo‘lim, o‘z tuyg‘um tayyorlar takror
Har kuni yangi but, yangi bir tangri...

Ud tovushi tinadi. Shu payt but do‘konga ikki kishi kiradi: biri oddiy kiyingan Cho‘loq, biri ko‘rkam libosli Naim.

Cho‘loq
Yaxshimisiz, otaxon!
Chol
Xush kelding, ey pahlavon!
Qaylarda qolib ketding,
Yoki bizni unutding?
Cho‘loq
(butlarni ko‘zdan kechirarkan)
Holimni so‘rama, chol,
Xafaman sendan ham sal:
Qancha butingni oldim,
Ish yurishmay, xor qoldim.
O‘g‘il desam, qiz berdi,
Oh, og‘irdir qiz dardi...
Naim
(mamnun qahqaha otadi)
Mening-chi, baxtim kuldi,
But oldim, omad keldi.
O‘g‘il, qizdan dardim yo‘q,
Boyman, doim ko‘nglim to‘q...
To‘rt o‘g‘lim, bir qizim bor,
Qizmas, bir oy parchasi!
Ko‘rganlar shoshib qolar,
Bir malak, gul g‘unchasi!

Payg‘ambar o‘yga botganicha kirib keladi va ularning so‘zini tinglaydi.

Cho‘loq
Ot qo‘yarkan otang marhum,
Boy bo‘lsin deb qo‘ymish Naim.

Mening esa, yo‘qdir ismim,
Cho‘loq deydi meni har kim.
Netay, tangrim, men bir baxtsiz...
Xotin har yil tug‘di bir qiz,
Barchasini tirik-tirik
Go‘rga ko‘mdim... Ey voh, biri
Ko‘p go‘zaldi, achinmadim,
So‘ng qiynaldim... bilmas hech kim...
(cho‘ntagidan taxtadan yasalgan butni chiqarib, Cholning oldiga otadi, asabiylanib, g‘azabga minadi.)
Har yomonlik keldi shundan!
Shu shum butdan, shu mal’undan!

Chol

To‘xta, o‘g‘lim, so‘zing kufr,
Mening qo‘lim omadlidir.
Bor kulbalar, koshonalar,
Eng muqaddas butxonalar
Men yasagan sanamlar-la
Bezatilgan... So‘zim tingla
(qo‘lidagi butga ishora qilib)
Sen shuni ol. Hech bir zamon
Bundan senga kelmas ziyon.
O‘g‘il berar, berar sarvat,
Berar bitmas bir saodat.

Payg‘ambar

(ko‘kka qarata, hayajonli tovushda)
Ulug‘ Tangri, ey qudratli Yaratgan!
Shu gap-so‘zlar senga qarshi bir isyon...
Shu hurmatsiz ozg‘inlarga qo‘rquv ber,
Shafqat ayla, shularga ham tuyg‘u ber...
Bir ko‘z berki, haq nurini ko‘rsinlar,
Bir ko‘ngil ber, to‘g‘ri yo‘lga yursinlar!
(atrofidagilarga qarata)
Bas, yurtdoshlar! Aynidingiz ko‘p, yetar!
Sizni kazzob bu kohinlar mahv etar!
Ajdodingiz to‘g‘ri yo‘ldan ayrildi,

Tosh, taxta butlarga sajdalar qildi...
Ma'nosiz u yo'ldan keching, unuting,
Unuting, endi siz haq yo'lni tuting.
Ma'budlar uzra eng porloq Tangri bor,
U bitta, U ko'zga ko'rinmas zinhor.
Udir bu borliqning avval, oxiri,
Butun koinotning muqaddas siri.

Chol

(asabiy)

Bu so'zlar ertak bari,
Ne ishing bor, ko'p cho'zma!..
Do'konimdan ket nari,
Pishgan savdoni buzma.

Payg'ambar

Butchi usta, endi o'yla:
Erta Uning dargohida
Javobing ne bo'lar, so'yla?

Cho'loq

(istehzoli qahqaha otib)

Ko'rinmas Alloh yonida
Ishimiz yo'q bizning sira,
Yuzimiz chunki qop-qora...

Payg'ambar

Afv etgay U, tavba ayla,
Lutfiga yo'qdir chegara.

Naim

(asabiy)

Ey, Abdulla o'g'li, tinch qo'y,
Gaplaringdan charchadik biz.

Payg'ambar

Quyosh chiqsa, bilmassiz, ey!
Pardalangan ko'zlaringiz!

Naim

(qora yopqichli uyni ko'rsatib)

E, uyalgin shu Ka'badan,
Ka'badagi Tangrilardan.

Uch yuz oltmish but bor ekan,
Bir Tangriga bormas inson.

Payg'ambar

(Ka'baga ishora qilib)

Sen maqtagan mazkur ma'bad
Yilda ikki bozor bo'lgan,
Yo'qsil arab savdo qilgan.
Tijorat bor bunda faqat...
Shu tuyg'usiz butlar bari
Tilsiz dallol erur bunda...
U, ko'rinmas o'sha Tangri
Yersiz, yurtsiz mavjud unda...

Shu payt o'rta bo'yli, manglayi porloq, qilich taqqan bir yosh yigit Payg'ambar yoniga keladi.

Cho'loq

Ana, Abu Tolib o'g'li!

Naim

(boshini sarak-sarak qilib)

Ha-ha, bildik, sen ham buning
Ajralmas bir soyasisan!
Or qil, axir sen kimning
Tog'isan-u qoyasisan!

Abu Tolib o'g'li

(qilichini qinidan yarim sug'urib, jahl bilan)

Ozg'in kimsa, shu onda o'ch!
O'chiradi yo'qsa qilich!

Payg'ambar

*(yigitning qo'lidan tutib,
bir chetga tortar)*

Kel, qondoshim! Qilma parvo,
Xudo bunga bergay jazo.

Abu Tolib o'g'li

(hayajonli)

Tomirimda oqqan qonim
Yondirmoqda o'tday meni.

Bular johil, yo‘q vijdoni,
Ettirmasman tahqir seni!
Payg‘ambar
Olim, johil so‘zin tinglash
Tushgan bizning zimmamizga.
Sabr aylash va haqni anglash
Tangri amri erur bizga.
Abu Tolib o‘g‘li
(qilich qabzasidagi qo‘li titrab,
qinga ishorat qiladi)
Qilichim shu tor zindondan
Ammo qachon qutuladir?
Payg‘ambar
Buyukdir U, kut... Yaratgan
Ne buyursa, shu bo‘ladir.
(ketadilar)
Cho‘loq
Abu Tolib o‘g‘lin bunday
Qahramon deb o‘ylamovdim.
Bola edi, o‘sib, shunday
Jasur bo‘pti-da, a, Naim?!
Naim
(istehzo va alam bilan)
Jasur, arslon kabi jasur!..
Oh, uyat-ku axir bizga:
Biri bola, bizni so‘kur,
Biri kular dinimizga!
Cho‘loq
Ko‘rinishdan yangi dinga
Kirganlar bor, ish shunaqa.
Naim
Iymon keltirganning unga
Ko‘pi xotin, bola-chaqa...
Cho‘loq
Abu Bakr qalay dersan?
Yangi din deb bermoqda jon.

Naim

U oqsoqol bitta jujuq,
Hech kimsaga ta'siri yo'q...

Cho'loq

(butchi cholning qo'lidagi sanamga qarab)

Otaxon, sen butni bitir,
Qornim ochdi, boray men ham.

Chol

Oqshom payti kelgin yetib,
Tayyor bo'lar yangi sanam.

Ketadilar. Shu payt baland bo'yli, xurmo tusli uzun sochli, nihoyatda go'zal, mag'rur va qo'rqmas bir qiz — Shamso qoratanli nadimasi bilan birga kirib keladi va qarshidagi uyga kirib ketadi. Ichkaridan nozik va hazin ud tovushi tarala boshlaydi.

Naim

(hayrat bilan)

Shamso — go'zal mug'anniya![1]
Musiqaning hur parisi!
Kel, kutaylik bir soniya,
Voh, na xushdir uning sasi!

Cho'loq

Bosh kohin der, ma'budlar ham
Ovozidan zavq-shavq olur.
Ash'ori-da zo'r, muhtasham.
O'qirmikin?..
U ko'p mag'rur.

Naim

(uyga ishora etib)

Bosh rais qaynisi bunda
To'y qilmoqda... ishonar kim —
U xushovoz,
mashhur Shamso
Shu bazmda turarmi jim!

[1] **Mug'anniya** — qo'shiqchi qiz yo ayol.

Shamsoning tovushi

Istayman shafaqlar, ol chechaklardan,
Oy, quyosh, insonlar va malaklardan,
Bunda bor go‘zallik kuylasin birdan,
Bari bir boqishda shikorim bo‘lsin!

Cho‘loq

Voh, bu tasodifga qarang!

(musiqaga quloq tutib)

O‘ldiradi kuyning o‘zi!

Naim

Ko‘rdingmi, ey, kallavaram,
To‘g‘rimikan aytgan so‘zim!

Shamsoning tovushi

Istayman har ne bor, uzog‘-u yaqin,
Dohiylar, qahramon zotlarning chaqin —
Nur ruhi yagona yuzda porlasin!
U menga sig‘ingan bir yorim bo‘lsin!..

Naim

Quloq berdingmi so‘zlarga?
Shafaqlardan toj istaydir!
Anoyi qiz! Sig‘mas yerga,
Ko‘klardan ham boj istaydir!..

Musiqa o‘zgaradi, raqs kuyi yangraydi.

Cho‘loq

Qornim ochdi, ketay endi.

Naim

Jinnimisan?
To‘xta bir dam.
Bir ne bo‘lganday ko‘rindi,
Chiqishmoqda mehmonlar ham.

Cho‘loq

(diqqat bilan kuzatadi)

Yosh-u qari... bek, boy... quda...
Boylar to‘yi o‘zi shu-da!

Naim

Boq, birinchi va ikkinchi,
Uchinchi ...— bor rais shunda!..

Birinchi, ikkinchi, uchinchi rais va boshqa kibor qiyofali mehmonlar yarim sarxush holda tashqariga chiqa boshlaydi. Ular ortidan chalg'uchilar ko'rinadi. Atrofda bir necha xotin, erkak, bola-chaqa to'planadi. Ikki-uch xotin raqs eta boshlaydi, boshqalar qarsak chaladi. O'yin tugagan paytda Payg'ambar o'ychan odimlar otib kirib keladi.

Birinchi rais

(o'rta yoshli, qalin soqolli;
Payg'ambarni ko'rar-ko'rmas qahqaha otadi; istehzo bilan)

Shunga boq, holat-u raftoriga boq!
Ko'kdan ingan, so'zi keskin va porloq!
Eski odatlardan jirkanar emish!
Tangridan kelmish u, payg'ambar emish!

Musiqa tinadi.

Payg'ambar

(kuchli, keskin bir tovushda)

Ha, biling, undandir asrori nihon,
Menga berilmishdir idrok-u bayon,
Tangrining hikmati jumlai jahon,
Bormi bir yolg'on bu deydigan inson?!

Ikkinchi rais

(yosh, go'zal, qurollangan)

Sen notiq emishsan usta nihoyat,
Ertak ayt, yo o'qi besh-o'nta oyat.

Uchinchi rais

(qari va ko'sa)

Kel, biroz so'ylagil cho'pon Musodan,
Otasiz, ko'klarda uchgan Isodan.

(istehzoli qahqaha uradi)

Ayt, sen ham uchdingmi, bo'ldi qanaqa?
Sakra, bir ko'raylik!

(o'zi sakraydi)

Qara, bunaqa!

(yiqilib ketay deydi, yana qahqaha otib, o'zini o'nglab oladi)

Payg'ambar

Menga ta'na qilmang, ey ahli fasod!
Eng katta yovingiz — jaholat, inod!
Sizniki zavq, safo ham chang-u rubob,
Sizniki har doim shu qonli sharob,
Shuncha vaqt Iblis-la yurdingiz, yetar,
Ko'z oching, bu g'aflat o'limdan badtar!..
Ko'z oching, bir qarang, olamda ne bor,
Bas, sizni mahv etar ichkilik, qimor!
Bu yo'lning oxiri jarlikdir, biling!
Haqiqat mayi-la sal sarxush bo'ling...
Fikringiz porlasin, olamni quchsin,
Ruhingiz yuksalsin, ko'klarda uchsin!
Tangri ishqi to'la ma'naviy sharob
Sizni hech etmagay badmast-u xarob.
Hozir arslon kabi barchangiz qizg'in,
Sal o'tmay bo'larsiz vahshiydek ozg'in,
Keyinroq bo'larsiz to'ng'izday miskin,
Shudir ahvolingiz oxirda sizning!..

Ikkinchi rais

(asabiy va hayajonli)

Kim deb o'ylayapti bizni bu odam?
Axir tahqirladi barchamizni ham!
Besh-o'n kas aldanur unga har kuni,
Haqiqat deb bilar har aytganini.

(qilichini qinidan chiqarib)

Paytidir, xoinni mahv etaylik biz!
U ora buzuvchi, fitnachi, dinsiz!

Uchinchi rais

(monelik ko'rsatib, yarim istehzo bilan)

Qo'y, shoshma! Menimcha, u devonadir,
Yo xayolparastdir, yo daydi shoir.

Payg'ambar

(achchiq tabassum ila)

Shoirman, qalbimda sidq-u safodir,
Izlaganim mudom nuri dahodir.
Ruhimni quvvatlar ilohiy olam,
She'rimni tinglaydir malaklar har dam.
Men o'shal husni xudo shoiriman,
Yer emas, ahli samo shoiriman!

Birinchi rais

(istehzoli kulganidan so'ng)

Shoirdan ko'pi yo'q Arabistonda.
Uchaman deysan sen, barisi yolg'on.
Qo'rqaman, qanoting yonar bir onda,
O'zingdan qolmagay biror nom-nishon.

Payg'ambar

Shoirga o'xshamas payg'ambar hech payt,
Payg'ambarlar so'zi, bil, koni hikmat.
Tangrim ilhom berar har zamon menga,
Ucharman ishqi-la men ham osmonga.
U munis rahbarim, har dam najotim,
Shundaykan, nechun ham yonsin qanotim?!

Uchinchi rais

(o'rtoqlariga)

Men sizga aytgandim axir har mahal,
Bir tabib lozimdir, bu inson kasal.

Payg'ambar

Siz menga kulyapsiz buguncha mamnun,
Erta bor sizlarga eng qo'rquvli kun!
U chog'da jamiki o'lgan tirilar,
Har kim qilganining javobin olar.

Birinchi rais

Yashamoq, o'lmoq?!.. Bu — har kungi o'yin,
So'ng bir kun tirilmoq, bu qanday junun?!
Ahmoqona yolg'on, bu shirin ertak,
Bunga imon etar, bil, faqat tentak!

Uchinchi rais
Sendan orif ko‘plar bor ekan,
Tangri seni tanladi nedan?
Payg‘ambar
Chunki men oshig‘i devonasiman,
Husnining dali bir parvonasiman.
Tanqid etsalar ham meni ming marta,
So‘zimni tuygan yo‘q ammo birorta.
Ikkinchi rais
Ehtimol to‘g‘ridir so‘zing, biroq biz
Sening Allohingni ko‘rmoq istaymiz.
Payg‘ambar
Eng kichik zarra-yu eng buyuk olam
Ilohiy ishq bilan birlashib turar.
U inja ramzdir, ko‘p sirli-mubham,
Har ulug‘ qalb o‘sha ramz deb urar.
Sudralgan hasharot ne bilsin, biroq,
Haqqa yaqinlashar har yuksalgan zot,
U so‘nmas bir quyosh, muhtasham, porloq,
Nurni farq etmaydir ko‘r ammo, hayhot!
Qayerda bor bo‘lsa haq, sharaf, vijdon,
Yaxshilik, to‘g‘rilik, go‘zallik, inon,
U yerda bor sevgi, unda bor iymon,
Yaratgan ham unda bordir har zamon!
Naim
(ochiq qolgan katta eshikdan qarab, Cho‘loqqa)
Bosh raisning, qara, ana,
Xonimi shod chiqib kelar.
E, bor bo‘lsin, xalqqa yana
O‘zi mo‘l-mo‘l ehson qilar.
Cho‘loq
Rostdan ham u ulug‘ xotin,
Qo‘li ochiq bir raisa.
Kecha katta but, sof oltin
Tortiq qildi u Ka’baga.

Shu payt ichkaridan to'rt nafar yalang'och qul ko'tarib olgan taxtiravon chiqib keladi. Taxtiravonda Raisa o'tiribdi. Taxtiravonning ikki yonida ikki go'zal joriya. Orqada bir habash, qo'lidagi qamchi bilan tezroq yurishlari uchun goh-goh qullarni savalab turibdi. Raisa ko'rinarkan, barcha unga ta'zim qiladi. Payg'ambar esa, keskin qarashlar bilan uni kuzatadi.

Raisa

(mag'rur va istehzoli tabassum bilan, jamoatga)

Ne gap? Tag'in shu afsunchi
Sizga nelar so'ylamoqda?

Ikkinchi rais

Ko'rmaysizmi, bu o'yinchi
Yana tug'yon aylamoqda.

Payg'ambar

(taxtiravonga qarab)

Bilmam, tashlab hayvonlarni,
Yelkalarda kezmoq nechun?
Shu bechora insonlarni
Yuk ostida ezmoq nechun?
Holbuki, boy bilan yo'qsul
Bir tuproqdan yaratilgan,
Bir sulton-u bir qora qul
Ayni loydan bor etilgan.

Raisa

(o'z-o'ziga)

Oh, u ko'zlar bir o'q kabi,
To qalbimga sanchiladir.
U bir fazilat sohibi...
Xo'rlaganlar yanchiladir.

(Payg'ambarga)

Menga qara, ko'p gapirma.
Men ularni sotib oldim.

(qullarga ishora qiladi)

Aylanasan sen ham qulga,
Istasam va bersam oltin.
Zotan oltin berib ancha,

Sotib oldi xotin seni:
Yoshi o'tgan tul Xadicha
Qondirdi-ku o'z nafsini.
Hech maqtanma, bilki, oltin
Bog'lab qo'yar senmas, hatto
Yo'q narsadan uydirganing
U ko'rinmas Tangrini-da!..

Payg'ambar

(hayajonli)

To'xta, to'xta... Sen aslo shoshma.
Aldanmaki, porloq vijdonlar,
Buyuk hislar butunlay boshqa!..
Sotilmaydir oltinga jonlar.
Haqdan kechib, bir oltin deya
Vijdonini sotgan har safil
Yahudiyning ko'ppagidan-da
Tubanroqdir!.. Shuni yaxshi bil.
Insonlarni, bil, bir-biridan
Ayirolmas oltin va kumush.
Angla, bizni ajratib turgan
Faqat bilim, ong va tushunish.

Shu damda kimdir orqa tarafdan kelib, Payg'ambarning boshiga xurmo yaproqlaridan to'qilgan tikanli toj kiydiradi. Atrofdagilar istehzoli kula boshlaydi.

Raisa

(qo'lidagi yelpig'ichni silkab, qullarga yur deya ishora beradi; ketarkan, jamoatga)

Nima kerak sizga yana?!..
Ham tinglarlar, ham kularlar!

Jamoatdan bir necha xotin va bolalar Payg'ambarga tosh ota boshlaydi.

Jamoat

(kin va nafrat bilan)

— Bor, e, majnun!

— Ket, devona!
— Ket, yolg'onchi payg'ambar!..

Payg'ambar

(tikanli tojni bir yonga otib, hayajonli va bir qadar ma'yus)

Oh, insonlik bo'lmishdir yer...
Tubanlashib, tamom bitmish!..
Vijdonlarda nur so'nmishdir,
Ko'ngillarni vahshat tutmish!..

Payg'ambar so'zlay boshlarkan, jamoat Birinchi raisning ishorati bilan cholg'u chala-chala, o'ynay-o'ynay Raisa ketgan tomonga yuradi, shovqin-suron ichida Payg'ambarning so'zi eshitilmay qoladi. Bolalar va xotinlardan bir nechasi yerdan tosh olib, Payg'ambarga ota-ota, qah-qahalar urib, masxara qilib, kinoyali tarzda uzoqlashadilar. Payg'ambar manglayini tutib, ma'yus qarashlar bilan ularning ortidan boqarkan, o'yga toladi.

Nadima

(orqada qolarkan, o'ylanqiragan Shamsoga qarata)

Shamso! O'ylab qolding nolon,
Nedir o'sha ko'ngling siqqan?

Shamso

Onam, otam, ukam, xolam,
Barcha unga qarshi ekan,
Oh, u ko'zlardagi qudrat
Rom etar telba ko'nglimni.

Nadima

Ha, undagi buyuk jur'at
Xafvli... yaqindir o'limi.

(Shamsoning qo'lidan tutadi, ketadilar)

Chol

(butlarni yig'ib, ichkariga qo'yadi; eshikni berkitadi; ketarkan, Payg'ambarga qaraydi; istehzoli tovushda)

Kirmadimi aqling? Yana
So'ylayversang, bil, o'lasan.
Quloq osmas kimsa senga,

Shunday mayus, toq qolasan.
Amin bo'lki, Lot va Uzzo[1]
Kimligingni oshkor qilar,
Albat, senga loyiq jazo,
Ne bo'lsa ham, tezda kelar.

Payg'ambar

(alamli hayajon bilan)
Erkak, xotin, bola — hamma
Bunda shodon, o'ynab-kular.
Pisand qilmas meni omma,
Ba'zilari ta'na qilar.
Eshitmaslar Tangri amrin,
Hazil deya o'ylar bular.
Sahoba bor besh-o'n yaqin,
Shular so'zim tinglar, bilar...

(Payg'ambar ketarkan, havo qoraya boshlaydi; nuroniy bir malak totli tabassumlar bilan Payg'ambar qarshisida paydo bo'ladi)

Malak

Ey Tangri elchisi, qayg'urma bu dam,
Umidsizlik senga yarashmas hecham!
G'oyalar g'oyasi umiddir, ishon,
Achchiq umidsizlik yomondan yomon.
Umidsiz har inson, umidsiz millat
Badbaxt, xor va barbod bo'lar nihoyat.

Payg'ambar

Lekin menga qarshi qaynar gina, kin,
Atrofimda to'la munofiq, xoin!

Malak

To'g'ri, ko'zlar ko'rdir, quloqlar sag'ir,
Vijdonlar kirlidir, ta'nalar og'ir...
Ha, kar quloqlarni ochish kerakdir,
Tikanli yo'lga gul sochish kerakdir.
Ha-ha, sen ocharsan u ko'r ko'zlarni,
Ha, sen tinglatarsan achchiq so'zlarni!
Yulduzlar o'ynarkan Haq quchog'ida,

[1] **Lot va Uzzo** — ikki ulug' butning nomi.

Esla, ont ichganding Hiro tog'ida!..
Ey, buyuk Yalovoch, jim tursang, inon,
Yuz bergay eng katta tarixiy ziyon!!!

Payg'ambar

(hijolat chekib)

U boqishlar oliy nishon,
Ham totli, ham qanday masrur!
Bu umidsiz qalbga har on
Orzu, amal nurin sochur!
Sening kichik ehsoningga
Loyiq bo'lgan jim turarmi?

(ko'kka qarab)

Ko'ngil bergan osmoningga
Ta'nalardan hech qo'rqarmi?!

Malak

Hech qo'rqma sen, ayt haq so'zni,
Har to'xtagan yurak ursin!
Erit ruhlardagi muzni,
Hech chekinma! Haqdir yo'ling.
Qancha og'ir ish bo'lsa-da,
Tangri amrin xalqqa anglat.
Har bir uyda, har kulbada
So'zla — zulmatni oydinlat!

Payg'ambar

(Malak qarshisida tiz cho'kib)

Yo'q, qaytmam yo'limdan, haqni aytarman,
O'limdan chekinmam, amring tutarman,
Chunki ul shafaqdan sen bir parchasan,
Ilohiy bo'stondan nurli g'unchasan,
Sen o'sha quyoshdan ingan yulduzsan,
Tangri kulgusidan yaralgan qizsan!..

Arvoh

(bir go'shadan Payg'ambar qarshisiga otilib chiqadi, qahqaha urganicha)

Chekinma! Xalqqa bor! Inontir, inon!
Inonch-la baxtiyor bo'ladir inson.

Inon, sig'inganing u ulug' Tangri
O'zingda, emasdir o'zingdan ayri.
U — Butun, sen zarra erursan, ammo
Zarra qamray olmas Butunni aslo!

(ko'kka ishora qilib)

U o'ta yiroqda rang, sifatlardan,
Uzoqda... dinlardan, tariqatlardan.
Har muhit o'zicha uni yaratmish,
Har kim qorong'uga bir-bir tosh otmish.
Har kim unga bir ot qo'yibdir, biroq
U Nur zulmatlardan yuksak, ko'p yiroq...
Uni ko'rsataman deganlar hayron,
Rad etganlar esa ozg'in va nodon!
Ezilmay desang gar aldan-u inon!..
Ey baxtsiz odamzod! Zavolli inson!..

(achchiq qahqaha otib chekiladi)

Atrof oydinlashadi. Payg'ambar o'yga tolgan.

Shamso

(Nadima bilan qaytarkan, o'ychan turgan Payg'ambarga duch keladi)

Qara, o'yga tolmish yana,
Na muhtasham, ulug' siymo!
Viqorida bir tantana,
Har boqishi bir muammo...

Nadima

Juda ko'rkam: qomat mavzun,
Ko'ksi baland, yelkalar cho'ng,
Qosh-ko'z qora, kiprik uzun,
Bosh haybatli, peshona keng...

Shamso

Derlarki, u ko'pdan o'ychan,
Ba'zan behush bo'lib turar.
Ayni payt ham o'zdan ketgan,
Boshqa olamlarda yurar...

Nadima
Sust kettimi ko'ngling unga,
Yeb qo'ygudek boqarsan, yo?
Shamso
O't tushganmi his-tuyg'ungga,
Unga har kim bo'lur shaydo!..
Nadima
Ana, qara, ketmoq istar,
Chapak chalib qolma tag'in.
Shamso
(Payg'ambarga yaqinlashib)
To'xta, ketma, bir gapim bor!..
Payg'ambar
(yuzini burib, unga qaraydi)
Ne istarsan, ko'rkli xotin?
Shamso
(qat'iyatsiz va asabiy)
Xotin deysan! Bu tahqir, a?!..
Hamma bilar axir otim!
Men bir qizman ham bokira,
Hali erga-da tegmadim.
Oltin, inju, dur, kumushlar
Qiziqtirmas meni mutloq,
Maftun menga barcha yoshlar,
Majnun bo'lib izlar har choq.
Hech kimga ko'ngil qo'ymadim,
Bilmam, afsus, bu hol nadir...
Qiz bolani, biroq, bilkim,
Xotin demoq ko'p xatodir!
Payg'ambar
Holbuki, u bokiralik
Har kun minglab ko'zga talash!
Ovunma, u gul kiralik,
O'chib borguvchi bir otash...
Bola dardi bilan yongan
Xotin ko'ngli baxtiyordir;

Shum qizdan shu xotin aslan
Bokiradir, beg'ubordir!..
(Payg'ambar jo'naydi,
Shamso unga ergashadi)

Nadima

Qo'y, ovora bo'lma ortiq.

Shamso

O'lsa o'lsin, e, o'zi kim...

(sal o'ylanganidan so'ng)

Yo'q!.. U, mayli, qolsin tirik,
Tegsin unga bir yordamim.
(Nadimaga)
Sen boraver, kut narida!
(Nadima nari ketadi;
keskin tovushda Payg'ambarga)
Hey, sen! To'xta!

Payg'ambar

Gapir, nima?

Shamso

Bil, bosh kohin xalqni aldar,
Har kim seni izlar...

Payg'ambar

Nega?

Shamso

Payg'ambarga o'lim, deya
Qancha kindor ko'cha kezar...

Payg'ambar

Qo'y, ishonma hech kimsaga,
Payg'ambarga yo'qdir o'lim.
Qo'riqlaydir uni osmon,
Haq kuch berar unga lim-lim!..
Tosh butlarga qaram kohin
Haqni anglar, kelar u kun.
Ha, yasalgan u ma'budlar
Bir kun kelib, yo'q bo'ladi,

Barchasini yo‘qlik yutar,
Ulardan xalq qutuladi!..

Shamso

(uyalgan holda)

Eh, sen bizning ma’budlardan
Ne istarsan, men bilmamki...

Payg‘ambar

Ket, ey sen, haq yo‘ldan ozgan
Vahshiy cho‘lning toq chechagi!..

(yuzini o‘girib, asabiy odimlar otib uzoqlashadi)

Shamso

(ortidan ikki-uch qadam tashlab, ketishiga monelik ko‘rsatadi; mag‘rur va buyruq ohangida,)

To‘xta, ketma! Och ko‘ziingni!
Qara, angla axir men kim!
O‘ylatmasmi hecham seni
Shaydo ko‘nglim, go‘zalligim?

Payg‘ambar

(yuzini unga o‘girib, diqqat bilan kuzatadi; rom bo‘lgan tovushda)

Ha, go‘zalsan!.. Shoirlarning
Xulyosidan ham go‘zalsan!
Ilk bahorgi saharlarning
Ro‘yosidan ham go‘zalsan!
Yulduzlarning ma’vosidan
Yaratilgan bir chechaksan,
Go‘zallikning ma’nosidan
Ustun, dilbar bir malaksan!

(ko‘kka ishora aylab)

Bil, u Tangri lutf aylagan,
Shunday chiroy bergan senga,
Nechun uni olmaysan tan,
Sig‘inmaysan nechun unga?

Shamso

Bilmam, oh, shu qorong‘iliq,
Keng bo‘shliqda nimalar bor?

U bir teran hechlik ortiq,
Hechlik, yo‘qliqdan ne chiqar?!

Payg‘ambar

Had-hisobsiz yog‘dular, boq,
O‘sha zulmatlardan kelar,
Ko‘rgan, sezganing shu borliq
U yo‘qlikdan kuch, fayz olar.

Shamso

Istaymanki, qalbingdagi
Tangri ishqi unutilsin!
Shu ko‘nglimga to‘lgan sevgi
O‘sha ishqning o‘rnin olsin!

Payg‘ambar

Ket-e, rosa valdirading!
Daf bo‘l endi shum, qarorsiz!
Marmar ko‘ksingdagi qalbing
Tosh butlardan ham shuursiz!..

(ketishga chog‘lanadi)

Shamso

(uni to‘sib)

Oldin malak derkan menga,
Bu tahqirlar yana nedan?

Payg‘ambar

Daf bo‘l, bu ham ozdir senga,
Chunki shayton bir malaksan!

(ketadi)

Nadima

(kelar ekan)

Siylasang sen hurmat etib,
U nafrat-la daf bo‘l deydi.
Qutulishga yo‘l ko‘rsatib,
Yana seni tahqirlaydi.

Shamso

(kin bilan)

O‘ta mag‘rur...
Ha, mutlaqo

Kesish kerak uzun tilin.
(sal yumshab)
Doim ko'rsam uni, ammo
So'nar ichimda nafrat, kin...
Qora ko'zlar, oh, doimo
Olmos kabi porlab turar,
Ularda bir hikmat, daho —
Dengizlari to'lqin urar.
Meni eng ko'p asir etgan
Uning porloq so'zlaridir.
U, kimnidir hajv aylarkan,
Shunda ham mard, zarif shoir...

Nadima

Shoir bo'lsa bo'lsin, mayli,
Sen ham she'rsan, hamda shoir!
Husning, ovozing tufayli
Hijozda sen yakto, nodir...

Shamso

Men kimman... eng zo'r shoirlar
Tiz cho'kishi kerak unga!
Umrul Qayslar, bor mohirlar
Bo'yin buksin, loyiq shunga!..
Ularga bir zambil xurmo,
Yo sharob, yo bir oltin ber —
Madh etarlar seni... ammo
Maddohlikka u qarshidir.
G'araz, nafrat, kindan qochar,
Bag'ri kengdir, xuddi fazo...
Doim yuksaklarda uchar.
(ma'yus va hayajonli)
Afsus, butlar va Ka'bani
Tan olmas u, shunda balo.
Ham ko'p sevar Xadichani —
Shunga chidolmasman aslo!..

Nadima

(atrofni kuzatib)

Boq, keldilar bosh kohin-la.
Xattob o'g'li to'daboshi.
Bari to'lgan g'azab, kin-la,
Bari keldi o'chi toshib.

To'da oldida bosh kohin, raislar va o'rta yoshli, uzun bo'yli, qurolli Xattob o'g'li yetakchiligida bir jamoat kirib keladi; har kim atrofni darg'azab kuzatadi.

Bosh kohin
Qayerda u, bir ko'rsatingiz!
Qani endi u xoin, dinsiz?

Xattob o'g'li
Kim bilar, ehtimol u qo'rqib qochmish?

Shamso
(Nadimaga)
Yo'q, u qo'rqoq emas, bu fikr yanglish.

Chol
(kelib, but do'koni eshigini ochadi)
Shunda qolgan edi xayolga tolib.

Birinchi rais
Balki qo'rqqanidan ketmish bosh olib?

Ikkinchi rais
Menimcha, u ojiz, g'arib devona.

Uchinchi rais
Men ham shunday o'ylab turibman yana.

Bosh kohin
(yo'lga qarab)
Bosh rais ko'rindi... holi ko'p yomon.
Ko'ramiz, bizga u ne so'ylar bu on?
(Bosh rais keladi. Barcha ta'zim aylaydi. Jimlik...)
Nechun boqmoqdasiz tag'in siz hayron?!
Siz pisand qilmagan bir miskin, g'arib
Turar urf-odatni yerlarga urib!
Poymol aylamoqda u dinimizni,
Butlardan kular u, elamas bizni.
Uning eng-eng yuksak ko'kda barqaror,
Yangi, qo'llar yetmas bir Tangrisi bor.

Shunday bir Tangriki, aslo ko‘rmaslar,
Jismi yo‘q, tengi yo‘q, mislin so‘rmaslar;
Tug‘ilmas ham tug‘mas, javhar ham emas;
Makonsiz...
Eh buni hech kim gap demas!..
Qarang-a, bir emish shoh ila gado!
Uning shu fikriga qoyil fuqaro,
Shu uchun joriya, qul, barcha yo‘qsil
Unga quloq osar, so‘ziga moyil.
Shunday ketsa, o‘ylab, to‘g‘ri yo‘l solib,
Bir kun ustimizdan bo‘ladir g‘olib!..

Xattob o‘g‘li

(istehzoli kulib)

Bu xayol, faqat bir yoqimli xayol...
(qilichini shiddat-la sug‘urib)
Shu qilich bor ekan, bu amri mahol!
Bani Hoshimga sal hurmatim bois,
Uni o‘ldirmadim oldinroq, afsus.
Har holda, ajdodi shonli, ulug‘roq...
(hurmatan qo‘lini ko‘ksiga qo‘yar)
Endi Xattob o‘g‘li uni qo‘ymas sog‘!
Hatto qahramonlar menga ojiz qul,
Shunday ekan mendan qutularmi ul?
Sizlar hech o‘ylanmang, hozir boraman,
Uni parchalayman, boshin yoraman!
(qilichini qiniga solib,
qattiq va g‘azabli qarashlar bilan uzoqlashadi)

Bosh rais

Ibn Xattob mashhur, ha, hamma bilar,
Ne ishga azm etsa, albatta qilar.
(chetda turgan o‘rta yoshli Saidga)
Sen ham bor, ey Said,
ko‘z-quloq bo‘l, chop!
Yordam qil qayningga,
Payg‘ambarni top!

Jamoat tarqaladi.

Said

(Bosh raisga ta'zim ila)

Ko'p yaxshi...

(o'zicha)

Eh, tuban, vahshiy kasofat!
Ko'raman, o'larsiz ikkingiz albat!

Said ketadi. Nadima bilan yonma-yon turgan Shamso hayajonga tushadilar.

Shamso

Bo'lishi mumkinmas, yo'q, aslo... Aslo
Uni o'ldirishdan yo'q biror ma'no.

Nadima

Payg'ambardan shuncha nafratlanarkan,
Nedan bu achinish? Bu titrash nedan?

Shamso

Oh, o'sha burgutday qarashlar har on
Uringan ruhimning ustida uchar,
U so'zlagandagi quvvat, hayajon
Qorong'u ko'nglimga shu'lalar sochar...
Uni ko'z oldimga keltirarkanman,
So'nar ichimdagi g'azab-u g'urur.
Uni sevdimmi yo?.. Bilmam, ne ekan...
Yemirmoqda ammo bag'rimni nedir.
U yoniq yurakka kirmoq istayman,
Ortidan o'zimni chop deb qistayman...

Asabiy odimlar bilan Payg'ambar ketgan tomonga yuradi, Nadima unga ergashadi.

HIJRAT

Makkadan Madinaga ko'chish

Ayni shahardagi mozor. Chetroqda bir kulba, ikki-uch xurmo daraxti. Tush payti... Uy egasi Said hayajonli, eshikni qattiq taqillatadi. Eshik ochiladi. O'ttiz yoshlardagi xotin — Xattob qizi ko'rinadi.

Xattob qizi
Said, ne gap, ne tashvishing?
Shu paytgacha qolding qayda?
Said
Rasvo bo'ldi, oh, qondoshing
Qasam ichdi qurultoyda!..
(jimlik)
Xattob qizi
Ne gap, tezroq bering darak,
Yorilmasdan turib yurak.
Said
Payg'ambarni o'ldirgali
Ahd ayladi Xattob o'g'li!
Xattob qizi
(birdan qo'rqib ketadi)
Voy, bu yomon xabar meni
Chaqmoqdan ham badtar urdi!
Quritsin Tangri qo'lini!
Ha, o'lsin, yomon quturdi!
Said
O'sha dinga kirganimiz
Bilib qolsa gar, shubhasiz,
Sog' qo'ymaydi ikkimizni,
O'ldiradi avval bizni.
(uzoqdan Xattob o'g'li ko'rinadi)
Xattob qizi
Ana u... Voh, falokatdan,
Yo Rab, o'zing saqlagaysan!
Xattob o'g'li
(kinli odimlar bilan yaqinlashadi)
Said! So'yla, ko'rgan bormi
Anov soxta payg'ambarni?
Xattob qizi
Hech xabar yo'q...
biz ko'rmadik,
(Saidga ishora qilib)

U ham, men ham uyda edik.
(ikkalasi ichkariga kirib ketadi)
Xattob o'g'li
(qo'li qilich dastasida, g'azabli)
Bari so'zi yolg'on, soxta!
O'ldiraman, qolmas esan!..
(shu chog' Abu Tolib o'g'li shoshib o'tib qoladi)
Abu Tolib o'g'li, to'xta!
Shoshib qayon bormoqdasan?
Abu Tolib o'g'li
Borayapman Tangri quli
Payg'ambar-la ko'rishmoqqa.
Xattob o'g'li
Sizning nasab ma'lum, ulug',
Ibratlidir har aymoqqa...
Abu Tolib o'g'li
(uning so'zini kesib)
Mencha, ibrat emas nasab,
Ibratlidir ilm-u adab...
Xattob o'g'li
So'zim bo'lma, tingla, o'yla!..
Abu Tolib o'g'li
Eshityapman, qani, so'yla.
Xattob o'g'li
Sen tark ayla yangi dinni,
Yasha o'ylab ajdodingni.
Abu Tolib o'g'li
Ajdodnimas, asli bashar
Yolg'iz Haqni o'ylab yashar.
Xattob o'g'li
Ne istarsiz, xo'sh, siz aynan
Ko'rinmas u Tangridan, ayt!
Abu Tolib o'g'li
Ko'rmaganim Tangriga men
Sig'inmasman bilsang hech payt.

Xattob o'g'li
Qayda ko'rding uni, qayda?
Abu Tolib o'g'li
Har zamon U hamma joyda!
Ko'rsatadi Uni har dam
Har harakat, har sado ham.
Har narsada va har qachon
Men Tangrini ko'radirman!
Xattob o'g'li
(yarim istehzo bilan)
Ne ekan shu ko'rmoq yo'li,
Bir lutf aylab, o'rgat menga!
Abu Tolib o'g'li
(ayni istehzo ila)
O'rgatolmas, Xattob o'g'li,
Mendek bir yosh buni senga!
Xattob o'g'li
(ma'noli kulib)
Ayturlarki, shu Payg'ambar
Topinarkan Tangrisiga,
Ojizligin aylab izhor,
Dermish tag'in "ma orofna"...
Abu Tolib o'g'li
Idrok ahli bo'lgani-chun
Ojiz sanar o'zni orif.
Xattob o'g'li
(mag'rur va istehzoli qarashlar ila)
E, bas, yetar! U Tangrisin
Ko'rar bugun go'rga kirib!..
Abu Tolib o'g'li
(qo'li qilich qabzasida titrarkan)
O'zingni bos!.. Uning go'ri
Yerda emas, ko'klardadir.
Unga faqat ulug' Tangri
O'z bag'ridan makon berir.
Fikr ayla va ishon menga:

Uni biror qilich kesmas,
Yiqilsa-da dunyo, unga
O'lim yeli aslo esmas.
Xattob o'g'li
(istehzoli qahqaha urib)
Ranging o'chib ketdi birdan,
Janjal qilmoq istarmisan?
Abu Tolib o'g'li
Qon to'kishni aylabdir ma'n
Ulug' Tangri yasoq bilan.
Xattob o'g'li
Misi chiqqan gap!
Bu — hiyla!
Hiyla qo'rquvdan tug'ilar.
Abu Tolib o'g'li
Bas!.. Hiylani yoqtirmas ul,
Ne so'ylasa, to'g'ri so'ylar.
Abdullohning o'g'lini , bil
Qo'rqitajak bir quvvat yo'q.
Chiranishing bo'sh, behuda,
Chunki uning,
(qo'lini ko'ksiga qo'yib)
Ko'ngling tut to'q,
Yordamchisi ko'pdir juda...
Xattob o'g'li
Yasha, arab, "qahramoncha,"
Ammo qoyil qoldim senga!
G'ururing ham bormish ancha,
Rostin aytsam, yoqdi menga.
O'z so'zimda turib biroq,
O'ldirishim lozim uni.
(istehzoli tabassum ila)
Tangring xabar bersin biror,
Qidirsin Xattob o'g'lini!
(mag'rur, shiddatli odimlar bilan uzoqlashadi)

Abu Tolib o'g'li

(jahli chiqib)

Eh, Payg'ambar fe'li yumshoq,
Bundan yovlar doim kular.
Bo'lmoq darkor sal qattiqroq,
Yo'qsa, ular xarob qilar...

(kutilmagan shijoat ila)

Xattob o'g'li borib, uni
Xafa qilar, bo'lay to'siq!
Jallod kabi bor qahrini
Sochishiga yo'l qo'ymam, yo'q!..

(jur'atli va nafratli odimlar-la chiqib ketadi)

Shu payt boshqa tarafdan iymonsizligi ko'rinib turgan, vahshiy yuzli arab kirib keladi; u besh-olti yoshli qizini qo'lidan tutganicha mozor tomonga sudraklaydi.

Arab

Eh, uyatga chidash mushkul!

Qiz

(achchiq faryod chekib)

Onajonim! Oh, qutqaring...

Arab

Sen ham opang kabi gum bo'l!
Shu-da qizning shum taqdiri!

Qiz

(yolvoradi)

Otajonim, menga rahm et!..

Arab

Yur, bo'ldi, bas!..

(g'azabkor sudraydi)

Qiz

(qo'rqib qichqiradi)

Voy, onajon!..

Arab

O'lim jazong, ko'n va fahm et!
Yo'qdir uyda ortiqcha non...

Qiz

Mayli!.. Qo‘yvor, onamni bir
Ko‘rayin-da, so‘ng ur, o‘ldir!

Arab

Daf bo‘l! Oldin sen o‘l bu dam,
Hasratingdan o‘lar u ham!..

(bo‘sh qabrning ichiga uloqtiradi)

Qiz

Voy! Voy...

Arab

(go‘r og‘zini katta toshlar bilar yoparkan)

Mana... jim bo‘l... menga
Qiz bola hech kerakmas, qo‘y...

Qizning tovushi

Onajonim!..

Arab

(ko‘ngli buzilib)

Badbaxt ona!..
Bolasidan ayrildi-yey...

(pushaymon va qayg‘u bilan peshonasini qashlab, o‘yga toladi)

Eh, men topingan shu butim
Rahm qilsa bo‘lmasmidi?
Tug‘ar ekan, shu shum xotin
O‘lib qolsa bo‘lmasmidi?!!

(g‘azabidan jahli qaynab)

Yo‘q, o‘g‘ildan boshqa bola
Istamayman, chidolmayman!
Qiz va xotin insonmas, ha,
Qizni avlod deb bilmayman!..

Kin va nafrat-la chekinib, asta ko‘zdan yo‘qoladi. Said va Xattob qizi hovliqib eshikni ochib, tashqari chiqishadi.

Xattob qizi

(Saidga)

Yugur, shu ish burchdir senga:

Payg‘ambarni axtar va top!
Ey voh, Umar yetsa unga,
Tirik qo‘ymas, to‘xtama, chop!

Said

Hovliqma, ey, Xattob qizi,
Nechog‘li
Zo‘r bo‘lsin Umar,
Payg‘ambar u iymonsizni
Bir so‘z bilan tinchlantirar!

Xattob qizi

Ehtiyot har ishda yaxshi,
Bor, xabar ber uylariga.
Xadichaga aytib boq-chi,
Xotini-ku, bilsin u-da.

Uzoqdan Payg‘ambar ko‘rinadi.

Said

(nariga qararkan)
Ana, o‘zi kelur, shukur...
(Xattob qiziga)
Sen hech narsa demay, jim tur...

G‘oyibdan tovush

Onajonim!..

Xattob qizi

Voy, qizchami?
Oh, bu tovush qaydan kelur?

Said

(hovliqib Payg‘ambar yoniga borarkan)
Bil, ey Tangri elchisi, bir
Jallod seni izlab yurur.

G‘oyibdan tovush

Onajonim!..

Payg‘ambar

Bolami bu?

G‘oyibdan tovush

Onajonim...

Payg'ambar

Qanday munglu!
Titramoqda, oh, yuragim...

Ona

(chopib kelarkan)

Jonim bolam, oh, malagim!..

Payg'ambar

(xaroba bir go'rga yaqinlashadi;
ustidagi toshlarni bir-bir olib,qararkan)

Bu qizcha-ku! Aylang yordam,
Yordamni amr etmish Egam!
Voh, bu qizni tiriklayin
Ko'mibdirlar, la'nat bo'lsin!..

Ona

Ha-ha, uni bir xoin, past
O'ldirgali aylamish qasd!

(Said go'rga tushib, qizchani yuqoriga ko'taradi,
Payg'ambar unga ko'maklashadi, qizchani qutqarishadi)

Voy, bolam-ey...

Qiz

Voy, onajon!..

(ona-bola quchoqlashadilar)

Payg'ambar

(Onaga)

Bo'ldi, to'xtat faryodingni.
Ayt, kim, bilmoq istaydirman
Shu ma'sumning jallodini?

Ona

Jallodimi? Hamma bilsin:
O'z otasi, kasofatdir!
Uningcha, qiz va yo xotin
Bosh balosi, nahs, ofatdir!

Payg'ambar

(iztirob va hayajonda)

Xotin, ayol?! Uni bilmoq va bildirmoq istar ekan,
Tushunchamni yoqar bir o't, o'rtar zaharli bir tikan.

Bu hayotni gulga ko'mgan, go'zal qilgan faqat udir,
Ammo doim eziladir... xor-u haqir... nechun axir?!.
Ayol — quyosh, insoniyat nurni, ruhni undan olar,
Usiz yurtlar xarob bo'lar, dunyo zulmat bilan to'lar!..
Faqat ayol boisgina baxtiyordir bu keng jahon,
U bir malak... Qutlug' qilib yaratilmish, shunga inon.
U suyukli, go'zal, dono, u nozanin, nozik xilqat,
Faqat uning oyoqlari ostidadir nurli jannat.
Ayol kulsa, shu xo'mraygan muhitimiz ham kuladir,
Sudralgan shu bashariyat ayol bilan yuksaladir...

Ona
Qo'zim, kel, yur, ketdik, qani.
Qiz
Qo'rqaman, oh, otam yana...
Payg'ambar
Oh, saqlasin seni Egam!
Vahshiydan ham badtar odam...
Ona
Qo'rqma! U hech ko'rmas seni.
Qiz
O'ldiradi ko'rsa meni.
Ona
Uyimizni u tark etdi,
Yo'lto'sarlik uchun ketdi.
Qo'rqma, onang ne qilsa-da,
Bermas seni u nomardga!
Payg'ambar
Tangri yordamchingiz bo'lgay,
Yo'ldan ozgan jazo olgay.
(qarshidagi uyni ko'rsatib)
Qara, bunda yashaganlar
Marhamatli, mard insonlar...
Bil, bularning vijdoni bor,
Tangrisiga iymoni bor.
Shunda qoling ikkingiz-da,
U jallodni ko'rmang aslo.

Ona

(qizi bilan birga payg'ambarning oyoqlariga yiqiladi)

Alloh sendan rozi bo'lsin!

(Payg'ambar ikkalasini qo'llaridan tutib turg'azadi)

Said

Boring, biroz orom oling.

Xattob qizi

Hech tortinmang, qani, keling!

Payg'ambar

(ma'noli boqarkan)

Muhabbatdir eng ulug' din.

Barcha uyga tomon yuradilar.

Xattob qizi

(Payg'ambarga)

Qolaqoling, hazrat, siz-da...

Payg'ambar

Yo'q, men ketay, bordir ishlar...

Xattob qizi

Ehtiyot shart qoling bizda,
G'azablangan akam badtar...

Payg'ambar

(so'zini bo'lib)

Lekin Tangrining g'azabi
Unikidan ko'ra mudhish!..

Xattob qizi

Qo'rqyapman, u ko'p asabiy,
Bo'lmasin-da yomon bir ish.

Payg'ambar

Bor, shularning qo'lidan tut,
Non ber, yedir, ichir, ovut.
Payg'ambarni buyuk Egam
Hifz aylar har balodan ham.

Xotin uning qo'lini o'padi, iztirobli qaraydi, so'ng uyga kirib, eshikni yopadi. Bu holatni uzoqdan ko'ringan Naim va Cho'loq kuzatishadi.

Naim

Og'ir Xattob o'g'liga ham,
Payg'ambar deb to'lmish kinga....
Singlisi-chi, tom unga rom,
Din ichida kirmish dinga.

Payg'ambar mozorlikdagi bir tosh ustida horg'in o'tirgancha o'yga tolgan. Sha payt bir to'p qiz va o'g'il bolalar qo'shiq aytib kirib kelishadi va qo'shiq parchasi orasida qarsak chalishadi.

Bolalar

(shu qo'shiqni aytishadi)

Derki, ko'kda bog'-bo'ston bor,
Unda gullar nurlar sochar,
Inson malak kabi uchar...
Ishonayman, ertak bular.
Vatan, ey sen suyuk ona,
Men oshig'man faqat senga!
Yarador qush ko'rdim kecha,
Yurtdan ayri ucha-ucha,
Qanotlari botmish qonga,
Holin so'ylab turar menga;
Vahshiy burgut quvar, ana,
Vatan, oh, ey suyuk ona!..

Bir necha bola hushtak chalganicha yerdan tosh olib, Payg'ambarga otadi. Payg'ambar ketishga chog'lanarkan, Bosh kohin yonida birinchi, ikkinchi, uchinchi rais va ikki kohin bilan birga qarshi tomondan kirib keladi.

Bosh kohin

(Payg'ambarni ko'rsatib, istehzo bilan)

Ana, cheksiz fazolarning
Qahramon namoyandasi!
Ana, Lot-u Uzzolarning
Bo'htonchi bir xonandasi!

Birinchi rais
Qarang, bizdan ko‘nglin g‘ashlab,
Ketar boshqa yo‘lga oxir.
Tiriklarni bunda tashlab,
O‘liklarga va’z o‘qiydir.
Ikkinchi rais
Xattob o‘g‘lin ishimi shu,
Qasam ichgan edi axir!
Mazza qilib yuribdi bu,
U ham kayfin surayotir.
Uchinchi rais
Qusur unda emas, bilki
(Payg‘ambarga ishora qilib)
U odam ham juda jasur...
Sehr qilib qo‘ygan balki,
Balki ko‘zga ko‘rinmasdur?..
Payg‘ambar
Bas qil! Alloh Payg‘ambari
U ishlardan uzoq butkul,
So‘zlaridir uning sehri!..
Kimga bu gap emas ma’qul?
Bosh kohin
(o‘ta g‘azabli)
Nechun yonib, qovrilib-da,
Ko‘klar yerga to‘kilmaydir?!.
Bilmam, nechun sovrilib-da,
Bu dunyo ost-ust bo‘lmaydir?!.
Bu ma’budlar axir bizga
Oltin berur, shuhrat berur!
Shu ma’budlar o‘lkamizga
Hayot berur, quvvat berur!
Shu kechagi bitta yetim
Ma’budlarni ursa yerga,
Qarab turgay bir chetda kim!..
Qachongacha bu sog‘ yurgay?..

Shu payt atrofdan xotin, bola-chaqa yig'ilib kelib, tinglay boshlashadi.

Payg'ambar

Aldanma, to'xta, ey zavolli bashar!
Yaxshilikdan ustun bo'lmas fasod, sharr!
G'aflatga yengilib, ko'tarma tug'yon,
Oxir halok aylar seni bu isyon!
(yerdan bir hovuch tuproq olib,
havoga sovuradi)
Sen kimsan? Shunchaki bir hovuch tuproq!
Ot kibr-u g'ururni, fikr ayla bu choq.
Chekil egri yo'ldan, fasodni unut,
O'yla, kel o'zingga va haq yo'lni tut!
(qabrlarni ko'rsatib, qizg'in va hayajonli)
Qaragin, senga ham bor shunday kunlar,
Bir kun qo'ldan ketar bori oltunlar,
Butlar-u sanamlar yo'qolur u payt,
Yordam berolmaydir mansab-u shuhrat,
Bir o'tday o'chadir sharaf-u iqbol,
Tangridan boshqa bor narsalar — xayol!..

Uchinchi rais

Bo'ldi, do'stim, so'ylama ko'p,
Shu gaplardan zerikdik xo'p.
Bu yo'ldan qayt, kelisha qol,
Evaziga ne olsang, ol:
Oltun, mansab yo go'zal qiz,
Ne istasang, beramiz biz.

Payg'ambar

Yo'qsillik ham katta sarvat,
Mansabga yo'q menda hojat.
Istamayman bir go'zal qiz,
Suyganim tangridir yolg'iz.
Chun eng so'nggi panoh udur,
Unga sig'ingan qutulur.
O'ng yonimga kunni hatto,

Chapga oyni qo'ysangiz ham,
Men fikrimdan qaytmam aslo,
Tangrisiz yasholmas odam!
(ketishga chog'lanadi)

Bosh kohin

To'xta, boradursan qayga?

Payg'ambar

Haq amrini yetkazmoqqa.
Najot topar kim eshitsa,
Halok bo'lar kim rad etsa.
Haq degan ortimdan kelsin,
Ko'rlar qolib-da ezilsin.

Qat'iy va mag'rur odimlar ila uzoqlashadi

Bosh kohin

Shu shum sabeiy[1] ham rosa,
Jonga tegdi, kerak chora.
(jamoatga)
Doim qarab, jim turasiz,
Ha, qoningiz sovib bo'lgan;
Bir farqingiz yo'qdir, esiz,
Go'rda yotgan o'liklardan!

Jamoatdan tovushlar

— U xoindir, yo'qotilsin!
— Endi jazosini olsin!
— Yo'ldan qaytib, tavba qilsin!
— Uni o'chsin, o'ldirilsin!

Xotinlar va bolalar yerdan toshlarni olishadi, Naim va Cho'loqdan boshqa hamma to's-to'polon bilan payg'ambar ketgan tarafga yuradi. Shu paytda osmondan dahshatli qaldiroq taraladi.

Cho'loq

Yur, biz ham shular-la birga ketaylik,
Payg'ambar netarkin, ko'rib o'taylik.

[1] **Sabeyi** — yulduzlarga sig'ingan odam, bid'atchi.

Naim

Menimcha, ortiqcha bu to‘s-to‘polon.
Esmishki, u ham bir tolesiz inson...

Shamso

(Nadima bilan birga kelarkan)

Yohu, bu ne holat, dahshat, ajabo?
Tamaldan titroqqa tushmoqda dunyo...

Naim

(istehzoli)

Osmonlar elchisi me’roj etmoqda,
Bizni buyuk inson tashlab ketmoqda.

Shamso

Nima bo‘ldi o‘zi? So‘yla, nima bor?

Cho‘loq

Uning o‘limiga berildi qaror.

Ko‘kdagi qaldiroq tovushlari tinadi.

Shamso

(Nadimaga)

Ming afsus! Ko‘raylik, kel, bunda ne hol.
Oh, loyiqmidiki, u bo‘lsa poymol!

(jadal odimlar-la jamoat ketgan tomonga yurishadi)

Naim

(istehzoli kulib, Shamsoga)

Behuda o‘ylanma, u ketdi endi,
Chunki ko‘klardagi to‘fon ham tindi.

Cho‘loq

(qarshi tomonga boqarkan)

U yoqqa qara sen!..

Naim

Kim?

Cho‘loq

Xattob o‘g‘li!

Naim

(tikilib qararkan)

Ko‘zi qonga to‘la, g‘azabli, cho‘g‘li...
(yaqinlashgan, darg‘azab Xattob o‘g‘liga)
Ayt, bu ne vajohat, ne qilmoqchisen?
Xattob o‘g‘li
Uni o‘ldirishga qaror berdim men.
Lekin kimdan so‘rsam, shundan o‘tdi der,
Topolmay halakman, yo etmish sehr...
Naim
(istehzoli kulib,
boshini sarak-sarak qilib)
Bir er-xotin, boq, shu uyda yashaydir...
Xattob o‘g‘li
Ha, singlim u xotin; ne demoqchisan?
Naim
Ana! Payg‘ambarga ular ko‘p yaqin!
Garchand jim yursa ham, chiqmasdan sasi,
Yangi din shaydosi, bil, ikkalasi;
O‘shalar o‘lishi kerak avvalo!..
Xattob o‘g‘li
(qilichini qinidan yarmigacha sug‘urib,
qahri toshib)
Hey, Naim, ne deding? Endi menga boq,
Ka’ba, ma’budlar-la ont ichdim; biroq,
So‘zing rost bo‘lmasa, o‘ldim deyaver!
Naim
Unday dema! Menga loyiqmi yolg‘on?
(istehzoli qahqaha urib)
Shonli Payg‘ambarni hozir shu uydan
Chiqib ketar ekan, men o‘zim ko‘rdim.
(Cho‘loq bilan birga uzoqlashadi)
Xattob o‘g‘li
(nihoyatda g‘azabkor)
Oh, o‘lim!.. Ularga dahshatli o‘lim!!!

Qarshidagi uy sari boradi, eshikni taqillatadi. Ichkaridan kelayotgan yoqimli ayol tovushi diqqatini jalb etib, tinglay boshlaydi.

Ayol tovushi
Ko‘runmas u Tangri, ulug‘ Yaratgan,
Buyurar, aylang deb adolat, ehson.
Ma’ndir har yomonlik, yolg‘on, fahshiyot...
Uning borlig‘iga bo‘lgaydir isbot —
Shu go‘zal tabiat, shu cheksiz fazo...
Uningcha teng erur boy-u fuqaro.

Eshik qattiq taqillaydi. Said va xotini chiqadi. Xattob qizi qo‘lidagi bir parcha terini qo‘ltig‘iga yashiradi.

Xattob o‘g‘li
(Saidga)
Otalar dinini tashlab, betayin,
Yangi din topdingmi? So‘yla, ey xoin!
(jimlik)
Nega jim turibsan tilingni yutib?
Javob ber, umring ham turibdir bitib!..
Xattob qizi
Bunchalar zo‘rlama, qo‘y, tinch qo‘y, inim.
Xattob o‘g‘li
(Saidga)
Seni shuncha tuban deb o‘ylamovdim...
(qilich yarqiraydi)
Mana, ol!

Oraga kirgan Xattob qizining boshi yaralanib, oqqan qon yuz-ko‘zini va ko‘ksini bo‘yaydi.

Xattob qizi
Voy, boshim! Yaralandim, dod!..
Xattob o‘g‘li
Ey, singlim, shu so‘zlar to‘g‘rimi, rost ayt?
Xattob qizi
Ha, to‘g‘ri! To‘g‘ridir, ulug‘ Payg‘ambar,
Bizningcha, eng shonli, eng ulug‘ rahbar.
Uning Allohiga iymon etdik biz,
Tuyg‘usiz butlarga isyon etdik biz.

Qo‘rquvmiz yo‘q aslo, pokmiz taloshdan,
Haq uchun kechurmiz jon ila boshdan.
(ko‘ksini ocharkan)
O‘ldir! Azoblardan ham qutulaylik,
Tangriga qovushib, mas’ud bo‘laylik.
Xattob o‘g‘li
(avvalgi vajohati yo‘qolib, singlisiga)
Bir-ikki oyatdan o‘qi-chi, qani.
Ko‘rsat anavini menga!
Xattob qizi
Bo‘lmaydi!
Xattob o‘g‘li
Nechun?
Xattob qizi
Etmading-ku rioyat, hurmat.
Xattob o‘g‘li
Eturman.
Xattob qizi
Qasam ich!
Xattob o‘g‘li
Sen ishon!
Xattob qizi
Mana!
(qo‘ltig‘idagi yozuvli teri parchasini unga tutadi)
Xattob o‘g‘li
Ha-ha...
(hayrat bilan, berilib o‘qiydi)
“Ko‘runmas u Tangri, ulug‘ Yaratgan,
Buyurar, aylang deb adolat, ehson.
Ma’ndir har yomonlik, yolg‘on, fahshiyot...
Uning borlig‘iga bo‘lgaydir isbot —
Shu go‘zal tabiat, shu cheksiz fazo...
Uningcha teng erur boy-u fuqaro”.
(o‘ta hayratlanib)
Naqadar ilohiy, muqaddas ilhom!
Tuymagandim bunday fasih, xush kalom...

Malak singlim, meni afv ayla sen ham,
To‘g‘ri din ekan bu... qolmadi shubham.
(Singlisiga mehr-u shafqat ko‘rsatib,
qo‘lidagi ro‘molcha bilan bosh-ko‘zidagi
qonlarni artadi.)
Yarangni bog‘laylik, so‘ngra ketarman,
U buyuk dohiyga iymon etarman.
(ichkariga kirib ketadilar)

Biroz muddat o‘tgan; Payg‘ambar qonga bo‘yalgan, boshi bog‘langan holatda, Shamso va Nadima yordamida yurib keladi.

Shamso
(Nadimaga)
To‘xta, dam olaylik, nafas rostlasin.
Payg‘ambar
(qo‘lini og‘ziga qo‘yib, alam bilan)
Tishlarim... sinibdi... Eh, la’nat bo‘lsin!
(katta bir tosh ustiga o‘tiradi)
Shamso
(qo‘lini uning yelkasiga qo‘yib)
Og‘ritar-u, o‘tar... eh, seni qara,
Hech ne o‘zgarmadi dunyoda, mana.
Payg‘ambar
Seni boshqacha deb o‘ylardim, lekin
Malakdan ham munis ekan-ku qalbing.
Butlarga sig‘inar qancha johillar,
Yaxshiydi topinsa senga u qullar.
Shamso
Seni Lot va Uzzo qutqardi axir,
Nechun sen ularni aylarsan tahqir?
Payg‘ambar
(asabiy)
Lot, Uzzo deysanmi?
Bor, yo‘qol, daf bo‘l!
Shamso
Oxiri jardir sen borayotgan yo‘l.

Payg'ambar
Qo'rqmasmen, yurganim Alloh yo'lidir,
Yaratgan, o'ldirgan, bil, faqat udir.
Borliqda ne mavjud, bor xilqat Undan,
(Shamsoga ishorat etib)
Sendagi shu chiroy, latofat Undan.
Shamso
Hoy, menga qara!
Payg'ambar
(qo'li bilan rad etib)
Yo'q! Sen bor, ket axir!
Shamso
(mag'rur va istehzoli kuladi)
Bir go'zal bunchalar etilmas tahqir.
Payg'ambar
Go'zaldan men go'zal ruh axtararman,
Ruhi tushkunlarni xunuk sanarman.
Bir go'zal lavhaki, chizmishdir rassom,
Yaxshidir men uning maftuni bo'lsam.
Tangri ishqi bilan yongan haq nuri
Senda yo'q! Boraver, ket endi nari...
Zohiran yoqimli, ichdan badbinsan,
Shu go'zalliging-la xunuk, chirkinsan.
Shamso
(qattiq ta'sirlanib)
Chidolmasman bunday tahqirga hargiz!
(Nadimaga)
Yur, ketdik.
Payg'abar
Bor, oq yo'l!
Shamso
(nafrat-la, atrofga)
Devona voiz!
(Payg'ambarga)
Seni mas'ud qilay degandim, biroq
Ne ham dey, qalbimga solmading quloq.

Payg'ambar
Meni haq dushmani qilolmas mas'ud,
Xudosiz bir qizning ishqidan na sud?
Shamso
Dushman bo'lsam hamki garchand tangringga,
Ichimdan ko'p hurmat tuyarman senga...
Payg'ambar
(so'zini bo'lib, qo'li bilan rad etib)
Istamam!..
Bundayin muhabbat, hurmat
Ichimda qo'zg'atur tuganmas nafrat.
Shamso
(achchiq tabassum-la, Payg'ambarga)
Na ko'ngil bordir, ha, senda na-da his!..
(Nadima bilan birga uzoqlashadi)
Payg'ambar
Soching ko'p uzun-u lek aqling noqis.
Shamso
(qaytadi, mag'rur va qat'iy tovushda)
Noqis bo'lsam hamki, kamoling mendan,
Borlig'ing hamda, bil, zavoling mendan!
(ketadilar)

Kun qoraya boshlaydi. Malak nurlar va tabassumlar aro Payg'ambar qarshisiga inadi.

Malak
Ulug' Tangri elchisi, boq,
Ko'kdan xabar keldi bu choq.
Yuksaklarda malaklar ham
Olqishlashar seni bu dam.
Muborak shu peshonangni
Yarqiratmish ishq shu'lasi.
Inon, gullar ochar endi
Porloq kalom sahifasi.
Dohiylarga qismat, ulush
Bo'lgan qilich, o'q va nayza.

Dovul, to‘fon solsa junbush,
Kor qilmas musht, tosh yo maysa.
Dadil so‘zla! Shafaq yonar,
Chekiladir qorong‘u tez,
Xoin qurol-yarog‘ sinar,
Har kim senga cho‘kadir tiz.
Izlaganing porloq yulduz
Hechliklardan kelib, kular;
Insonlarga sendan yolg‘iz
Ehson lutf-u, bo‘sa bo‘lar.
(nari ketadi)

Arvoh

(mozordan chiqarkan, qo‘rqinchli va istehzoli qahqaha urarkan)

Bo‘sa emish! Axir bu she’r-u xayol.
Tilidan tushmaydi o‘pich har mahal.
Ha, o‘pich totlidir malaklar uchun,
Ishq shirin tuyg‘uli yuraklar uchun.
Biroq zavq olarmi bo‘sadan qoplon?
Sevgini anglarmi zaharli ilon?
Mehrni bilarmi bir qonxo‘r kalxat,
Majoli bo‘lsa sal, o‘sha ochofat
Ishq to‘la yurakni cho‘qib parchalar,
Qornini to‘ydirib, parvosiz uchar.
Bo‘sadan xushlanmas biror jonivor!
Ha, vahshiy inson ham o‘shanday g‘addor!
(qo‘lidagi yalang‘och qilichni o‘ynatganicha)
Puch xayol... Qo‘lda gar bo‘lmasa qurol,
Inson yo‘lsiz qolar, topadir zavol.
Shunday, har bir o‘lka va har bir millat
Qilichdan oladir sharaf va quvvat.
U bilan yuksalar har yerda izzat,
Usiz bu hayotni qoplar musibat.
So‘ng so‘zim: xayoldan voz kech va unut,
Gar o‘pich istasang, shu qilichni tut!..
(qahqaha urganicha chekiladi)

Payg'ambar

(yolg'iz)

Oh, dahshat, nadir bu tumanli xayol?
Tush ko'rmoqdamanmi yana, bu ne hol?

Malak

(yoqimli kulib, tusha keladi)

Ko'ngling to'q tutaver, ey ulug' sarvar!
Bu oltin kitobni o'qi, shu mador;
Gar zafar istasang, bu shahardan ket,
Ko'ch, boshqa bir yurtda mansub makon tut.
U zamon so'zlaring qabul bo'ladir,
Mato chiqqan yerda topmagay qadr.
Har daho o'zicha bir jahon istar,
Bo'lmas o'z uyida hech kim payg'ambar.

Malak chekiladi. Havo nurlanadi.

Abu Tolib o'g'li

(jadal yurib kelib,
Payg'ambarni bag'riga bosadi)

Ey faxri koinot, bu ne hol? Ey voh,
Ko'zlarim ko'r bo'lsa koshkiydi, shu chog'
Shu holni ko'rmasdim... Qani, ayt, sening
Dushmaning kim o'zi, u qaysi xoin?..

Payg'ambar

Dushmanim borki, u haq dushmanidir,
Shu oqqan qon ham, bil, haqning qonidir.

Abu Tolib o'g'li

(qo'li qilich sopida titrarkan)

Sabrim ham tugadi, ne qilsam ekan?
Harb uchun bir hukm yo'qmi Allohdan?

Payg'ambar

Biroz kut! Hovliqma, chunki yo'q hojat,
Xoinlar jazosin oladir albat.

Shu payt Xattob o'g'li uydan chiqadi, Payg'ambarni ko'rib, hayratdan lol qoladi.

Abu Tolib o‘g‘li

(o‘ta g‘azabli, qilich urmoq istaydi)

Bu ozg‘in odamni sog‘ qo‘ymasman men!

Payg‘ambar

(Abu Tolib o‘g‘liga qattiq qarab)

To‘xta!

Unutdingmi Tangri hukmin sen?

(Xattob o‘g‘liga)

Yaqin kel, hovliqma. Menga ayni payt
Ma’lum ichingdagi o‘sha shum niyat.

Xattob o‘g‘li

(yaqinlasharkan)

Ne emish niyatim?

Payg‘ambar

Mening o‘limim.

Xattob o‘g‘li

Voajab! Yo‘qmi hech qo‘rqung?

Payg‘ambar

Yo‘q. O‘lim
Menimcha, jismning o‘zgarishidir.
Buni ko‘p o‘ylama, bu mushkul bir sir.

Xattob o‘g‘li

Qo‘rqib titrar ekan mendan bu jahon,
Shu jasoratingga qoyilman, inon!

(qilichini sermab)

Dushmaning kimdir,
ayt, oldiga ketay,
O‘ch olib, bir urib, uni mahv etay!
Shu bugundan boshlab bu olmos qilich
Sening xizmatingni qilar erta-kech!

Payg‘ambar

Kerakmas menga bu turli xizmatlar,
Tangriga e’tiqod qilki, shu yetar.

Xattob o‘g‘li

Haqdir sen inongan Tangri, men bu on
Qalbim-la keltirdim o‘shanga iymon!

Ta'zim aylab, Payg'ambarning qo'lini o'padi. Payg'ambar ham javoban uni bag'riga bosib, o'padi.

Payg'ambar

(cheksiz sevinch bilan)

Xuddi butun jahon berildi menga,
Xayr ajrin yetkazsin Allohim senga.

Xattob o'g'li

(Abu Tolib o'g'li bilan quchoqlashib, o'pishadi)

Eng buyuk qudratdir sen inongan kuch,
Ey shonli qahramon, ayblarimdan kech.

Payg'ambar

Birlashing, iymonning ikki nurisiz,
Haq yo'lin ikkingiz ustunlarisiz.
Islom dini uchun endi zavol yo'q,
Haqqa da'vat eting har yerda ochiq.

Said va Xattob qizi chiqadilar. Payg'ambarni yarali holda ko'rib, shoshib yaqinlashadilar.

Xattob qizi

Bu ne hol? Asragin sen o'zing, yo Rab!

Payg'ambar

(ko'kka ishorat aylab)

Uning ishqi erur bu holga sabab.

Abu Tolib o'g'li

(Payg'ambarga, hayajon bilan)

Qancha zulm etsalar, qarab turdik biz,
Endi yo'q sabrga ehtiyoj hargiz.
Intiqom o'tida yonadir ko'nglim,
Yo zafar, haq va yo sharafli o'lim!..

Payg'ambar

Sabr etki, bu kunda shunday tushuncha.
Bu kunning hukmi ham boshqadir ancha:
Barcha tanishingga yetkazgil xabar,
Yo'l tadorukini ko'rsinlar ular.

Tunda besh-o'ntadan bo'lib, barchamiz
Bundan ayri-ayri holda ko'chamiz.

Xattob o'g'li

Biz jangga tayyormiz, kelsin bor dunyo!..
Biroq bu xavotir nechun, ajabo?

Payg'ambar

Chunki shunday erur Tangridan farmon.
"Ko'ch!" deb amr ayladi buyuk Yaratgan.

Qaldiroq tovushlari. Qorong'u cho'kadi.

Arvoh

(achchiq qahqahalar urib
Payg'ambar qarshisida paydo bo'ladi)
"Ko'ch!" Mayli, ko'chaver, unutma biroq,
Arablar aynidi, ko'pi telbaroq...
Faqat kitob bo'lsa rahbar qo'lida,
U zafar topmagay yurgan yo'lida.
(ridosi ostidan chiqargan porloq qilichni
payg'ambarga uzatadi)
Inqilob istasang, shu qilichni ol!
Fikringni porlatar faqat shu qurol.
Yomonlik kasal bir a'zoga o'xshar,
Kesib ot, sog'aysin vujudi bashar!

Payg'ambar

(qilichni oladi, ma'noli va qat'iy tovushda)
Ha, to'g'ri yo'l shudir, shu yaxshi odat:
Vijdonliga — hurmat, xoinga — nafrat!..

NUSRAT

Oradan sakkiz yil o'tgan.

Makka.

Kechasi.

Bosh raisning uyi. Oltin shamdonlarda rango-rang shamlar yonib turibdi. Misr va Shom matolari bilan bezatilgan, kursilar qo'yilgan, gi-

lamlar to‘shalgan keng bir qabulxona. O‘ngda va chapda eshiklar, qarshida zina tutashgan kattagina kirish eshigi va ikkita katta deraza...

Kishilar qiyofasida, ruhiyatida alohida o‘zgarish seziladi.

Ikki xizmatchi uy ishlarini bajararkan, o‘zaro suhbatlashmoqda.

Birinchi xizmatchi

Menga qara, oshna! Ayt-chi, ne xabar?
Ko‘rsatdimi bir ish yana kohinlar?
Nechun bu tadoruk? Ayt, bu ne talosh,
Axir emasmizmi ikkimiz sirdosh?

Ikkinchi xizmatchi

Shu payt Madinadan kelmoqda mehmon,
Kelmoqda bosh rais, ul Abu Sufyon.
Makka ulug‘lari, xotin-u erkak
Uni ziyoratga kelishi kerak.

Birinchi xizmatchi

Nadir bu safardan murod, ajabo?
Har holda bor bunda jiddiy bir ma’no.

Ikkinchi xizmatchi

Menimcha, sababsiz emas bu safar,
O‘ylab ko‘r, necha yil o‘tdi, Payg‘ambar
Har kuni mashg‘uldir jang-u harb ila,
Kun kechar mojaro, hujum, zarb ila.
Makkadan qutulib, qochdi bir zamon,
Unga bir nechalar etgandi iymon.
Ko‘mak berdi unga madinaliklar,
Endi chor atrofga o‘zi hukm aylar.
Bosh rais kelmoqda bunga shu bois,
Kengashib, kelishib, ahd tuzilsin, to
Orani buzmasin fitna, g‘alamis,
O‘rtada dushmanlik qolmasin aslo...

Birinchi xizmatchi

Xor bo‘ldi! Noto‘g‘ri qildi Bosh rais,
Odam deb bilgani bitta kimsasiz.
Yarashmas raisga bundayin tadbir,
Kimlarning poyiga bormoqda axir?!..

Ikkinchi xizmatchi

Shaytonga aldanma, kimsasizmas u,
Uning orqasida bordir bir o'rdu.
Har ne ish buyursa, barcha bosh urar,
Qudrat-la atrofni titratib turar.

Birinchi xizmatchi

(o'ngdagi yarim ochiq eshikdan qararkan)

Qara, qayg'ulidir raisa xonim,
Kelmoqda...

Ikkinchi xizmatchi

Kelsin-da, senga ne, jonim!
Nima lozim bo'lsa, sen ishingni qil,
Qani, tez qimirla, imillamay o'l!..

Ikkisi ham ishiga urinadi. Raisa kelgach, unga qarashadi.

Raisa

(birinchi xizmatchiga)

Sen bundan jilmagin, bo'lgin ko'z-quloq,
Har ne lozim, bajar, lallayma biroq!

(ikkinchi xizmatchiga)

Tashqariga chiq sen, hal et ne bo'lsa,
Kutib ol, yo'l ko'rsat mehmonlar kelsa.
Shamso kelganida, xabar ber darhol,
Huzurimga yo'lla...

Ikkinchi xizmatchi

Xo'p, xo'p!..

Raisa

Bora qol!

Xizmatchi chiqib ketadi. Tashqarida boyqush sayray boshlaydi. Sayragani sayin Raisaning holi o'zgarib, tobora qo'rquv va hayajoni ortadi.

Nedan bu... Ne uchun sayraydir boyqush...
Derlar, falokatli emish bu tovush.
Meni bu shum ovoz xarob etmoqda,
O'zligim, ichim ham erib ketmoqda...

(boyqush sayrog'i takrorlanadi)

Ey voh, bu shum tovush na qo'rqinch, manhus,
Eshitganim sayin, bo'laman ma'yus.
(o'ng eshikdan chiqib ketarkan)
Agar bosh raisdan kelsa bir mujda,
Hech vaqt o'tkazmasdan bildir menga-da.

Xizmatchi itoat bilan ta'zim qiladi. Raisa chiqib ketadi. Ikkinchi xizmatchi qoladi. Birinchi, ikkinchi, uchinchi rais kiradilar. O'tiradilar. Xizmatchi ortiga qaytadi. Biri sharbat keltiradi.

Birinchi rais
Na g'amgin kecha bu, har yon zimiston!
O'ralgan qop-qora ipakka osmon...
Tun gizlar bizdan o'z chechaklarini,
Nozli, hayajonli malaklarini...
Ikkinchi rais
G'alati, shundayin noxush kechada
Bosh rais yuribdi qaysi ko'chada?
Nechun kechikyapti, yo'qdir bir xabar,
Kelishi kerakdi allaqachonlar.
Uchinchi rais
Menimcha, bular puch ham o'tgan gaplar...
Eh, o'sha kimsasiz, soxta Payg'ambar
Kechagina kichik bir uchqun ekan,
Endi yong'in bo'ldi... Ha, u yo'q yerdan
Yarata oldi bir dovruqli o'rdu,
Endi esa, bizga tahdid solar u...
Berilar goh Umar siyosatiga,
Kerilar goh Ali shijoatiga.
Bor ahli Madina e'zozlar uni,
To'sdi Shom yo'lini, bosdi maskunni,
Taladi, o'ldirdi, yiqitdi butun,
Harb aylab, har yerda bo'ldi u ustun.
Qo'rqib, bir manfaat kutgancha har choq
Unga yaltoqlandi bir to'da olchoq.
Hech shak keltirmasdan rasolatiga,
Qora xalq ham uchdi puch da'vatiga.

Birinchi rais
G‘alati! Bilimsiz, o‘qituvchisiz
Bir bola bunchalar o‘sib ketdi tez!..
Ikkinchi rais
Menimcha, u Shomga etganda safar,
Unga ko‘p ilm, amal bermish rohiblar.
Uchinchi rais
(qo‘li bilan ularni rad qilib)
Yo‘q, Abu Tolibning ulkan chodiri,
Har dorululumdan ancha yuqori!..
Unda olim, hakim, adib va zarif,
Eng ulug‘ shoir-u, eng katta orif,
Har yoqdan kelguvchi yo‘lovchi, sayyoh
Suhbat aylar ekan... ibn Abdulloh
Eshitdi, kasbi ilm etdi ulardan,
Dohiyga aylandi kechagi cho‘pon.
Birinchi rais
(afsuslanib)
Uni kim o‘ldirsa, olar yuz tuya,
Deya va’da qildik... Bu gapni tuya —
Qochdi u Makkadan... Qochib qutuldi,
Tobora kuchaydi, muzaffar bo‘ldi!..
Ikkinchi rais
(qo‘li qilichining qabzasida, jahllanib)
Aslida ayblimas bunda hech banda,
Faqat men aybliman!.. E voh, o‘shanda,
Siz ham birgaydingiz, u o‘sha kuni
Mozorlikda qilgach da’vat, va’zini,
Birdan Makka xalqi minib g‘azabga,
Unga hujum qildi... qoldi azobga...
Men avval jim turdim... keyin qo‘shilib,
Besh-o‘n musht tushirdim... So‘ng qilich solib,
(qilichini qinidan yarim sug‘urib,
yana shaqirlatib joyiga kiritarkan)
Bitiray deb tursam uning ishini,
Shamso kelib birdan, to‘xtatdi meni.

Oldin g‘azablandi, keyin yolvordi,
Oxiri panjamdan oldi, qutqardi...
Uchinchi rais
Shu go‘zal ofatning holi ko‘p g‘alat,
Aylar goh insof-u lutf-u marhamat,
Nafrat bilan gohi intiqom istar...
Biroq to‘g‘ri kelsa endi Payg‘ambar,
Shubhasiz, o‘ziyoq mahv etar uni,
Hech shafqat qilmasdan ichar qonini!

Shu chog‘ tashqaridan ikkinchi xizmatchi keladi. Shamso ham uning orqasidan mag‘rur, shiddatli odimlar bilan kiradi. Boshqalar xonimga takalluf etisharkan, u ham yengilgina yurib, ikkinchi raisga yuzini sal burib, ma’noli qararkan, o‘ngdagi eshikdan xaramxonaga o‘tadi.

Birinchi rais
Qop-qora tunni, boq, quyosh yoritdi,
Na xush bu tasodif, g‘amni aritdi...
Ikkinchi rais
Bir xayol bazmida sho‘x raqs etarak,
Porlagan she’r shudir, asli shu malak!
Uchinchi rais
Menimcha, qorong‘u bulutlar aro
Berkingan pariday ishvali, ra’no...
(ikkinchi raisga)
O‘tarkan, u bir tong epkini kabi
Senga ko‘z tashladi, bordir sababi?
Ikkinchi rais
Bilursanki, qalbdan qalbga bir yo‘l bor,
Oh, o‘sha qarashlar! Ko‘p jozibador!
Har qanday ko‘ngilda qo‘zg‘ar hayajon,
Ko‘rganda, har kim ham qoladir hayron.
Oh, o‘sha oqbadan, momiq kabutar...
(istehzoli kulib)
Ko‘zga ilmaganmish uni Payg‘ambar.
Axir yuksak ko‘kda, bog‘i jannatda
Bir malak yo‘q bunday husni suratda...

Boyqush sayraydi.

Bosh kohin, orqasidan jamoat — bir necha xotin, erkak kirib keladi. Suhbatdagilar o'rinlaridan turib, ta'zim qilishadi. Yana boyqush sayray boshlaydi. Jimlik...

Bosh kohin

(hayajon bilan)

Bu qanday falokat, dahshatli zamon!?..
Axir shu ketishda yo'q bo'lar jahon!
Ko'rganim qo'rquvli tush ham bir balo...
Shu boyqush sayrashi undan-da rasvo!

Birinchi rais

Qanday tush ko'rdilar, taqsirim, ayting?

Bosh kohin

Yotog'imda, ko'zim ilingan payti,
Munday qarasamki... aynigan havo,
Ostin-ustun bo'lib turibdir dunyo.
Qaldiroq gurillar... Chaqmoqlar chaqib,
Bir payt Ka'bamizni yubordi yoqib!..
Ey voh, butlarimiz yiqilib nogoh,
Kul bo'lib, ko'klarga sovrildi, ey voh...

(jimlik...)

Birinchi rais

(ikkinchi raisga)

Shubhasizki, bunda buyuk ma'no bor.

Ikkinchi rais

Bu tush-da... ehtimolki aksi chiqar.

Uchinchi rais

(yonidagi odamga)

Kim bilir, balki u to'qigan buni.

(Bosh kohinga)

Yaxshilikka yo'ying tushni, uyquni...

Shunda Bosh raisning xotini, Shamso, Nadima va bir necha xonim o'ng eshikdan kirib kelishadi.Barcha jiddiy tortadi. Jimlik...

Bir xizmatchi va kohin hovliqib kelishadi. Bosh kohinga ta'zim qiladilar.

Bosh kohin
Ne bo‘ldi? Tez so‘yla, ne yangi gap bor?
Kohin
Ka’badan bir butni o‘g‘irladilar!
Bosh kohin
Qaysi but? Qanday but edi asli u?
Kohin
Eng katta oltin but bor edi-ku, shu.
(Raisani ko‘rsatib)
Xonim uni yillar yasattirmishdir.
Bosh kohin
(jahli chiqib)
Hey, tiling kesilsin! Bo‘ldi, bas, o‘chir!
Ma’budlarning edi u eng go‘zali...
Kimki o‘g‘irlasa, yaqin ajali!..
Raisa
Bu jasorat bir xiyonat, albatta,
Jazosini olgay, kichikmi-katta.
Bosh kohin
Erta ertalabdan etilsin taftish,
Kim jur’at aylabdir, bu ko‘p og‘ir ish!
Menimcha,
bu g‘avg‘o ham Payg‘ambardan,
Topilur josusi chunki har yerdan.
Rosa sakkiz yilki, u g‘avg‘o etur,
Tobora kuchayib, bo‘lmoqda mag‘rur...
So‘ng paytlar garchand sust, jim turar, biroq
Dahshatli dovulday esar ertayoq...
Qarab tursin, hali quraysh avlodi
Ertaga yig‘laydir, tinmas faryodi.
(achchiq kulimsirab)
Eh, Lot-u Uzzoni tark etdik mamnun,
Bizga la’nat bo‘lsun, ming la’nat bo‘lsun!
Birinchi rais
Bosh rais kelguncha sabr qilaylik,
Qaraylik, ne derkin, fikrin bilaylik.

Bosh kohin

Ey voh, shu falakning ko‘zi bo‘lsin ko‘r!
Qurayshiylar ishi qayga bordi, ko‘r!..
Boshchimiz ulardan sulh ahdi kutar,
Ko‘r bo‘lib kimlar-la murosa etar!
Shu ishmi? Kechagi yetim, bir cho‘pon
Olamga sochmoqda qo‘rquv, hayajon!..

Shamso

(jasorat va matonat bilan)

Afsus, u emasdir kechagi yetim,
U — hokim, qo‘mondon, ruhi ham metin!
Ba’zida hakim-u, ba’zida shoir,
Siyosatda usta, qo‘llaydir tadbir.
Qilar ne istasa, bordir qudrati,
Kengroq taralmoqda dovruq, da’vati.
Har kun huzuriga kelar hay’atlar,
Yangi ma’budini ular ham qutlar.
Faqat butparastlar emas, har yerda
Hatto isaviylar, yahudiylar-da
Unga iymon bilan quchoq ochmoqda,
Shundaylar ham borki, qo‘rqib qochmoqda.
Pisand qilmagandik uni biz boshda,
Endi ikkilanib, qoldik taloshda...

(jimlik)

Birinchi rais

(Shamsoga maftunlik va ochko‘zlik bilan qarayotgan ikkinchi raisga, sekingina)

Yeb qo‘yma, oz qara...

Ikkinchi rais

(rom bo‘lganicha)

Na go‘zal, oh!..

Birinchi rais

Jim!

Ikkinchi rais

Sehrlab tashladi!
Ey voh, men o‘ldim...

Birinchi rais
Senga qarayapti hamma,
o‘zing tut.
Ikkinchi rais
Shunchalar go‘zalki oqshom...
Birinchi rais
Tiling yut!
Ikkinchi rais
Turishiga qara: ne qadd-u jamol!
Birinchi rais
O‘zingni yig‘ishtir, bo‘ldi qilaqol...

Boyqush sayraydi. Qaldiroq gurlaydi. Jimlik...

Raisa
Boyqush sayrab qoldi takror,
Qaldiradi tag‘in osmon,
Shubhasiz, bir falokat bor,
Tahlikasiz emas zamon!
G‘azablandi Lot-u Uzzo,
Ma’budalar istab qurbon,
Dunyolarni titratmoqda!
Ha, oltin but o‘g‘irlandi,
Ma’badimiz tahqirlandi,
Ular bir qurbon kutmoqda!..
Shamso
(asabiy, o‘zini yo‘qotgancha)
Vatandoshlar! Uning qoni
Faqat mening bo‘ynimdadir.
Afsuslanmang, biling, uni
Bir qiz o‘ldirmoqqa qodir.
Ikki ukam hamda otam
Uning amri bilan o‘ldi.
Unutmasman, bir yil onam
Tinmay yig‘lab, sochin yuldi.
Ha, ha, Abu Tolib o‘g‘li
Uning so‘zin darhol oldi,

Rahm etmasdan qilich soldi,
Bir uyni erkaksiz qo‘ydi.
Yetmaganday shuncha g‘avg‘o,
Qon to‘ksam der u damba-dam.
Tayyorlanur ayni asno,
Olsam deydi Makkani ham.
Insofdanmi axir asil
Madina ahli xor bo‘lsa?
Qurayshiyning mard va ahil
Avlodi undan yengilsa?
Yo‘q, istamam, yurtda bu dam
Shum boyqushlar sayrashini,
Istamam, xalq chekib alam,
Qarg‘a, quzg‘un yayrashini!
Uni o‘lim panjasidan,
Har kim bilar, men qutqardim;
Endi o‘zim o‘ldiraman —
Istamam hech kimdan yordam!

Ayni paytda Cho‘loq qahqaha urganicha, xizmatchining orqasidan kirib keladi. Barchaning e’tibori unda.

Bosh kohin
Keldimi Bosh rais?
Cho‘loq
Bu choq
Boshqa xabar bordir biroq.
(boyqush sayraydi)
Ana, boyqush sayrayotir...
Shamso
Har falokat o‘lkamizga
Faqat kelar bitta yerdan:
Ha, har neki kelsa bizga,
Kelar faqat Payg‘ambardan.
Ajal qanot kerib, uni
Bosmoqchiydi, men qutqardim.
Boshi yorlib, tishi sinib

Turganda, men yordam berdim.
Eh-ha, yana bir zarb yesa,
Haqqa vosil bo'lardi u.
Bo'lmadim men rozi, yo'qsa,
Allaqachon o'lardi u.
Achinmasam edi unga,
Bu kungacha sog' qolmasdi,
Ko'ngli suygan xotinlar-la
Zavq-u shavqqa ham tolmasdi...

Ikkinchi rais

(qo'li qilich sopida titrarkan, baqiradi)

Eh, la'natlar bo'lsin! Bizga
Kular do'st-u dushman rosa.
Shunday sudralgandan ko'ra,
Qahramoncha o'lgan avlo!
Quraysh ahli, elim, endi
Qo'zg'ol, bo'lmas bundan badtar!
Yo sharaf, yo o'lim endi,
Bas, miskinlik, xorlik yetar!!!

Bosh kohin

Oh, bu muqaddas yurtimiz
Dushmanlarga o'yinchoqmi?
Uch yuz oltmish ma'budimiz
Bir Tangridan qo'rqajakmi?!

Kohin

(yonidagiga)

Adashdimi Bosh kohin, ayt,
Uch yuz oltmish qayda bu payt?

Bosh kohin

Orttirma sen dardim, o'yla,
Ne yangi gap, shundan so'yla?

Cho'loq

(istehzoli kulib)

Bo'lsin sizga ham muborak,
Ko'kka chiqmish shu Payg'ambar!

Jannatlarda endi beshak
Malaklar-la suhbat aylar.

Bosh kohin

E, qo'y endi kinoyani!
So'yla borin!

Cho'loq

Madinadan
Kelgan bor, u aytyaptiki,
Yaqinda, u o'y surarkan,
Bosh aylanib, birdan cho'chib,
Bir sham kabi qolmish o'chib,
Qovushibdir Tangrisiga...

(hamma xursand)

Shamso

(g'ulg'ula ichida)

Demak, o'ldi... shundaymi, ayt?

Cho'loq

Yer yuzidan ko'chdi u, ha!

Raisa

Shukur!

(Cho'loqqa)

Mendan senga albat
Bordir go'zal, nodir tuhfa!

Shamso

Yo'q, yo'q, aslo bu shod xabar
Sevintirmas meni uncha.
Payg'ambarning boshqa yo'lda
Bo'lishini ko'ngil istar...
Oh, intiqom o'ti doim
Hamon qalbim yoqib turar,
Yuragimda bir o'ch qoim,
Kinli chaqmoq chaqib turar...
Uni yolg'iz ko'rib bir payt,
Ko'mak aylab, hayot berdim.
Biroq endi uni faqat
O'zim o'ldirmoq istardim!..

Ikkinchi rais

O‘ldirdim, deb ko‘ngling to‘q tut.
Afsusdan naf yo‘qdir, unut.
(istehzoli qahqaha urarkan)
Holbuki, bu kun Payg‘ambar
Jannat bog‘larida kezar.
Unda yoqut, zabarjaddan,
Oltinlardan ko‘shk tayyormish,
Atrofida ming gulbadan
Farishta-yu malak bormish.
Raqs aylagach huri g‘ilmon,
U o‘zindan kechar ermish.
Olmos qadah tutib har on,
Gulgun sharob ichar ermish.
Shunday ekan, bizlar nechun
O‘tiribmiz bunday mahzun?!.

(Raisaga qaraydi)

Raisa

(bir qizga)

Qizim! Bor, ayt, sharob kelsun!

(qiz ichkari xonaga kirib ketadi)

Ikkinchi rais

(nash’ali holda, yonidagiga)

Tur, ey zolim!
Sho‘xrog‘ bo‘lsun!

Ud chalinadi.

Mazkur shaxs arab maqomlariga uyg‘un ohangda qo‘shiq ayta boshlaydi.

Oh, mening qalbimda qolmish dard izi,
Yora etmishdir parilarning qizi,
Men cho‘pon, u ko‘kda Cho‘lpon yulduzi.
Har kecha yo‘llayman unga bo‘salar,
U uzoqdan bir kulib-da, ko‘z solar.
Soqiyo, kelgil, qadah to‘ldir yana,
Jannat o‘lsun barchaga bu yer yana!

May ichaylik, nash'a kelsin, dard ketib,
Suhbat aylang, bir-biringiz shod etib,
Men bir oshiqman, elimdan ayriman,
Kuzgi bulbulman, gulimdan ayriman,
May sun, ey,
ichsin go'zallar ham qonib,
Ruhlari gulxanga aylansin yonib!..
Ul dudoqlardan sochilsin nurli o't,
Ul yonoqlardan o'pib, o'zni unut!..

Xizmatchi

(Raisa yoniga kelib,
hayajon bilan)

Yonayotir shahar, bekam,
Har yon olov, sassiq tutun.
Xalq tug'yonli, chekar alam,
Chiqmasaydi g'avg'o bugun...

Birinchi, ikkinchi, uchinchi rais qayg'u bosganicha qarshidagi zinalardan tepaga chiqib, tashqariga qarashadi.

Raisa

Ey voh, bugun shum xabarlar
Yuragimni rosa ezdi.
Har kim kelib, bir ne so'ylar,
E, shulardan ortiq bezdim!..

Bosh kohin

Misrdan yo Shomdan kelgan
Karvon, balki o't qo'ygandir.

Birinchi rais

Shubhalandim men ham shundan,
Balki... Yo'q, bor bunda bir sir.

Raisa

G'azablanib balki butlar
Yoqmoq istar yurtimizni?

Ichkari kirib ketgan qiz qo'lida qadahlar va sharob idishi bilan qaytib chiqadi. Raisaga qadah tutadi, u qo'li bilan rad etadi.

Raisa
Sharobni qo'y, bu shum xabar
Mastdan badtar qildi bizni!
(qiz orqasiga qaytadi)
Uchinchi rais
Menga qolsa, kimdir turib,
O'sha yoqqa yelday yelsin,
O'z ko'zlari bilan ko'rib,
To'g'ri xabar olib kelsin.
Xizmatchi
(kelib, ta'zim aylaydi)
Yetib keldi Bosh rais ham.
(chiqadi)
Raisa
Har ne ayon bo'lgay bu dam.
Bosh kohin
To'g'ri, endi aniq xabar,
Hech shubhasiz, ma'lum bo'lar.

Bosh rais kirib keladi, hamma uni ehtirom bilan qarshilaydi. Jimlik.

Bosh rais
Biling, ogoh bo'ling, ey ahli vatan!
Bir mujda keltirdim men sizga haqdan,
Uni kim tinglasa, topajak izzat,
Rad etsa, boshiga tushgay musibat.
(tashqaridan ko'rinayotgan shahar
yong'iniga ishora qilib)
Ko'ring shu yong'inni — mudhish va katta!
Bizni bosgan qo'shin bundan ham badtar!
"Qon! Qon!" deb turar u, mushtoqi zafar,
Ularning rahbari erur Payg'ambar.
Uning ilk amri shu: shaharda odam
Yurmasin, uyiga kirsinlar bu dam.
Uyga yo Ka'baga kirib, ayni payt
Islom dinin qabul etgaymiz — shu shart.

Kimki bajarmasa, u barbod bo‘lar,
Mol-mulki, avlodi ko‘chada qolar!..

Raisa

(nihoyatda tutoqib)

Bas! Shunday degandan ko‘ra, e, qon qus!..

Bosh rais

Baqiraver, ammo haq budir, afsus...

(jamoatga)

Chora yo‘q, yo‘q,.. chunki har fursat o‘tmish,
Boshga tushgan bu ish naqadar mudhish!..
U kecha-kunduzdir tayyorlik ko‘rdi,
Ulkan qo‘shin to‘plab, mo‘ljalga yurdi.
Yetti kun yo‘l bosib kelibdir, birdan
Makkaga kiribdir, biz g‘ofil ekan.
Endi tahdid solib, men haqman, deydir,
Neni taklif etsak, u rad aylaydir.

Raisa

Voh, qanday falokat! Dahshatli xabar!..

Bosh rais

(Raisaga)

Sen endi bora qol, turganing yetar!

Raisa

(Cho‘loqqa)

Hey, ahmoq, chiqdi-ku aytganing yolg‘on!

Cho‘loq

(duduqlanib)

Qo‘shnim aytgan edi, gapimga ishon!..

Bosh rais

(so‘zini kesadi, jamoatga)

Ortiqcha hovliqmang, tinch, hayajonsiz
Kengashing, muammo hal bo‘lsin qonsiz.

Birinchi rais

Ha, qon to‘kilmoqda, yo‘q bunda mantiq.

Xotinlar

(Raisa va Shamsodan boshqa)

Afv istay qolaylik...

Ikkinchi rais

(qo'li qilich sopida titrarkan)

Yo'q, bu qo'rqoqlik!..
Biroq bu hol sizni etmasin ma'yus.

(jamoatga, keskin tovushda)

Boshqa bir yo'l yo'qdir: o'lim yo nomus!

Uchinchi rais

Unda ko'p qo'shin bor, demak, shu asno
Qarshi chiqmoqlikdan yo'qdir bir ma'no.

Shamso

Sizlar aralashmang, hozir ketarman,
Men... o'sha ofatni men daf etarman.

(ketishga chog'lanadi)

Bosh rais

(monelik ko'rsatib)

Hoy, qizim, aldanma! Shudir yaxshi yo'l:
U buyuk dinga sen inon, taslim bo'l!

Raisa

(qahr-la, telbalarcha)

Oh, sen inondingmi? Kuysin jahoning!..

Bosh rais

(jahli chiqib)

Ha! Ha! Sen yorilib o'l! Qutulsin joning.

(o'z-o'ziga, o'ychan)

Uff, shuni taqozo etdi siyosat...

Raisa

Bosh rais holin ko'r, ana razolat!
Boq, kimning dinini u topmish ma'qul,
Lot-u Uzzo buni aylarmi qabul?

Bosh kohin

Butlarga ne bo'lar? Endi Ka'baga,
Oh, boshqa bir tangri chiqarmi ega?!.

Bosh rais

(bosh kohinga)

Hey chol! Aralashma sen shu xotinga!
To'xtab tur, ochayin bir sirni senga.

Men uning diniga kirdimmi, demak,
Bu yerda boshqa gap bo'lishi kerak...
Vatanni sevaman, istamam uni
Dushmanlar egallab, mahv aylashini.
Sizni qo'rqitdimi Payg'ambar oti,
Axir u ham sizday vatan avlodi.
Bu holda hech narsa emasdir yangi:
Qoratosh oladir butlar o'rnini.
But ham tosh, u ham tosh, nomlari boshqa...

(istehzoli qahqaqadan keyin)

Baytul xudo bo'lgay eski butxona!..
Kecha arablarda ne bo'lsa, bugun
Avvalgidan yuz bor bo'lgaydir ustun.
Faqat Xijoz ahli emas, har millat
Ka'baga keltirar oltin-u sarvat.
Och, yupun bo'lsa-da, ko'p sodda ellar
Qo'yib o'z yurtini, bu yerga kelar...
Oldin kaltakesak yegan bir arab
Endi umr o'tkazar puraysh-u tarab.
O'lkamiz shu buyuk din sabab, albat,
Topgaydir yangi baxt, ulug' saodat!..

Raisa

(asabiy, g'azab-la)

Qanaqa buyuk din? Bir och
yalavoch —
Bo'lib-da boshiga kiyar emish toj!
Har hafta olarkan bir yangi xotin,
Sen uni tomosha qilib o'tirgin!..

Shamso

E voh, u "o'raning" deya amr aylar,
Bor xotin-qiz qora yopinchiq o'rar...

Bosh rais

Ha, Oysha tufayli chiqdi bu yanglish,
Unga bog'liq edi o'sha dog'li ish,
Derlar, bir nomahram qarabdir unga,
"O'raning" deyilmish shu bois so'ngra.

Raisa

Shuyam gapmi! Bitta Oyshani deya
Ayollar olami kiysinmi qora?

Bosh rais

Bu qonun! Ko'nasan.

Raisa

E, tentak, majnun!

Shamso

(achchiq va istehzoli kulib, atrofga)

Qahramon bo'lsang, bas, ne desang — qonun!

Raisa

(g'azabli)

Zaydni "o'g'lim" derkan, Zaynabni undan
Chiqarib olish ham qonunmi ekan?

Bosh rais

Ha, qonun!.. Yaxshisi, tilingni tiy sen!
Bunda ham hikmat bor...

Raisa

(tutoqib)

Evoh, na tuban!

(tashqaridan shovqin-suron tovushi eshitiladi)

Bosh rais

(birinchi xizmatchiga)

Bor, bilib kel unda bo'lmoqda nelar!
Ka'baga kirganga o'xshaydi ular.

Birinchi xizmatchi chiqarkan, Ikkinchi xizmatchi shoshib, hovliqib kirib keladi.

Muncha hovliqmasang? So'yla, ne xabar?

Ikkinchi xizmatchi

Bunga kelayotir hozir Payg'ambar.

Bosh rais

Marhamat qilsinlar, tez bor, ayt!..

(xizmatchi ta'zim aylab, chiqib ketadi)

Raisa

(asabiy)

Ha-ha,
Boyqush sayramagan ekan bekorga.

Bosh Rais

(Raisaga)

Sen endi bora qol, bundan chiq, daf bo'l!

Raisa biroz taraddudlanadi, so'ngra kin-la labini burib, o'ng eshikdan chiqib ketadi.

Bosh kohin

(ma'yuslanib, atrofga)

Endi qutulmoqqa qolmadi hech yo'l...

Shamso

(adovat bilan, atrofga)

Yo'q, bu hech mumkinmas,
mumkinmas aslo!
Kerak o'ch olishim men ayni asno!

Bosh rais

(jamoatga)

Burchimiz itoat, haq yo'lga taslim,
U buyuk qudratga hurmat-u ta'zim...
(eshik tomonga to'rt-besh odim yuradi)

Payg'ambar ko'rinadi; qo'lida qilich, yonida oltin muqovali kitob, o'ng tomonida Abu Tolib o'g'li, chap tomonida Xattob o'g'li, orqasida ikki mujohid bo'lgani holda kiradilar. Shamso va ikkinchi raisdan boshqa barcha ikki bukilib ta'zim qiladi.

Bosh rais

(ta'zim ila)

Xush kelding, ey ulug', ey haq Payg'ambar!
Mangu kulsin senga fath ila zafar!
Sendan fayz olmoqda Makka ham bu kun,
Shu bois faxr yetsin yer-u ko'k butun!.

(jimlik)

Payg'ambar

U buyuk Tangriga ming madh-u sano!..
Bermish qullariga til, aql-u zako.

Etmish meni sizga eng so‘nggi rahbar,
Ul haqni o‘ylagan, har xalqni sevar.
Agar kim bir lahza etsa tafakkur,
Ming yil ibodatga u lahza tengdur.
Tushuning: siz avval edingiz g‘ofil,
Butga topindingiz olim-u johil.
Yog‘di o‘t balosi shu shahr-u elga,
Keldi haq qo‘shini chorlab haq yo‘lga.
Butlaringiz sindi, bo‘ldi zer-zabar,
Ka’bada ulardan qolmadi asar.
O‘zgardi sanamlar, butlar maskani —
Bo‘ldi Alloh uyi, vahdat chamani.
Endi yordam etsa sizlarga agar,
Faqat u ko‘rinmas Tangrimiz etar.
Sajda qiling, bo‘ling hurmatda qoim,
U ulug‘ yog‘duga intiling doim.

Shamso bilan ikkinchi raisdan boshqa hammma sajda qiladi.

Xattob o‘g‘li

(g‘azabga minib,
sajda qilmaganlarga ishora etib)

Ajab, bu kibrning bormi sababi?

Payg‘ambar

Sharafdir har kimga zotan adabi.

Bosh rais

Yoshlik beboshlik-da... afv aylagaysiz!

Abu Tolib o‘g‘li

Yo‘q, bunda hikmat bor,
sal o‘ylagaysiz.

(Ikkinchi raisga)

Javob ber: ne uchun shunchalar g‘urur?

Ikkinchi rais

(istehzoli tabassum-la)

Sen o‘zing ayta qol: ne qildi mag‘rur?

Payg‘ambar

Ichingda ne gap bor, ochiq ayt menga.

Ikkinchi rais
Hech qanday gapim yo'q, ne derdim senga.
Mana, so'zlay qolsin endi shu qurol!..

Payg'ambarga qilich o'qtalib, hujum qiladi. Abu Tolib o'g'li darhol unga qarshi chiqib, zarbani bilagi bilan to'sib, qilichini olib qo'yib, qurolni Payg'ambar oyog'i ostiga tashlaydi. Xattob o'g'li esa uni tutib, mujohidlarga topshiradi.

Abu Tolib o'g'li
Olchoq! Bo'ldi endi qoni ham halol!
Payg'ambar
Har xoin albatta topadir jazo.
Xattob o'g'li
Qani, yur! Hey pastkash, adabsiz, rasvo!

Mujohidlar Ikkinchi raisni olib ketishadi.
Bosh kohin Payg'ambarga yaqinlashib, oyoqlari ostiga tiz cho'kadi.

Bosh kohin
(Shamsoga ishora etib)
Afv aylang, garchandki gunohkordir qiz.
Payg'ambar
(qo'lidan tutib, turg'azadi)
Keksasan, seni hech xafa qilmaymiz,
Sening hurmatingga qonidan kechdim.
Shamso
(Bosh kohinga, mag'rur va achchiq tabassum ila)
Siz ko'pam urinmang, taqsirim, shayxim!
To'g'ri... burchim edi saqlash adabni,
Qotib qolganimning bor lek sababi...
Payg'ambar
Sajdadan ayirgan ne sabab ekan?
Shamso
Seni ko'rarkanman, titradim hamon,
O'zimni yo'qotib, bo'libman behol.
Hattoki ta'zimga qolmadi majol.
Yashirib netardim, hammadan ko'ra

Sen meni yaxshiroq taniysan, to‘ram.
Faqat Tangrigamas, senga-da hatto
Tayyorman qilmoqqa bu jonni fido!..
(Payg‘ambarning oyoqlariga tiz cho‘kadi)

Payg‘ambar

(ko‘kka ishorat aylab)

Seni afv etdi U husni azaliy,
Go‘zladir U, albat sevar go‘zalni.

Shamso o‘rnidan turadi. Ta’zim aylab, orqaga chekiladi.

Bosh rais

(xizmatchiga)

Qani, bol sharbatin keltiring bu dam.

Shamso

(Nadimaga)

Yur, ko‘maklashaylik ikkovimiz ham.
(ular xizmatchi bilan birga o‘ng eshikdan chiqadilar)

Birinchi rais

(Uchinchiga)

Shu qiz ham bir ofat, fitna-yu fasod...
So‘zi bir-biriga kelmaydi hech rost.
Goh kin, goh topinish... endi bu ne ish?!

Uchinchi rais

Ha-ha, Payg‘ambarga u ko‘ngil bermish.
Garchi ko‘p qanchalar uning maftuni,
Yillardir kutgandi u faqat buni.

Uzoqdan dahshatli shovqin-suron, jang-u jadal sadolari eshitiladi. So‘ngra jimib qoladi.

Payg‘ambar

(Abu Tolib o‘g‘liga)

Men urush qilishga amr etmagandim,
Bu qanday to‘qnashuv? Boshladiykin kim?
(u chiqishga chog‘lanarkan,
bir mujohid kirib, ta’zim qiladi)
Ne bo‘ldi, qani, ayt, bu shovqin nedan?

Mujohid
Qo‘shin o‘tar ekan Ka’ba oldidan,
Qo‘llarida qilich, qirq-ellik nafar
Birdan bizga hujum qilib qoldilar.
Payg‘ambar
Keyin-chi?
Mujohid
Daf etib, olishdik biz ham,
Avboshdan qolmadi birorta odam.
Payg‘ambar
(ko‘kka yuz tutib)
Tangri ne istasa, o‘sha ish bo‘lur.
(mujohidga)
Bor endi, ammo hech bo‘lmangiz mag‘rur.
Ayt, afvi umumiy etilsin e’lon,
Qon to‘kmang, ommaga beringiz omon.
Bosh rais
Har kimki qon to‘kish yo‘lin to‘sadir,
Dunyoni qutqargan dohiy o‘shadir.
Bosh rais
Eng buyuk din aylar shundayin farmon:
Doimo adolat, muhabbat, ehson.
Birinchi rais
(ochiq turgan o‘ng eshikka qarab, uchinchi raisga)
Ana bir sir...
Uchinchi rais
Qanday sirdir, ajabo?
Birinchi rais
Qarab qo‘y, berkitib shu dilbar Shamso
Bir dori tashladi oltin kosaga...
Uchinchi rais
Kim bilir, mobodo u zahar bo‘lsa?..
Birinchi rais
To‘g‘ri!.. Payg‘ambarni zaharlamoqchi.
Uchinchi rais
Ha, endi angladim: bu qiz aldoqchi!..

Xizmatchi lagandagi bir oltin va bir necha kumush kosalarda sharbat keltiradi.

Shamso

(oltin kosani Payg'ambarga tutadi)

Mana, bol sharbati.

Payg'ambar

(kosani olib, ma'noli qaraydi)

Bundadir shifo!

Afsus, sharbat ichkim yo'q ayni asno...

(Shamsoga)

Buni sen icha qol, bo'lurman mamnun.

Bosh rais

Ol, qo'zim, ichgin bu sharaf sen uchun!

Shamso

(kosani olib, laganga qo'yadi)

Keyinroq ichaman, maylimi?..

Abu Tolib o'g'li

To'xta!

Hoziroq ichsang ham bir mone yo'q-da.

Shamso

Bas, icha olmayman.

Abu Tolib o'g'li

(darg'azab)

Ichishing kerak!

Shamso

Hadeb qistayverma, zo'rlashdan voz kech!

Xattob o'g'li

(shubhalanib, atrofga)

Bu yerda bir sir bor...

(Shamsoga, keskin)

Ichasan! Ha, ich!..

Shamso

Ichaman... ichaman...

Oldiniga taraddudlanadi. Biroz jimlik... Keyin ichib yuboradi. Holati o'zgaradi.

Payg'ambar
To'xta, bu ne hol?
Bosh rais
(Nadimaga)
Yordam ber!

Nadima bir qiz bilan birga Shamsoning qo'lidan tutib, o'ng eshik tomon yuradilar.

Shamso
(eshik yonida, xirillagan tovushda)
Oh, so'ndi umid, istiqbol...
Birinchi rais
Bechorada tamom bo'ldi his, idrok.
Uchinchi rais
Zahar uni shu on aylagay halok.
Shamso
Uff... uf... voy...

Hushidan ketib, jon taslim etadi. Xizmatchilar uni o'ng eshikdan olib chiqib ketishadi.

Nodima
Tugadi...
Xattob o'g'li
Bu yomon dahshatli bir sir.
Payg'ambar
Butun sir-asrorni Tangri biladir.

Jimlik...
Lagandagi sharbatlarni qaytarib olib chiqadilar. Xizmatchi kiradi.

Bosh rais
Nima gap? Ayt, ne xabar?
Xizmatchi
Kirish uchun izn istar
Uchta xaxam, uchta pop.
Bosh rais
Bor, boshlab kel, kirsinlar.

Xizmatchi bir necha odim chekiladi. Tashqariga qarab, qo'li bilan "kelinglar" deya ishora beradi. Uch yahudiy xaxam, uch nasroniy ruhoniysi kirib keladi. Payg'ambarga ta'zim qiladilar.

Bosh xaxam
Yashang, ey shonli va buyuk Payg'ambar!
Tangri bersin sizga abadiy zafar!
Qo'shiningiz ko'rib, bo'ldik munavvar,
Musoviylar sizni ta'zim-la qutlar!
Bosh pop
Isaviylar mamnun, bu ishlardan shod,
Barisi hurmat-la sizni aylar yod.
Hech zulm etmadingiz, to'kilmadi qon,
Adolat-la xalqqa berdingiz omon!
Payg'ambar
Sizlarni, ey qavmi nasroniy, juhud,
Eski dinlaringiz etolmas mas'ud.
Chunki hazrat Muso edi sal xudkom,
Xayolga rom edi Maryam o'g'li ham.
Birining kutgani manfaat, iqbol,
Birining tutgani she'riyat, xayol.
Topardi birisi ezmoq-la safo,
Biri ezilmoqdan olardi shifo.
Menimcha, ezmog'-u ezilmoq — xato!
Haqni sev! Haqsizni daf ayla! Zero
Loyiq erur haqqa muhabbat, hurmat,
Jallodlarga esa — adovat, nafrat!
(bir qo'lida yalong'och qilichini,
bir qo'lida xaltadan chiqarilgan kitobni tutarkan,
qat'iy tovush bilan jamoatga)
Bu — qilich! Bu esa ma'noli kitob!
Sizlarga shu yetar... Yo'q boshqa xitob.
Bu kitob ochadir faqat el ko'zin,
Bu qilich quritar zo'rlik, zulm izin.
Haq, vatan, zavq ila saodat, jannat
Qilich qo'riqlashi ila muabbad.

Bilim-la qimmatli bo'ladir qilich,
Bilimsiz har qilich sinar erta-kech.
Bilimli bo'lmoq-chun ayol-u erkak
Qabrga kirguncha ishlashi kerak.
Insonlar teng erur xilqatda, ammo
Bilgan-u bilmagan teng emas aslo.
Har kim ilm, irfon-la yuksalar, porlar,
Shubhasiz, bilimda Alloh nuri bor.
Oriflar fikr-la haqqa yetishar,
Undaylar avliyo bo'lib o'tishar.

Ayni shu chog'da tashqaridan ilohiy bir ovozda azon o'qilgani eshitiladi. Payg'ambar qilichga tayanib, viqor bilan uni tinglaydi. Atrofni teran jimlik qoplaydi.

Azon tovushi
Allohu akbar... Alloh akbar...
Allohu akbar... Alloh akbar...
Ashhadu al laa ilaha illolloh...
Ashhadu al laa ilaha illolloh...

Tugadi

AMIR TEMUR

AMIR TEMUR

Besh pardali drama

Ishtirok etuvchilar:

I

Amir Temur
Dilshod — Temurning suyukli xotini
Devonbegi — bosh vazir
Oqbug'a — Temurning sardorlaridan biri
O'rxon — mingboshi
Olmos — devonbegining qizi, O'rxonning xotini, olma yuzli, o'tnigoh bir ayol
Shoir Kirmoniy — "Temurnoma"ning muallifi
Olga — rus malikasi, oltinsoch, latofatli bir qiz
Subutoy — yosh zobit
Qoraqush — vahimachi, epchil va qiziqqon bir ayol
Temirqoya — barvasta, yo'g'on ovozli sarboz

Ikki ochiq chehrali, harbiy libosli soqchi va boshqalar

II

Yildirim Boyazid
Ali Posho — sadri a'zam
Shayx Buxoriy — fozil bir kishi
Nozimog'a — oriq, novcha, qora arab (haram og'asi)

Qishloqlik ayol, ikki masxara, shomlik qiz (raqqosa), saroy raqqosalari, jallod va boshqalar.

BIRINCHI PARDA

Samarqand. Amir Temur saroyidagi sharqona bezatilgan go'zal bir qasr. Qasr Turkiston, Eron va Hindiston jihozlari bilan bezatilgan. To'rt kunjda kumushdan quyilgan burgut shakli, o'rtada oltin ustunlar, naqshin xontaxta va kursilar... Oldinda kattakon bir deraza, derazadan gullarga burkangan ajoyib bir bog' ko'zga tashlanadi. Olga deraza oldida bog'ni tomosha qilib turgan holda namoyon bo'ladi. Tashqarida harbiy marsh chalinmoqda.

O'rxon *(Kiradi. Olgani ko'rar-ko'rmas ortidan kelayotgan Temirqoyaga)*. Oh, go'zal!.. Oh, toza ochilgan Maskov che-chagi!..

Temirqoya *(doimgidek beparvo va yo'g'on ovozda)*. G'alati gap? Inson ham chechak bo'larkanmi? Maskov qizi desang-chi...

O'rxon. Oh, u chechakdan ham latifdir.

Temirqoya. Latif bo'lsa bordir. Nima keragi bor, men aralash-mayman.

O'rxon. Temirqoya! Sen biror joyga yashiringil.

Temirqoya. Sabab?

O'rxon. Chunki men u bilan ko'rishmoq istayman.

Temirqoya. Ajab, men sening ko'lkang emasmanmi, axir? Sendan qandoq ajrala olurman?

O'rxon. Inson goho ko'lkasinigina emas, o'zini ham unutur.

Temirqoya *(istehzoli jilmayib)*. Demak, endi sen ham o'zingni unutdingmi?

O'rxon. Shundoq, ortiq so'ylama, ket tez.

Temirqoya. Ket desang, keturman. Nima keragi bor, men aralashmayman *(yashirinadi)*.

O'rxon. Go'zal Olga xonim tag'in ne xayollar ila band?

Olga *(O'rxon tomon yurib)*. Oh, O'rxon, senmisan?

O'rxon. Menman. O'rxonning o'zi sen bilan bo'lmasa-da, qal-bi, ruhi hamisha sen bilan birgadir.

Olga. Xudoyim, bu askarlar qay tomonlarga borurlar? Bu hozirlikning boisi nedur, ajab?

O'rxon. Yana yangi bir jang-muhoraba bo'lur emish.

Olga. Oh, muhoraba, hamisha jang-muhoraba!.. Ajabo, qay o'lka bilan, kim bilan?

O'rxon. Buni yolg'iz Qizil Qoplon bilur. Shundoq, Amir Temurning rejalarini biz kabi ojiz bandalar hargiz bilmagaymiz.

Olga. Holbuki, uning yuzida hech qanday shiddat va hayajon izi yo'q... Har doimgidek viqorli va jiddiy, har doimgedek xotirjam...

O'rxon. Buyuk qahramonlar shiddatli va g'azabli paytlarida juda muloyim va halim ko'rinurlar.

Olga. O'rxon, sen ham keturmisan?

O'rxon. Albatta! Ketmay bo'lurmi? Biz turklar chodirlarda tug'ilib, bepoyon sahrolarda, qonli janglarda halok bo'lurmiz.

Olga. Iltijo qilurman, yetar, shul jang-jadaldan, o'limdan ortiq so'z ochmagil!

O'rxon. Muhorabada o'lganlar uyida o'lganlardan nihoyatda ozdir. Menimcha, muhorabasiz umr umr emas... Biz turklarga g'urur va nash'a beradigan bir narsa bo'lsa, u ham muhoraba, u ham g'oliblikdir. Unutmagilki, sening o'zing ham fath va zafar sahrolarida yuz ochimsh bir chechaksan.

Olga. Oh, sen meni Moskovdan bu yerlarga nechun keltirding, nechun? Temur saroyida hibs etmak uchunmi?

O'rxon. Yo'q, sen mahbus emassan, balki malikalar qadar izzat-hurmatga moliksan. To'g'rirog'i, buyuk xoqonning muhtasham saroyini bezab turgan porloq yulduzsan.

Olga *(bir chetga qarab).* Oh, rahmsiz... *(O'rxonga)* Demak, meni yolg'iz qoldirib ketursan, shundog'mi?

O'rxon. Mundan ne g'am. Boshqa ayollar ne bo'lsa, sen ham shu...

Olga *(bir chetga qarab).* Oh, bag'ritosh... Shoshmay tur, men senga endi ko'rsaturman.

O'rxon. Nelar demoqdasan, Olga, senga biror kor-u hol bo'ldimi?

Olga. Ortiq ne bo'lsin? Sen meni anglamaysan, sen meni sevmaysan...

O'rxon. Yo'q, behuda so'ylaysan. Seni sevmaslik — go'zallik qarshisinda ko'r bo'lmak demakdir. Oh, nozli qaldirg'ochim.

Naqadar latif va go'zalsan. Kel! Kel, shu moviy ko'klarni lol qoldirgan ko'zlardan, shu alvon shafaqlarni uyaltirgan fusunkor dudoqlardan bir o'pay! *(og'ushiga olib o'pmoqchi bo'ladi, Olga ortga chekindi.)*

Olga. Yo'q , istamasman.

O'rxon. Nechun?

Olga. Chunki ko'ngil berganim bir qalbga xiyonat qilgan bo'lurman.

O'rxon *(hayrat bilan)*. Ko'ngil berganing bir qalbga?!

Olga *(keskin)*. Shundoq.

O'rxon *(uning qo'llarini silarkan, gangigan bir ahvolda)*. Aytchi, u qanday qalb, kimning qalbi ekan?

Olga. Yo'q, aytmasman. *(Chekkaga)* Uning rashkini qo'zg'amoq uchun shul so'zning o'zi kifoya...

O'rxon *(qizishib)*. Aytgin deyurman senga, kim u, menga qarshi chiqqan u jasoratli raqib kim ekan?!

Olga. Sendan ancha buyuk, sendan ko'ra botirroq...

O'rxon. Otini ayt!

Olga. Xoqonlar xoqoni Amir Temur!..

O'rxon *(hayajon bilan, biroz qizishib)*. Olga!.. Maskovdagi ahvolingni qandoq unutding! Bilkim, biz Maskovga kirib borganimizda hammayoq beshafqat, omonsiz bir alanga ichida yonardi. Lashkarimiz yashiringanlarni izlarkan, men qanotlarimni yolg'iz sening boshing uzra yoydim, yolg'iz seni o'limdan qutqarib qoldim. Sen u paytlarda ma'suma bir qizaloq eding. Vaqtingni xush kechirgil, ayni zamonda yaxshi tarbiya olgin deya seni Temur saroyiga keltirdim. Hayhot, sen ulg'ayganing sayin mening orzularim ham chechak ocha boshladi. Afsuskim, bugun kutganim visol orzusi o'rnida achchiq bir umidsizlik chiqib turibdir.

Olga. Buning sababi o'zing, sening vafosizliging.

O'rxon. Qanday vafosizlik? Anglamadim?

Olga. O'rxon, O'rxon! Sen bosh vazirning qizi Olmosdan, o'shal rashkchi, kibrli xotiningdan ajralmaguningcha, oramizdagi sevgidan so'z ochish o'rinsizdir.

O'rxon. Nechun insof qilmaysan, u farzandlarimga ona-ku, axir. Olmos hech qachon bizning sevgimizga mone bo'lolmaydir.

Olga *(kulib).* Yo'q, yanglishma, azizim, u juda dahshatli ayol...

O'rxon. Ayollarning inja tabassumlari ularning dahshatlaridan ko'ra juda kuchlidir. *(Olganing qo'llarini silab)* Men unga marhamat ko'rgazmoqdaman, agar u ortiq rashk etsa, jafosini o'zi chekkay.

Olga. Demak, meni nihoyatda sevadirsan, shundog'mi?

O'rxon. Olga, seni sevmay bo'lurmi? Unutmagilki, O'rxon sening asiringdir.

Qoraqush *(Temirqoya bilan parda orqasidan ko'rinadi)* Ha, xoin!.. *(Temirqoyaga)* Ularni ko'rayotirmisan? Yugur, Olmos xonimga xabar ber!

Temirqoya. Beri kelsang-chi, jonim, nima kerak, men aralashmayman.

Yashirinadilar.

O'rxon. Temur so'nggi safarida, Hindistonga hujum etarkan, Samarqand muzofotini boshqarmak uchun meni bu yerda qoldirgan edi. Ehtimolki, tag'in qolurman. Agar shundoq bo'lsa, istaganimizcha zavq va safoga g'arq bo'lurmiz.

Olga *(atrofga boqib).* Temur kelayotir. Yarim tunda seni chinorli bog'chadagi hovuz bo'yida kuturman.

O'rxon. Azizim... *(ketadi).*

Olga *(yolg'iz).* Yo'q, O'rxon menikidir. Uni hech kimga bermasman.*(Biroz taraddudda)* Oh, faqat Olmos, bosh vazirning qizi Olmos! U manim boshimga ko'p savdolar solgay.

Qo'lini peshonasiga tirab mahzun xayolga toladi. Shu payt **Amir Temur** kirib keladi. U o'rta bo'yli, yag'rindor, manglayi keng, boshi katta, oq yuzli yanoqlari qizg'imtir, yelkalari keng, barmoqlari baquvvat, chakkalari cho'ziq, g'oyat sog'lom bir shaxs. Vujudining bardamligidan oqsoqligi u qadar ko'zga tashlanmaydi. Ovozi kuchli va guldirab chiqadi. Osiyocha keng, oldi ochiq chakmon kiygan, boshida gumbazsimon kuloh. Kulohining o'rtasida atrofi inju va boshqa javohirot bilan bezatilgan cho'zinchoq bir yoqut porlaydi.

Temur. Xo'sh, Maskov armug'oni, o'ris go'zali yana ne xayollar ila band?

Olga *(mahzun tabassum bilan).* Shundoq muhtasham bir saroyda men nimani ham o'ylar edim?

Temur. U holda yuzingga soya solgan bu kadar bulutlari nedan? Men so'lg'in chechaklarni aslo sevmasman. Hamisha yangi ochilgan gul kabi, gulgun shafaqlar kabi nash'ali bo'lmog'ingni istarman. Illo, aytmoqchi bo'lgan so'zlaringni,hamisha jaranggos kulgular ila, noz-istig'nolar ila so'yla!..

Olga. Mening kulgularim buyuk xoqonning g'azabiga sabab bo'ladir, degan andishadaman.

Temur. Ajab, bu andisha nechun?

Olga. Chunki qalbi harb, jang-jadal otashi-la yongan bir hukmdor huzurida kulmak jasorati haddimga sig'mas...

Temur. Mutlaq yanglish fikrdasan... Muhoraba hozirligi Temurni g'azablantirmagay, bil'aks, xuddi bayram tadorigi kabi xushhol va mamnun etgay.

Olga *(sho'x va jozibali navozish bilan).* Ijozat bersangiz, xoqonim. Ikki oydirki, Samarqand shonli-sharorli kunlarni o'z boshidan kechirmakda edi. Zarafshon daryosining o'ynoqi to'lqinlari ko'ngillarga zavq-shavq solmoqda, xush ohanglar og'ushida Bingil darasi tantanasini kuylamoqda edi. Faqat negadir qo'qqisdan bu tantanalar tinib qoldi. Ana shundan biroz tashvishdaman.

Temur. Nechun? Bingil darasi shunchalik yoqimlimi edi?

Olga. Oh, Bingil darasi boshqa bir olam... Ro'yo qadar go'zal, jannat qadar porloqdir u. Hayhot, Bingil darasindagi zavqsafoli sayillar, yashil adirlar ustiga tikilgan chodirlar, Arabiston va Eronga xos nafis pardalarning qiyosi yo'qdir... Buning ustiga, Hindistondan kelgan huqqaboz va o'yinchilar, askiyachi va latifago'ylar, raqqos va raqqosalar... Pahlavonlarning kurashi, rang-barang matolar bilan bezatilgan fillar o'yini, turfa xonanda va sozandalar, har xil musobaqalar, tengi yo'q hayratomuz narsalar insonni sarxush etur. Buning ustiga, ushbu tantanalarda amir va shahzodalar xotinlarining, butun turk-totor qizlarining ishtiroki turli ellardan kelgan ajnabiy musofirlarni lol etadir. Buyuk Temurning

bu dabdaba va hashamatini ko'rgan har bir kishi hayratdan o'zini yo'qotib qo'yadir.

Temur. Zero, maftun bo'lganing shu manzaralar, Samarqanddagi muhtasham saroylar va oliy madrasalar, buyuk ma'badlar va obidalar faqat fath-u zafarlar tarixidir. *(Iftixor bilan)* Menga so'yla-chi, Olga, sen sayohatdan zavq olurmisan?

Olga. Shubhasiz, sayohat inson ko'nglini ko'taruvchi ajoyibotlardan biridir.

Temur. U holda seni o'zim bilan birga olib keturman.

Olga. Qayerga, urush maydonigami?

Temur. Yaxshi bilginki, barcha manzaralarning eng go'zali harb va g'olibiyat sahnalaridir.

Olga. Ajabo, O'rxon ham shunday deydir.

Temur *(ma'noli tabassum bilan)*. Shundog'mi!? O'rxon buni juda yaxshi bilur. Demak, men bilan ketursan, yoinki...

Olga. Buyuk xoqonning idorasiga itoat va hurmat ko'rgazmak eng ulug' saodatdir.

Temur. Sening idrok va farosatingdan juda mamnundirman. Endi haramga bor. Hozir bu yerga a'yonlar keladirlar.

Olga ta'zim qilib chiqib ketadi.

Temur *(qars uradi. Qoraqush kiradi)*. Qoraqush! O'rxon qayda?

Qoraqush. Hozir shunda Olga bilan suhbatlashib turgan edi.

Temur. Uni huzurimga chaqir. Maboda Devonbegi yoki Oqbug'a kelsa, darhol xabar ber *(chiqib ketadi)*.

Qoraqush (*ta'zim ila)*. Bosh ustiga... *(Ketmoqchi bo'larkan, atrofga alanglaydi)*. Ana, Olmos kelayotir, hozir uning ko'ngliga shubha solaman. *(Yetib kelgan Olmosga)* Ma'zur tutasiz. O'rxon qayerda?

Olmos. Men ham uni sendan so'ramoqchi edim. Hali shu yerda ekan...

Qoraqush. Hali Olga bilan birga edi, so'ng ketib qoldi.

Dilshod kirib keladi, uni sezmaydilar.

Olmos. Nelarni gaplashishdi?

Qoraqush *(biroz quvlik bilan)*. Nima ham bo'lardi, ishq orasiga ag'yor aralashuvining yaxshi emasligi haqidami-yey...

Olmos. Qanday ishq, qanaqa ishq?! *(Chekkaga)* Oh, bevafo...

Qoraqush. Har holda, O'rxon sizning eringiz. Uni siz mendan ko'ra yaxshiroq bilursiz. Biroq men unda hech qanday qusur ko'rmasman. Hamma gap qizda... Chunki u O'rxonga telbaday osilib olmishdir.

Olmos *(chekkaga)*. Oh, xoin O'rxon, shoshmay tur, hali mendan ko'radiganingni ko'rursan.

Qoraqush. Ul qiz shundoq bir balodirkim, hademay Amirni ham maftun etadir.

Dilshod. Nahotki? Amirni-ya?!

Qoraqush *(shoshilib, duduqlanib qoladi)*. Yo'q, xonim! Amir...

Dilshod *(qizishib, hayajonda)*. Qoraqush!

Qoraqush. Ma'zur tutgaysiz...

Dilshod. Bilib qo'ygilki, meni Qamariddin qizi Dilshod deydilar. *(Chekkaga)* Hah, betavfiq Olga!..

Qoraqush. Bas, amir kelayotir, men O'rxonni chaqirishim lozim edi.

Dilshod. Jo'na! *(Qoraqush chiqib ketadi.)* Olmos! Sen tag'in Amirga zinhor hech narsa demagil.

Temur *(kiradi, unga ta'zim qiladilar)*. Dilshod xonimni bir qadar hayajon og'ushida ko'rmoqdaman.

Dilshod. Yo'g'-e, Amirim, hayajonga biron-bir vaj yo'q...

Temur. Ko'zlaring mutlaqo boshqa bir ma'no anglatadir.

Dilshod. Atrofdagi viloyatlardan keksa bir dehqon kelib menga shikoyat qilmish, shundan biroz siqilib, ruhim toliqmish.

Temur. Ajabo, dehqonning shikoyati nedur?

Dilshod. Bu yilgi bug'doyi bo'lmag'on ekan, hukumatga soliq to'lay olmaganmish. Shuning uchun viloyat hokimi Mamayxon ul sho'rlikni qamchi bilan savalatibdir.

Temur *(hayrat va jahd bilan)*. Nega? Nechun?! Keksa dehqonni savalatibdir? Hah, quturgan ablah, befahm! Ul anglamaydirki, raiyatni ranjitgan hokim o'z inini buzgan hayvon kabi be-

farosatdir. Zarari yo'q, ushbu masala oydinlashur, agar bu so'zlar to'g'ri chiqsa, ul gunohkorga eng shafqatsiz jazo berilur. *(Keskin)* Hayhotkim, qamchi qadar nufuzi va obro'si bo'lmagan hokim hukumat nomiga tushgan o'chmas va eng chirkin bir dog'dir.

Dilshod. Dehqonning so'ylashicha, uning yeri ilgari ekilmagan dasht bo'lg'on emish, shu bois mo'ljaldagi hosilini ko'tarolmag'on emish.

Temur. Badbaxt Mamayxon, badbaxt!.. Men hali uning ko'r ko'zlarini ochib qo'yadirman. U mamlakat qonunlarini unutg'ong'a o'xshaydir.

Dilshod. Holbuki, qonunga ko'ra biror kishi bo'm-bo'sh dashtga ekin eksa yo bir ariq chiqarsa, yoxud yangi bog' yaratib, biron vayronani obod qilsa, ul kishi birinchi yil o'lpondan butunlay ozod qilinur. Ikkinchi yili o'z istagicha biron narsa bersa-berur, bermasa majbur qilinmagay. Uchinchi yili, faqat uchinchi yildan boshlab qonunga muvofiq o'lpon to'laydir.

Temur. Yo'q, Mamayxon behuda o'ylaydir. U bilmaydirki, xalqni qiynaganing sari mamlakat xazinasi bo'shaydir, xazina bo'shasa, lashkarning ahvoli yomonlashadir. Va bu hol mamlakat parokandaligiga sabab bo'lg'ay. Aslo aziyat chekma! Yaqinda, hademay haqiqat qaror topg'usidur!

Dilshod. Kam bo'lmang... *(Olmosga)* Endi biz boraylik *(ketmoqchi bo'lishadi).*

Temur. Menga qaragin, Dilshod! Shoshma, hali so'zim tugagani yo'q! Sen mening nazarimda juda hayajon va sarosimadadursan. Unutmagilki, sen Temurning mahramisan. So'zla, ochiq so'zla, yuzlaringga, ko'zlaringga soya solgan bu qora bulutlar nedan xabar berur?

Dilshod. Oh, ana ul oshufta qiz Olga!..

Temur. Xo'sh, nima gap, ne bo'ldi?

Dilshod. Sho'rlik Olmosning ko'zini ochirmaydir. Har kuni yangi sevgi, har kuni tarona. Bilmadim, O'rxondan ne istaydir?

Olmos. Hatto... hattoki... *(so'zini tugata olmaydi).*

Dilshod. Har holda, Olgani bu yerdan daf etmoq lozim...

Temur. Hech siqilma, Olmos, bu xayollaringning bari behuda. Sen Devon begining qizi, O'rxonning mahramisan. Men ularning

har ikkisini ham sevadirman. Sen esa viqorli, mag'rur va jozibali bir ayolsan!

Olmos *(hayo bilan bosh egib)*. Tashakkur, Amirim.

Qoraqush. *(kirib ta'zim qiladi)*. O'rxon amri farmoningizga muntazirdir.

Temur. Kirsin. *(Ayollarga)* Sizlarga ruxsat. *(Ular chiqishadi)* O'rxon! Beri kel... *(Qo'lini uning yelkasiga qo'yadi)* Sen ham qahramon jangchisan, ham siyosatni xo'b yaxshi biladirsan. Senga bir ish topshirmoq niyatidadurman. Tezda yo'l tadoringini ko'rmog'ing lozim.

O'rxon. Burchim — itoatdur.

Temur. Usmonlining sultoni Yildirim Boyazidga elchi jo'natgan edik, hanuz undan biron xabar yo'q. Har holda, Bursada, Yildirimning poytaxtida bizning bir ko'zimiz bo'lmog'i, saroyning ichi va tashini o'rganib, har oy bizga xabar yo'llab turmog'i lozim. Devonbegi qilajak vazifangni tushuntirib bergay. Lashkarimiz bir haftadan keyin Misr-Shom taraflarga yurish boshlaydir. Sen ham endi to'g'ri Bursaga borursan. U yerda o'zingni menga dushman qilib ko'rsatursan, Yildirimga e'tiqod qo'yganingni, shu bois bu yerlardan quvilganingni so'zlaydursan. Buni hatto o'zimiznikilar ham sezmagani ma'qul... Chunki shahrimizda josuslar yurg'onligi uchun ham jamiyki tadbirlarimiz yo'qqa chiqmog'i mumkin.

O'rxon. Yildirim so'zlarimga ishonmasa-chi?

Temur. Hech tashvish chekmagin, ishonadir, chunki u juda mag'rur. O'ta mag'rur kimsalar esa haqiqatni ko'rmagaylar. Uning ko'zi ojiz der edilar, magarkim, qalbi va idroki ham ko'r emish... *(Keskin)* Hech taraddudlanma, bor, hozirlig'ingni ko'ravergil. Temirqoya ham sen bilan otlansin!

O'rxon. Biroq u juda sodda kimsa... Mening ishlarimni barbod qilmasmu degan andishadaman.

Temur. Andishaga hojat yo'q. U sinovdan o'tgan sodiq askardir. Borgin, o'g'lim. Burch va hushyorlik hamrohing bo'lsin!

O'rxon. Buyuk xoqonning amri har nedan yuksakdir *(ta'zim ila chiqadi)*.

Qoraqush *(kirib ta'zim qiladi)*. Devonbegi, shoir Kirmoniy, sardor Oqbug'a huzuringizga izn so'raydilar.

Temur. Kirsinlar! *(Qoraqush o'zi kirib kelgan tomonga ta'zimkor ishora qiladi. Har uchalasi kirib ta'zim qilishadi. Temur viqor bilan)* Devon begining ahvollari nechuk?

Devonbegi. Tashakkurlar bo'lsin.

Temur. Shoir Kirmoniy qalaylar?

Shoir. Kam bo'lmang, Amirim.

Temur. Lashkarimiz qahramoni sardor Oqbug'aning sog'liqlari qalay?

Oqbug'a. Oqbug'a hamisha egilmas lashkar bilan yengilmas xoqonning amriga muntazir.

Temur. Xo'b yaxshi, marhamat qiling. *(O'tiradilar)* Bingil darasida oylab ulkan mashvaratlar qurdik, muttasil kayf-safolar surdik, endi biroz muhoraba hozirlag'ini ko'rsak, yomon bo'lmas?

Oqbug'a. Manimcha, muhoraba maydoni sayr-u sayillardan, aysh-u ishrat, mashvaratlardan ko'ra ancha yoqimli, ancha ruhshifo narsadir.

Temur. Sen bunga ne deysan, shoir? Bu kun ko'zimga juda nash'ali ko'rinmakdasan.

Shoir *(beg'am va sarxush bir tabassum bilan).* Tantana! U ham bir tantana, bu ham bir tantana... G'avg'o! U ham bir g'avg'o, bu ham bir g'avg'o... Yolg'iz, faqat yolg'iz o'rtada bir farq bordurkim, siz jangchilar inson qoniga tashna ersangiz, biz shoirlar gulgun sharoba tashnamiz... Birida vahshat va dahshat bor, ikkinchisida zavq va jasorat. Sizning harb na'ralaringiz yuraklarni tilkalaydir, insonlarni qiymalaydir, onalarni yig'latadir. Shoirlarning aysh-ishrat taronalari esa kinlarni, qayg'ularni tarqatadir. Yuzlarni, ko'ngillarni kuldiradir. Siz insonlar boshini tanidan judo qilsangiz, biz ul bosh chanoqlaridan yasalgan qadahlarni bir-biriga urgaymiz. Siz harb va dahshat g'olibi, biz ishq-u muhabbat mag'lubi. Faqat bizning bu mag'lubiyatimiz sizning ul g'olibligingizdan benihoya yuksakdir.

Temur. Baxtiyor shoir! Seni sarmast etgan faqat shirin xayol, totli bir tasallidur. Lekin sen baribir juda buyuk insonsan. Zotan, sen kabi ulkan siymolarning qadr-u qiymatini anglashsa edi, men kabi oqsoqlarning sariq chaqalik ham qimmati qolmagay erdi.

Sizlar shabparaklar o'lkasinda, ko'rlar mamlakatinda porlagan bir quyoshsiz. Afsuski, inson nomi ila yurgan ikki oyoqli hasharot juda qabih va razil bir narsadir... Hayhotkim, shu kabi qabih va miskin hasharotni tartibga solmoq uchun, ularning qurum bosgan chirkin vijdonlarini tozalamoq uchun faqat Temur qilichi lozim... E-voh, sevimli shoir! Insonlar marhamat va muhabbatdan ko'ra ko'proq dahshat va kuch-qudratga topinurlar. *(Oqbug'aga)* Demak, lashkar tamomila jangga tayyor, shundog'mi?

Oqbug'a. Shundoq, barcha bir tan-u bir jondek amringizga muntazir.

Temur. Xo'b yaxshi.

Shoir. Endi qayoqqa, ajabo?

Temur. Misr va Shom tomonlarga.

Shoir. E-voh, bu siyosatga hech tushunmaydurman.

Temur. Sen "Temurnoma"ning muallifi ekansan, manim siyosatimga begonalardek boqishing to'g'ri emasdir. *(Hayajonli)* Oh, Sova!.. Fozil shayx Sovaning qatlini qandog' unutib bo'lur? Men uni Arabistonga elchi qilib jo'natgan erdim, Misr hukmdori uni yovuzlarcha qatl etmish. Ajabo, elchiga ham o'limmi? Yo'q-yo'q, shayx Sovaning xuni yerda qolmagay!

Shoir. Faqat biroz orom ham lozim. *(Temur taxtiga yopilgan qoplon terisini ko'rsatib)* Hindistonning Gang daryosi kanorinda ovlaganing qoplonlarning terisi hanuz qurigani yo'q, Sulton Mahmud o'lkasinda oqizilgan qonlarning izi hanuz tuproqdan arigani yo'q...

Temur. Men Allohning kiborlarni ezish uchun yaratilgan bir balosidurman. To'kkanim qonlar ham faqat haqiqat va adolat nomidandir.

Shoir. Oshkor so'ylamak lozim ersa, men qon to'kmakda hech bir haqiqat va adolat ko'rmasman.

Temur. Sen haqsan, chunki... shoirsan.

Oqbug'a. Shoirlar ruhiyat hakimlaridir. Ular qon to'kmakdan ko'ra jarohat bog'lamakni xush ko'rurlar.

Temur. Xo'sh, devonbegi ne deydilar?

Devonbegi. Menga qolsa, yaxshilig' va yomonlig' egizdir. Muhabbat va adovat bir-biriga bog'liq. Lozimindan ortiq muhab-

bat nafrat tug'dirgani kabi, haddan ortiq qon to'kmakda ham bir fazilat yo'q.

Temur. Devonbegining fikrlari butunlay boshqachadir. Ul kishi betaraflikni xush ko'radir. Faqat unutmaslik lozimkim, har bir fe'l-atvor va shaxsiyat bir qonun demakdir. Shundoq, bugun shaxsiyatim menga neki amr etsa, uni amalga oshirmakdan chekinmagayman. Binobarin, men hozirga qadar qurultoysiz, sho'rosiz biron ish qilganim yo'q, chunki sho'rosiz mamlakat johil bir shaxsga o'xshaydurkim, uning qiladurg'on ishlari, so'ylaydurg'on so'zlari nadomat va falokat tug'dirur. Men hamisha fozil va oqil shaxslarni tingladim, buyuk sardorlar ila mashvarat qurdim. Faqat harb va urushlarni emas, sulh manfaatini ham ko'zda tutdim. Zotan, men shul cheksiz-chegarasiz o'lkalarni goh tadbir va siyosat ila, goh sulh va muhabbat ila, goh tahdid va shiddat ila, goh afv-u mulozamat ila idora etmak istaydurman. Men har ishda sabot va matonatni sevganim kabi hazm-u ehtiyotdan ham ko'nglim xush tortadir, lozim bo'lsa ba'zan dushmanlarimga nisbatan sabr va tahammul ko'rsaturman, ba'zan esa g'ofil va johil ko'rinmakdan zavq olurman.

Devonbegi. Xo'sh, ko'raylik-chi, sho'ro qarorga kelur?

Temur. Imonim komilki, Arabiston safariga hech kimsa e'tiroz etmagay. Chunki Bingil darasida davlat kishilarining juda ko'pchiligini tingladim. Har bir kishi manim fikrim ila rozilashmish. Bul xususda taraddudlanganlar bo'lsa, ul ham yolg'iz shoir Kirmoniy ila sendirsan. Shubham yo'qdirki, ikki kundan so'ng siz ham aksariyatga tobe bo'lursiz.

Qoraqush *(kirib ta'zim qiladi).* Subutoy huzuringizga izn so'raydirlar.

Temur. Qaysi Subutoy?

Qoraqush *(Oqbug'aga ishora qilib).* Buyuk sardorning kichik inisi, Yildirim Boyazidga jo'natilgan elchi...

Temur. Kirsin, ko'raylik-chi, ne javob keltirmish. *(Qoraqush tashqariga ishora qiladi. Subutoy kirib ta'zim bajo keltiradi)* Xush kelibsan, o'g'lim, qalaysan?

Subutoy. Buyuk xoqonning ko'lkalari kam bo'lmasin.

Temur. Usmonli sultonidan qanday xabar bor?

Subutoy. Mana uning javobi... *(maktubni uzatadi).*

Temur *(maktubni Devonbegiga beradi, elchiga).* Maktubni Devonbegi o'qiydir, xo'sh, so'yla-chi, qahramon Subutoy! Sen nelarni ko'rding, nelarni eshitding?

Subutoy. Yildirim hamisha aysh-ishrat qulidir. Olib bormish maktubimdan achchiq qahqaha urib kuldi, boz ustiga nihoyatda mensimay, sovuq muomala qildi.

Temur. Demak, ul mening dushmanim bo'lmish Qoraqo'yinlining amiri Qora Yusufni tag'in himoya etmak istaydir, shundog'mu?

Subutoy. Yolg'iz Qora Yusufni himoya etibgina qolmay, hatto Bag'dod sultoni Ahmad Jaloyirni ham birlashmakka chorlamish, tag'in bizga qarshi...

Temur *(achchiq qahqaha bilan).* Demak, dushmanlarimiz bilan til biriktirayotir, demak, bizni aslo mensimaydir, shundog'mu? *(Boshini maktubdan ko'targan Devonbegiga)* Xo'sh, nelarni yozibdir?

Devonbegi. Takrorga ne hojat? Xuddi Subutoy aytgani kabi: takaburlik va sovuqlik... Boshqa arzigulik gap yo'q.

Temur *(g'azabli).* Takabburlik va sovuqlik... Qanday kulgulik haqorat! *(Shiddat bilan sapchib turadi)* Oh, takabburlik va sovuqlik... Qanday buyuk jasorat!.. Men undan qardoshlarcha muhabbat kutarkanman, mana olgan javobim! Qora Yusuf bilan Ahmad Jaloyir meni yaxshi taniydir, faqat Yildirim!.. Yildirim esa sharobning quli... Zarari yo'q, u ham o'ziga kelgach, meni tanib oladir. Men Eronga qadam qo'ydim, eng zabardast pahlavonlar ham dosh bera olmay, Mozandaron shoqollari kabi o'rmonlarga qochdilar. Maskovga hujum etdim, o'ris kinyozlari qo'rquvdan shimol ayiqlari kabi qaltirashga tushdilar. Hindistonga yurdim, Sulton Mahmud askarlari Gang daryosi sohilidagi qoplonlar kabi o'qlarimga shikor bo'lib tiz cho'kdilar. Hayhot, shunday kun keladirkim, mag'rur Yildirim ham o'z poytaxti Bursada Oqsoq Temurni kutib oladir va o'shanda... faqat o'shanda o'z sarxushligining oqibatini va mening kim ekanligimni anglab yetadir.

Parda

IKKINCHI PARDA

Go'zal bir ko'shk... O'rtada favvorali hovuz, hovuz qirg'og'ida Kashmir va Isfahon joynamozlari, ipak to'shaklar, parqu yostiqlar va bolishlar, kursi va sandaliyalar[1]... Bog'cha boshdan-oxir turfa gullarga burkangan, olislarda ulkan chinorlar e'tiborni tortadi. Tashqaridan kelayotgan hazin kamoncha ovozi ruhlarga nash'a soladi. Bir tomonda sharob to'ldirilgan suroxiy qadah, archilgan va archilmagan olma, shaftolilar, ikkinchi tomonda qalam, siyohdon, terib qo'yilgan daftar-kitoblar. **Shoir Kirmoniy** yostiqqa yonboshlaganicha yozish ila mashg'ul. Qo'lida kattakon guldasta bilan **Olga** kiradi. Orqa tomondan qadahga bir dona gul solib, ortga chekinadi.

Shoir. *(boshini ko'taradi, to'la qadahni ichmoqchi bo'lib qo'l cho'zarkan, hayrat bilan).* Ajabo, bu gul qaydan paydo bo'ldi? *(Atrofga boqadi, Olgani ko'rib, qalamini qo'yadi.)* Oh, qanday buyuk saodat... *(Alohida ohangda)* Boda, gul hamda gulsiymo bir malak!.. *(O'rnidan turib, sandaliyaga o'tiradi)*

Olga. Sizni bezovta qildim, shekilli?

Shoir. Bil'aks, shoirlarni bezovta qilguvchi, iztirobga solguvchi bir narsa bo'lsa, u ham go'zallarning firog'idir.

Olga *(qo'lidagi guldastani taqdim etib).* Ushbu guldastani yolg'iz shoir uchun to'pladim.

Shoir *(oladi).* O, shoir behad baxtiyordir! *(Olgaga ishora qilib)* Iltifotingiz ila ushbu qadahni tabiatning eng jonli she'ri sharafiga ichmoq istaydurman *(ichadi).*

Olga. Bul daftarlar nedur? Tag'in ilhom kelganga o'xshaydir?

Shoir. Yo'q, "Temurnoma"ni bitayotirman.

Olga. Qanday yaxshi. Buyuk xoqonning tarixini yozmak har kimsaga ham nasib bo'lmagay.

Shoir. Holbuki, ishq va go'zallik tarixini bitgan shoirlar bundan ko'ra benihoya yuksakdirlar.

Olga *(ketmoqchi bo'ladi).* Ruxsatingiz bilan...

---

[1] **Sandaliya** — xarrak.

Shoir. Ketmoq istarmisiz?

Olga. Ha.

Shoir. Nechundir siz bugun juda o'ychan ko'rinmakdasiz. Sababini so'rgali haddim bormi?

Olga. Sababi — ulkan bir nohaqlik.

Shoir. Ya'ni, qandoq nohaqlik?

Olga. Xudo shohid, rostini so'ylang. O'rxon chindan ham Yildirimga e'tiqod qulurmi? Sizningcha, u Temurga xiyonat eta olg'aymi?

Shoir. Buni tasavvur ham eta olmasman.

Olga. Bugun hamma O'rxonning xiyonatidan so'zlaydilar. Oh, naqadar ulkan bo'hton, naqadar katta yanglish... O, hazratim, Temurning sizga hurmati juda buyuk. Lutfan O'rxonni himoyat etsangiz.

Shoir. Zinhor tashvish chekmang, imkon qadar harakat qilurman.

Olga. Aslo kam bo'lmang *(nazokatli ta'zim ila chiqib ketadi).*

Shoir. Buyuk mamnuniyat bilan... *(Chekkaga)* Baxtiyor O'rxon! Saodat parisi boshi uzra qanot qoqib yurganidan aslo xabari yo'q *(qadahga sharob to'ldiradi. Shu orada Temur va Devonbegi kirib keladi).*

Temur. Tag'in sharobmi, muhtaram shoir? Tag'in sharobmi?

Shoir. Buyuk jahongirning qonli janglarini faqat qonli sharob bilan bitmak mumkin.

Temur. Kinoyami, yana kinoyami? Mazax qilayotganing jahongirning g'azabi seni qo'rqitmagaymi?

Shoir *(beparvo va yoqimli tabassum bilan).* Hukmdorlarning shiddat-u g'azabi buyuk mamlakatlarni ostin-ustin qilgay, biroq kichik bir shoirni qo'rqitolmagay. Hayhot, men yolg'iz go'zallarning itob-u istig'nolaridan mutaassir bo'lurman. Menimcha, ishvakor qoshlarning imosi yarqiroq qilichlarning sermanishidan ko'ra ancha ma'noli, ancha keskindir.

Temur. Sen juda ko'p ichursan, holbuki, mamlakat qonunlari va turklarning urf-odati buni qat'iy man' etadir.

Shoir. Shoirlar esa urf-odat va qonun qafaslarini parchalab tashlamakdan juda katta zavq olurlar.

Temur *(mamnun qahqaha urib).* Zotan, seni sevishimga sabab ham ana shu rindona xislating, g'urur va jasoratingdir.

Devonbegi. Shoir Kirmoniy buyuk ruhshunosdir. U juda yaxshi bilurkim, Temur hukumatlarni ag'darib tashlagay, mamlakatlarni fath etgay, mag'rur hukmdorlarni yanchgay, eng shijoatli qahramonlarni tiz cho'ktirgay, faqat mo'tabar shoir-u adiblarni, olim-u fozil shaxslarni hurmat qilgay, mehr-muhabbat ko'rgazgay. Zero, faqat Samarqandning xonadonlari, musofirxonalaridagina emas, shahar atrofidagi ko'shklar-u bog'larga ham olisdan kelmish fan va san'at arboblari sig'may qolayotirlar. Nainki Sharq davlatlari, hatto Mag'rib hukumatlari ham elchi va savdo vakillarini muttasil jo'natib turmakdadirlar.

Temur. Savdogar va san'atkorlarga juda katta e'tibor, izzat-hurmat ko'rsatmak lozim. Chunki jahon faqat tijorat va san'at soyasindagina yuksaklikka erishgay.

Devonbegi. Balli, kecha Isponiyo elchisi ham xuddi shu fikrni aytmishdir. U buyuk xoqonning fazilat-u mahoratlarini ta'riflar ekan, og'zining tanobini yig'ishira olmay qolmish.

Temur. Ovrupolilarning tillari boshqa, dillari boshqadir. Har holda, mamlakatimiz arslonlar yurti, burgutlar maskani bo'lib qolmog'i lozim. Ehtimol, bu yurt dunyoda eng porloq maorif va madaniyat o'chog'i, eng nafis san'at va tijorat markazi bo'lib qolg'ay. Ha, dushmanlarimiz ko'rsinlarkim, turk avlodi faqat bosib-qirmoqdan emas, yashamoq va yashnatmoqdan ham zavq olur, yolg'iz yoqib-yiqmoqnigina emas, balki tiklab-yaratmoqni ham bilur. Zero, hozirga qadar yaratganlarimiz hech narsa emas. Bular faqat madaniyat sari tashlangan bir odim, kelajak uchun ibtido, xolos. Bizning boshlagan yumushlarimizni kelgusi avlod kamolga yetkazgay. Yolg'iz besh-o'n shahar emas, butun mamlakat taraqqiyot va go'zalliklar uchun namuna bo'lmog'i lozim. Biz faqat buning tamal toshini qo'yurmiz. Bu tamal toshi uzra muhtasham binolar qurmak, bu diyorni gullarga burkamak... bu mas'uliyat keyingi nasllarning, sabotli avlodlarning zimmasiga tushg'ay.

Devonbegi *(yozilgan daftarga boqib).* Xo'sh, shoir endi qaysi voqealarni qalamga olmoqdalar?

Shoir. Eng keyingi safarlar... Turkiston lashkarining Kashmir sahrosidagi zafarlari, yengilmas xoqonning Hindistonni fath etishi...

Temur. Yaqin orada Misr va Shomdagi zafarlarimiz ham bitayotganing tarix sharhlari orasidan joy olajak, degan umiddaman. Mag'rur Yildirim o'z ishonchida sobit qoladirgan bo'lsa, u ham tariximizda yangi bir fasl ortishga sabab bo'lur.

Devonbegi. Faqat men, bil'aks, Yildirim borasinda sizning fikringizga qo'shila olmasman. Chunki har ikkingiz Turon olamining ikki qutbidirsiz. Shul ikki qutb bir-biri bilan chopishsa, o'rtada falokatli bir o'pqon paydo bo'lgay. Va bu infoqdan foydalanish ilinjida yurgan arofdagi ajnabiy davlatlarga turk dunyosini zabt etmoq uchun imkon tug'iladir. Faqat bizning lashkarimiz butun jahonni bo'ysundira olmas... Qo'lga kiritilgan o'lkalarni oqilona idora eta olsak, shuning o'zi ulkan muvaffaqiyatdir.

Temur *(mag'rur qahqaha bilan).* Alloh yagona bo'lgani kabi podshoh ham bitta bo'lmog'i lozim. Shon-shuhratni quvib yurgan bir hukmdor qarshisinda jahon... nima degan gap?

Olmos *(iztirobli holda kiradi).* Buyuk xoqon! Sizga shikoyatim bor.

Temur. Kimdan?

Olmos. Adolatdan lof urguvchi Temurdan.

Temur. Nechun, qizim, Temur biron-bir xato ish qilibdirmi?

Olmos. Shundoq! Temurning xatosi o'zi qadar buyukdir.

Temur. Xo'sh, bu qandoq xato ekan?

Olmos. Siz qahramon bir jangchini mahv etayotirsiz.

Devonbegi. *(Olmosning qo'lidan tutib).* Esing og'ib qolmishmi, qizim, nelarni so'ylayotirsan?

Temur. So'yla, Olmos, aslo tortinma, kim ekan ul qahramon?

Olmos. Mendan gap olmak istarmisiz? Ajabo, O'rxon ne qilibdirkim, Samarqanddan surgun etiladir?

Temur. U osilishi lozim erdi, faqat sening ering bo'lg'onligi uchun ham surgunga hukm etilmishdir.

Olmos. Nechun axir, nechun?!

Temur. Chunki u hukumatning xoinidir. Zimdan Yildirimga e'tiqod qo'ygan ermish...

Olmos. Yolg'on! Bo'hton!

Devonbegi. Olmos!

Temur *(Olmosga)* Men g'urur va jasoratni juda yaxshi ko'rurman. Har holda, sen hurmatga loyiqdirsan.

Olmos. Yo'q, men hech qanday taskin-tasalli istamasman! Yolg'iz adolat istarman, adolat!

Shoir *(achchiq tabassum bilan, chekkaga).* Ma'sum bir ohu yirtqich qoplondan adolat so'raydir. *(Temurga)* Hazratim. Olmosbegimga marhamat qiling, O'rxon xoinlik qila olmaydir.

Temur. Siyosat boshqa, marhamat boshqa narsa. Siyosatda marhamat yo'q! Zotan, O'rxon surgunga loyiqdir.

Olmos. Mening quchog'imdagi norasida go'dakning holi ne kechur? Oh, nahotki shunchalar bag'ritoshsiz?

Devonbegi *(uning qo'lidan tutib).* Qizim, bas qilgin!

Temur *(keskin).* O'rxon dorga osilgay!

Olmos. U holda meni ham ostir, meni ham... *(Behol Devonbegiga suyanib qoladi).* Oh, otajonim!..

Devonbegi. O'zingni tut, jonim, balkim Amir afv etgaylar.

Dilshod *(kiradi, bu manzarani ko'rib hayratda).* Olmos! Bu ne hol? Seni qattiq iztirobda ko'rmakdaman.

Olmos *(ma'yus).* Yo'q, hech gap bo'lgani yo'q...

Temur. Dilshod! Olmos tasalliga muhtoj.

Olmos. Tasallining eng go'zali o'limdir.

Qoraqush shoshilib kiradi va ta'zim qiladi.

Temur. Ne xabar?

Qoraqush. Sardor Oqbug'a lashkar tadorigini ko'rayotir. Butun a'yon-ashraf hozir bo'ldi. Ajnabiy elchi va vakillar ham tashrifingizga muntazirdirlar.

Temur *(Devonbegi bilan shoir Kirmoniyga)* Endi boraylik, ul yerda uch-to'rt daqiqa bo'lsak kifoyadir.

Shoir. Qoraqush! Bularni yig'ib, kutubxonamga eltib qo'ygil!

Qoraqush kitob-daftarlarni to'plab, ularning izidan chiqadi.

Dilshod. Olmos! Yosh go'dakdurmisan? Nega o'zingni qiynaydursan?

Olmos. Oh, O'rxon mahv bo'layotir, u xoin deb atalayotir...

Dilshod. Yo'q, u xoin emas. Unga hech narsa bo'lmagay. Faqat bu yerda qandaydir bir anglashmovchilik borga o'xshaydir.

Olmos. Xuddi ana shu anglashmovchiliklar mening g'azabimni qo'zg'ayotir.

Dilshod. Ishon, bu yerda bir sir bor. Men Temurni yaxshi bilurman; u bunday mavhum jumboqlarni juda xush ko'rgay. O'rxondan sening ko'ngling to'q bo'lsin, zinhor shubhalanmagin!..

Olmos *(unga yaqin kelib).* Oh, mehribonim Dilshod! Men yolg'iz senga ishonurman.

Bu orada Temur ketgan tomondan "Yashasin Temur! Yashasin Temur!" degan gulduros olqishlar eshtiladi. Qarshidagi xonadan **Olga** chiqadi va **Dilshodga** yuzma-yuz keladi. **Olmos** uni ko'rib sarosimaga tushadi, o'zgargan bir qiyofada.

Mana!.. Butun falokatlarning sababi shu oshufta malika, xoin mana shu balodir.

Dilshod. Olmos, uni tinch qo'ygin.

Olmos. Iltijo qilurman, meni qiynama. Oh, kecha Qoraqushning aytgan gaplarini unutmishmisan? *(Olgaga yaqinlashadi, qiziqqonlik bilan)* Menga boq, Olga! Sen bizdan ne istaydirsan? Yetar, endi daf bo'lgin! Turkiston go'shalarida, Samarqand bog'larida begonalarga o'rin yo'q!.. Eshitdingmi? *(G'azab bilan)* Oh, men mana shu kibor fitnachini o'z qo'llarim bilan bo'g'ib o'ldirmoq istaydirman. *(Olganing bo'g'ziga chang solmoqchi bo'ladi)*

Dilshod *(uning yo'lini to'sib).* Olmos, shuni yaxshi bilginkim, bu ishing Amirning hali so'nmagan g'azabini tag'in alangalatib yuborgay.

Olmos. O't olsin, men endi hech kimdan qo'rqmasman...

Olga. Iltijo eturman, Olmos, meni tahqir etmagil! Men ham xuddi sen kabi asil bir oilaga mansubdirman. Men bu yerlarga o'z ixtyorim ila kelganim yo'q, sening sevimli ering keltirdi. Bu

so‘zlarni menga aytgandan ko‘ra eringga aytgin, Amir Temurga so‘ylagin.

Olmos. Oh, sen naqadar beorsan. *(G‘azabli)* Yo‘q, men hech kimga aytmasman. Sen Temurning ham, O‘rxonning ham aqlini shoshirib qo‘ygansan. Senga mening o‘zim jazo berurman, o‘zim... Menga boq, yo ona yurtingga qaytib ketursan, yokim qabristonga!.. Eshitdingmi, hoy darbadar alvasti!

Dilshod. Olmos, bas qilgin endi, boraylik *(qo‘lidan ushlab sudraydi).*

Olga *(yolg‘iz qolib).* Keturman, albatta keturman, faqat yuragingda tuzalmas bir jarohat ochib, keyin keturman.

Og‘ir odimlar bilan ko‘shk tomon yuradi. Shu orada uning qarshisidan **O‘rxon** chiqadi.

O‘rxon. Olga!

Olga. Oh!..

O‘rxon. Ne bo‘ldi, seni qo‘rqitib yubordimmi?

Olga. Yo‘q, qo‘rqitmading. Sen meni o‘ldirding, meni mahv etding.

O‘rxon. Olga! Bu ne deganing?

Olga. Oh, Olmos meni rasvo qildi, sharmisor qildi!

O‘rxon. Nega, axir?

Olga. Seni sevganim uchun...

Daraxtlar ortida **Dilshod** paydo bo‘ladi va ularning suhbatini tinglaydi.

O‘rxon. Olga! Men endi Samarqandni tark eturman. Agar istasang, hozirligingni ko‘r, birga keturmiz.

Olga. Yo‘q, istamasman.

O‘rxon. Nechun?

Olga. Chunki o‘zing ham halok bo‘lursan, men ham...

O‘rxon. Temurdan qo‘rqayotirsanmi?

Olga. Ha, shundoq.

O‘rxon. Shoshma, Olga, sen meni eshitgil. Gurjistondan men olib kelgan oq kamzulni kiyib olursan. Seni ko‘rgan kishi erkak

deb xayol qiladir. Tez bo'lgin. Birozdan so'ng kelurman. Birgalikda yo'lga chiqurmiz.

Dilshod *(chekkaga)*. Juda qulay fursat! *(Yashirinadi)*

Olga *(taraddudda)*. Oh, Temurning g'azabi meni dahshatga solayotir.

Tashqaridan tag'in gulduros va olqish sadolari eshitiladi.

O'rxon. Zinhor ikkilanma, darhol qiyofangni o'zgartir, hozir eng qulay fursat...

Temirqoya *(kiradi)*. Amir hazratlari tashrif buyuradilar.

O'rxon *(Olganing qulog'iga)*. Ortiq hayallama. Yugurgin tez!

Olga *(iztirobda)*. Oh, O'rxon!..

O'rxon. Darhol yashirin... Seni kutgayman! *(Olga ketadi. Temirqoyaga)* Temirqoya! Safar tadorigi qanday borayotir?

Temirqoya. *(Peshonasining terini artib)* Hammasi ko'ngildagidek... Yo'lga chiqsak bo'laveradi.

O'rxon. Kunduzi juda yorug'. Manimcha, oydin kechada yo'lga tushganimiz yaxshiroq. Chunki tunda havo biroz salqin bo'lur.

Temirqoya. Sen nima desang — shu.

O'rxon *(yo'lga qaraydi)*. Bor, sen biroz kanorda turgin.

Temur bilan **Devonbegi** kirib kelishadi.

Temur. O'g'lim, sen shul yerdamisan? Ishlar qay ahvolda?

O'rxon *(ta'zim ila)*. Bir muddatdan so'ng yo'lga chiqurman.

Temur. Muhim xabarlar kechikmasin. Mablag' zarur bo'lib qolsa, darhol xabar qil. Yildirim o'lkasining hamma joyiga josus qo'yib qo'y. Endi bor, o'g'lim, senga omad yor bo'lg'ay!

O'rxon. Barchasidan ko'nglingiz to'q bo'lsin *(ta'zim qilib chiqadi)*.

Devonbegi. Oy borib, omon qaytgil, o'g'lim. Olmos uchun tashvish chekma!

Temur *(Devonbegiga)*. Darhol Yildirimga bir sulh maktubi yoz! Subutoy olib borgay. Faqat Yildirimning maktubi qanchalik qabohatli bo'lsa, bizniki shunchalik nazokatli bo'lsin.

Devonbegi. Men ham shundoq fikrdaman. *(Yo'lga qaraydi)* Ana, Subutoyning o'zi ham kelayotir.

Shoir **Kirmoniy**, **Oqbug'a** va **Subutoy**lar kirib ta'zim qilishdi.

Temur. Qahramon Subutoy! Zudlik bilan sulh maktubi olib borishing lozim. Yildirim shuni yaxshi bilsinkim, biz hammadan avval tinchlik va muhabbat tarafdorimiz.

Subutoy. Yo'q, u juda kibor, qaysar bir zotdir.

Temur. Biz o'z burchimizni ado etmog'imiz lozim. Qaysarlik qilsa, o'zidan ko'rsin. Endi borib tadorik ko'r. Maktubni ham, kerakli maslahatni ham Devonbegidan olursan.

Subutoy *(ta'zim bilan)*. Xo'p bo'ladi, xoqonim! *(Ketadi)*

Temur *(Oqbug'aga)*. Jasur Oqbug'a! Lashkardan juda mamnun bo'ldim. Biz bir necha kundan so'ng Misr sari yurish boshlagaymiz. O'g'illarimizdan Pir Muhammad Mirzo Hindistonni, Shohrux Mirzo Xorazm va Turkistonni, Mironshoh esa Ozarbayjon va Gurjistonni idora etgay. Boshqa sardorlar ham hukumatimizga tobe bo'lgan o'zga o'lkalarni boshqarib turgay.

Sandaliyaga o'tiradilar.

Qoraqush *(kirib ta'zim qiladi)*. Ozarbayjondan, shahzoda Mironshohdan Devonbegiga maktub bor.

Temur. Yaxshi, o'ziga ber.

Qorqush maktubni berib chiqadi. **Devonbegi** ochib o'qiydi.

Oqbug'a *(shoirga)*. Bu maktubda bir sir bor.

Shoir. Shubhasiz.

Temur *(chekkaga)*. Yo'q, bu maktubda quvonchli bir xabar yo'qqa o'xshaydir. Kim bilsin, tag'in qanday besaranjomlik ro'y bermish.

Devonbegi. Maktubning mazmunini arz etmakka ruxsat beriladimi?

Temur. So'yla!

Devonbegi. Yangi isyon!.. Tag'in ozarbayjonliklar shahzoda Mironshohga qarshi isyon ko'tarmishlar.

Temur. Sabab?!

Devonbegi. Sabab Mironshohning uquvsizligi... Idora etmak salohiyatining ojizligi.

Temur *(qiziqqonlik bilan).* Oh, Mironshoh, Mironshoh, agar unda jinday tadbir va siyosat bo'lsa edi, hech kimsa uning izmidan chiqmas erdi. U yerni idora etmak uchun sog'lom va tadbirkor bir bosh lozim. Afsuskim, Mironshoh kabi besabrlar bu xislatdan juda yiroqdirlar.

Shoir. Ozarbayjon tengsiz bir jannat quchog'i, tuganmas sarvat o'chog'idir. Lekin afsus, ming bor afsuskim, Mironshohlar o'yinchog'idir.

Devonbegi. Menimcha, Ozarbayjon xalqi begonalar soyasi bo'lmakdan nihoyatda zavqlanadir va xorijiylar ta'siriga juda qattiq beriladir.

Temur. Qiziq, qanaqangi xorijiy ta'sir?

Devonbegi. Bir to'da qora guruhlar...

Temur. Ya'ni, kimlar?

Devonbegi. Qoraqo'yin amiri Qora Yusuf...

Temur. Qandoq dalil bor?

Devonbegi. Maktubda nozik ishoratlar mavjud. Atrof-javonibdan kelgan ba'zi josuslar u yerda Temurning nufuzini yo'qqa chiqarmak va xalqni Yildirimning do'sti Qora Yusuf tomoniga ag'darmak harakatinda emish. Hatto bul ham kifoyat qilmaganidek, Qora Yusufning qaroqchilari Turkiston va Arabiston orasidagi karvon qatnoviga hamda tijorat ishiga to'sqinlik qilayotir emish...

Temur shahd bilan o'rnidan turadi, yonidagilar ham unga ergashadilar.

Temur. Oh, hali shundog'mu? Hech zarari yo'q, biz safar arafasidadirmiz. Erta-indin barchasining holini so'rgaymiz, har kimsa qilmishiga yarasha jazosini olgay. Yo'q, Qora Yusufda bir tulkichalik jasorat yo'q. Shubha yo'qkim, u Yildirimga ishongani uchun ham mundoq fitnalar qo'zg'ayotir. *(Devonbegiga)* Ikkinchi maktubni ham kechiktirmay yoz! Har holda, Yildirim uni bizga taslim etib bermog'i lozim. *(G'azabli)* Oh, Yildirim, Yildirim!

Men sen ila yaxshi muomala qilmoqchi esam, sen mening qarshimga shoqollarni, tulkilarni yo'llayotirsan. Yo'q, har bir darbadarga qarshi behuda ovora bo'lib yurmasman. Qora Yusuf taslim etilishi lozim, taslim! Agar ikkinchi maktubni ham mensimay sovuq qabul qilsa, u holda Yildirimning o'zi bilan hisob-kitob qilurman. *(Bir-ikki odim yuradi, tag'in to'xtaydi. Keskin va g'azabnok)* Hayhot, Oqsoq Temurni mensimaganlar o'z qo'llari bilan o'zlariga qabr qazajaklar. *(Ketadi, sahnadagilar ham u bilan chiqishadi, sahnada yorug'lik biroz pasayadi.)*

Dilshod *(Olmos bilan kiradi. Uning yelkasini silab)*. Olmos! Sen aqlli, farosatli ayoldirsan. Faqat biroz yoshliging, betoqatliging bor. Ishonkim, ko'p o'tmay O'rxonni tag'in Bingil darasining aysh-ishrat bazmlarida ko'rgaysan.

Olmos. Oh, bu safardan maqsad ne? Yolg'iz shuni bilsam edim.

Dilshod. Qo'y, bu bilan zinhor qiziqmagin! Hukumat sirini bilganlar yoki bilib oshkor etganlar Temurning g'azabidan aslo omon qolmagaylar.

Olmos. O'rxonning nomiga dog' tushmasligi uchun men hamma narsaga rozi edim.

Dilshod. Zinhor tashvish tortma, sen O'rxonni mendan so'ragin.

Olmos *(u tomon surilib)*. Oh, naqadar olijanob va mehribonsiz.

O'rxon *(kiradi, Dilshodga ta'zim qilib)*. Xalal bermadimmi?

Dilshod. Aslo!

O'rxon. Olmos! Mening ushbu safarimdan xavotir olmassan, degan umiddadirman. O'rxon xoin emas...

Olmos. Yo'q, endi xavotirim yo'q. Mehribon Dilshod xonimning ikki og'iz so'zi mening iztiroblarimga chek qo'ymish.

O'rxon *(Dilshodga ishorat bilan)*. Dilshodbegim hamisha tavofga loyiq bir fazilat timsolidir.

Dilshod. Olmos ham, sen ham men uchun tug'ishgan kabi azizdirsiz.

Har ikkisi *(ta'zim bilan)*. Tashakkur.

Dilshod. Sen endi kechikma! *(Ma'noli tabassum bilan)* Ha, darvoqe, sendan bir xohshimiz bor.

O'rxon. Amrlariga muntazirman!

Dilshod. Olmos yolg'iz qolayotir. Ko'nglingni unga qoldirib ketganing maqbul.

O'rxon. Albatta! O'zga bir fikrga borsangiz, O'rxonni tahqir etgan bo'lursiz.

Dilshod *(chekkaga)*. Naqadar bema'ni yolg'on! *(O'rxonga)* Kutgaymiz. Tajriba — haqiqatlarning haqiqatidir.

O'rxon. Har holda, vujudning ayrilig'i ko'ngul ayrilig'i emasdir. Endi menga izn bersalar...

Dilshod. Yolg'iz Olmos uchun keldingmi, atak-chechak o'g'lingni ko'rmoq niyating yo'qmi?

O'rxon. Ko'rmay bo'lur ekanmi? Ruxsat bersangiz...

Dilshod. Darhaqiqat, juda shirin bola bo'libdir. Mening ham ko'rgim kelayotir.

Ketadilar. Kun botadi, atrofga oy shu'la socha boshlaydi

Temirqoya *(kiradi, ularning uzoqlashayotganini ko'rib)*. Vo ajab, bu O'rxon zinhor safarga chiqadirgan odamga o'xshamaydir. Go'yo Olmosni endi ko'rayotir. *(Tashqariga chiqib, tag'in ichkariga kirgan Olgani ko'radi, hayrat bilan)* Bu kim bo'ldi ekan? Liboslari naqadar go'zal! Xuddi gurji kinyozlariga o'xshaydir. Kim bilsin, ehtimol, Gurjistondan Temur huzuriga kelgan yangi mehmondir. Nima keragi bor, kim bo'lsa-bo'lsin, men aralashmayman.

O'rxon *(hovliqib ortiga qaytadi)*. Temirqoya!

Temirqoya. Labbay!

O'rxon. Bu yerda erkak qiyofasida yurgan bir yigitni ko'rmadingmi?

Temirqoya. Qiziq! Hech zamonda yigit ayol qiyfasida ham bo'lgaymi? Tabiiyki, albatta erkak qiyofasida bo'lgay!

O'rxon. Nechundir shoshib qoldim. Gurji qiyofasidagi bir kishini ko'rmadingmi?

Temirqoya. Ko'rdim, hozirgina shu yerdan o'tib ketdi.

O'rxon. Otlar tayyormi?

Temirqoya. Albatta, tayyor.

O'rxon. Sen ketavergin, men ham darhol ortingdan yetib borgayman.

Temirqoya. Yaxshi *(bir-ikki qadam tashlab, chekkaga).* Aftidan, tag'in Olmosni kutayotir. *(Yelkalarini qisib)* Kutsa kutaversin, nima keragi bor *(ketadi).*

Olga *(chiqadi).* O'rxon, keturmizmi?

O'rxon. Ha, keturmiz. *(Taraddudga tushgan holda, uning qo'lini silab)* Menga boq, Olga! Sen qola qol. Agar istasang, qolgin...

Olga. Pushaymon bo'ldingmi?

O'rxon. Aslo.

Olga. Yo'qsa, bu taraddud nechun?

O'rxon. Chunki yo'l juda olis, buning ustiga tahlikadan ham xoli emasdir.

Olga. Yo'q, men na yo'ldan qo'rqurman, na sen o'ylagan tahlikalardan. Ketmak qaroriga keldim, endi kech. Vujudimni parcha-parcha to'g'rab tashlasalar ham ortga qaytmagayman.

Daraxtlar ortidan **Dilshod** ko'rinadi.

O'rxon. U holda keturmiz.

Olga. O, albatta keturmiz.

Shoshilinch qadamlar bilan uzoqlashadilar.

Dilshod *(mag'rur va mamnun).* Sho'rlik Olga! O'zingni o'zing falokat o'pqoniga tashlayotirsan. Zotan, mening niyatim ham shu erdi. *(G'azab va hayajon bilan)* Mayli, keta qol, daf bo'l! Hayhot, faqat ko'p o'tmay totli orzularing ko'zlaringda qotib qolgay. Yovqur Temurning temir panjalari ko'ksingni tilkalab tashlagay, hiyla va xiyonatga to'la yuragingni Turkiston burgutlariga yedirgay!

Parda

UCHINCHI PARDA

Bursada Yildirim Boyazid saroyidagi hashamatli qasr. Tun... Har tarafda shamlar yoqilgan. Hamishabahor gullari tovlanib turibdi. Yangi tug'ilgan oy bilan yulduzlar shu'la sochib, jozib bir manzara yaratadi. Uzun bo'yli haram og'asi, qora arab **Nozim** qo'llarini ko'ksiga chambarak qilganicha xayol surib o'tiribdi... Sultonning nodimlaridan pakana bo'yli, jikkak masxara **Jo'ja** Amir Temur qiyofasida namoyon bo'ladi. Tovushsiz odimlar bilan orqa tomondan haram og'asiga yaqinlashadi. Oyoqlarini yerga qattiq urib, "xo'p" deganicha og'aning ensasiga "shirin" bir shapati tushiradi.

Nozim *(cho'chib ketadi, jahli chiqib, Jo'janing yoqasidan olmoqchi bo'ladi).*

Oh, chittak Jo'ja, jirtak Jo'ja. *(Jo'ja qochadi, bir chekkaga borgach, istehzoli qahqahalar bilan, sakraganicha)*

Jo'ja. Afv etasan, Nozim og'a, men — Jo'ja, sen — qora qurbaqa...

N o z i m *(doimo so'zlarni arab shevasiga xos talaffuz etgani holda, jahldor bir qiyofada).* Alloh-Alloh, sen juda haddingdan oshayotirsan!

Jo'ja. Iltijo qilurman, bema'ni so'zlarni so'ylama! Qarshingda Jo'ja emas, balki jahongir bir xoqon turibdir.

N o z i m. Istasang xoqon bo'lgil, istasang shayton. Biroq zinhor haddingdan oshmagin, uqdingmi?

J o' j a *(iljayib).* Afu et, Nozim og'a, biroz hazillashdim.

N o z i m. Alloh-Alloh! Bo'y-u bastingdan nomus qilsang-chi, bamisoli katakdagi tovushqong'a o'xshaydirsan.

J o' j a. Hazratlarining o'zlari ham xuddi kalisoning narvoniga o'xshaydilar. Qurboning bo'lay, tag'in biroz cho'zilsang, Xudodan xabar keltirar eding.

N o z i m. Alloh-Alloh! Gunohga botding, battol, hech zamonda Muhammadning ummatini ham kaliso narvoniga qiyos etgaylarmu?

J o' j a. Afu et, adashibman. Sen musulmon bir arabsan, ko'proq minoraga mengzaysan: boshingning bo'shligi, bo'yingning balandligi, ko'nglingning egrirligi minoradan farq qilmaydir.

N o z i m. Alloh-Alloh! Sen kofir bo'lding, dindan chiqding.

Jo'ja *(xuddi o'sha ohangda).* Valloh-billoh! Ey arab og'ayni, sen ham aljirab qolding.

Nozim. Voy betafviq, iymonsiz, shoshmay tur, seni tutib olay *(tutmoqchi bo'ladi).*

Jo'ja *(bir chekkaga qochib o'tadi va qahqaha uradi).* Bu sening qo'lingdan kelmagay. Chunki seni yaratganida Tangri aqlingni bo'yningning ostiga qo'ygan. Sen — aqli tovonidagi bir g'ozdirsan, g'oz...

Nozim. Xo'sh, o'zing nimasan, o'zing? Ko'p bilganidan pakana bo'lib qolgan tulkisan.

Jo'ja *(ishshayib).* Afu et. Endi sen bilan hazillashmasman. Qo'lingni ber, yarashurmiz *(yaqinlashib qo'lini uzatadi).*

Nozim. Istamayman, yo'qol! *(Atrofga qarab, shoshib qoladi)* Oh, Sulton hazratlari bilan haramlari Melicha kelayotirlar!..

Jo'ja *(o'sha tomonga qarab, istehzoli kulganicha)* Hayhot, serb qirolining singlisi bilan uning itoatli quli Yildirim Boyazid!

Nozim *(shoshib qoladi va g'azab bilan).* Alloh-Alloh! Zinhor Sulton hazratlarini ham qul degaylarmi! Axir, u Allohning zamindagi soyasi erur!

Jo'ja. Ha, sen kabi eshaklarning sharofatidan...

Istehzoli qahqahalar bilan chekinadi. **Nozim** uning ortidan hayrat bilan qarab qoladi. Shu payt **Yildirim** va **Melucha** kiradi. Nozim ularga ta'zim qiladi.

Melicha. Omon, hazratim, tag'in ne bo'ldi? Juda bezovta ko'rinursiz?

Yildirim. Bugun ovqat mahali ko'proq sharob ichib qo'ymishman, shundan boshim tog'dek og'irlashib turibdir.

Melicha. Sharobning bosh og'rig'ini tag'in sharob bosgay. *(Arabga)* Nozim og'a! Biroz sharob keltir. Darvoqye, Serbistondan mening nomimga jo'natilgan sharoblaridan bo'lsin.

Yildirim. Agar Sadri a'zam posho kelsa, xabar ber!

Nozim. Bosh ustiga *(ta'zim qilib chiqadi).*

Yildirim. Men Serbiston sharobini juda xush ko'rurman, chunki seni voyaga yetkazgan ul ob-u havo ushbu sharobga ham o'zga bir latofat baxsh etmish.

Melicha. Serbiston men uchun ona og'ushi bo'lsa, Yildirim mamlakati oshiq og'ushi qadar aziz va rohatlidir.

Yildirim. Azizim Melicha! So'zlaring ham xuddi vujuding kabi latif va zarifdir.

Nozim *(kiradi)*. Sadri a'zam Ali posho keldilar. Amri humoyunga muntazirdirlar.

Yildirim. Ayt, kirsinlar. *(Nozim chiqadi)* Ali posho nuroniy, mo'tabar zot. Ham dindor bir hukumat odami, ham bir oila a'zosi sifatida saroyga mahram va biz bilan hampiyola...

Melicha. Ha, u juda ajoyib kishi, men ham uni o'z og'am kabi hurmat qilurman.

Ali posho *(kiradi, xursand bir holda)*. Salom va ehtiromlar bo'lg'ay!

Yildirim. Vaalaykum assalom! Marhamat, xo'sh, nechun kechikdingiz?

Ali posho. Oqsoq Temurning kechagi maktubiga javob bitdim.

Yildirim. Nelar deb yozdingiz?

Ali posho. Amr etganingiz kabi. Avvalgi maktubimizdan ham sovuqroq va g'azabliroq. *(Qo'ltig'idan maktubni chiqarib taqdim etadi)* O'zlari o'qib ko'rsalar.

Yildirim *(maktubni olib, ko'zlariga haddan ortiq darajada yaqinlashtiradi)*. Yaxshi, juda yaxshi.

Ali posho *(chekkaga)*. Sho'rlik chindan ham ko'r. Sal bo'lmasa, maktubni ko'zlariga yopishtirib qo'yadir. *(Yildirimga)* Insof ham kerak-da, hazratim, qarang, bizdan nima istaydir. Qoraqo'yinlining Amiridek xayrixoh bir shaxsni unga hech taslim qilib berib bo'lg'aymi? Axir, Qora Yusuf yoki Sulton Ahmad Jaloyir bizning eng yaqin do'stlarimiz-ku!

Melicha *(hayratlanib)*. Yo tavba! Bu Temur deganlari juda qaysar kishi ekan-ku!

Yildirim *(mutolaani davom ettirib)*. Zarari yo'q, qancha qaysarlik qilsa, shunchalik og'ir javoblar olgay.

Melicha *(chekkaga)*. Sho'rlik Yildirim! Ko'rligini butun jahonga namoyish qilmoqchi. *(Yildirimga)* Qo'ying, hazratim, ko'z nuringizni behuda narsalarga sarflamang.

Yildirim *(Ali poshoga)*. Menga juda ma'qul bo'ldi. Temurga munosib javob.

Shu orada **Nozim** boshqa bir xizmatkor bilan ustiga sharob, taom va gulob qo'yilgan kattakon xontaxta olib kiradi. Xizmatkor chiqib ketadi.

Ali posho. O'tinaman, Temurni bir chekkaga qo'yib turaylik. Xo'sh, bularni nega keltirishdi?

Yildirim. Tabiiyki, ichmak uchun.

Ali posho o *(qadahlarni to'ldiradi, Melichaga)*. Ruxsatingiz bilan, biroz sarxush bo'lsam-da, shavkatli sultonimning eng suyukli mahrami sharafiga bir qadah ichmak istarman. Omon bo'lsinlar Melicha xonim! *(Ichadilar)*

Melicha. Rostini aytsam, samimiyat va nazokatingiz meni hayratlarga soladir.

Yildirim. Haqqast rost. Ali posho beqiyos bir kimsadir. *(Ali poshoga)* Ishrat borasinda Melicha mening ilk ustozim bo'lsa, sen ikkinchi ustozimsan. Na iloj, sharob ichmak dinimizga ko'ra gunoh hisoblansa-da, ammo juda nash'ali gunoh.

Ali posho. Menimcha, ibodat ham lozim, ishrat ham. Tavbaning eshigi hamisha ochiqdir. *(Yana qadahlarni to'ldiradilar)*

Melicha. Siz siyosatchilar sharobni ham shariatga moslab ichursiz. Menga qolsa, sharob ichmakda hech qanday gunoh yo'q, xususan, Serbistonning sharobi bo'lsa!

Ali posho *(nash'ali va ma'noli bir qiyofada)*. Ofarin, xususan, Serbistonning sharobi bo'lsa. *(Qadahni baland ko'taradi)* Yashasin shonli Yildirim Boyazid!..

Yildirim. Tashakkur, posho hazratlari! *(Ichadilar, Melicha faqat bir qultum ho'playdi, qadah to'laligicha qoladi)*

Ali posho. Qani, bizning Jo'ja qayda? U har oqshom mashhur bir hukmdor qiyofasida chiqayotib edi.

Yildirim. Nozim og'a, Jo'ja qayda?

Nozim. Hozir *(ta'zim qilib chiqadi)*.

Yildirim. Kelsin, ko'raylik-chi, bugun ne tamosholar ko'rsatgay?

Ali posho. Men uning Isponiyo qiroli Henrix uchinchi qiyofasida chiqmog'ini istar edim, nechukkim, u Temurga juda yaltoq-

lik qilayotir, hatto elchilar jo'natib, u bilan savdo bitimlari tuzayotir.

Yildirim. Menimcha, Temurning o'zini masxara qilib chiqqani ma'qul...

Jo'ja ikki masxara qiyofasidagi sheriklarini ergashtirib, Temur qiyofasida chiqib keladi. Og'ir va kulgili qadamlar bilan oqsaganicha ular sari yuradi va ro'baro'lariga borib, haykaldek qotib turadi.

Melicha *(Kulgidan nafasini zo'rg'a rostlab, hayrat bilan)* Oh, qo'rqib ketayotirman, juda dahshat-ku! Ajabo, bu kim o'zi, bu qanday qiyofa?

Yildirim. Qani, o'zidan so'rab ko'raylik-chi.

Ali posho. Cho'loq Jo'ja! Sen kimdirsan, kasbing nedur?

Jo'ja *(mag'rur, salobat bilan).* Meni xoqonlar xoqoni Tarag'ay o'g'li Temur deydilar. Men Shahrisabzda dunyoga keldim. Samarqandda nash'u namo topdim. Bobom Barlos qabilasining hukmdori, o'zim Gurgon naslining bosh qahramoni... *(Yonidagi masxaralar qattiq qahqaha urib kuladilar)*

Yildirim *(Istehzoli tabassum bilan).* Barakalla, barakalla!

Ali posho. Men o'n ikki yoshda ekanman, ajoyib farosat va buyuklikni his eta boshladim. Men ila ko'rishmoq istaganlarni jiddiy bir viqor va hurmat bilan qabul etardim. O'n sakkiz yoshimda chavandozlik va ovchilikka havas qo'ydim. Fursatimning ko'p qismini Qur'on o'qimak, shatranj o'ynamak va ot minmak ila o'tkazar erdim. So'ng amir Qozon bilan urushdim, Husayn Kurd bilan savashdim. Ilyos Xo'jaga qo'shildim, vaziri bilan kelisha olmadim. U yerdan uzoqlashdim, turkmanlarga asir tushdim. So'ng bir qancha birodarlar ila birga bo'ldim. Bulujistonga hujum qildim. Goh g'olib keldim, goh mag'lub bo'ldim. Oyog'imdan jarohat oldim, shu ko'yi oqsab qoldim. *(Oqsab u yoq-bu yoqqa yuradi, so'ng keskin bir ohangda)* Hayhot, men yarador bir arslon, oqsoq Qoplonman!

Yonidagi masxaralar istehzoli, masxaraomuz bir alpozda qahqaha otib kuladilar.

Nozim *(hayratga tushganicha bir chekkaga).* Alloh-Alloh!..

Melicha. Naqadar ajoyib notiq!..

Ali posho. Dahshat, dahshat!

Yildirim. Xo'sh, keyin ne bo'lmish, keyin-chi?

Jo'ja. So'ngra jetalarni bo'g'dim. Chig'atoy elini Movarounnahrdan quvdim. Samarqandga kirdim. Xalqdan hurmat ko'dim. Qurultoy chaqirdim: hukmimni o'tkazdim. Balx shahriga bordim, Amir Husaynni bir yoqlik qildim. Tag'in Samarqandga qaytdim, Amir deb tan olindim. Qamariddin bilan chopishib g'olib keldim, qizi Dilshod og'ani oldim. Xorazmga kirdim, qal'alarni zabt etdim. Ozarbayjon quchog'imga otildi. Kurdiston taslim bo'lib qutuldi, Armaniston va Gurjiston xirojgohim bo'ldi. Qoraqo'yinlilar isyon qildi, oyoqlarim ostida ezildi. Shoh Mansur tug'yon qildi, darhol boshi kesildi. *(Nihoyatda mag'rurlanib)* Hayhot, mendirman jahongir dohiy!.. Mendirman janglarning ollohi!..

Masxaralarda istehzoli qahqahalar.

Nozim *(gangigan holda chekkaga)*. Alloh-Alloh!..

Yildirim. Haqqast rost, jo'ja bir dohiy!

Ali posho. To'g'rirog'i, dohiy bir jo'ja!

Yildirim. Keyin-chi, undan keyin?

J o' j a. Men davlatimni tahammul va muruvvat ila idora etdim. Xalqni umid bilan qo'rquv oralig'ida tutdim. Ko'plab nifoqlarga duch keldim, aziyat va zahmatlar chekdim, achchiq so'zlar va tuhmatlar eshitdim. Faqat meni tanqid etgan shumshik, qalbi ko'r johillarga andoq e'tibor bermadim. Hamisha olg'a intildim, tashabbus va shijoatim ila har kimsani bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldim. Har ishni vatandoshlarim bilan kengashib qildim. Xoin va fitnakor kimsalarni yonimga yo'latmadim. Doim atrofimga asl va najib kimsalarni, oqil va fozil zotlarni to'pladim. Hamisha lashkar bilan xalqning ahvolini yaxshilamak uchun harakat qildim.

Yildirim. Unda to'kkan shuncha qonlaringning, qo'zg'otgan shuncha to'fonlaringning ma'nisi ne?

Jo'ja. Men haq va adolat namoyandasidurman. Agar biron-bir mamlakatda zulm va istibdod avj olsa, men chekkadan boqib turmasman. Xalqning erki uchun zulmning kulini ko'kka sovurmoq, o'sha mamlakatni ozod etmoq istayman. Xuddi shu boisdan ham Xurosonga kirdim, butun Eronni tiz cho'ktirdim. Maskov taraflar-

ga ot soldim, Hindistonni qo'lga oldim. Shundoq! Men buyuk Temurman... Men yengilmas jahongirman!..

Masxaralarda istehzoli qahqahalar.

Nozim *(chekkaga)*. Alloh-Alloh!

Ali posho. Dahshat, dahshat!

Melicha. Men bu yerda ortiq o'ltira olmasman.

Yildirim. Nechun? Jo'janing so'zlari seni qo'rqitib yubormishmi?

Melicha. Yo'q! Biroq bu masxaralardan ichimga o'lim sharpasi oqib kirayotir. Aljirashlari yolg'on bo'lsa-da, juda achchiq va tikanlidir.

Yildirim *(Jo'jaga)*. Yo'qol, daf bo'l! Bul sovuq qiyofangni ham o'zgartir!

Jo'ja va sheriklari chiqib ketadilar.

Ali posho. Omon, hazratim! Jo'ja bu oqshom juda dahshatdir, dahshat!

Melicha *(o'tiradi)*. Yo'qolgani rost bo'lsin, kishining sabrini to'ldirib yuboradir.

Yildirim. Xo'sh, endi nima istaysiz?

Ali posho. Ruxsat bersalar. Shomdan keltirilgan arab qizining, go'zal raqqosaning o'yinini tamosho qilsak.

Melicha. Men ham uning ta'rifini ko'p eshitmishdim, lekin o'zini hali ko'rolganim yo'q.

Yildirim. Nozim og'a! Shomlik qizni chaqir...

Nozim. Bosh ustiga! *(Ta'zim qilib chiqadi)*

Ali posho. Juda ta'rif etayotirlar. Arablarning raqslari ham iqlimlari kabi otashlidir.

Yildirim. Shundoq, haqiqatan ham juda otashli...

Melicha *(istehzoli tabassum bilan)*. Tag'in posho hazratlarini yondirib yubormasin! Rostini aytsam, juda hayronman. Saroyda serb, o'ris va bulg'or raqqosalari turganda, allaqanday shomlik qizga ne hojat bor edi?

Yildirim. San'at va go'zallik har kimsaning o'z zavqi bilan o'lchanur. Saroy raqqosalari boshqa, shomlik qiz esa mutlaqo o'zga bir olam.

Ali posho. Shundoq, ko'ngil nimani sevsa, o'sha go'zaldir! *(Arabcha musiqa bilan arabcha raqs boshlanadi, shomlik qizning chiqishini ko'riboq.)* Naqadar otashli nigohlar!

Nozim *(raqs tugab, raqqosa ta'zim ila chiqib ketgandan so'ng ham o'ziga kela olmay, gangigan va zavqqa to'lgan bir holda).* Alloh-Alloh! Bu ne malohat! Bu ne latofat!

Yildirim *(iltifotli kulgan holda).* Ne xayollarga cho'mib qolding, Nozim? Juda yoqib qoldimi, deyman?

Nozim *(gunohkorona).* Uzr, Sultonim, aybga buyurmag'aysiz.

Melicha. Sho'rlik, o'zini butkul yo'qotib qo'ymish.

Ali posho. Ne ham qilsin? Zero, arab ruhi, arab zavqi! Faqat ugina emas, men ham hushimdan ayrilib qolayozdim.

Melicha. Hali shundog' deng? *(Latif va nash'ali qahqahadan keyin)* Unda tabib chaqiraylik.

Yildirim. Yo'q, tabibga hojat yo'q, raqqosa ketishi bilanoq Posho hazratlari o'zlariga keldilar.

Ali posho. Shundoq, chindan ham shundoq. *(Melicha turadi)* Nima bo'ldi, nega turdingiz?

Melicha. Men endi bora qolay.

Yildirim. Tamaddi mahali Ali posho ham biz bilan birga bo'lurlar.

Melicha. Juda mamnunman. *(Ketadi)*

Ali posho. Hazratimning ushbu cheksiz samimiyatlari menga har qanday baxtdan ortiqroq nash'a bergay.

Shu orada **Jo'ja** bir sakrab, o'mbaloq oshganicha asl masxara qiyofasida kirib keladi.

Yildirim. Tag'in keldingmi?

Jo'ja. Na iloj, majlis bo'sh qolmasin-da... Malak ketsa, shayton keladi.

Ali posho. Barakalla, barakalla! Jo'ja bu oqshom dahshatdir, dahshat!

Yildirim. Kel, malak ichgan ushbu qadahni ko'tarib yubor!

Jo'ja *(qadahni oladi).* Yashasin Serb qirolining singlisi Melicha! *(Sharobni burnining ustidan to'kadi)*

Yildirim. Bu nima qilg'oning, badbaxt! Sen haliga qadar sharob ichmakni bilmaydurmisan?

Jo'ja *(Yildirimga ma'noli tikilib).* Men cho'ldan chiqqan bir cho'ponning o'g'lidirman. Ne qilaykim, to hanuz faqat qimiz va ayron ichmakni bilurman, xolos!

Yildirim *(chekkaga).* Achchiq bir kinoya!

Jo'ja. Yaqin orada bir serb qizini olmoq niyatim bor, faqat o'shanda sharob ichmakni undan o'rganurman. *(Ali poshoga ma'noli qarab qo'yadi)* Ana o'shanda ba'zi bir siyosiy arboblar kabi namoz payti ham sarxush bo'lib o'tirgayman.

Ali posho *(chekkaga).* Meni tahqir qilayotir, shekilli? *(Jo'jaga)* Hoy badbaxt, sen juda haddingdan oshayotirsan!

Yildirim. Zarari yo'q, u bugun juda nash'ali, sen ko'nglingga olmagin! Faqat sen bilan emas, men bilan ham o'ynashayotir. *(Jo'jaga)* Menga boq, Jo'ja! Men yaxshiroq hukmdormanmi yoki Temur?

Jo'ja. Omonlik beriladimi?

Yildirim. So'yla!

Jo'ja *(Yildirimning qulog'iga yaqin borib).* U bir tentak, sen esa g'irt ahmoq! *(Qahqaha urib kuladi)*

Yildirim. Bas qil, beodob! U holda sen nimadirsan?

Jo'ja *(Sadri a'zamga ishora qilib).* Men sening quyrug'ingning quyrug'idirman... *(Qahqaha yangraydi).*

Yildirim. Xo'sh, sening quyrug'ing-chi?

Jo'ja *(Nozimni ko'rsatib).* Mana bu! Marhamat, tomosha qilsinlar!

Nozim *(chekkaga).* Alloh-Alloh! Jinnimi bu badbaxt. *(Chiqib ketadi)*

Yildirim. Bas, yetar, yo'qol! Sen bu oqshom zaharli bir tikan, g'o'ng'illagan qovoqari, quturgan bir ko'ppak bo'lib qolmishsan.

Jo'ja *(telbalardek qahqaha otadi, qo'li bilan qarshisidagi pardani ko'rsatadi va uni ochadi).* Men bir zaharli tikandirman, bu yerda ko'klam chechaklari! Men bir qovoqaridirman, bunda serb va mojor kapalaklari! Men quturgan bir ko'ppakdirman, bunda rum va bulg'or malaklari!

Qahqaha urib chekinadi. Hazin musiqa boshlanadi. Raqqosalar raqsga tushadi. Raqs tugagach, **Nozim** og'a jadal kirib, **Yildirim**ning qulog'iga nimalardir deydi.

Yildirim *(raqqosalarga jahd bilan).* Bas, yetar! *(Qizlar chiqib ketishadi. Nozim og'aga.)* Bularni yig'ishtirgin-da, ayt, har uchalasini ham olib kirishsin!

Nozim ishora kutib turgan xizmatkorlar bilan birga darhol ishrat xontaxtasini olib ketishadi.

Ali posho. Kim kelgan emish?

Yildirim. Temurning kishilaridan uch nafar josus qo'lga olinmish.

Ali posho. Kim biladi, balki josus emas, oddiy bechoralardir.

Yildirim. Aqlimga sig'magay, zinhor aqlimga sig'magay! *(Qizishib)* Oh, beor g'anim, bir tomondan elchi jo'natadir, bir tomondan josus!

Shu orada ikki qurolli yanichari (sarboz) nazoratida **O'rxon**, **Olga** va **Temirqoya** kirib keladilar.

Yildirim. Temur josuslari siz bo'lasizmi?

O'rxon. Ha, shunday deyishayotir.

Yildirim. Bu yerga ne yumush bilan jo'natishdi?

O'rxon. Jo'natishmadi, o'z orzuyimiz ila keldik.

Yildirim. Kelishingizdan maqsad ne?

O'rxon. Maqsad — Temurdan tonmak, ulug' Sultonga bo'ysunmak.

Yildirim. Yolg'onchilarning jazosi o'lim ekanligini unutmagil!

O'rxon. Bizningcha, yolg'onchilik tamg'asi o'limdan ham yomondir.

Yildirim *(Olgaga).* Xo'sh, sen so'yla-chi, jigarim, Temurdan nega qochding?

O'rxon. Chunki Temur xudbin bir kimsadir.

Yildirim. Sen jim tur, o'zi so'ylasin.

O'rxon. Uning tili yo'q.

Yildirim *(Temirqoyaga)*. Sening oting nima?

Temirqoya *(yo'g'on ovozda)*. Temirqoya.

Yildirim. Xo'sh, sen ayt-chi, nega kelding?

Temirqoya *(beparvo, O'rxonga ishora qilib)*. O'rxon "yur" dedi, kelaverdik.

Yildirim. Boshqa sababi yo'qmi?

Temirqoya. Albatta bor, faqat bu sir.

Yildirim *(qiziqib)*. Ha, sirli sababmi? Xo'sh, u qanday sir ekan?

Temirqoya. Buni O'rxon biladi, nima keragi bor, men aralashmayman.

Yildirim. Ha! Sen aralashmaysan, shundog'mi? Endi ayon bo'ldi, demak, xiyonat. Jallod! Jallod! *(Nozim chiqarkan)* Kecha Temurdan kelgan elchini ham olib keling, uning ham boshi kesilgay!

Ali posho. Omonlik, Sultonim! Ajalga hay bering.

Yildirim. Yo'q, barchasining boshi kesilgay. Oqsoq juda haddidan oshib ketayotir!

Ali posho. Iltijo qilurman, bu fikringizdan qayting, hazratim, hech zamonda elchining ham boshi kesilurmi?

Yildirim. Ha, kesilur, men amr etsam — kesilur!

Ali posho. Hech yo'qsa, bul hukmning ijrosini biroz kechiktirmak lozim.

Yildirim *(g'azabli)*. Bas, yetar! O'tinmakka hojat yo'q!

Shu orada **Nozim** kiradi, **Jallod** va ikki yanichari bilan **Subutoy** namoyon bo'ladi.

Yildirim *(Subutoyga)*. Menga boq, mana bu kimsalarni taniydirmisan? Faqat rostini so'yla, yo'qsa eng yengil jazoying o'lim bo'lgay.

Subutoy. Subutoy na yolg'on gapirgay, na-da o'limdan qo'rqqay.

Yildirim *(g'azabini zo'rg'a bosib)*. Gapimga javob ber, mana bularni taniydirmisan?

Subutoy *(kinli-g'azabli holda O'rxonga tikilib)*. Turkistonda tanir edim, lekin usmonlining poytaxtida tanimasman!

Yildirim. Ne uchun?

Subutoy *(O'rxonga ishora qilib).* Chunki bu badbaxt vatan xoini. Ular ham shuning ko'lkasi.

Olga *(qalpog'ini oladi, sochlari yoyilib ketadi).* Omonlik, Sultonim! Afu eting! O'rxon xoin emas, faqat Temur uchun gunohkor, chunki u sizga e'tiqod qo'ymish edi, shu boisdan Turkistonni tark etdi.

O'rxon. Olga, sen jim bo'l!

Yildirim. Bu ayol kim?

O'rxon. Maskov tomonlarga hujum qilganimizda o'limdan qutqazib qolganim bir qizaloq.

Subutoy *(achchiq va istehzoli bir tabassum bilan).* To'g'rirog'i, Temur saroyida ochilgan bir chechak. Sen qo'lingga qo'ndirib olib kelganing sho'x bir kapalak... *(Keskin)* Lekin qayerda bo'lmasin, xiyonat jazosiz qolmagay.

Yildirim *(Subutoyga).* Sen jim bo'l! *(Yanicharlarga)* Buni o'z yurtiga kuzatib qo'ying. *(Ali poshoga)* Haligi maktubni ham ber, Temurga yetkazsin.

Subutoy berilgan maktubni olib, yanicharlar bilan chiqadi.

Ali posho. Mana endi masala oydinlashdi.

Yildirim. Yo'q, hali bor. *(Temirqoyaga)* Sen so'yla-chi! Hali "sirli sabab" degan eding, xo'sh, u qanday sir ekan?

Temirqoya. Endi sirligi qoldimi? *(Olgaga ishora qilib)* Hammasini oshkor qilib qo'ydi.

Yildirim. Yashirin sabab faqat uning aytganlarimi?

Temirqoya. Tag'in nima bo'lsin. Hech zamonda ayollar bilan ham safarga chiqar ekanlarmi? Nima kerak, o'zlarining ishi...

Yildirim *(qizishib).* Nima kerak, nima kerak! Emizikli go'dak kabi shu ikki so'zdan boshqasini bilmaydir. *(Jallodga)* olib bor, avval buni daf qil. *(Jallod hozirlanadi)*

Olga. Oh...

O'rxon *(keskin).* Yo'q! Bu haqsizlik. U sodda, avom bir bechoradir. Aslida mening boshim kesilishi lozim, mening...

Yildirim. Jasorat seni juda mag'rur etmish. *(Jallodga)* Yaxshi, avval buning ovozini o'chir.

Olga. Omonlik, hazratim, shafqat qiling, shafqat! *(Ho'ngrab yig'lab yuboradi va Sultonning oyoqlarini quchadi)*

O'rxon *(qattiq istehzoli qahqaha urib)*. Bechora qizaloq! Sen haq ekansan, oh, Temur, Temur!

Yildirim *(vazifasini ado etmoqchi bo'lib turgan jallodga)*. Shoshmay turgil! *(O'rxonga)* Nechun kulding? Nechun Temurni yodga olding?

O'rxon. Bu mening ishim. Sen faqat o'limga buyurmakni bilursan.

Ali posho. Yo'q, bunda bir sabab bor.

Olga *(boshini ko'taradi, ko'z yoshlarini artar ekan)*. Oh, sababini men ayturman.

O'rxon. Tur o'rningdan! Hech gapning hojati yo'q. Aytmak lozim bo'lsa, o'zim ayturman. *(Olga turadi.)*

Yildirim. Xo'sh, o'zing so'yla-chi, bu qahqahalarning ma'nosi ne?

O'rxon. Bu qahqahalar aslida bir faryoddan bo'lak narsa emasdir. Butun dunyo hali Temurga sajda qilarkan, faqat men isyon etdim. Holbuki, uning kichik bir tahqiriga chidaganimda edi, hozir o'limga hukm etilmagan bo'lur edim.

Sukunat...

Yildirim *(muloyim)*. Men bu so'zlarning naqadar to'g'ri ekanligini bilmoqchi emasdirman. Har ikkingizni mana shu qizning ko'z yoshlari uchun afu etdim.

Olga. Kam bo'lmang, hazratim.

Ali posho. Zotan, ko'z yoshlar samimiyatni isbot etguvchi eng ishonchli guvohdir...

O'rxon. Lekin bir o'tinchimiz bor edi.

Yildirim. So'yla.

O'rxon. Faqat kechirish bilan muammo hal bo'lmagay. Biz endi Temurning mamlakatiga qaytmasmiz. Sadoqatimiz shubha ostiga olingandan keyin, tabiiyki, bu yerda qolishimiz ham shubhalidir. Agar ijozat berilsa, Misr, Shom tomonlarga ketur edik. U yerlarda bizni himoyat etguvchi kimsalar topilgay.

Yildirim *(mamnun tabassumlar bilan o'rnidan turadi).* Yo'q, hech yerga ketmaysiz. Siz mening o'g'lim, bu esa qizimdir. Har uchalangizning sadoqatingizga shubha qolmadi. Nozim og'a! Borib aytkim, yaxshiroq joy hozirlasinlar, musofirlarga ehtirom ko'rgazmak lozim.

Nozim jallod bilan birga chiqib ketadi.

O'rxon *(hamrohlari bilan birga ta'zim qiladi).* Behad minnatdormiz.

Yildirim. Sadoqatingizga loyiq mukofot bilan taqdirlanursiz. *(Posho bilan birga chiqib ketadi)*

O'rxon *(chekkaga).* Xayriyat, birinchi falokatdan omon o'tdik.

Olga. Oh, men juda qo'rqib ketayotirman. Subutoy Samarqandga borgach, hamma sirni fosh etadir. Temurning qahr-u g'azabi ajal chaqmog'i kabi boshimiz uzra chaqnaydir. E voh, u meni nega ham ko'rdi?

O'rxon. Aslo tashvish tortmagin, men Subutoy bilan gaplashgayman. U juda mard inson. Hech kimsaga siringni aytmagay. Hatto Temur qiymalab tashlasa ham lom-mim demagay.

Temirqoya *(bir chekkaga).* Nima keragi bor, men aralashmayman. O'lsalar o'larman, qolsalar qolarman.

Olga *(tuvakda yashnab turgan gulni ko'rsatadi).* Oh qanday ajib, tarovatli gul!

O'rxon. Bu hamishabahor guli. Qara, hanuz yangidan yangi g'uncha ochmoqda.

Olga. Naqadar go'zal...

O'rxon. Shunday kun kelgaykim, bizning orzularimiz ham xuddi ana shu gul kabi yangidan yangi g'unchalar ocha boshlayajak.

Nozim *(kirib ta'zim qiladi).* Marhamat qilsinlar. *(Ular bilan birga chiqadi)*

O'rxon. Qani, ketdik. *(Nozimni ko'rsatadi)* Bul qop-qora kechaga o'xshagan maxluq bizni muzaffar va munavvar tongga chorlayotir. *(Ketadilar)*

Parda

TO'RTINCHI PARDA

O'sha sahna... Kunduzi... Qarshidagi kattakon derazadan saroy bog'ini bezab turgan yam-yashil daraxtlar, rang-barang gullar ko'zga tashlanadi. Ayvonga qo'yilgan tuvakdagi gulning egilgan va tarvaqaylab ketgan butoqlari oradan ancha fursat o'tganligini ko'rsatadi. Usmonli a'yonlari qiyofasidagi **O'rxon** bir chekkada qo'lini peshonasiga tirab xayolga tolgan.

Olga *(saroy xonimlariga xos bir qiyofada kiradi. O'rxonga bir lahza tikilib turadi).* O'rxon!

O'rxon. Senmisan, Olga?

Olga. Nelarni o'ylayotirsan, xalaqit berdim, shekilli?

O'rxon. Yo'q, aslo...

Olga. Nega bunchalar xayolga tolding?

O'rxon *(gul butasini ko'rsatib).* Atrofga iforlar taratayotgan, yashnab turgan bu gullarga boq! Bu gullar bir paytlar yam-yashil tuguncha edi.

Olga. Ha, esimda, josus deya bizni ayblashgan bir kecha edi.

O'rxon. O'sha kecha men ochilmagan g'unchalarni ko'nglimizdagi orzularga o'xshatgan edim, shundog'mi? Zotan, bugun istaklarimiz ro'yobga chiqayotir, gullar kabi ochilib kelayotir.

Olga. U holda sening faromushligingga sabab ne?

O'rxon. Olga! Biz endi bu yerni tark etmog'imiz lozim.

Olga. Nechun? Axir, biz bu yerda juda baxtiyormiz-ku!

O'rxon. Yo'q, aksincha, baxtiyorlik bizni boshqa olamda kutayotir!

Olga. Gapingni anglamadim. Sen Yildirim kabi buyuk bir podshoning saroyidadirsan... O'zing ham sevimli a'yonlardan biridirsan. Ortiq yana ne istaysan? *(Gul butasiga yaqinlashib, uni hidlay boshlaydi)*

O'rxon *(chekkaga).* Ha, Temurning lashkari Sivas qal'asini ostin-ustin qildi, Yildirimning o'g'li o'ldirildi... Shundan so'ng ham bu yerda qolib bo'lgaymi?

Olga. O'rxon! Senda bir sir bor: har oy yashirin maktublar yozursan, ajabo, ularni kimga, qayga jo'natayotirsan?

O'rxon. Keyin tushunib yetgaysan, endi zudlik bilan tadoringingni ko'r! Bu yerdan ketmog'imiz lozim.

Olga *(bezovta)*. Yo tavba, nimalar deyayotirsan, yoki Yildirimdan biron jabr ko'rdingmi?

O'rxon. Yo'q. Faqat ba'zi podsholar, xususan, Yildirim kabi sarxush hukmdorlar shul qadar dahshatlikim, ularga zinhor ishonib bo'lmagay. Zero, o'z og'asini vahshiylarcha qiymalab tashlagan bir hukmdor arzimas bahona bilan bizning ham qonimizni to'kishiga shak-shubha yo'qdir.

Olga. Men bu shubhalarda hech bir ma'ni ko'rmayotirman.

O'rxon. Aytdim-ku, axir, keyin anglab yetgaysan. Darhol hozirlan. Ehtiyot shart, bir chodra ham olib olgin, yo'lda asqatib qolgay.

Olga. Xo'p bo'ladi, lekin...

O'rxon. Jim, kimdir kelayotir.

Olga. Sultonning mahrami Melicha. *(Yoqimli tabassumlar bilan unga peshvoz chiqadi)*

O'rxon *(yolg'iz)*. Burch hamma narsadan muqaddasdir. Fursat yetib keldi. Endi Temur albatta hujum boshlayajak.

Melicha *(Olga bilan birga kirib keladi)*. Oh, Olga, Olga! Sizlarning men bilan do'stligingiz ko'nglimni qanchalar ko'tarishini bilsangiz edi.

Olga. Mening ham... Mening ham sevinchim juda cheksiz, juda bepoyondir.

Melicha. Sen naqadar olijanobsan. *(O'rxonga ishora qilib)* Ering ham juda mard va nazokatli bir inson.

O'rxon. Minnatdorman.

Melicha *(atrofga diqqat bilan razm solib)*. Sho'rlik Yildirim! Uning holi naqadar parishon...

Olga. Ha, shu kunlarda hazratimiz juda o'ychan ko'rinurlar.

O'rxon. Nega o'ychan bo'lmasin. Temur lashkarining bosib kelishi hazilakam gapmi?

Yildirim *(kiradi, unga ta'zim qiladilar. Yonidagi Nozim og'aga)*. Ali posho qayda? Darhol huzurimga chorla! *(Nozim ta'zim qilib chiqadi. Yildirim vazmin.)* Oh, Temur! Temur! Men sening bul qadar behazir ekanligingga ishonmagan edim. *(G'a-*

zabga minib) Lahimlar qazib qurol olib kirmakka, Sivas kabi bir qal'aning kulini ko'kka sovurmakka nechuk hadding sig'di? Oh, hali asirlarning, qal'a muhofizlarining boshini kestirdingmi? Erto'g'rul kabi o'g'lonimdan judo edingmi? Yo'q-yo'q... Bu achchiq zarba!. Jallod!

O'rxon. Balkim bu harakatlar sen uni mensimaganliging uchun bir tanbih dir, ta'bir joiz bo'lsa — bir jazodir.

Shu payt olislardan oshiqona bir ohangda cho'pon nayining sadosi eshtiladi.

Yildirim *(bo'g'ilib).* Nima?! Bir tanbih?! Bir jazo?! Oh, nelarni eshitayotirman?!

O'rxon. Zotan, senga ixlos va sadoqatim shul achchiq haqiqatni so'ylamakka meni majbur etayotir.

Yildirim. Men boshimga bostirib kelgan keksa tullak salib lashkarini mahv etdim. Farangiston va Olmoniya jangchilarini yer bilan yakson qildim. Lohiston, Avstriyo va Itoliyo askarlarini bir hamladayoq ezib tashladim. Hatto qo'rqmas Jon kabi mashhur bir qahramonni ham nazarga ilmadim. Endi Temur kabi bir darbadarmi meni qo'rqitmoq bo'lgay? Oh, ko'r bo'lsin bu falakning ko'zlari! Qaragin, kimlar meni jangga chorlayotir!

Melicha. Qo'ying, hazratim! O'zingizni juda azobga soldingiz. Vujudingiz biroz istirohatga muhtoj.

Yildirim. Istirohatmi?! Zaharli panjalar qalbimni parchalamoqda ekan, tag'in istirohatmi?! *(G'azabli)* Oh, yirtqich! *(Melichaga)* Bizni yolg'iz qoldir. *(Olga bilan chiqib ketayotgan Melichaga)* Ayt, u cho'ponning ovozini o'chirsinlar.

Melicha. Bosh ustiga. *(Ketmoqchi bo'ladi)*

Yildirim. Qo'ya qol!.. Kerak emas, qo'y, mayli chalaversin.

Melicha. Bosh ustiga... *(Chiqib ketishadi)*

Yildirim *(derazaga yaqinlashadi, cho'ponning kuyini tinglab hazin va alamli bir oh chekadi).* Chal... Chal!.. Ey baxtiyor cho'pon, chalavergin!.. Na Sivas kabi bir shahring qo'lingdan ketmish, na-da Erto'g'rul kabi bir o'g'ling...

Ali posh o kiradi, nay sadosi tinadi.

Ali posho *(yasama bir bezovtalik bilan)*. Hazratimni biroz kayfiyatisiz ko'rayotirman.

Yildirim *(achchiq tabassum bilan)*. Shundoq, kayfli vazirlarning sultoni hamisha kayfiyatsiz bo'ladir.

Ali posho. Har holda, shavkatli xoqonning marhamatlari qullarining qusuridan juda yuksakdir.

Yildirim. Menga boq, sen Sivas voqeasiga ne deysan?

Ali posho. Faqat go'daklarga xos bir tajriba. Bema'ni bir tajriba...

Yildirim *(g'azabli)*. Ochiqroq so'yla, nimasi bema'ni?

Ali posho. Chunki Temur Sivas qal'asiga tajovuz etishi bilanoq jangni davom ettirmakdan chekinadi... Ko'rinib turibdirkim, askarlarimizning shijoatini ko'rib u ulkan saboq olmish. Jur'at qilganida edi, Sivasni tashlab, Misr — Shom tomonlarga ketmagan bo'lur edi.

Yildirim. Sen sarxushsan... Bugun-erta u Misrni ham ostin-ustun qiladi. Shomni ham...

O'rxon. Allaqachon shundoq qilmish.

Yildirim. Oh, nelar deyayotirsan?

O'rxon. Hatto u ortga qaytib, Oraz daryosini kechib o'tib, Ozarbayjonga ham kirib boribdir. Ushbu soniyalarda u Qorabog'ning sarin yaylovlarida, maysa-chechakli adirlarda istirohat va g'olibiyat bazmlari ila mashg'uldir.

Ali posho *(iztirobda, chekkaga)*. Oh, dahshat, dahshat!..

Yildirim *(Ali poshoga)*. Xo'sh, bu xabarni sen nechun hozirga qadar menga aytmading?

Ali posho. Chunki siz biroz xastahol ko'rinursiz. Binobarin, bu voqea ahamiyatga arzimaydir...

Yildirim *(o'ta hayajon va g'azab bilan)*. Nechun?! Ahamiyatga arzimaydirmi? Yo'q, yo'q, zinhor undoq emas, Sen Temurga qarshi Misr — Shom hukumatlari bilan ittifoq tuzish o'rniga Bursa mayxonachilariga sharob buyurish ila mashg'ul bo'lgansan!

Nozim *(kirib ta'zim qiladi)*. Shayx Buxoriy hazratlari kelmishlar.

Yildirim. Kirsin. *(Nozim ta'zim qilib chiqadi. Yildirim chekkaga)* Shayx fozil va muhtaram bir zot. Uning tashrifida bir gap bor.

Shayx Buxoriy *(qishloqlik bir ayol bilan kiradi. Ta'zimdan so'ng).* Jur'atim uchun afu eting, hazratim. Lutfan shul qishloqlik ayolni tinglasangiz. Onado'lining shul yo'qsul onasiga quloq bersangiz. Eshiting, u nelar deydir.

Yildirim *(ayolga).* So'yla!

Ayol. Xo'jam bilan o'g'lim salib jangida halok bo'lishdi, oh, ularning diydorini ko'rolmay qoldim, mozorlarini bilolmay qoldim. Men faqat bir tasalli bilan tirik edim — ular vatan uchun shahid bo'lib edilar.

Yildirim. Darding ne, dardingni ayt!

Ayol. Bo'y yetgan bir qizim bor edi, oti Lola edi, men uning uchun har qanday zahmatdan qaytmas edim. Kuyib-pishib bir tarafdan ola ho'kizni, bir tarafdan o'zimni ayamasdan, jonivor bilan barobar mehnat qilardim. Lolaginam, yakka-yu yagona jigargo'sham kam bo'lmasin derdim.

Yildirim *(biroz asabiy).* Xo'sh?

Ayol *(hayajonli).* Keyin yanicharlar, sening o'sha talonchi, mast-alast askarlaring ho'kizimni olib ketishdi. Bermoqchi emas edim, zo'rlab tortib olishdi. Yalinib-yolvorgan edim, do'pposlashdi. Men-ku mayli... Men-ku mayli... *(alamli faryod bilan).* Qizim! Oh, jigarim! Yovuzlar begunoh bir qo'zichoqqa hujum qilgani kabi unga yopirildilar, yig'lashiga, dod solishiga qaramay, jallod kabi olib ketdilar. *(Behol)* Oh, Lolaginam! Oh, jigarim... *(Yildirimning oyoqlariga yiqiladi)*

Yildirim *(o'ta g'azabda).* Javob ber, Ali posho, javob ber!

Ayol *(behol).* Oh, mayparastlar! Vahshiylar!

Shayx Buxoriy *(chekkaga).* Mast amirning ma'murlari ham mast-alast bo'lgay.

Yildirim. Topilsin, bu ayolning qizi darhol topilsin!

O'rxon. Yuring, ona.

Ayol *(ko'z yoshlarini artib).* Oh, jigarim... Yolg'izgina jigarim. *(Tag'in ho'ngrab yig'laydi)*

O'rxon. Yuring, xiyonat jazosiz qolmagay. *(Ayol bilan birga chiqadi)*

Shayx Buxoriy *(chekkaga)*. Bechora ayol! Bilmaydikim, o'zi iltijo qilayotgani podshoning ichadigan sharoblari yo'qsul qishloqlikning to'kilgan qizil qonlari, qonli ko'z yoshlari evazidandir.

Nozim *(kirib ta'zim qiladi)*. Temur elchisi!

Yildirim. Kirsin! *(G'azabli)* Tag'in elchimi?! Yana Temur elchisimi?!

Subuto bahorlik libosida ta'zim qiladi va maktubni beradi.

Yildirim *(Ali poshoga)*. Ol, o'qi! *(Subutoyga)* Bu maktub qayda bitildi?

Subutoy. Ozarbayjonda, Qorabog' adirlarinda...

Yildirim. Chiqib ko'zlagil, javobini darhol olursan.

Subutoy. Xo'p bo'ladi. *(Ta'zim qilib chiqadi)*

Ali posho *(qisqa mutolaadan so'ng, hayrat bilan chekkaga)*. Dahshat, dahshat!

Yildirim. Nelarni bitibdi, tag'in nelar deb yozibdi?

Ali posho *(o'qiydi)*. Tangrining quli Temurdan Rum Sultoni Yildirim Boyazidga!

Yildirim. Uzundan-uzoq loflarga toqatim yo'q, faqat maktubning muxtasar ma'nosini so'yla!

Ali posho. Yozibdirkim, men sizni bir turk sultoni deb hisoblaydirman va o'zingizni hurmat qiladirman, faqat siz meni mensimasangiz, oramizga sovuqchilik tushgay va buning oqibati juda achchiq bo'lgay.

O'rxon kiradi.

Yildirim. Xo'sh, keyin?

Ali posho *(maktubga ko'z qirini tashlab)*. Illo, bu mening oxirgi maktubim va so'nggi taklifimdir. Qoraqo'yinlining amiri Qora Yusuf bilan munosabatlarni uzgaysiz. Shahzodalaringizdan birini ma'muran huzurimga jo'natgaysiz... Men unga o'z bolam kabi muomalada bo'lishimni oldindan va'da qilurman. Faqat maktubimga muvofiq javob qaytmasa, hujum etajagimga shak-shubha

yo'q. Shunga yarasha hozirligingizni ko'ring deya ogoh etayotirman.

Yildirim. Urushmoqchimi? *(Achchiq qahqaha bilan)* Qarang, bizni nelar bilan qo'rqitmoqchi. Bechora Cho'loq! Qarshisida kim turganini unutganga o'xshaydir. *(Juda g'azabli)* Yo'q, unga javob jangdan boshqa narsa bo'lmagay!

Shayx Buxoriy. Menimcha, g'azab va hiddat hazratimizni yanglish muhokamalarga olib borayotir. Temur ham xuddi siz kabi bir qahramondir. Siz kabi jasur va yengilmas bir hukmdordir. Turk farzandlarining qonini behuda to'ktirmang, atrofingizni qurshab turgan g'animlar sizning boshingizga tushadirgan falokatlardan shod bo'lmasinlar.

Yildirim. Yo'q, pirim! Men hozirgacha sening achchiq nasihatlaringni tinglab keldim. Afsuskim, endi tinglamagayman, chunki ushbu maktub tahqirlarning eng achchig'idir.

Shayx Buxoriy. Ha, bilurman, achchiq, hatto mening so'zlarim undan-da achchiqroq. Faqat Temur bilan urushmakdan ko'ra o'z nafsingga qarshi jang e'lon etgaysan. Jur'atim uchun meni ma'zur tut. Ammo imkon qadar raqqosalarga o'ralashib qolmagil! Serbiston malikasining nufuziga uchmagil! Va sarxush vazirlarning ermagi bo'lib qolmagil!

Ali posho *(chekkaga)*. Bu qandoq aljirash bo'ldi, ajabo?

Yildirim. Balli, shayxim! Achchiq bo'lsa-da, so'zlaringda haqiqat bor. Lekin Temurga qarshi sukut saqlamak endi qo'limdan kelmaydir. Nechunkim, u meni tanimayotir yokim tanishni istamayotir. Har holda, men o'zimning kimligimni unga tanitib qo'ymagim lozim. Ali posho, javob yoz!

Ali posho qog'oz-qalam hozirlaydi.

O'rxon *(ta'zim qilib)*. Ruxsat bo'lsa, mening ham ikki og'iz gapim bor edi.

Yildirim. So'yla!

O'rxon. Hazratim, albatta, sizning irodangiz haqiqatdir, binobarin, shayx hazratlarining tavsiyalari ham oqilona bir maslahatdir.

Yildirim. Men hammasini yaxshi anglaydirman, ammo endi maslahatning fursati o'tdi. *(G'azabli)* Javob yoz!

Ali posho. Amringizga muntazirman.

Yildirim. Yildirim Boyaziddan daydi it Temurga!

Boshqalar *(hayrat va dahshat bilan chekkaga).* Nima? Daydi it?!

Yildirim. Yozdingmi? Daydi it Temurga!

Ali posho. Yozdim, daydi it Temurga.

Yildirim. Yoz, urushimiz — urush. Kimki so'zidan qaytsa, xotini uch taloq bo'lgay!

Ali posho *(yozadi, chekkaga).* Oh, falokat! Dahshat!

Yildirim. Qolgani o'zingga havola. Mening gapim faqat shu!

Shayx Buxoriy *(iztirob va hayajonda).* Hazratim! Hazratim, ijozat bering. Ushbu javob odob-muomalaga zinhor muvofiq kelmagay. Zero, bu bir xato, bir tajovuzkim, hech bir hukmdorning sha'ni uchun munosib emasdir.

Yildirim. Bas, yetar, o'tinaman, boshqalar bu ishga aralashmasin.

Shayx Buxoriy *(o'rnidan turib ketmoqchi bo'larkan).* Yaxshi, Sultonim, men qo'shilmagayman, biroq siz ushbu javobingiz bilan buyuk bir tarixiy mas'uliyat ostida qolayotirsiz. Menga ruxsat...

Yildirim. Ixtiyoringiz. *(Shayx Buxoriy chiqib ketadi. Yildirim istehzoli tabassum bilan ko'zlarini o'ynatib)* Shundoq, ushbu maktub bilan Yildirim buyuk bir mas'uliyat, tarixiy mas'uliyat ostida qolur emish.

O'rxon. Har holda, Shayx yomonlik istaguvchi kimsa emasdir.

Yildirim. Ne bo'lsa bo'lur, mening qarorim qat'iy. *(O'rnidan turadi)* Menga qara, O'rxon! Sen to hozirgacha bizdan hurmat va muhabbat ko'rding... Va shu bois ham Onado'lidagi totor-turkman urug'lari o'rtasinda katta nufuzing bor.

O'rxon. Hazratimning inoyatlari bilan.

Yildirim. Endi ularni harakatga keltirmoq lozim. Butun lashkarga safarbarlik e'lon eturman. Ko'raylik-chi, Temur bizga qarshi ne qila olur ekan? Sen faqat o'z burchingni unutma! *(Chiqa boshlaydi)*

O'rxon. Men uchun burch hamma narsadan muqaddasdir. Amirim uchun boshimdan kechishga ham tayyordirman.

Yildirim. Bor, arslonim, hozirlan! Unutmagilkim, seni ulkan lavozimlar kutayotir. Ali posho! Sen ushbu maktubni elichiga ber, mendan so'nggi sovg'a sifatinda Temurga olib borsin.

Ali posho. Bosh ustiga! *(Chiqadilar)*

O'rxon *(yolg'iz)*. Oh, Temur — daydi it. *(Achchiq va istehzoli tabassum bilan)* E-voh, hamisha badmastlarning tasallisi — aljiramak, ojiz-u zaiflarning quroli esa haqorat etmak va qarg'amakdir. *(Yildirim ketgan tomonga qarab kinoyali, biroz qizishgan holda)* Ey mag'rur, ayshparast Sulton! Yaqinda, tez orada ul yovqur jahongirning temir panjalarida ilon kabi to'lg'anursan. Muqarrar mag'lubiyatga uchrab, zabun va parishon bo'lursan!

Parda

BESHINCHI PARDA

Anqara adirlari. Temurning chodiri... Chodir oldida barvasta kelbatli, o'q-yoy taqqan **ikki jangchi** soqchilikda turib suhbatlashmoqda.

Birinchi soqchi. Vo ajab, butun dunyo jang-jadaldan toliqdi, biroq bu Oqsoq zinhor toliqish neligini bilmagay.

Ikkinchi soqchi. Tag'in shikoyatmi? O'zi nedan norozisan, azizim?

Birinchi soqchi. Misr va Shomda to'kkan qonlarimiz hali sovigani yo'q... Endi esa Anqara g'avg'osi, Anqara balosi! Nima degan gap? Uch-to'rt kun orom olsak bo'lmasmidi?

Ikkinchi soqchi. Xo'sh, Qorabog'ning ko'm-ko'k adirlarida, Ozarbayjonning jannatdek go'zal, farahli go'shalarida surgan zavq-safolaring ozlik qilurmi?

Birinchi soqchi. Bu nima deganing? Atigi uch oy zavq olib, olti oy jang qilmoq kerakmi?

Ikkinchi soqchi. Mundoq o'ylasang-chi, jang-jadalning ham o'ziga xos zavqi bor, axir!

Birinchi soqchi. Allohning o'zi shohid *(oqsoqlanib u yoqdan bu yoqqa yuradi)*. Shom tomonlarda bo'lgan jangda oyog'imga bir o'q tegdi, to hanuz oqsayman, hamon kechalari og'riqdan uxlay olmayman.

Ikkinchi soqchi *(kulib)*. Zarari yo'q, yaxshi mol egasiga o'xshaydi. Temur ham oqsoq, sen ham... Faqat orangizda bir farq bor — sen qarg'asan, u — burgut...

Birinchi soqchi. Bas qil, battol!

Ikkinchi soqchi. Yaxshi, yo'qsa, u qarg'a bo'lsin, sen esa burgut...

Birinchi soqchi. Yo'q, bunisi ham to'g'ri kelmaydi.

Ikkinchi soqchi. Xo'sh, unda nima istaysan?

Birinchi soqchi. Nimani istardim, shu Anqara jangi menga sira ham yoqmayotir. Nima emish — Temur Yildirimni yengar emish... Menga bundan ne foyda? Misrda, Shomda har holda ul-bul narsaga ega bo'ldim. Bu yerda g'olib kelsak *(hovuchiga boqib)*, xo'sh, ayt-chi, qo'limga nima kiradi? Anqaraning qup-quruq, bo'm-bo'sh sahrosimi?

Ikkinchi soqchi *(istehzoli qahqahalar bilan)*. Voy juhudning dalloli-yey! Sen jangga mol yig'ish uchun kelganmisan?

Birinchi soqchi. Nima bo'pti! Oqsoqning dong'i chiqsin, mening esa jonim chiqsin, shundog'mi?

Ikkinchi soqchi. Bas, yetar, bu so'zlar turkka munosib bo'lmaganidek, askarga ham zinhor loyiq emasdir.

Birinchi soqchi. Nima bo'pti! Seningcha, askar odam emasmi? *(G'azabli)* Xo'sh, nima bo'pti! Jon olib, jon beradigan biz, o'ynab-kuladigan ular! Chopishib-so'qishadigan biz, shon-shuhrat qozonadigan ular! Och-yalang'och yuradigan biz, kayf-safo suradigan ular!

Ikkinchi soqchi. *(kulib)*. Ajabo, alahsirayotirsanmi? Ular deganing kimlar?

Birinchi soqchi. Ular — saroylarda aysh-ishrat qiladigan ochko'z podsholar, telba xoqonlar... sarvat va saodat og'ushida o'ynab-kuladigan ablah vazirlar, yaramas a'yonlar... Kayf-safo bilan kun kechiradigan beg'am shahzodalar, semiz amirlar...

Ikkinchi soqchi *(mag'rur qahqahalar bilan).* Angladim, endi angladim. Bundoq fikrlar qo'rqoqlik oqibatida tug'iladir. *(Uning yelkasiga qoqib)* Menga boq, sen zinhor tashvish chekma, bugun-erta Yildirim mag'lub bo'ladir, biz tag'in Samarqandga qayturmiz.

Birinchi soqchi. Yo'q, bunga ko'zim yetmaydir. Yildirimni juda qudratli deyishmoqda.

Ikkinchi soqchi. Ajabo, uning nimasi qudratli emish?

Birinchi soqchi. Yo'qsa ne? Mana, necha kundirkim, Yildirim bilan yuzma-yuz turibmiz. U esa jangni qo'yib, shikorga chiqarmish, bizni nazariga ham ilmayotgan emish.

Ikkinchi soqchi. Hechqisi yo'q, u bizni mensimasa, biz uni mensiymiz. *(Bo'ri uvillashi eshtiladi)* Amir kelayotir! *(Soqchiga qarab, hayratda)* Nima bo'ldi? Sening yuz-ko'zingdan olov yog'ilayotir.

Temur jang libosida kirib keladi. Ortidan **Devonbegi**, shoir **Kirmoniy** va **Oqbug'a** kiradi.

Temur *(nihoyatda hirsli va g'azabli ohangda).* Temur — daydi it? Shundog'mi, hali shundog' bo'ldimi?!

Shoir. Balki kayfi bo'lgandir. Yo'qsa, keksa bir Sultonning og'zidan bunday so'z chiqmas.

Devonbegi. Ehtimol bemorlig'ida, issig'i ko'tarilganda yozgandir. Yo'qsa, bunaqangi aljirash es-hushli bir zotga zinhor yarashmagay.

Temur. Ehtimol! Ehtimol! Lekin meni ham Tarag'ay o'g'li Temur deydilar. Uni badmastlikdan hushyor etmoq, ko'tarilgan boshini egmoq fursati keldi... Oh, Yildirim, Yildirim! Naqadar dahshatli bo'lsang-da, Hindistonda men ovlagan qoplonlardan mudhish emasdirsan.

Shoir *(chekkaga).* Shunday, qoplon yirtqichlarning eng vahshiysi, ammo qoplonlarni ham tilkalab tashlaydirgan bir vahshiy kuch borkim, ul kuch — insondir.

Temur. Qoraqo'yinlining lashkari tunda Isfaxon yonida qo'qqisdan hujum etmish, jangda askarlarimdan uch ming kishi halok bo'lmish erdi. O'shanda men kallalardan minoralar tiklagan

edim. Hechqisi yo'q, birozdan so'ng Yildirim ham mening kimligimni bilib olgay. *(Kinoya va g'azab bilan)* Oh, daydi it! Bu ne aljiramak, bu qanday jasorat?!

Shoir. Afsuskim, jasurlarning aljirashi aljirovchilarning jasorati kabi kulguli va bema'nidir.

Temur. Bu aljirashlar ne bo'libtir?.. Raqibning surbetligini ko'rkim, meni hamon mensimayotir, jangga tadorik ko'rmak o'rniga shikorga chiqayotir.

Oqbug'a *(istehzoli kulgi bilan)*. Darhaqiqat, juda takabbur, juda mag'rur...

Shoir. Ammo mag'rurlar juda tez sharmanda bo'lgaylar.

Subutoy kirib keladi va ta'zim qiladi.

Temur. Xo'sh, ne xabar bor, Subutoy?

Subutoy. Buyuk xoqonimizning amri bilan shikorga chiqqan o'n besh ming nafar Yildirim askarini jangchilarimiz qurshab olishdi va bir zarba ila barchasini qirib tashlashdi.

Temur. Yildirimning o'zi-chi?

Subutoy. Faqat Yildirim jasurona bir epchillik bilan qurshovni yorib chiqdi va besh-o'n nafar himoyachisi bilan qochib qutuldi.

Temur. Men jasurlarni juda xush ko'rurman.

Subutoy. Yildirim shikorda yurganida biz suv yo'llarini kesib qo'ydik, tabiiyki, lashkar suvsiz qolgach, tez orada taslim bo'ladir.

Temur. Juda ajoyib tadbir. Buni kim o'ylab topmish?

Subutoy *(Oqbug'a ishora qilib)*. Buyuk sardor Oqbug'a.

Temur. Zotan, jang mahali hiyla ham zafar vositalarining biridir.

Shoir *(chekkaga)*. Men faqat Karbalodagi arab Shimirini bilur edim, biroq turkdan ham Shimir chiqar ermish.

Temur. Oqbug'a! Ortiq kutib bo'lmagay! Lashkar hujumga o'tmog'i lozim. Biroq Yildirimga zahmat yetmasin. Unga aytadigan so'zlarim bor. Jasur Subutoy! Sen ham g'aflatda qolma! Kimda-kim uni tirik ushlasa, evaziga katta mukofot berilgay!

Oqbug'a. Qay yo'sinda harakat qilurmiz?

Temur. G'animning o'ng qanoti ochiq. Xuddi shu yerdan bizning so'l qanot lashkarimiz ularning markazga o'tish yo'lini to'sib qo'yajak. Yovning so'l qanoti esa juda zaif. Aminmankim, bizning zarbamizga dosh bera olmay, tezda parokanda bo'lgay. Bor, arslonim! Jasorat va matonat senga yor bo'lsin!

Oqbug'a va **Subutoy** harbiycha itoat ishorasini qilib, jadal chiqib ketadilar.

Shoir *(chekkaga)*. Qardosh qardoshning qonini ichadir. Mana siyosat va rayosat balosi!

Temur. O'rxonning hanuz qaytmagani meni qattiq tashvishga solayotir. Har holda, u bugun biz tomonga o'tmog'i lozim erdi.

Devonbegi. Kim bilsin, ehtimol, o'tgandan so'ng biznikilar ushlab olishgandir...

Temur. Hamma jabhalarga buyruq ber, unga zinhor qo'l tekkizmasinlar. *(Shoir Kirmoniyga)* Qani, yur, shoir, sen ham bir tamosho qil. Jangni yaqindan tamosho qilmak zavqi mutlaqo o'zgacha bo'lur. *(Chiqib ketishadi)*

Olmos gangib qolgan holda iztirobli odimlar bilan kirib keladi. **Temur** ketgan tomonga tikiladi.

Olmos *(chekkaga)*. O'rxon, oh, O'rxon! Sen Olmosni unutding, faqat Olmos seni ko'rmoq uchun jang maydonlarida daydib yuribdir. *(Temur ketgan tomonga yuradi)*

Birinchi soqchi *(sherigiga)*. Bu Devonbegining qiziyam juda g'alati ayol ekan. Samarqandning go'zal ko'shklarini tashlab kelib, bilmadim, Anqara cho'llarida nima izlab yuribdir?

Ikkinchi soqchi. Seningcha, jang maydoni faqat erkaklarga xosmi?

Birinchi soqchi *(istehzoli qahqahalar bilan)*. Bu nima deganing? Ul zaifa ayol ham jang qilgani kelganmi?

Ikkinchi soqchi. Kulasan-da... Ota-bobolardan eshitmaganmisankim, Chingizning onasi ham ayol boshi bilan ot chopgan. Barcha qo'shni o'lkalarni qo'lga kiritgan va ulkan bir saltanat qurgan.

Birinchi soqchi. Bu ne demak, anavi zaifa ham Chingizning onasimi?

Ikkinchi soqchi. Nima farqi bor, ikkalasi ham ayol, bu ham o'sha jinsdan, u ham shu nasldan. Arslonning erkak-urg'ochisi bo'lmaydir.

Birinchi soqchi. Ammo, menimcha, sen aytayotgan bu urg'ochi arslon jang uchun emas, boshqa bir ov uchun kelganga o'xshaydi... *(Yo'lga qaraydi)* Ko'zing oydin, ana, Temirqoya ham kelayotir.

Ikkinchi soqchi. Axir, u O'rxon bilan birga Yildirim huzuriga qochgan edi-ku.

Birinchi soqchi. Nima bo'pti! U yerda yashay olmay, ortiga qaytgandir-da!

Olmos *(Temirqoya bilan kiradi).* Xudo haqi, gapirsang-chi, O'rxonga ne bo'ldi? U qayda qoldi?

Temirqoya *(yo'g'on va dag'al tovushda).* Uning yonida... Anavi...

Olmos. U deganing kim?!

Temirqoya. Kim bo'lsa — o'sha. Nima keragi bor, men aralashmayman.

Olmos. Oh, nechun? O'rxon kelmadimi? Sen bilan birga emasmidi?

Temirqoya. Temurdan qo'rqmay bu yerga kela olar ekanmi? Maskov qizini olib qochishga qochib, endi Temurga ko'rina olar ekanmi?

Olmos. Temur uni afu etadir.

Temirqoya. Bu mening aqlimga sig'maydi.

Olmos. Jim, Xudo haqi, jim bo'l! Boshimga qon tepayotir, miyam tars yorilib ketgudek. Demak, u bu yerga kelmaydi, shundog'mi?

Temirqoya. Men uning homiysi emasman, istasa, kelsin, istamasa — yo'q. Nima keragi bor, men aralashmayman.

Olmos *(chekkaga).* Ey Xudoyim, bu kimsaning yuragi toshdan yaralganmi? *(Temirqoyaga)* Men bu yerga yolg'iz O'rxon uchun keldim. Qayda bo'lsa ham men uni topmog'im lozim.

Temirqoya. Men ochman, biroz tamaddi qilib olay, undan so'ng...

Olmos. Mayli, yegin-ichgin, men sening yoqangdan olmoqchi emasman.

Temirqoya. Yoqamdan olma, nima keragi bor! *(Ketadilar)*

Shu orada tashqaridan ur-sur, chopishma ovozlari eshitiladi.

Birinchi soqchi. Demak, jang qizib ketdi. Rosa qirg'inbarot bo'layotir.

Ikkinchi soqchi. Ha, shovqin-suron tobora avjiga chiqayotir.

Birinchi soqchi. Ana, O'rxon ham Amir bilan birga kelmoqda.

Ikkinchi soqchi. Aftidan, Temirqoya Olmosni aldaganga o'xshaydir.

Tashqaridan eshitilayotgan shovqin-suron, chopish-savash sadolari pasayadi. **Temur**, **Devonbegi**, shoir **Kirmoniy** va **O'rxon** kirib kelishadi.

Temur. So'yla, O'rxon, nelar qilding?

O'rxon. Men avvalo juda katta qabihlik qildim.

Temur. Nechuk qabihlik?

O'rxon. Olgani Turkistondan olib qochdim, shu tufayli boshim kesilishga loyiq.

Temur. Buni keyin muhokama qilgaymiz. Menga Yildirim, Yildirim lashkaridan xabar ber!

O'rxon. Bursadagi ishlarim o'zingizga ma'lum. Har oyda xabar jo'natib turdim. Keyingi haftalarda Onado'lidagi beklarga katta martabalar va'da qilib, hammasini o'z tomonimizga og'dirib oldim. U yerdagi totor va turkman boshliqlarini chaqirib, ishonchlarini qozondim. Butun Onado'li askarlari bizning tomonimizda, hademay taslim bo'lurlar. Faqat Rum eli beklari, yanicharlar va serb askarlari Yildirim itoatida. Ammo lashkarda buzilish boshlanishi bilanoq ular ham hech narsa qila olmay shoshib, gangib qolurlar.

Olmos *(Temirqoya bilan keladi. O'rxonni ko'rgach, favqulodda bir sevinch bilan).* Oh, O'rxon!.. *(Devonbegi qo'li bilan sukut ishorasi qiladi. Olmos chekinib, bir chekkaga borib turadi)*

Temur *(O'rxonga).* Juda mamnunman. Xo'sh, endi ayt-chi, go'zal malika qayda?

O'rxon. Tashqarida kutib turibdir. Faqat sarhaddan kechib o'tayotganida biznikilar jarohatlab qo'yishadi.

Olmos *(chekkaga).* Ana, bu ham yangi bir hiyla!

Temur. O'rxon! Sen askarsan, ammo qilgan xiyonating askar sha'niga yarashmagay. G'aflatda qoldirib qizni olib qochmak va meni mensimaslik bir nonko'rlik emasmi? Bunga jazm etganingda Temurning qahr-u g'azabini yoddan chiqardingmi? *(O'rxon sukutda)* nechun jimsan, so'yla!

O'rxon. Buyuk xoqonning marhamati mening bul qabihligimdan juda yuksak turgay.

Temur *(keskin).* Yo'q, qabihlikni afu etmak tubanlikka rivoj bermak demakdir.

Birinchi soqchi *(sherigiga).* Ana, Oqsoq tag'in g'azabga mindi.

Devonbegi *(Temurga).* O'rxon bilmagandir, yoshlik qilgandir.

Temur *(keskin).* Yo'q, bunday qabihligi uchun u eng oliy jazoga — o'limga loyiq.

Olmos. Oh, o'limga?..

Temur. Ha, O'rxon faqat o'limga loyiq.

Olmos. Rahmat eting, oh rahm eting. *(Temurga yaqinlashadi)*

Temur *(g'azabnok).* Nari tur!

Devonbegi. E-voh, chindan ham u qatl etilgaymi?

Temur. Ha, qatl... qatl! Olib chiq, boshqalar uchun ibrat bo'lsin!

Atrofdagi hamma sarosimada, qo'rqinchli sukunat...

O'rxon. Yo'q, xoqonim, yo'q... O'lim hammani qo'rqitsa-da, O'rxonni qo'rqita olmagay. Men burch yo'lida ming bor o'lib-tirildim. Yildirim meni qatl etmoqchi bo'lganida qahqaha urib kuldim. Endi esa kulmak o'rniga hayratga tushayotirman. Biroq o'zga bir

qo'lning mening qonimga bo'yalishini istamasman! *(Belidagi xanjarini chiqarib o'ziga urmoqchi bo'ladi)* E-voh, sen meni tahqir etding, men esa... men esa!..

Temur *(baland va keskin bir ovozda)*. O'rxon! O'limga ulgurgaysan, men seni tahqir emas, imtihon etmoqchi bo'ldim. *(Shukuhli qahqaha bilan)* Unutmagilkim, Temur shatranj o'ynar ekan, arsadagi kichik bir piyodani ham behuda qurbon bermakni istamaydir. Holbuki, sen jasur va tengsiz bir qahramondirsan. *(Yaqinlashib, O'rxonning yelkasiga qoqadi)* Zero, sening mahorat va jasorating qilgan qabohatingdan juda yuksak turgay. Olgani, ul munosib sovg'ani mukofot sifatida senga bag'ishladim. Faqat qalbing uniki, aqling va bilaklaring bizniki bo'lsin.

Shu orada **Olga** kiradi, yopingan chodrasi yelkalariga tushganicha turib qoladi.

Olmos *(g'azabli bir qiyofada Temurning qarshisiga borib)*. Yo'q, yo'q! Sen bunday qila olmaysan! Ha, juda buyuksan, butun dunyoga hukmronlik qila olursan, biroq zinhor O'rxonning qalbiga emas! Unutmagilkim, men onaman!

Shoir *(chekkaga)*. Ha, ona qalbi har narsadan kuchli va muhabbatlidir.

Olga *(ko'ksini changallab, chekkaga)*. Oh, bu o'qning jarohati meni halok etgay...

Temur. Olmos! Sendan sabr va matonat lozim.

Olmos. Yo'q, yo'q. *(Olgani ko'rsatib)* Sen unga o'zing zabt etgan barcha o'lkalaringni bag'ishlamog'ing mumkin, lekin menga berilgan qalbni emas, aslo! Aslo! *(O'rxonga)* Nega jimsan, O'rxon, javob ber!

O'rxon. Xoqon huzurinda odob saqlamoq lozim.

Olmos. Holbuki, ahli ayolingga xiyonat qilish eng katta odobsizlikdir.

Olga *(Temur qarshisida tiz o'kib)*. Ulug' xoqon! Mening tirikligim ko'plarning umriga zomin bo'layotir, meni o'ldir, o'zgalar ham iztirobdan xalos bo'lsin.

Temur *(uning qo'lidan tutib turg'azadi)*. Yo'q, Maskov chechagi, yo'q... Men faqat yovuz arslonlarni, yirtqich qoplonlarni

ov qilaman. Mening o'qim faqat vahshiy quzg'unlarning qoniga bo'yaladir. Sen esa nozik bir qaldirg'ochsan. Holbuki, Temur zinhor qaldirg'ochlarning qonini to'kmagay.

Olmos. Qadirg'ochlarni esa shunqor parchalab tashlaydir. *(Qo'ynidan xanjar chiqarib Olgaga urmoqchi bo'ladi)*

Devonbegi. Olmos!

O'rxon Olmosning bilagidan ushlaydi, xanjar yerga tushadi.

Olga *(zaif tovush, achchiq tabassum bilan)*. Sen zinhor talashmagin, Olmos!.. *(Qonli ko'ksini ochib)* Men qattiq yaralanganman... Endi hech kimga ozor bermasman. Oh, oh, oh... *(Yiqiladi)*

Temur *(soqchilarga)*. Yordam bering! *(Olgani turg'azadilar)*

Olmos chekinadi. Tashqarida shovqin-suron va chopishma ovozlari kuchayadi.

Temur *(Devonbegiga)*. Qaragin-chi, nima gap?

Devonbegi *(yo'lga qarab)*. Subutoy kelayotir.

Subutoy *(kirib ta'zim qiladi)*. Ulug' xoqonga xushxabar!

Temur. Nima gap?

Subutoy. Yildirim lashkari parokanda bo'ldi.

Temur. Qandoq qilib? Batafsil so'yla!

Subutoy. G'animning so'l qanoti bir muddat bizga qarshilik ko'rsatdi. So'ng qo'qqisdan shoshib chekina boshladi. Shahzoda Sulaymon va Ali posho bir-ikki to'da bilan qochib qoldi. Shahzoda Muhammad ham o'z joni qayg'usida Omosiyo sari yo'l oldi.

Temur. Yildirimning o'zi qay ahvolda?

Subutoy. Uni zinhor so'ramang! Yildirim haqiqatan ham buyuk qahramon ekan. Har qanday botirdan ziyoda chopishib-solishdi. Qavatindagi sipohilar va yanicharilar ham juda mard ekan... Ularning hammasi asir olinadi. Barchasi majburan taslim bo'lishdi.

Temur *(Devonbegiga)*. Amr et, qochganlarni ta'qib etmasinlar. Ehtiyot bo'l, Yildirimga qo'l tekkizishmasin. Lozim qadar ehtirom ko'rsatilsin.

Devonbegi. Xo'p bo'ladi, xoqonim. *(Subutoy bilan chiqadi)*

Shoir *(chekkaga)*. Qahramonlarning fazilati ularning dahshatlari qadar buyukdir.

Temur *(qarsak chalib, g'azabli va jo'shqin)*. Daydi it!.. Daydi it!.. Qanday ulkan jasorat! Voh, takabbur!.. Farosatsiz!.. Temurning sabr-toqati va nazokati sen kabi ko'plarni aldamish. Lekin olovli bir tarsaki hammasini sarxushlikdan hushiga qaytarmish. *(Qizg'in)* Yildirim, oh, Yildirim! O'zingni dev sanading. Faqat anglamadingkim, sirka qancha o'tkir bo'lsa, idishi shuncha tez singay.

Shoir. Ajabo, buyuk xoqonning arzimas bir-ikki kalimadan asabiylashmog'i joiz erurmi?

Temur. Nahot bir-ikki kalima? Nahot shu, xolos? Oh, ana shu aljiroq kalima zaharli o'q yangliq uyquda ham miyamni kemirgay. Daydi it! Daydi it! Daydi it! Oh, naqadar takabburlik! Yo'q, buyuk daryolarni kechib o'tgan, yuksak tog'larni oshib o'tgan Temur har qanday azoblarni unutgay, lekin bul ikki kalimani — zinhor unutmagay. Zinhor!

Shoir. Har holda, Yildirim sening qon-qardoshing, qon-qardoshingdir.

Temur. Afsuskim, qardosh yetkazgan jarohat achchiq, juda xafvli bo'ladir.

Subutoy *(kirib ta'zim qiladi)*. Yildirim huzuringizga kelmish.

Temur. Marhamat qilsinlar.

Yildirim Temurning ikki nafar askari bilan kiradi. **Oqbug'a** va **Devonbegi** ham ular bilan birga keladi.

Devonbegi. Usmonli Sultoni Yildirim Boyazid!

Oqbug'a. Yolg'iz Sultongina emas, ayni paytda jasur qo'mondon!

Temur *(joy ko'rsatib, tavoze bilan)*. Marhamat, shavkatli Sultonim! Tangrining quli Temurdan hamisha ikrom-u ehtirom ko'rgaysiz. Toliqqansiz, iltimos qilaman, o'tiring. *(Yildirim o'tirmaydi. Temur unga yonidan bir qog'oz chiqarib uzatadi)* Lutfan ushbu maktubni o'qisangiz?

Yildirim *(maktubni olib, ko'zlariga haddan ortiq darajada yaqinlashtiradi va Temurga iddao bilan).* Bu yozilgan paytidayoq o'qilmishdir.

Temur. Mayli, men shu maktubdagi so'zlaringizni unutdim va sizni afu etdim. Yolg'iz afu etibgina qolmay, muhabbatingizni ham qozonmoq istaydirman. Ha, shundoq, muhabbatingizni ham qozonmoq istaydirman. *(Ma'noli va mag'rur bir qiyofada shoir Kirmoniyga boqadi).* Xo'sh shoir bunga ne deydir?

Shoir *(samimiy va jo'shqin bir ohangda).* Muhabbat! Muhabbat! Zotan, butun bashariyatni xalos etadigan yagona narsa — muhabbatdir. Muhabbatga asir bir cho'pon qalbi kin va adovatga to'lgan sulton qalbidan buyuk va sharaflidir. Agar dunyoning shonli yurishlari, qonli urushlari oqibat-natijada bir muhabbat, bashariy bir muhabbat tug'dirmasa... butun hayotga, butun koinotga nafratlar bo'lsin!

Temur. Xo'sh bu borada mag'rur Yildirim qandoq fikrdalar?

Yildirim. Fikrlamakka arzigulik joyi yo'q. Ha, sen g'olibdirsan. Biroq bu g'alaba turk qavmlarini emas, faqat fursat poylayotgan qo'shni hukumatlarni mamnun etdi. *(Chuqur bir xo'rsinib, juda mutaassir va shiddatli holda.)* E-voh, yanada to'g'rirog'i, islom olamini boshsiz qoldirdi.

Temur *(oqsaganicha Yildirim sari ikki-uch odim tashlaydi, mag'rur va guldurakli ovozda).* Zinhor tashvish tortma, xoqonim! Sen ko'r bir ahmoq, men esa tentak bir oqsoqman! Agar dunyoning zarrachalik qadr-u qiymati bo'lsa edi, tuman-tuman insonlarga, poy-u poyoni yo'q mamlakatlarga... sen kabi bir ko'r, men singari bir oqsoq kimsa hukmron bo'lmagay erdi...

Parda

Tamom

SIYOVUSH

Sharqning buyuk daholaridan Firdavsiyning ming yilligiga bag'ishlanadi.

Besh pardali fojea

Ishtirok etuvchilar:

Kaykovus — Kayon hukmdori, ancha keksa kishi
Sudoba — Suriya qirolining qizi, Kaykovusning xotini
Ruboba — Sudobaning enagasi, oq sochli ayol
Siyovush — Kaykovusning oldingi xotinidan tug'ilgan o'g'li, yoshgina yigit
Rustam — mashhur pahlavon, Zolning o'g'li
Vazir
Munajjim
Munajjimboshi
Tus Saroy ahli
Bahrom
Sarbozlar
Afrosiyob — Turk xoqoni, o'rta yoshlarda
Karshivaz — Afrosiyobning qardoshi
Farangiz — Afrosiyobning qizi
Piron — Devonbegi, keksa kishi
To'sun — Karshivazning soqchisi

Chin elchisi, raqqosa, ko'sa murabbiy, xizmatkor, joriyalar, jangchilar, qishloqliklar va boshqalar...

Hokim, mushovir, Oltoy, Yolchin, yosh kyelin, kanizaklar, saroy qizlari, masxaralar, askarlar va isyonchilar...

MUQADDIMA

Zobilistondagi mashq maydoni. Tong chog'i. Jo'shqin musiqa. Sodda qiyofali, jingalak sochli Siyovush bir qishloq yigiti bilan qilichvozlik qilmoqda. Bir tomonda Zol o'g'li Rustam bilan boshqa jangchilar, boshqa tomonda esa chehrasi ochiq oq sochli bir ayol va qishloq qizlari jangni tomosha qilib turishibdi. Siyovush raqibidan ustun keladi.

Yalpi olqish sadolari...

Rustam

Ofarin, Siyovush!
Qishloqliklar
Yasha, ming yasha!
Siyovush
Yigitga maydonda urush yarashar.
Rustam
Kim istasa, chiqsin!
Boshqa jangchi
Menikidir gal.
Siyovush
Qani chiq, g'olibni jang etadi hal.

Qilichlar yaraqlaydi, jang qiladilar. Siyovush g'olib keladi. Olqishlar...

Qishloqliklar
Yasha!
Siyovush
Chiqsin yana kim bo'lsa o'ktam.
Rustam
Unga tengdir faqat Zol o'g'li Rustam.
Siyovush
Sendan men o'rganib bo'ldim qahramon,
Yengilsam, chekmayman aslo pushaymon.

Rustam
Qani, dovullarni qoqing balandroq
Siyovush
Bilaylik kimning zo'r ekanin bu choq.
(jang qiladilar, hech biri yengilmaydi)
Rustam
Ikkimiz ham zo'r, na men, na sen yengding.
Kuchda, jang qilishda ikkimiz ham teng.

Atrofdan jangovar musiqalar yangraydi. **Rustam** qo'lini manglayiga qo'yib boqadi.

Bahrom
Kimdir ular? Oldda kelayotir Tus!
Rustam
Balki, jo'natmishdir uni Kaykovus.

Tus bir guruh jangchilar bilan kelib ta'zim qiladi.

Hamma
Salomlar yo'lladi podshohi Kayon.
Tus
Rustam, Siyovushga salom!.. Bu — farmon!
(bir maktub berdi)
Qolib ketmagaysiz bu ovloq joyda,
Sizni kutmoqdalar ulkan saroyda!
Siyovush
(maktubni ko'zdan kechirgach, Rustamga)
Hurlikka ko'nikkan edim men, axir,
Ayriliq ko'nglimga botmasmi og'ir?
Rustam
Shoh otang amrini yo'llabdi, alhol,
Yo'lga chiqaylik kun botmasdan darhol.
Siyovush
(oppoq sochli qishloqlik ayolga yaqinlashib, qo'lini o'padi)
Xayr, salomat qol, mehribon onam!
Sen menga onadan aziz, muhtaram!

Ayol

(uning qo'lidan o'parkan)

Qo'zim! Dong'ing chiqar bir kun jahonda,
Tiz cho'kib turarlar senga har yonda.
Zolim va mazlumni aslo bir tutma,
Yeganing non ila tuzni unutma!
Qay o'lkaga borsang, bizni yodga ol,
Umringni o'tkazma behuda, uvol.

(chuqur oh tortib)

Sha'n saroylar seni etmasin mag'rur,
Hamisha yo'qsullar tomonida tur.
Ergashma uylarni yiqqan shohlarga,
Quloq sol yurakdan chiqqan ohlarga.

(ovozini balandlatib)

Biz seni ulg'aytdik, doim odil bo'l!
Endi bor, jigarim, ravon yo'l, oq yo'l!

Jo'shqin musiqa... Uzoqlashadilar.

Rustam
Ravon yo'l, oq yo'l!
Qishloqliklar
Ravon yo'l, oq yo'l!
(deya ularning ortidan chiqib ketadilar)

Parda

BIRINCHI PARDA

I sahna

Kaykovus saroyidagi nihoyatda nurafshon bir xona... Boqchaga qaratilgan qizil romli, ipak pardali katta derazalar... Jo'shqin musiqa atrofga larza soladi. Yosh, qoramag'iz, jozibador, nigohlaridan ehtiros yog'ib turgan Sudoba qullar yelkasiga ortilgan taxtiravon ustida ikki joriya bilan birga keladi. Ochiq derazadan tashqarida berilayotgan ziyofatni tomosha qiladi.

Baquvvat ikki xizmatkor eshik oldida tik qotib turibdi.

Birinchi joriya
(yoshgina qiz... boqchani ko'rsatib)
Qanday zo'r ziyofat, ajoyib bayram!
Kaykovus saroyi raqs etar xurram.
Ikkinchi joriya
(u ham yosh)
Nozli malikamiz Sudoba, afsus,
Hamisha qayg'uli, hamisha ma'yus.
Sudoba
Nash'alarga to'lsa butun koinot,
Qayg'u bulutlari ketarmi, hayhot!
Birinchi joriya
Ana, qadahlar to'ldi.
Ikkinchi joriya
Yana maylar suzildi.

Musiqa

Sudoba
Ichdilar Siyovush sog'lig'i uchun.
Oh!.. U yosh va go'zal... Tengi yo'q lochin.
Birinchi joriya
Ha-ha, epchillikda o'xshar qoplonga
Ikkinchi joriya
Botirdir, bas kelur hatto arslonga.
Sudoba
Ojiz tangrilardan ustun qahramon
Sajdaga, hurmatga loyiq har qachon.
Birinchi joriya
Voy, qara! Siyovush kelur biz taraf.
Sudoba
Sizlar chiqib turing!
(xizmatkorni ko'rsatib)
U ham bo'lsin daf.

Har uchalasi chiqib ketadi. Tillarang sochli boshyalang Siyovush kirib keladi. Lirik musiqa.

Siyovush
Sudoba!
Sudoba
Siyovush!
Siyovush
Shoh otam meni
Jo'natdiki taklif etmoqqa seni.
Sudoba
Xo'sh, senga yoqdimi saroy hayoti?
Siyovush
Ha, lekin qishloqning ul xotiroti
Ko'nglimni hamisha turadi tortib.
Sudoba
Xo'sh, qishloq hayotin nimasi ortiq?
Siyovush
Bolalikdan yondim qishlog'im deya,
Zol o'g'li Rustamdan oldim tarbiya.
Tog'larda yashadim, ovladim jayron,
Bunday hashamlarga qolmadim hayron.
Sudoba
(uning qo'llarini silab)
Sen gap ochganda, ko'ngil
Eslar qadim chog'larni.
Jonlandi ko'z o'ngimda
Ul Suriya tog'lari.
Siyovush
(ketmoqchi bo'ladi)
Seni kutmoqda otam.
Sudoba
Mayli... Sen shoshma bir dam!
U yerda tikilsa senga nigohlar
Qalbimda qo'zg'alur rashk, alam, ohlar.
Ko'zim tinib, boshim aylanar gir-gir.
Kel, seni bir o'pay...
(O'parkan, boshini uning ko'ksiga qo'yadi)
Oh, meni kechir!

Siyovush
O‘z onam tirikdir, lekin sen yana
Ikkinchi onamsan, taft bergan ona.
Sudoba
Ona dema sen meni,
Sudoba deya chaqir.
Unutma zinhor shuni,
Yoshlarimiz teng, axir.
(yana o‘pmoqchi bo‘ladi)
Siyovush
(ortga chekinib)
To‘xta!..
Sudoba
Yana birpas tur!
Siyovush
Ketdim.
(ketadi)
Sudoba
Oh, buncha mag‘rur.

Xilvatda turgan xizmatkor so‘nggi manzaralarni ko‘rib,yashirinadi.

Ruboba
(kirib kelar ekan, hayajonga tushib)
Ko‘zlaring yonmoqda! Sababi nadir?
Sudoba
Oh, Ruboba, so‘rma, dardim kattadir.
Ruboba
Jigarisan sen Suriya qirolin,
Yarashmaydi bu qiyofa, bu holing.
Sudoba
Nima ham dey, bir o‘t-otash
Qilmoqdadir meni abgor.
Yosh umrimga mening yakkash
Chang botirgan bir sharpa bor.
Boshlarimdan uchmoqda hush,
Dardi yo‘qlar qaydan bilsin!?

Istayman bir shunday og'ush —
Meni tilka-tilka qilsin.

Ruboba

Gapir, har ne darding bo'lsa ayt menga,
Sut onasi emasmanmi men senga?!

Sudoba

Siyovush dardida yonmoqda bu jon.

Ruboba

Kaykovus bilsa gar o'ldirar, ishon!

Sudoba

Agar bu saroyga o't ketsa hatto —
Men uning ishqidan kechmasman aslo!

Musiqa

Ruboba

Bolalik qilmagin, o'zni qo'lga ol!

Sudoba

Oh, meni mahv etar bu baxtsiz iqbol.
Ko'nglimni zo'rlaydi sevmaganim, hay,
Sevganimdan esa umid yo'q, netay!?
(xonadan chiqib ketmoqchi bo'ladi)

Kaykovus

(qarshisidan kirib kelib)
Nega Siyovushni quvding, chiqmading?

Sudoba

Biroz mazam yo'qroq...

Kaykovus

(uning ko'zlariga tikilib)
Ayt, nedir darding?
Nechun yulduzlarni to'sar bulutlar?
Bilursanki, sensiz shodlik yo'q magar.
Qayda raqqosalar? Kelsin, o'ynasin!
Nash'ali dolg'alar jo'shib qaynasin.

Xizmatkor boshqa bir xonaga ishora qiladi, rang-barang harir libos-larga o'rangan raqqosalar bittadan gul ko'tarib chiqishadi. Ularni Sudo-

baning oyoqlari ostiga otib raqs boshlaydilar. Raqqoslarning bir qismi Sudoba qarshisida iltijoli bir ohangda qo'shiq aytgancha raqsni davom ettiradilar. So'ngra qo'shiqsiz raqsga tushadilar va ishva bilan chiqib ketadilar. Shu orada xizmatkor bir maktub keltirib vazirga beradi.

Kaykovus
Nima gap?
Vazir
Turk lashkari
Sarhadlardan oshibdi.
Ular bizning bir necha
Qishloqlarni bosibdi.
Kaykovus
(gangib o'tirib qoladi)
Eronda Rustam kabi
Pahlavonlar bor ekan,
Bu ishga jur'at etgan
Ul qaysi g'addor ekan?
Rustam
Yo'q-yo'q, shohim, bekorga
Chekaverma iztirob.
Rustamni qo'y, ularga
Siyovush berar javob.
Tus
Siyovush bor bo'lsin, balo ko'rmasin,
Lak-lak dushmanlarga omon bermasin.
Birinchi jangchi
Siyovush bu yurtning faxri, shonidir.
Ikkinchi jangchi
Kayonning yengilmas qahramonidir.
Siyovush
Yurtimizni toptagan
Kim bo'lsa bo'lsin, shaksiz,
Ishonki, ko'p o'tmasdan
Qarshimizda cho'kar tiz.
Bizda metin bilaklar,

Temir qo'llar oz emas.
Jangovar sheryuraklar,
Mard o'g'illar oz emas.

Kaykovus

(shiddat bilan o'rnidan turib)

Qo'rqmagaymiz biz zinhor,
Qo'shinni qiling tayyor.
Qindan chiqsin tig'ingiz,
Bor kuchlarni yig'ingiz.

Munajjim

(kirib so'l tomondan joy oladi, xizmatkorga)

Ko'zlaring turar porlab,
Ayt-chi, o'zi nima gap?

Xizmatkor

Yana bir ishq savdosi.

Munajjim

Kimlarning mojarosi?

Xizmatkor

Siyovushni bu dafa
O'pib oldi Sudoba.

Kaykovus

Turk lashkari azm etmish,
Bizning sarhaddan o'tmish.
Ko'p qishloqni, na iloj,
Ayblabdi talon-toroj.

Munajjim

Shohim! Olma xavotir,
Munajjimboshing bordir.
Kecha tunda yulduzlar
Ko'nglimga berdi xabar:
Biznikidir bu safar
Buyuk g'alaba, zafar.

Sudoba

Zol o'g'lining bir o'zi
Ochirmas dushman ko'zin.

Kaykovus
Siyovush-chi?
Sudoba
Yo'q-yo'q, bas,
U jangga borsa bo'lmas.
Kaykovus
Nechun?
Sudoba
Chunki — u vahshad.
Balki qilgay xiyonat?
Onasi turonlikdir...
Kaykovus
(ko'ksini mushtlab)
Otasi eronlikdir.
Siyovushdan, al'amon,
Xoin chiqmas hech qachon!
(o'ng tomondan chiqib ketadi)
Munajjim
(xizmatkorga)
Xo'sh, Siyovushni sekin
Sudoba o'pdi degin?
O'rtada qolsin bu sir!
(bir hamyon chiqarib otadi)
Faqat jim yur!
(Chiqib ketadi)
Xizmatkor
Xo'p, taqsir!
(oltinlarni kaftida o'ynatgancha,
shodon qahqaha urib)
Oltin, oltin!.. Har bir dardning darmoni,
Ko'rmadim undan bosh tortgan insonni.
Cho'ntagingni to'ldir, jahon seniki,
Shoh — shunchaki shoh, farmon seniki.
(Hamyonni o'pib)
Shu — Yazdon. Shu shayton — yo'llardan urgan,
Shul erur yig'latgan, shudir kuldirgan!..

Shu devni ko'rsatur malakdan go'zal,
Shu yo'qsa, kunduzlar zulmatdir tugal.

Birinchi joriya

(shoshilib kiradi)

Oh, falokat!..

Xizmatkor

Xo'sh-xo'sh, ayt-chi,
nima gap?

Birinchi joriya

Shohimiz darg'azab, juda darg'azab.
Sudoba ketdi-yu podshoh quturdi,
Bizning xonamizga bostirib kirdi.
Yo'qqa chiqdi sharm-u hayo, oriyat,
Changalida qoldi kichik joriya.

Xizmatkor

(hazulomuz kulib)

Shohimiz emasdir undoq toshbag'ir.

(qo'lidan ushlab)

Ahmoq!Barcha qizlar uniki, axir.

Birinchi joriya

(ortga chekinib, g'azab bilan)

Qurib ketsin toji, yer yutsin o'zin!

(ichkari eshikka boqib)

Ana u! Vahshiydek yonmoqda ko'zi.
Meni tezroq yashir...

Xizmatkor

(yon pardani ko'tarib)

Kel, bu yoqqa kir!

(joriya yashirinadi)

Sendek ohudan kim voz kechar, axir?

Kaykovus

(sarxush odimlar bilan ikkinchi joriyani quvib keladi)

To'xta, hoy, qochmagil!

(Xizmatkorga)

Ushla uni tez!

Xizmatkor

(qizning oldini to'sib chiqadi)

Shoshmagin!

Kaykovus

Ha, balli,

Ikkinchi joriya

(shohga tiz cho'kib)

Rahm qilingiz!
Yosh qizman, voyaga yetmadim uncha...

Kaykovus

Ko'ngilga zavq berur har yangi g'uncha.
Unutma, har kuni nozli bir sanam,
Yangi bir kabutar mening nasibam.

(quchog'iga oladi)

Ikkinchi joriya

(tipirchilab)

Yo'q-yo'q, istamayman, o'ldiring meni,
Lekin teginmangiz!

Kaykovus

Mayli, kel, seni
Beozor o'paman, ko'ngling xushlayman.

Ikkinchi joriya

Kerakmas...

Kaykovus

Yo'q desang, to'g'rab tashlayman.

(Ichkariga sudraydi)

Xizmatkor

(sovuq tabassum bilan)

Go'zal tuhfa! Shudir nasibang biroq!
Endi qutulmaysan...

Birinchi joriya

(parda ortidan chiqadi, Kaykovus ketgan tomonga qarab)

Benomus, olchoq!

Xizmatkor

Og'zing yum, bu so'zni aytmagin takror,
Shohga hurmatsizlik qilmagil zinhor.

Birinchi joriya
Yetar, u vahshiydir och bo'ri kabi,
Har kuni bir qalbni toptash — matlabi.
Besh kun avval, e-voh, aytayin kimga,
Shunday kunni soldi mening boshimga.
Ismatim toptadi, noiloj qoldim,
Yolvordim, hech kimga yetmadi dodim.
Xizmatkor
Qutulmoq yo'li yo'q emasdir senga.
Birinchi joriya
Qanday yo'l ekan u, ko'rsatgil menga!
Xizmatkor
(behayo tabassum bilan)
Kayfin surib bo'ldi shohimiz, zotan,
(qo'lini ko'ksiga qo'yib)
Ko'lkasiga keldi boshqa bir odam.
Birinchi joriya
Anglamadim...
Xizmatkor
Shohdan ortgan har zebo
Mening to'shagimda surar kayf-safo.
Biroq tezda o'tib ketar bu to'fon,
Qiz biror botirga bo'lgay armug'on.
Birinchi joriya
(majolsiz holda gangib)
Bas, yetar, bas qilgin, tuyg'usiz olchoq,
Tushirmasman aslo dog' ustiga dog'.
(ketmoqchi bo'ladi)
Xizmatkor
Shoshmay tur!
Birinchi joriya
Teginma, yetar razolat,
Ko'klarga uchdimi haq va adolat.

Shu orada Siyovush, belida qilich, boshida dubulg'a, ularni bir chetda hayrat bilan tinglab turadi.

Xizmatkor

(qizga yaqinlashib)

Haq, adolat degan o‘sha qush, ishon,
Shohning saroyiga qurmagay oshyon,

(istehzoli qahqahalar bilan)

Haqiqat, adolat, bu bir afsona,
Bu gapdan shodlangay faqat devona.
Go‘daklik qilmagil, kech tushgan damda,
Kel, vaqting xush o‘tkaz mening xonamda.

(qizning qo‘lidan tutib)

Unutmakim, sening kabi yuzlarcha
Ismatlar toptalgay bunda har kecha.

Birinchi joriya

Bas, demak senda ham misli Kaykovus —
Yo‘q ekan-da vijdon, iymon degan his.

Xizmatkor

Noz etma, kel beri!

Birinchi joriya

Qo‘ling tort, olchoq.

Xizmatkor

(uni quchoqlab)

Men — bir yosh bolaman, sen-chi — qo‘g‘irchoq.

Siyovush

(keskin va g‘azab bilan)

U — qo‘zi, sen esa murdor bir qashqir.

(xizmatkor va joriya shoshgancha ikki tomonga ketishadi)

Bu hislar vahshiydir, iflosdir taqir!..
Yolg‘on emas ekan onamning so‘zi,
O‘xshamas saroyning ichi-yu yuzi.
Onamni shu saroy ayladi xarob,
Yosh umri — xazondir, orzusi — sarob.
Bosmishdir har yonni boyqushlar sasi,
Go‘yo fojiaviy kulgi sahnasi!

Sudoba

(kirib keladi. Ehtirosli nigohlar bilan unga yaqin boradi)

Siyovush!
Seni deb tunlarim bedor.

Siyovush

Kayon shohi qayda? Unga gapim bor.

Sudoba

Nima gap?

Siyovush

Jang haqda...

Sudoba

Hoy devona, bas,
Ne uchun jang so‘zi tilingdan tushmas?
Jallodmisan, senda ko‘ngil yo‘qmidur?

Siyovush

Mendami?

Sudoba

Ha, senda...

Siyovush

Nega?

Sudoba

(qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib)
Shoshmay tur!
G‘azabim qo‘zg‘aydi urush degan so‘z.

Siyovush

Ona, ruhing yuksak, ko‘ngling ko‘p nafis.

Sudoba

Sen bilan tengdoshmiz, jinday insof qil,
Men onang emasman, oshig‘ingman, bil.
(qo‘qqisdan uning bo‘yniga osiladi)

Siyovush

(shoshib ortga chekinadi)
Sen xastasan...

Sudoba

Aytgin, tabibim qani?

Siyovush

Vujudingda kezar chayonning qoni.
Ehtiros olovi yoqmasin seni.

Sudoba
So‘ndir u otashni, sevintir meni!
Yo‘qsa... bu otashda o‘zing yonursan,
Yonib... ushbu kunni yodga olursan.
Siyovush
Kaykovusning o‘g‘li o‘limdan qo‘rqmas,
Xiyonat dog‘idan qo‘rqadi u,
bas!..
Sudoba
(tiz cho‘kib)
Bir bo‘sa ber menga.
Siyovush
(qo‘lidan tutib turg‘izadi)
Yetar bu zillat!
Sudoba
Sen butun borlig‘im...
Siyovush
Bu bir razolat!
Sudoba
Go‘zallikni ko‘rmas sening nigohing.
Mana, ko‘r!..
(siynasini ochadi)
Siyovush
Ha, go‘zal boshdan oyog‘ing,
Lekin manim uchun chirkin siyog‘ing.
Sudoba
Seni tinch qo‘ymayman tahqir etsang-da.
(bo‘yniga osiladi)
Siyovush
(uni nari itarib)
Bas qil, ehtirosga qul bo‘lgan banda!
Sen kimsan?
Hech narsa, qarodir yuzing.
Vahshiy Suriyaning sharmanda qizi!

Xizmatkor bularni tomosha qilib turadi va so‘ng g‘oyib bo‘ladi.

Sudoba

(nafis ipak ko'ylagini yirtib tashlaydi, siynalari batamom ochilib qoladi)

Go'zallikni ko'rmas ekansan tayin,
Sen xoinsan, ha-ha, tuyg'usiz xoin!
Voy-dod! Yordam bering? Mana bu xoin...

Kaykovus

(ovozi eshitiladi)

Kim u xoin?

Sudoba

O'g'ling!

Kaykovus

Yo'q, bu g'irt bo'hton!

Sudoba

"Otam qayda?" — deya kelib gap otdi,
So'ng menga xiyonat qo'lin uzatdi.
Ko'ylagimga qara!..

Kaykovus

Bo'ldi, tushundim.

Sudoba

Bu chirkin dog'dan sen xalos et meni!

(o'krab yig'laganicha parda ortiga chekindi)

Kaykovus

(ovozlarni eshitib chiqib kelgan xizmatkorga)

Chaqir munajjimni!
Siyovush! Seni
Yo'lingdan ozdirgan qandayin tug'u?

Siyovush

Shohim, menda ayb yo'q, chekmagin qayg'u.

Kaykovus

Sudobaning so'zi rostmi?

Siyovush

Yo'q aslo!
Aybim bo'lsa, yuvay qonim bilan to.

Munajjim

Nima gap?

Xizmatkor
Sudoba ayladi tuhmat.
Munajjim
Shohim! Amringiz ne?
Kaykovus
Sen shoshma faqat,
Bunda bir sir bordir, ochib ber bizga!
Munajjim
(boshini likillatib)
Pand bergaydir go'zal bir xotin sizga.
Kaykovus
Siyovushdan gapir, yo'qmi gunohi?
Munajjim
Jangdan boshqa fikri yo'q uning, shohim.
Kaykovus
Kim egri, kim to'g'ri — ajrim etgil san.
Munajjim
Amr eting, yoqilsin katta bir gulxan.
Ustidan o'tkazing va bilaylik biz —
Yongan — gunohkordir, yonmagan — aybsiz.
Kaykovus
Yongan — gunohkordir, yonmagan — aybsiz.
(Shiddat bilan)
Gulxan, gulxan!.. Darhol yoqilsin gulxan!

Parda

II sahna

Gulxan atrofida kuylagancha zardushtona odat ijro etilmoqda.

Ma'budlar
Amr etmish yaratgan,
Budir bir sinov.
Gunohsiz insonni
Yondirmas olov.

Qizlar raqs etadilar.

Kaykovus
Qaydadir malika?
Birinchi joriya
U hamon behush!..
Kaykovus
O'lgan bo'lsa hamki, darhol tirilsin!
(Joriya chiqib ketadi)
Munajjim
Gulxan tayyor!
Kaykovus
Shoshma, Sudoba kelsin.
Ma'budlar
Muqaddas olovdan
O'tganlar qutular.
Yo'lidan ozganlar
Yonar-u kul bo'lar.

Qizlar takror etadilar. Munajjim Siyovushning toji hamda qilichini olib, uzun bir ko'ylak kiydiradi. Sochlari to'zib, rang-quti o'chgan Sudoba joriyalari bilan kirib keladi.

Kaykovus
Beri kel!
Sudoba
Buyuring?
Kaykovus
Gulxanga kiring!
Siyovush
Men tayyorman.
Sudoba
Sho'rlik Siyovush.
Kaykovus
Avval sen kirasan.
Sudoba
Jon degayman, jon!

Ko'nglimda otash bor, boshimda to'fon.
(Achchiq tabassum bilan)
Ta'sir qilurmi hech otash otashga?
Yonib ko'ngil berdim men Siyovushga...
Kaykovus
(qars urib)
Jallod!
(Sudobaga kinoyali nazar solib)
Naqadar sharmanda, hayosiz ayol.
(Ikki jallod bolta ko'tarib kiradi)
Olib chiqing buni, osilsin darhol!
Hamma ibrat olsin va bo'lsin ogoh.
Sudoba
(achchiq qahqahalar bilan)
Buncha yovuz qaror!? Tushungin, ey shoh,
Sevgisiz ko'ngillar jonli bir mozor!
Sevibon o'lganlar baxtli, baxtiyor.
(Ikki-uch qadam yurib, to'xtaydi)
Siyovush, Siyovush! Bir bo'sang, illo,
Men uchun Kayonning tojidan a'lo...
Siyovush
Oh, sen...
Sudoba
Alvido... ey tengsiz qahramon!

Joriyalari bilan chiqib ketadi.

Kaykovus
Oh, sen ipak ilon, sevimli qoplon!
Siyovush
Izn eting!
Kaykovus
Gapirgin!
Siyovush
Nega osilsin?
Kaykovus
Yo'qsa ne bo'lsin?

Siyovush
Zindonga tashlansin.
Balki yazdoni pok etar marhamat,
Pushaymon bo'lgay u...
Vazir
Ayni haqiqat,
O'g'lingiz haq, shohim, yanglishmagay ul!
Ajoyib bu tadbir menga ham ma'qul.
Kaykovus
Nahot bu mumkindir?
Vazir
Nega mumkinmas?
Kaykovus
Nega? Nega? Axir o'sha yaramas
Kayon tojidagi qora dog' — chirkin.
Siyovush
Adashgan ayol u, rahmingiz kelsin!
Vazir
Bosh xotiningiz u, etsangiz qatl,
Yurt qolgay iztirob ichida botil.
Kaykovus
Mayli, bandi bo'lsin ul vahshiy pari,
Tushmasin unga hech kimsa nazari.
Rustam
Shohimiz sog' bo'lsin! Qo'shin ham hozir,
Butun qahramonlar sizga muntazir.
Kaykovus
(munajjimlar chiqib ketgach, o'g'liga)
Siyovush! Qolmadi senga hech shubham,
Qoyilman pokiza vijdoningga ham.
Ehtimol dog' bordir oyda, quyoshda,
Lekin dog'dan asar yo'q Siyovushda.
Suvdan ham pokdirsan, tanti va halol,
Yo'ldan ozdirolmas seni hech ayol.
Bor endi, jigarim! Kutmoqda qo'shin,
Bor, zafar tangrisi madadkor bo'lsin!

Kaykovus qo'li bilan ishora qiladi, **Rustam, Siyovush, Tus, Bahrom** va boshqa jangchilar chiqib ketishadi.

Parda

IKKINCHI PARDA

1 sahna

Yaqinroqda bir qishloq, olisda Balx qal'asi ko'rinib turibdi.

Sahnada Eron qishloq ahli tosh, tuproq tashib yangi qal'a qurmoqdalar. Oralarida qiz va ayollar ham ko'zga tashlanadi. Atrofda ikkita chodir qurilgan. Musiqa sadolari ostida parda ochiladi. Ikki mirshab sudralib borayotgan ishchilarni qamchi bilan urib tezroq harakat qilishga majbur etadi. Ikki tosh teruvchi usta devor uzra qo'shiq aytib ishlamoqdalar.

Birinchi usta
Kel, qo'zim, tez bo'l-da, kel!
Ko'zim qoldi yo'lda, kel!
Tuproq keltir, tosh keltir!
Ha-bo'l, ey qardosh, keltir!
Ikkinchi usta
Qani, qo'zim, g'ishtdan ol,
Ganch keltir-u suvga sol!
Hayallama, turma, kel!
Ishga zarba urma, kel!
Birinchi mirshab
(oqsayotgan bir qulni itarib)
Tezroq yurgin, oqsama,
Ko'p qolmadi oqshomga.
Ikkinchi mirshab
(Bir cholni urib)
Tezroq yurgin, nobakor!
Tanballarga jazo bor.
Chol
Urma, bitdi majolim,
Yurmoqqa yo'qdir holim.

Ikkinchi ma'mur
Gapni cho'zma, hoy yovuz,
Amr aylagan Kaykovus.
Bitmog'i kerak to'la
Olti oyda bu qal'a.
Birinchi ma'mur
Kimki tovlasa bo'yin —
O'lim jazosi tayin.
Ikkinchi ma'mur
Ha, ushbu buyuk qal'a
Yuksaladi ko'klarga.
(olisdagi Balx qal'asini ko'rsatib)
Balxga qarshi bir umr
Bu qal'a hokim bo'lur.
Birinchi usta
Kel, qo'zim, tez bo'l-da, kel!
Ko'zim qoldi yo'lda, kel!
Tuproq keltir, tosh keltir!
Hoy, bo'l, ey qardosh, keltir!
Ikkinchi usta
Qani, qo'zim, g'ishtdan ol,
Ganch keltir-u suvga sol!
Hayallama, turma, kel,
Ishga zarba urma, kel!
Bir ishchi qiz
(qo'lida loy chelagi, shoshib keladi)
Keldilar, oh, keldilar.
Birinchi mirshab
Kimlar?
Ishchi qiz
Bir to'da askar.
Birinchi mirshab
Balli, shoh askarlari.
Ikkinchi mirshab
(unga qarab)
Yurgil, ketaylik nari.

Ketadilar. Ishlayotgan qishloqliklar bir joyga to‘planishadi.

Oltoy
Saroy bo‘rilari tag‘in quturmish,
Yangi o‘lkalarni g‘ajishga yurmish.
Chol
Oltoy, og‘ir bo‘lgil, olchoqlar ular,
Isyonchi deb bizni kaltaklar ular.
Oltoy
Butun yurt ochlikdan chekmoqda fig‘on,
Bu vijdonsizlarning ichganlari qon.
Chol
Hamon qilichlardan qonlar tomchilar,
Endi xalq boshida o‘ynar qamchilar.
Ishchi qiz
Shoh buni bilarmi?
Chol
Qaydam!
Ishchi qiz
(bolalarcha soddalik bilan)
Hoy bobo!
Shoh ham biz kabi bir insonmi yo?..
Chol
Odamga o‘xshar sal odam qoshida.
Oltoy
Ikkita shoxi bor faqat boshida.
Ishchi qiz
(cholga)
Shoxi bor shohni hech eshitmagandim,
Shu gap rostmi, bobo?
Chol
Ha, rost, dilbandim!
Birinchi usta
Bo‘lmasaydi Kaykovusning agar shoxi,
Haramboshi qilmas edi bir sullohni.

Chol
Siz uni shahanshoh deb bilmang zinhor,
Kosaning tagida nimkosasi bor.
Ishchi qiz
Bu nima degani?
Chol
Qizim, bori shu,
Barcha saroylarning kirdikori shu.
Ular fahshga botgan chayonlar, rost bu,
Hayo, nomus faqat bizlarga xosdir.
Birinchi mirshab
(sherigi bilan qaytib keladi)
Tag'in nega to'da bo'lib oldingiz?
Qani, hamma ishga!
(oqsoqqa bir qamchi tushiradi)
Bekorchi to'ng'iz!
Birinchi usta
Tuproq keltir, tosh keltir!
Ha-bo'l, ey qardosh, keltir!
Ikinchi usta
Qani, bobom, g'ishdan ol,
Ganch keltir-u suvga sol!
Birinchi mirshab
(xayolga tolgan cholni ayovsiz savalaydi)
Nega ishlamaysan, hoy iymonsiz chol!
Chol
Voy!..
Qiziqqon yigit
(cholni qo'ltig'idan tutib ko'tararkan, mirshabga)
Ablah!
Birinchi mirshab
(yigitga bir shapaloq tushiradi)
Haddingdan oshmagil, battol!
Qiziqqon yigit
Yana ur!

Birinchi mirshab

(yana bir shapaloq tushirib)

Mana ol!

Qiziqqon yigit

(uni yoqasidan bo'g'ib, tizzalari ostiga oladi)

Bas ola hakka!

Endi pichoq borib yetdi suyakka.

Ikkinchi mirshab

(ishlayotgan kishilar orasida g'ir-g'ir aylanib)

Hoy yordam!

Qishloqliklar

(unga hujum qilib)

Daf bo'lgin!

(mirshabning yoqasidan oladilar)

Birinchi mirshab

(bo'g'iq ovozda)

Voy!

Qiziqqon yigit

(birinchi mirshabni oyog'i bilan turtib)

Bas qil, olchoq!

Yetar, sizga bo'ldik shuncha o'yinchoq.

Bu senga ilk saboq, unutma aslo,

Zolimlar qolmagay zinhor bejazo.

Og'ir bir sukut... Shu orada jangovar musiqa chalinadi. Tus va Eron askarlari atrofni qurshab olishadi.

Bir qishloqlik kishi

(shoshib kiradi, ishchilarga qarab)

Hoy sho'rliklar! Bunda siz

Qon-u terga botgan dam

Ko'kdagi har bir yulduz

Tutmoqda og'ir motam.

Tus

Nima gap?

Qishloqlik

Bosqinchilar

Bor-yo‘g‘imiz oldilar.

Ishchi qiz

(Tusning askarlariga)

Yordam bering bizlarga,
Umid faqat — sizlarga!

Tus

Qani, darhol yetaylik,
Barchasin daf etaylik!

Askarlar

Qani, ortga chopaylik,
G‘animlarni topaylik?

Askarlarning bir qismi, mirshablar va qishloqliklar ketishadi, musiqa yangraydi...

Tus

(Boshqa tomonga boqib)

Anov o‘tguvchi yo‘ldan
Kimsalar qaysi eldan?

Birinchi askar

Hoy yo‘lovchi! Shoshmay tur!

Tus

Begonaga o‘xshaydur.

Kibor qiyofali xitoylik ularga yaqin keladi.

Birinchi askar

Yaqinroq kel!

Tus

Siz kimsiz?

Elchi

Chindan kelgan elchimiz.
Jo‘natdi bizning xoqon
Kaykovusga armug‘on.

Tus

Sheriklaring kim ekan?

Elchi

Ular ham bizning yurtdan.

Birinchi askar
Ehtimolki, u josus!!
Tus
Jim bo'lgin!
Bir askar
(kelib ta'zim qiladi)
Qahramon Tus!
Olisdan ko'rindi chang-to'zon bu dam,
Tus
Balki kelmoqdalar Siyovush, Rustam.
(ikki-uch askar bilan o'sha tomon ketadi)
Birinchi askar
(elchiga u kelgan tomonni ko'rsatib)
Tushgan kabi bo'ldi bir qizga ko'zim...
Boshqa askar
Qiz dema, u xuddi malakning o'zi.
Elchi
Uni xoqonimiz shohga jo'natmish.
Birinchi askar
Menga keltir!
Ikkinchi askar
To'xta! Bilsa Siyovush
Bizning ikkimizni qo'ymaydi omon,
Terimizni shilib, tiqadi somon.
Birinchi askar
(ayyorona kulib)
Go'zallarga boqmoq ko'ngil orzusi,
Sen tashvish chekmagil, chiqmaydi isi.
Boshqa askar
(chinlik raqqosani olib keladi. Ozg'in, irkit, yuzlari burishib ketgan bir ko'sa ham ularning ortidan keladi)
Begona yurtlarning nozik tuhfasi!
Birinchi askar
To'xta, hoy, sen kimsan?
Ko'sa
(qizni ko'rsatib)

Uning ko'lkasi!

Birinchi askar

(elchi bilan ko'saga)

Siz borib chodirda kutingiz biroz.
Boring!

Elchi ketadi.

Raqqosa

(hayajonda)

Oh!

Ko'sa

Yo'q, yo'q, men...

Birinchi askar

Nega yo'q deyapsan, iflos!

(G'azab bilan yer tepinadi)

Ko'sa

Tashlab ketolmayman uni hech qachon.

Birinchi askar

Bekor gap! U — malak, sen esa shayton!

Ko'sa

Eng ravshan kunlar ham tug'ilar tundan.

Birinchi askar

Bas!

Ko'sa

Men — bu qiz og'asi, ajralmam undan.

Qishloqqa madad bergani ketgan mirshablar va askarlar qo'llarida piyolalar, sharob ko'zalari va talon etilgan ashyolar bilan qaytib kelishadi.

Birinchi askar

Buncha tez?

Ikkinchi askar

Qochibdi qolmay bitta zog'.

Birinchi askar

(ko'zalarni ko'rsatib)

Bu nima?

Ikkinchi askar
Sharob bu, dillarga yoqquvchi chirog‘!
(barmoq chertib)
Do‘st bo‘ldik qishloqi yurtdoshlar bilan,
Bunday zo‘r sharobni ko‘rmagandim man.
Birinchi askar
Ha, endi...
(raqqosaga)
Qani, sen bizga sharob suz!
Ko‘sa
U go‘zal raqs etsin, mayni esa biz...
Ikkinchi askar
U suzgan sharobning o‘zga havosi.
Ko‘sa
Mayli, ne desangiz, men shunga rozi.

Qiz sharob suzadi, og‘ir ohangda musiqa boshlanadi. Ko‘sa ajabtovur harakatlar qilib, sakrab-sakrab o‘ynay boshlaydi.

Birinchi askar
(ikkinchi askarga raqqosani ko‘rsatib)
Ana Chin ohusi, maza qilib ko‘r,
Ko‘ziga nur kelar unga boqsa ko‘r.
Ikkinchi askar
(Ko‘saning qo‘lidan tutib chetga chirpirak qilib yuboradi)
Qiz o‘ynasin, sen-chi, sharob quy bizga!
Ko‘sa
Ma’qul, bosh ustiga, jon qurbon sizga.

Musiqa almashadi, qiz raqsga tusha boshlaydi. Ko‘sa qo‘ynidan qog‘ozga o‘ralgan taryok chiqarib ko‘zaga soladi. So‘ng piyolalarga sharob suzadi. Ichadilar. Ko‘sa ming‘irlagancha qo‘shiq aytadi.

Taryok soldim sharobga,
Dengiz do‘ndi sarobga.
To‘yib-to‘yib icharlar,
Qayg‘udan voz kecharlar.

Shirindir bu hayoti,
Qalindir yerning qati.
Tortar seni komiga,
Og‘u qo‘shar jomingga.
Bor ekan qo‘lda fursat,
Chekib yurma g‘am-hasrat.
Sevinchdan bo‘salar ol,
Tug‘ildingmi, yashab qol!

Barcha

Sevinchdan bo‘salar ol,
Tug‘ildingmi, yashab qol!

Soqchi

(atrofga tikilar ekan, shoshganicha)

Qara, huv olisdan bir qora kelar.

Birinchi askar

Shubhasiz, talonchi, bosqinchi ular.

Ikkinchi askar

Qo‘yavergin, kelsinlar yaqin,
Boshlariga chaqamiz chaqin.

Birinchi askar

Panaroq bir joyda pusib turaylik.

Ikkinchi askar

Sharoblar-chi?

Birinchi askar

Shu yerda qoldiraylik.
Bosqinchilar aylasinlar no‘sh,
Asirga olamiz yov bo‘lsa sarxush.

(Ko‘saga)

Bu qizni olgin-da, darhol bo‘lgil daf,
Qo‘ysang biror joyda og‘zingdan gullab,
Motamingni tutar volidang yillab.

Ko‘sa

Yo‘q, yo‘q, men og‘zimga mahkamman, ishon.

(raqqosa bilan birga chiqib ketishadi)

Birinchi askar

(sheriklariga)

Qochdik, bu turklarning hujumi yomon.

Ikkinchi askar

Qo'rqma, bizning qo'shin kirganda jangga,
Yovga sichqon ini bo'lar ming tanga.

Birinchi askar

Maqtanma, dushmanni kim ko'rsa ojiz,
Oqibat dushmanga cho'kajakdir tiz.
Yovlar zarbasiga berolmay bardosh,
Uning qarshisida egib turar bosh.

Ikkinchi askar

(istehzoli kulib)

Cho'chib sening onang dushman o'chidan,
Beshikda qo'rqitgan olabo'jidan.

Jangovar musiqa yangraydi... turkiy jangchilardan besh-oltitasi kirib keladi. Ko'zalarni ko'rib qoladi. Qadahlardagi sharoblarni ichishadi.

Birinchi yigit

Ko'zalar limmo-lim, ammo hech kim yo'q.

Ikkinchi yigit

Qo'rqib qochishgan-da!

Uchinchi yigit

Quvonmangiz ko'p.

Birinchi yigit

Ozgina ichaylik...

Ikkinchi yigit

Zo'r sharob, qara!

Uchinchi yigit

Ha, zo'rga o'xshaydi, toza va sara.

Qayta-qayta ichib, jo'shqin bir qo'shiq aytishga tushadilar.

Birinchi yigit

Qilichlar porlasin, yer-ko'k titrasin.

Hamma

Titrasin, titrasin, yana titrasin.

Birinchi yigit

Do'st-u dushman bizni ko'rib butrasin.

Hamma
Butrasin, butrasin, yana butrasin.
Birinchi yigit
Bekor o'q otmaymiz qochgan quyonga.
Hamma
Quyonga, quyonga, yana quyonga.
Birinchi yigit
Qayda mard yigitlar?
Chiqsin maydonga!
Hamma
Maydonga, maydonga, yana maydonga!
Birinchi yigit
(qilichini yalang'ochlab)
Qani, dushman sari hujum!
Ikkinchi yigit
Kayfim oshdi, qo'ygil, do'stim.
Birinchi jangchi
(sheriklari bilan qilich yalang'ochlab, pistirmadan chiqib keladi)
Hoy qochoqlar ayting, kimsiz?
Birinchi yigit
Qo'rquv bilmas yigitlarmiz.
Birinchi jangchi
Qani, unda keling yaqin.
Birinchi yigit
Qilichlardan chaqsin chaqin.

Har ikki tomon sarxush harakatlar bilan qilich chopishadi. Ularning bir qismi yaralanib, bir qismi gandiraklab qoladi. Shu orada bir tomondan **Karshivaz**, ikkinchi tomondan **Bahrom** va **Tus** o'z askarlari bilan kelib, jangchilarga qo'shiladi, jang yana avjga chiqadi. Nihoyat, **Rustam** bilan **Siyovush** yetib kelishadi.

Rustam
(mag'rur va amrona ohangda hayqiradi)
Bas qiling! To'xtating jangni, nodonlar!

Siyovush
Yetar shuncha to‘kilgan qonlar.
Ikkinchi jangchi
Kayfim qochdi, sharob bering!
Ikkinchi yigit
Yoy keltiring, o‘q keltiring!
(qo‘lidagi o‘qni kamonga soladi)
Siyovush
(qulab yotgan yaradorlarni ko‘rsatib)
Buncha xalqni qirmoq nechun maydonda?
Polvonlar tanlansin har ikki yondan.
Yigitlar kurashsin bor kuchin solib,
Kimki ustun kelsa, shu tomon g‘olib.
Rustam
Afrosiyob qani?
Chiqsin maydonga!
Bilagimni buksa, qoyilman unga.
Karshivaz
U yo‘qdir, o‘rniga menman — Karshivaz.
Rustam
Rustam har qahramon bilan kurashmas.
Karshivaz
Chiranma ko‘p, avval kulgan so‘ng yig‘lar.
Siyovush
(Bahromga)
Bu og‘ir tahqirdir, bag‘rimni tig‘lar.
Rustam
Unutmakim, u qo‘rqmas bir qahramon!
Siyovush
Er emasman unga bersam men omon.
Karshivaz
(istehzoli kulib)
Endi go‘daklarga kunim qoldimi?
Siyovush
Hali senga men bir go‘dak bo‘ldimmi?
Bu kiborlik senga tushmagay arzon.

Karshivaz
O‘z onangga rahming kelsin, hoy inson.
Siyovush
Bekor chiranmoqdan jang qilmoq oson.

Qilichlar porlaydi, o‘zaro ancha kurashadilar.

Rustam
Eron quvonadi bundoq arslonga,
Kulgi bo‘lmas hech bir do‘stga, dushmanga.
Karshivaz
(yana hujum boshlaydi)
Shunaqa bo‘shanglar duch kelar bizga.
Siyovush
Men tayyor.
Piron
Bas qiling! Ne bo‘ldi sizga?
Rustam
(Tusning o‘ziga alohida)
Kimdir bu qariya, qanday qahramon?
Tus
Ha, bu Afrosiyob vaziri — Piron!
Piron
Nechun bu dahshatlar, nechun bu qirg‘in?
Rustam
Buni sardoringiz Karshivaz aytsin.
Karshivaz
Mensiz avj olibdi bu qirg‘inbarot.
Rustam
(turk askarlarini ko‘rsatib)
Bularni jo‘shtirgan qay to‘fon, hayhot?
Karshivaz
Men dedimki, chin ahvolni bilsinlar,
Tanglik sababini bilib kelsinlar.
So‘ngra boqsam, qilichlar tushmish ishga.
Piron
Sabab bordir balki bundoq urushga.

Rustam

(yonidan bir maktub olib unga uzatadi)

O‘qi bu maktubni!

Piron

(o‘qiydi)

Bu bir fitnadir.

Rustam

Yo‘qsa u talonlar, bosqinlar nadir?

Piron

Bu bosqin sen bilgan doimiy o‘yin...
Sizlar o‘g‘irlaysiz xalqning mol-qo‘yin.
Bunga hukumatning nima daxli bor?

Jo‘shqin musiqa yangraydi... Shu orada yarimyalang‘och, qashshoq qishloqliklar to‘dasi yetib keladi. Ular qo‘llaridagi kaltak, panshaxa, o‘roq va boltalarini silkitib, isyonchilarga xos bir ohangda.

Qariya

Mana ular, mana ular!
Bosib kelgan mana shular!
Ko‘p ezildik, qonga to‘ldik,
Xoin qo‘llarda mahv bo‘ldik.

Rustam

Ko‘rsat, qani u xoinlar?
Jazosini olsin ular.

Oltoy

(Hayajon ichra bir uzoq-uzoqlarni,
bir Eron askarlarini ko‘rsatib)

Bir yondan Turonning yovqur ellari,
Bir yondan Eronning avbosh askari
Qonimizni ichib-ichib to‘ydilar,
Qiz-u ayollarni uryon qo‘ydilar.

Qariya

Yuzlar so‘lg‘un, ko‘zlarda nur qolmadi,
Egilgan boshlarda g‘urur qolmadi.

Rustam

(atrofdagilarga)

Uyatdir sizlarga, uyat, ko‘p uyat!
Sizdan kutmagandim bundoq xiyonat.
Sizdan yaxshiroqdir vabo-yu o‘lat,
Yo‘q-yo‘q, kechirilmas bundoq xiyonat.

Piron

Hayhot, hech o‘chmagay ushbu qora dog‘,
Askarlar sha’niga yarashmas mutloq.

Oltoy

La’nat bu olamga, bas, yetar, to‘ydik,
O‘zimiz yoqqan bir otashda kuydik.

Qariya

(ko‘klarga ishora qilib)

Falakdan ko‘z uzmang, falakdan faqat!
Sizning qonunlarga la’nat, ming la’nat!

Oltoy

O‘lat ham, vabo ham qochadi sizdan,
Ajal hazar qilar bu ishingizdan.

Siyovush

(gangib qoladi,
so‘ng jahd va jo‘shqinlik bilan)

Sayrar sizlar o‘tgan yerda boyqushlar,
Qahramon shakliga kirgan sarxushlar!
Mazlumlar yonini olmagan inson,
Inson sanalmagay,
sanalgay hayvon!..
Toptalmasin yurt deb kelgan edik biz,
Uni toptamoqda o‘z qo‘shinimiz.
Ochlik, qahatchilik, o‘lim beomon,
Hammasi bir tomon, sizlar bir tomon.

Oltoy

Ont bo‘lsin, vijdonga, ont bo‘lsin Haqqa,
Kim ko‘z olaytirsa endi bu xalqqa,
Chaqmoqlar chaqilsin uning boshiga,
Nomlari bitilsin mozor toshiga.

Parda

2-sahna

Kaykovus saroyidagi alohida bir xona... Sudoba taxt ustida yastanib o'tiribdi, uning atrofini joriyalar qurshab olgan. Raqqosa — chinlik qiz nozik va lirik bir musiqaga hamohang raqsga tushib kuylamoqda.

Raqqosa
Qayg'usiz bahorning iliq bo'sasi
Sochlarimga qo'ndi zulmat o'charkan.
Sarxush bulbullarning hissiz bir sasi
Ruhimni allalar gul yuz ocharkan.
Yosuman, nilufar, sunbullar, hay-hay,
Yoqut piyoladan menga tutdi may.
Quyoshdan nur emdi uryon vujudim,
Lolalar qadahin jimgina ichdim.
(xonani tark etadi)

Sudoba
(o'rnidan turadi,
ehtirosli boqishlar bilan sho'x-shodon kulib)
Hayhot! O'ylaydiki Siyovush —
Zindonlarda o'lajakman men.
Binafshadek qorga berib to'sh,
Erta-indin so'lajakman men.

Birinchi joriya
Holbuki, Kaykovus senga bir quldir.

Sudoba
Menga taskin berma, birpas jim turgil!

Ikkinchi joriya
Sensiz butun dunyo zindondir unga.

Sudoba
Yo'q-yo'q,
ishonmayman hech qachon bunga.

Ikkinchi joriya
Ishon, tong yulduzi haqiga, qasam!

Birinchi joriya
Suriyaning sha'n qizi haqiga, qasam!

Sudoba

(hazin bir oh tortib)

Qarshimda tiz cho'ksa butun yer yuzi,
Yana Siyovushda ko'nglimning ko'zi.
Zindonda yotarkan oh-faryod urib,
Bildim, u ishqimning avval-oxiri.

Ruboba

(kirib keladi, oxirgi jumlalarni eshitib)

Sho'rlik!.. Bo'lursanmi shunchalar ojiz.
Biroz chehrangni och, mag'rur bo'l, hoy qiz.

Sudoba

Yo'q-yo'q, bugun mening holim boshqadir.
Ko'nglimdagi talotumlar ko'p og'ir.
Bir tilagim bo'lsa — uning visoli,
Ko'zlarimda faqat uning xayoli.
Siyovush holimni so'rmasa agar,
Ishqimni u loyiq ko'rmasa agar,
Uni qonlar ichra ko'rmoq istarman,
Sochidan gulchambar o'rmoq istarman.

Musiqa.

Kaykovus

(kirib keladi, Sudobani g'amgin ko'rib)

Bahorning quyoshi nega mahzun, jim?

Ruboba

Og'ir o'tmishdan ezilgan, balkim.

Kaykovus

O'tmish ortda qoldi. Ertang nur bo'lsin.

Ruboba

Sudobadan sizga tashakkur bo'lsin.

Xizmatkor

(kirib ta'zim etarkan)

Chin elchisi!

Kaykovus

Kirsin!

(Sudobaga)

Chekil nariga!..

(Ular chiqib ketadi, elchi kiradi.
Kaykovus unga yonidan joy ko'rsatadi)

Marhamat!

Elchi

(o'tiradi)

Keldik biz huzurlariga.

Kaykovus

Afrosiyob haqda fikring ayt menga.

Elchi

U zo'r tahlikadir Eronga, Chinga.
Haddidan oshmoqda o'shal nobakor.
Ham sizga, ham bizga adovati bor.

Kaykovus

Bu tahdid bizlarni qo'rqitmas tamom,
Chinning xoqoniga yetkazing salom!
Do'stligimiz bo'lsa samimiy, butun,
Oltoyning boshiga tushar qora tun.

Elchi

Biz bir bo'lsak, ular g'ing demas zinhor.

Sudoba

(raqqosa va ko'sa bilan kirib keladi. Kaykovusga)

Raqqosaning sizdan bir o'tinchi bor.

Kaykovus

Gapir!

Sudoba

U derki, enagam ketmasin Chinga,
Go'daklik chog'imdan aziz u menga.
Ayriliq dard bo'lib tushar ruhimga.

Kaykovus

Unda shundoq bo'lsin.

Ko'sa

(ta'zim qilib)

Rahmat!..

Kaykovus

(elchiga)

Eshitgil shoyon —
Tuhfalar bir tomon, u qiz bir tomon.
Sudoba
U juda sevimli, yakto, bir dona,
Men uchun misli bir inju, durdona.
Kaykovus
Ajoyib!
Otini qo'ying Durdona.
Sudoba
Ziyrak bu chol ham ko'p aqlli odam.
(boshqa xonaga chiqib ketadilar)
Kaykovus
Bu zo'r sovg'a bo'ldi.
Xizmatkor
(kirib ta'zim qiladi)
Podshohim, Rustam!
Kaykovus
Chaqir, kirsin.
Elchi
Men chiqay endi.
(Ta'zim qilib chiqadi)
Kaykovus
Marhamat!..
(Chekkaga)
Nega shoshayotir bu elchi faqat?
Rustam
(Bahrom bilan kirib kelib,
harbiychasiga ta'zim qiladi)
Salom!..
Kaykovus
Xo'sh,
qanday tugadi bu g'avg'o, bu kin?
Rustam
O'zaro to'qnashdi har ikki qo'shin.
Kaykovus
Xo'sh, keyin?

Rustam
So‘ng avjga chiqdi bu urush,
Karshivazdan ustun chiqdi Siyovush.
Kaykovus
(mag‘rur va mamnun bir qiyofada)
Unga g‘olib degan nom bo‘lsin halol.
Rustam
Faqat do‘stlar emas,
yov ham qoldi lol.
Kaykovus
Keyin-chi?
Rustam
Keyin Piron kelib menga aytdi shan,
Ularda jang qilmoq shahdi yo‘q ekan.
Kaykovus
(asabiy)
Unda kim bostirib kelgan olchoqlar?
Rustam
Bir to‘da qorni och, sarkash qochoqlar.
Kaykovus
Xo‘sh, keyin?..
Rustam
Behuda to‘kilmasin qon
Deya bitim tuzdi Siyovush, Piron.
Kaykovus
Nega?
Rustam
Kelishdilar.
Kaykovus
(qizishib)
Yarashdilarmi?
Rustam
Bekor qon to‘kmakda bir ma’no bormi?
Kaykovus
Xiyonat! Xiyonat!.. Katta xiyonat!
Afrosiyob qo‘ygan tuzoq bu albat.

Rustam

Aslo bundoq emas, yurtni bosganlar —
Barchasi nobakor, yo'ldan ozganlar.
Faqat ular emas, biznikilar ham
Qirdilar atrofda qo'ymay bir odam.

Kaykovus

Qishloqlar talansa, ranjitmas meni,
Biroq Afrosiyob bilsin haddini.

Rustam

Menimcha, sababsiz bu sho'rish-g'avg'o
Mardlarning sha'niga yarashmas aslo.

Kaykovus

(achchiq va istehzoli qahqaha bilan)

Hayhot! Har ikkingiz qo'rqoq va miskin!
Siyovush ham xoin,
Rustam ham xoin!..

Rustam

(g'azab bilan, keskin)

Qo'rqoqlik, xoinlik?! Bu iflos tuhmat!
Bu tahqirga inson qilolmas toqat!

Kaykovus

(baqirib beradi)

Rustam!

Rustam

(o'sha ohangda)

Haddan oshma, bilib qo'y — men kim!

Kaykovus

Bas qil! Shuhratingga mag'rur bo'lmagil.

Rustam

Sen ham mag'rur bo'lma toj-u taxtingga!

Kaykovus

(asabiy kezinarkan)

Demak, Siyovush ham aldangan senga.
Ikkingiz osiysiz! Adashgan osiy!
Sizga loyiq faqat o'lim jazosi!..

(Saroyni tark etadi.)

Rustam

(titroqqa tushib, Bahromga)

Eshitdingmi bo‘htonlarni?
Eshitdingmi yolg‘onlarni?!
Go‘yo quturgan jonivor,
Boshda o‘lim xulyosi bor.

Bahrom

Baqirsa ham turma cho‘chib,
Senga uning yetmas kuchi.

Rustam

Endi menga bo‘ldi ayon,
Jannat ekan Zobiliston.
O‘z yurtimga qaytmoq foyda,
Nomus, sharaf o‘sha joyda!..

(Sudoba parda ortidan ko‘rinib, ortga yashiranadi.)

Bahrom

Hoy Siyovush!

Rustam

Yugur inim,
Darhol yo‘ldan qaytar uni!
Hammasini ayt, eshitsin,
Bu o‘lkadan chiqib ketsin.
Har ikkingiz boring birga
Afrosiyob huzuriga.
Siyovushning tog‘asi u,
Joni jonga qayishar-ku.

(g‘azabdan titrab)

Mayli, bunda Sudobaning
Eri ishrat qilib yotsin.
Adl-u qonun bir yon qolib,
Zulm-u jinoyatga botsin.
Yur, ketaylik, nafrat bo‘lsin
Bu yaltiroq vahshatlarga!
La’nat bo‘lsin o‘lim isi
Anqib yotgan shahvatlarga!..

Ketadilar.

Sudoba

(parda ortidan chiqib keladi.
Oshkora qahqaha bilan)

Ket, Sudoba ko'p ingratdi
Sen singari arslonlarni.
Ko'z o'ngimda so'nib bitdi
Qancha dahshat vulqonlari.
(uzoqlarga xumor tikilib)
Siyovush-chi!? Oh, ko'nglimda
Jaranglaydi uning sasi.
(Qattiq g'azabga minib)
Mendan qochsa, o'z qo'limda
Ul yigitning janozasi!..

Parda

UCHINCHI PARDA

1-ko'rinish

Atrofda yalang'och qoyalar va yam-yashil adirlar... Uzoqlardan cho'pon nayining sadosi yangraydi.

Siyovush

(Bahrom bilan birgalikda kirib keladi.
Boshida mis dubulg'a bor)

Mana, ona yurtim, buyuk Turonim!
Uryon qoyalarda burgut oshyoni!

Bahrom

Bunday manzaralar Eronda ozmi?
Bundan ham zo'r desam, to'g'ri bo'lmasmi?

Siyovush

Lekin Sudobaning vahshiy sazosi,
Kinli padarimning o'lim jazosi

Bizni qochoqlardek etdi darbadar.

Bahrom

Unut, o'tib ketdi hammasi magar.

(Cho'ntagidan bir qog'oz chiqaradi.)

Tashvish chekma,

Afrosiyob bor bo'lsin.

Maktubini o'qi, u qandoq mamnun!

U ham saroy, bu ham!.. Nima farqi bor,

Bunda kutar seni sevgi va viqor.

Siyovush

Saroy olamiga yo'q menda havas,

Hammasi bir go'rdir, qonli bir qafas.

Ko'mib tashlasa-da bizni tilloga,

Sig'inmoq istamam bundoq dunyoga.

Shu payt qizlarning qo'shig'i eshitiladi.

Qizlar

Oppoq, yumshoq nozli bir qush

Turar toshga bergancha to'sh.

Bo'yniga boq, misli kumush!

Kimni ko'zlar kabutarim?

Mening dilbar kabutarim!

Bahrom

(hayrat bilan ishora qiladi)

Qara, qizlar — go'zal, dildor!

Yoylari bor, o'qlari bor.

Siyovush

Ovga chiqqan ular bari,

Yo'l beraylik, yurgil nari...

Bahrom

Qandoq go'zal ayol sasi,

Dillarga malham nag'masi!

Siyovush

(ma'noli ohangda)

To'g'ri, ayol nozik xilqat,

Tuban ketsa yomon faqat.

Afrosiyobning qizi **Farangiz** va kanizaklar qo'shiq aytgancha kirib kelishadi.

Qizlar
Kabutarim qanot ochar,
Yuksak bulutlarga uchar,
Chappar urib ko'kni quchar,
Oddiy qushmas kabutarim,
Yerga tushmas kabutarim.
Gohida tark etar meni,
Bir g'amzaga sotar meni,
Nogoh anglab yetar meni,
Boshlar navo kabutarim,
Dilga davo kabutarim.

Birinchi kanizak
Farangiz! Siyovush kelmoqda emish.

Ikkinchi kanizak
Ha, men ham eshitdim, balki bu mish-mish?

Farangiz
Derlarki, yengilmas qahramon emish,
Nomi tildan-tilga bir doston emish.

Birinchi kanizak
Sudoba sevarmish bo'lib devona.

Farangiz
Oshiq bo'libdi-da o'g'liga ona.

Birinchi kanizak
(atrofga boqib)
Voy, anovi nima? Kiyik bolasi!

Ikkinchi kanizak
(uni nishonga olib)
Uni boshlab kelgan ajalning isi.

Farangiz
(yoyiga o'q solarkan)
Shoshmang, men tiriklay tutaman uni.
(Ketadi.)
Hurkib adashtirdi borar yo'lini.

Shoshilgancha chiqib ketadilar.

Siyovush

(Bahrom bilan chiqib kelib)

Bir-biridan go'zal bari-baridir!..

Bahrom

Shubha yo'q,
saroyning parilaridir...

Siyovush

Bu she'rlar xayolim o'g'irlab oldi,
Onam Xubchehrani yodimga soldi.
Shunda ovchilarning tushgan chohiga,
Armug'on qilganlar Eron shohiga.

To'sun

(o'q-yoy tutgan bir yigit, qo'lida o'ldirilgan tovushqon bilan kirib keladi)

Assalom!

Siyovush

Xush ko'rdik, sening oting ne?

To'sun

To'sun...

Siyovush

Afrosiyob poyi taxtina
Yo'l hali uzoqmi?

To'sun

Yo'q, juda yaqin.

(atrofga boqib, qiziqish bilan)

Qurshab olibdilar o'ljani, ana.

(ilgari yuradi.)

Siyovush

Shoshma, men baxtimni bir sinay yana.

(yoyiga o'q solgancha qoya ortiga chekinib ko'zdan g'oyib bo'ladi.)

To'sun

(Bahromga qichqirib)

Ofarin, ofarin!

Bahrom

Nima gap ?

To'sun

Ya'ni —

Do'sting bir o'q bilan urdi o'ljani.

Bahrom

(ilgari yurib)

Shu ham mahoratmi?

To'sun

Yo'qsa ne?

Bahrom

Aslo!

Siyovush

(ovozi eshitiladi)

Oh!..

Bahrom

(so'raydi)

U kim?

To'sun

Do'stingga bir o'q tegdi nogoh.

Bahrom

(kelayotgan Siyovushning qo'liga boqib)

Jarohat oldingmi, ne bo'ldi, e-voh!..

Siyovush

Yaraladi ovchi qizlarning biri.

Bahrom

Qay biri?

Siyovush

(kanizaklar bilan kirib kelgan Farangizni ko'rsatib)

Olddagi anov sho'x pari!

Farangiz

(yaqin kelib, qo'lidagi o'ldirilgan kiyikni Siyovushga uzatadi)

Ol, bu senga!.. Garchi qiymaydi ko'zim.

Siyovush

Bundoq bir in'omdan quvnaydi ko'zim.

Farangiz

(shoshganicha kanizlariga)

Tezda latta bering!

Siyovush

Shartmas, bu faqat...

To'sun

(latta uzatib)

Mana!

Farangiz

Qo'lingni ber...

Siyovush

Shart emas.

Farangiz

Yo'q, shart!

(malham qo'yib, jarohatni bog'laydi)

To'sun

(unga yordamlashar ekan, ma'noli ohangda)

Ham yaralab, ham davolar bizning qizlar.

Siyovush

Bu qizda ham jur'at, ham marhamat bor.

Farangiz

(xumor boqib)

Tirik tutmoqchiydim o'ljani, biroq
Qo'ymading...

Siyovush

Gunohim kuchimdan ko'proq.

Bahrom

(Farangizga biroz keskin)

Qiz bo'lmasang, jazzang olarding, ishon.

Siyovush

Bahrom! Ojizliging so'zingdan ayon.

Farangiz

(tabassum qilib)

Ojizlar hamisha kuchdan bahs etar.

Siyovush

(Bahromga)

Bu zo‘r javob bo‘ldi! Senga shu yetar.

To‘sun

Chiqmish Afrosiyob ham bugun ovga,
Hech kimsa qolmagan derlar saroyda.

Farangiz

Ovda bo‘lmas bundoq dabdaba ulkan,
Ular Siyovushni kutgani chiqqan.

Birinchi kanizak

To‘ppa-to‘g‘ri...

Ikkinchi kanizak

Kelmoqda, ana Piron ham.

Farangiz

Ketdik, sayr etaylik birpas biz bu dam.

(Chiqib ketmoqchi bo‘lishadi.)

Piron

(kirib kelib)

Siyovush? Senmisan?
Xush kelding, o‘g‘lim!

(Quchoqlab o‘padi, Bahromga qo‘l uzatadi)

Farangiz

(hayrat bilan)

Siyovush?!

Piron

(bog‘langan lattaga qarab)

Bu nima?

Siyovush

Tirnaldi qo‘lim.

To‘sun

Ham yaralar bizning qizlar, ham davolar.

Bahrom

Hechqisi yo‘q, bitib ketar...

Piron

(kelganlarni Siyovushga ko‘rsatib)

Juda soz!
Qara, butun saroy kelmoqda peshvoz.

Siyovush

Tashakkur!.. Lutfingiz bisyordir bizga,
Lekin biz loyiqmi bundoq e'zozga?

Piron

Har dildan joy olgan sening hurmating,
Oltoy tog'larida jaranglar oting.

(Afrosiyob a'yon-ashroflari bilan kirib keladi.)

Piron

(Siyovushga)

Tog'ang Afrosiyob, ul shonli xoqon!

(Afrosiyobga)

O'g'limiz Siyovush, mashhur qahramon!

Afrosiyob

(Siyovushni quchoqlab o'padi)

Xush kelding, bu yurtga keltirding safo,
Qahramon Siyovush!

Hamma

Kelgin, marhabo!

Afrosiyob

(atrofdagilarga)

Bu mening singlimning lochin o'g'loni!
Porlar ko'zlarida zafar tug'yoni.

Siyovush

Bola otasidan qocharkan, balli,
Ona og'ushidan topar tasalli.

Afrosiyob

Shundoq, Eron sening ota o'chog'ing,
Bu yurtdan topursan ona quchog'in.
Ha, ota o'z o'g'lin aylar ekan xor,
Onaning og'ushi unga intizor.

Karshivaz

Bu o'lkaning qo'rquv bilmas ellari,
Asov tulporlari, toshqin sellari,
Burgut o'g'lonlari seni kutmoqda,
Shonlarga burkangan kunlar yetmoqda.

Parda

2-ko‘rinish

Afrosiyob saroyidagi turkona bezatilgan bir xona.

Afrosiyob
Ofarin Siyovushga, kecha sinadim uni,
Bilarkan har qanday harb usulini.
Piron
Singling og‘ushida u topgan kamol,
Tarbiya bermishdir so‘ng Rustami Zol.
Afrosiyob
Iloji boricha uning ko‘nglin top,
Xotiridan chiqsin chekkani azob.

Piron
Siyovush bilan qizing qovushsa agar, ya’ni
Qovushar ikki o‘lka...
Karshivaz
(Oxirgi so‘zlarni eshitib, istehzoli ohangda)
Safsata bu — bema’ni!..
Afrosiyob
Farangiz-la Siyovush ko‘rishdimi?
Piron
(qo‘li bilan rad etadi)
Yo‘q , aslo!
Afrosiyob
U holda ularning fikrini o‘rgan raso!
Karshivaz
(achchiq va istehzoli tabassum bilan)
Hali erta, sabr eting, bola deb bilmang uni,
Besabab tark etmagan balki ota yurtini.
Afrosiyob
Bu behuda shubhadir!.. Shubha senga xos odat,
Piron
Siyovushdan yiroqdir har hiyla, har siyosat.

Afrosiyob bilan Piron chiqib ketishadi.

Karshivaz
Mana, mendan ilgari kim bo'lmoqchi valiahd!
Yo'q, bunga yo'l qo'ymayman,
omon qolmas ul badbaxt.

(chiqib ketadi)

Farangiz kanizaklar bilan kirib keladi.

Birinchi kanizak
Farangiz, Farangiz! Senga ne bo'ldi?
Gul kabi chiroying ne uchun so'ldi?
Ikkinchi kanizak
G'amgin ko'zlaringda og'ir bir dard bor,
Siyovush bo'ldimi bunga sababkor?
Farangiz
U porloq yulduzday oqdi ko'nglimga,
Olovli bir chechak taqdi ko'nglimga.
Qo'llarimdan ketdi sabrim, imkonim,
Otashlar ichida yonmoqda jonim.
O'rtangan qalbimga siz bering imdod,
Dardimni siz unga anglating, hayhot!..
Yo'q-yo'q, unga bundan so'z ochmang zinhor,
Ehtimol, ko'nglida boshqa yori bor?!..
Birinchi kanizak
Yo'q-yo'q, sensan uning tole yulduzi!
Ikkinchi kanizak

(eshikka qarab dugonasiga)

Ketaylik, kelmoqda ana u o'zi!
Birinchi kanizak

(Farangizga)

Bilgilki, sen uchun bu qulay fursat.
Farangiz
Axir men ne deyman?
Ikkinchi kanizak
Bardam bo'l faqat!..

(Parda ortiga yashirinadilar.)

Farangiz

(qo'lini peshanasiga qo'ygancha, shoshib)

Uf... yodimdan chiqdi aytar so'zim ham.

Siyovush

(kirib keladi, hayajon ila)

Bu sen o'zingmisan?..

Ey nuri diydam.

Farangiz

Qo'ling qay ahvolda?

Siyovush

Og'riydi hamon.

Farangiz

(qo'lini ko'rib, shubhali tabassum bilan)

Qani? Sog'ayibsan but-butkul, ishon...

Siyovush

Jarohat ko'nglimda, tashlanmas ko'zga,
Og'riydi sen bilan tushgach yuz-yuzga.
Seni men bir karra ovloqda ko'rdim,
So'ngra nigohimdan yiroqda ko'rdim.
Barcha qizlar qo'ymas holi jonimga,
Sen nechun kelmaysan mening yonimga?

Farangiz

(xumor boqishlar bilan)

Qochmoqda yaqinlik ishorasi bor.

Siyovush

Shu gaping rost bo'lsa, menga tole yor.

Farangiz

Rostdanmi?

Siyovush

Rost! Faqat bitta shubham bor.
Ko'nglingda xoqonga bor qanday qaror?

Farangiz

Men bir musofirman bu oshiyonda,
Ketmoqni istayman yaqin zamonda.

Siyovush

Qayoqqa?

Farangiz
O‘zim ham bilmayman hali.
Siyovush
Qiziq! Turna uchib kelgan mahali
Kaptar uchib ketsa boshqa bir tomon,
Bo‘shab qolmasmikan ushbu oshiyon?
Farangiz
(jilmayib, ma’noli)
Shubhali tuyulur menga bu makon.
Siyovush
So‘zlarning boshqadir,
ko‘zlaring boshqa...
(qo‘llaridan tutmoqchi bo‘ladi)
Farangiz
(parda ortiga chekinib)
Kimdir kelayotir, sen faqat shoshma.
Siyovush
(uni alanglab izlaydi, hayajon ichra)
Men har bir dilbarga bermadim ko‘ngil,
Ko‘plarin jabridan ozor chekdi dil.
Bilmadimki, meni band etar bir kun
Ul shohi jahonim, ul ko‘zi qotil.
Xiromon etarkan ul dildor, nega
Poyiga men to‘zon bo‘lmayin butkul?

Afrosiyob, Piron, Karshinaz va To‘sunlar kirib kelishadi.

Bir go‘zal kabutar oldi ko‘nglimni,
Men kabi burgutni asir etdi ul.
Afrosiyob
Sen nega g‘amginsan, ne bo‘ldi, o‘g‘lim?
Siyovush
Saroy hayotidan charchadim, toldim.
Piron
Tog‘ang xursand ko‘rmoq istaydi seni,
Bunda uylantirmoq istaydi seni.

Siyovush
Xoqon har narsaga hokim erur, bas,
Lekin Siyovushning qalbiga emas...
Karshivaz
Balki Eronda bor boshqa bir yoring?
Siyovush
Yo'q-yo'q.
Afrosiyob
(To'sunga)
Farangizni chaqiring. Boring.
Bir-birin yoqtirsa, erta bo'lar to'y.
Piron
Farangiz go'zallar go'zali, voy-vo'y!
Siyovush
Hech kimga men ko'ngil bermadim hanuz.
Ovloqda duch keldi bitta ovchi qiz.
Bitta boqish bilan ko'nglimni oldi,
U bergan yodgorlik qo'limda qoldi.
Afrosiyob
Barcha qizlar kelsin!
Piron
(ishora qiladi)
Chaqiringlar tez.
Karshivaz
(bir chekkaga)
Oh, nahot o'sha qiz bo'lsa Farangiz!?
Bundan ham dahshati bo'lmas, shubhasiz.

Qizlar kirib kelishadi.

Afrosiyob
(Siyovushga)
Qaysi qiz?
Siyovush
Mana bu!..
(Farangizni ko'rsatadi.)

Afrosiyob

(mamnun)

Qizim, Farangiz!

Siyovush

Musofir deb bildim uni saroyda.

Afrosiyob

Yo‘q, sen yanglishibsan!..

Piron

Bahsdan ne foyda,
Hayotda hammamiz musofir, sayyor.

Afrosiyob

(Farangizga)

Sen ham ko‘nglingni och!

Farangiz

Sizda ixtiyor.

Afrosiyob

Juda go‘zal javob bo‘ldi, ofarin!
(Qizini og‘ushiga oladi. So‘ngra vazirga.)
Piron! Barokatli sening qo‘llaring,
Almashtir ularning uzuklarini,
Nishon et yigitga o‘z dilbarini.

Piron

(Siyovushning uzugini Farangizning barmog‘iga, Farangiznikini Siyovushning barmog‘iga taqar ekan.)

Mana, dillardagi otash sovushdi,
Ikki yulduz bir-biriga qovushdi.

Karshivaz

(To‘sunga, g‘azabli)

Yo‘q-yo‘q, bu mumkinmas, aslo, hech qachon,
Qulab tushsin bundoq badbaxt bir makon!..

To‘sun

Xo‘sh, sening fikring ne?

Karshivaz

Ko‘ramiz hali.

Piron

Olqishlarga loyiq ish bo‘ldi, balli!

Afrosiyob
Yigitga keltiring sarpo ila toj.
Siyovush
Yo'q-yo'q, sarpoga yo'q menda ehtiyoj.
Eronda ham tojli, sarpoli edim,
Hammasin biryo'la tark etib keldim.
Afrosiyob
Nahot ularning hech qimmati yo'qdir?
Siyovush
Ular meni oltin kishanday siqdi.
Afrosiyob
Mayli, bir martaba beraylik senga!
Siyovush
Hech qanday martaba kerakmas menga.
Piron
Ko'proq jangovarlik yarashar unga.
Afrosiyob
Seni jo'nataman sarhadi Chinga.
Butun bir viloyat isyon ichida,
Ingranib yotibdi ol qon ichida.
Siyovush
Nega qon ichida to'lg'anmoqda ul?!
Afrosiyob
Bizning qonunlarni mensishmas butkul.
Siyovush
(mag'rur)
Uni tinchitaman biron oylarda.
Karshivaz
(bir chekkaga)
Jasading qoladi o'sha joylarda.
Piron
(qo'lini Siyovushning yelkasiga qo'yib)
Siyovush isyonni bosar, shubhasiz.
Afrosiyob
(qiziga boqib)
E'tiroz etmasmi bunga Farangiz?

Farangiz
Ikki dil birlashsa, bu zo'r saodat.
Afrosiyob
Boring, ikkingizga tilaylik omad.

Ketadilar.

Birinchi vazir
Sen ne deysan?
Ikkinchi vazir
Buni ko'rsatur zamon.
Karshivaz
Hayhot! Olqishlarga loyiq bir nishon.
Yo'q-yo'q, bu mumkinmas, aslo, hech qachon.
Qulab tushsin bundoq badbaxt bir makon!..

Parda

TO'RTINCHI PARDA

1-sahna

Chin hududidagi turkiycha va xitoycha zavq bilan bezatilgan hokim mehmonxonasi...

Hokim
(qalin mo'ylovlarini silaydi. Soqolini tutamlagancha o'yga toladi. Ichkariga kirib kelgan bo'ri nigohli mushovirga)
Nima gap?
Mushovir
Sog' bo'ling, taqsirim, butun
O'lkada bayram-u tantana bugun.
Hokim
Ofarin, ko'rmadim hozirga dovur
Sen kabi aqlli, ziyrak mushovir.
Mushovir
Yo'q-yo'q, bizdan xursand emas jamoat,
Barcha Siyovushga etar itoat.

Hatto qochoq Oltoy — vaqt topib, g'addor,
Xoin, osiylarga bo'lmishdir sardor.
Butun qochoqlarni qo'zg'ab isyonga,
Bizning ma'murlarni tiqmish zindonga.

Hokim

Kim unga beribdi bundoq imtiyoz!

Mushovir

Xoqonning o'g'liga suyanar, xolos.
Siyovush bermoqda Oltoyga rag'bat,
Yo'qsa u topmasdi bu qadar jur'at.
Isyonni bosgali kelgan bu garang
Bilmam, nega bizga qarshi qilur jang!

Hokim

Kelsin, shirin so'zlab o'sha g'addorga,
So'ng bir sabab topib osamiz dorga!..

Mushovir

Yo'q, osmoq to'g'rimas, gap chiqar unda,
Yashirin o'ldirmoq kerak bir tunda.

Shu orada qurolli zobit ma'murlar ust-boshi yirtiq isyonchi qishloqliklarni olib kirishadi. Oralarida ikki ayol ham bor. Faqat hammadin oldinda kelib, g'azabli boqishlar bilan bir chetda turgan yosh yigit **Yolchin** orasta kiyinib olgan.

Ma'mur

Qani, yuring!

(Yolchinning yoqasidan tutib sudraydi.)

Sen ham!..

Yolchin

(g'azab bilan)

Qo'llaringni tort!..

Zobit ma'mur

Shakkoklar!

Isyonchilar

Shakkoklar biz emas.

Ma'mur

Yo'qsa kim?

Isyonchilar

(ma'murlarni ko'rsatib)

Anov maxluqot!

Hokim

(ayollarga ishora qilib)

Bular ham isyonchimi?

Yolchin

Ha, shundoq shaksiz,
O'lat qarshisida birmiz hammamiz.

Hokim

O'lat de?

Yolchin

Sizlardan yaxshiroq o'lat,
Zulmingiz vabodan battarroq dahshat.

Hokim

Bu kim?

Ma'mur

Yolchin.
Kecha uylangan kuyov.

Ne uchun kishansiz shundoq g'addor yov?!

Yolchin

Mendan ko'ra senga yarashur kishan!

Hokim

Bas! Buni zindonga oting benishon!

Yolchin

Yirtqichsan!

Hokim

Ovozin o'chiring!

Ma'mur

Taqsir...

Hokim

Barchasini dorga osinglar bir-bir.

Yolchin

Ablah!

(hokimga)

Sen ham ajal toparsan tezdan.

Zobit ma'mur

(qamchi bilan savalab)

Yuring!

(Ularni olib chiqadi)

Hokim

Avval anovini yo'qoting ko'zdan!

(Mushovirga)

Nima gap? Ko'zingga bir qayg'u to'ldi,
Yolchinning xotini, ayt-chi, ne bo'ldi?

Mushovir

(chekkani ko'rsatib)

Ana... Boqishlari g'azabli, keskin!

Hokim

(ayolga yaqinlashadi)

Nega ko'zlaringda bundoq g'azab, kin?
O'ylab ko'r, sen menga bo'lmasang taslim,
Ering yotaverar tor zindonda jim.

Kelinchak

Mening chimmatimni sen emas, bilgil,
Faqat Yolchin ochar.

Hoqim

(qo'lidan tutib)

Qani, beri kel!

Kelinchak

(ortga chekinib, nafrat bilan)

Qoch!

Mushovir

Erga tegarkan har bir qiz tokim,
Bikrin olmog'i shart eng avval hokim.
Sharafdir bu senga, qilaverma noz,
Hokimning ra'yiga etma e'tiroz.

Hokim

Bu bir qonun! Kimki tovlasa bo'yin,
Boshiga tushgaydir og'ir bir o'yin.
Meniki bo'lursan bir kecha, jonon,
Yo'q desang, oxiri bo'lgay ko'p yomon.

Kelinchak
Mening ko‘nglim har kulbaga
Nash’a bergan gulob emas.
Mening ishqim har ko‘lkaga
Yog‘du sochgan oftob emas.
O‘ksik baxtim bo‘ldi xazon,
Undan sovuq bir oh qoldi.
Boshim uzra zolim to‘fon,
Yosh umrimni hasrat oldi.
(Yig‘laydi.)

Hokim
Ista yig‘la, ista kul,
Menga bo‘lmasang moyil,
Omonlik topa olmas
Na sen, na qaylig‘ing, bas!

Kelinchak
(keskin)
Yo‘q, bundan umiding uz,
Kir latta emas nomus!

Hokim
(baqiradi)
Bas, menda yo‘qdir fursat!
(Mushovirga)
Bu pardani och, ko‘rsat!
Biroz aqlga kirsin.

Mushovir pardani ochadi. Olislarda dengiz va yelkanli kema, bir tomonda tog‘lar, eng yuqoriga esa dor og‘ochida yuzi ters qilib osilgan libosli bir jasad namoyon bo‘ladi.

Kelinchak
(uni o‘z qaylig‘i deb o‘ylab)
Oh, u Yolchinmi!? Yolchin!..
E-voh... Naqadar dahshat!?
Sensiz hayotga nafrat!..
(qichqirganicha holsiz yiqiladi)

Ma'mur
Yo'q-yo'q. U Yolchin emas,
Sen aytgan lochin emas.
U lochining qafasda,
Oh urar har nafasda.
Hokim
Sho'rlik!..
Ko'p o'rlik etdi,
Bir onda so'ndi-ketdi.

Jasadning ustiga o'rtik yopadilar. Tashqaridan qo'rqinchli baland ovozlar eshitiladi.

Ovozlar
Qani o'sha yaramas,
Haddan oshdi, yetar, bas!
Pichoq suyakka yetdi,
Ha, uning umri bitdi.
Hokim
Kim ular?
Mushovir
Past izdihom!
Sendan istar intiqom.
Hokim
Kimlar nizomni buzdi,
Ularni kim kirgizdi?!

Turkiy va chinlik qiyofasida bir to'da xalq shovqin-suron bilan ichkari kirib keladi. Odmi kiyingan **Siyovush** bilan **Bahrom** ham bir chekkaga borib turishadi.

Qoramag'iz **Oltoy** esa oldinga chiqadi.

Oltoy
Mana, xoin shu yerda!
Isyonchilar
U dushmandir bu yurtga.
Oltoy
Darhol jazolash lozim.

Isyonchilar
O‘lim! Xoinga o‘lim!
Hokim
Battol! Haddingdan oshma!
Mushovir
O‘sha bu tentak... O‘sha!
Hokim
Kim bu ota bezori?
Mushovir
Isyonchilar sardori.
Oltoy
Endi yetar, isyon fursati keldi.
Isyonchilar
Isyon fursati keldi.
Oltoy
Huquqimiz, nomusimiz toptaldi.
Isyonchilar
Nomusimiz toptaldi.
Hokim
Menga dastur qonun ila adolat!
Isyonchilar
Yolg‘on!.. Bu gap g‘irt tuhmat!
Oltoy
(qo‘li bilan ko‘rsatib)
Sening adolating mana bu dorlar,
Halok bo‘ldi xor-u zorlar.
Qurog‘oqchilik bosib keldi beomon,
Dastingdan xalq qusdi qon.
O‘lka vayron bo‘ldi, chiroqlar so‘ndi,
Uylar mozorga do‘ndi.
O‘lpon deya har kun bizni so‘ydingiz,
Yomon kunga qo‘ydingiz.
Hokim
Aqchasiz hukumatni inqiroz kutar.
Isyonchilar
Bitsin, yo‘q bo‘lsin, yetar!

Chinlik bir kimsa
Yetar, oshin olding xalqning og‘zidan,
Hukumat chang solgan uning bo‘g‘zidan.
Yolchin
Mana men!..
Hokim
Seni kim qutqardi?
Yolchin
(isyonchilarni ko‘rsatib)
Boqqin!
Seningcha hazilmi mana bu oqin?
Hokim
Bas, bu hukumatga qarshi isyondir!
Yolchin
Sening yovuzliging bizga ayondir.
Oltoy
(oldinga chiqib, qizg‘inlik bilan)
Yetar, quturdingiz hukumat deya!
Uylarni yiqdingiz adolat deya!
Mazlumlar qonidan boda sundingiz,
Qarg‘a-quzg‘un kabi loshga qo‘ndingiz.
Qonun deb qonunni buzdingiz butkul,
Bu xalqning nomusi siz uchun bir pul.
Olgan nafaslari zaharli oh-voh,
Ochlikdan go‘daklar o‘t yeb yashar, oh.
Aytgil, sen kerilgan adolat shumi?
Hukumat deganing razolat shumi?
Hokim
Hech kim meni bundoq etmagan tahqir,
Sen kimsan, haddingdan oshma, hoy faqir!
Oltoy
Men — chaqmoq, zulmatlar bag‘rini yorgan,
Tug‘ildim mazlum xalq armonlaridan.
Hokim
(boshini tebratib, istehzoli kulgancha)
Ha, bildim, Oltoysan, ma’lum shuhrating,

Shubhasiz buyukdir kuching, qudrating.

(jamoatni ko'rsatib)

Afsus, sen ishongan ushbu gumrohlar —
Barchasi isyonchi, xoin sullohlar.

Siyovush

Hokimga yarashur barcha bu sifat.

Hokim

Men kimlarga qarshi isyon qildim, ayt?

Siyovush

Hammasiga qarshi: haq, adolatga,
Nomusga, vijdonga, insoniyatga.

Hokim

Demak, bu isyonda sening qo'ling bor.
Niyating — bo'lmoqdir eng buyuk sardor.
Turk va mo'g'ul tugul, mardumi Xitoy
Sening saflaringdan olmishdirlar joy.
Kecha asir edi xitoylar bizga,
Bugun chiqayotir u qarshimizga.

Oltoy

Barchasi mazlum xalq — turkmi yo chinlik.

Siyovush

(istehzoli tabassum bilan)

Tulki nigohlaring naqadar kinlik!

Hokim

(asabiy)

Qahramonlik seni etmasin mag'rur,
Og'ir bo'lur jazong...

Siyovush

Bas, g'addor, jim tur!

(isyonchilarga)

Ovozin o'chiring, bog'lansin qo'li!

Isyonchilar Yolchin bilan do'stining qo'llaridagi qo'shib bog'langan kishanni yechib, Hokim bilan Mushovirning qo'llariga bog'laydilar.

Chinlik

Shu — haq deb baqirgan haqsizning holi!

Yolchin

(hokimga dor og'ochini ko'rsatib)

Juda ham past ketding behud-bekorga,
Biroz yuksalasan ossalar dorga.

Siyovush

Yo'q-yo'q, to'xta! Uni ossalar agar,
Zaharlanar loshga qo'ngan qarg'alar.
Unga lozim erur bir temir qafas,
Ibrat olsin uni ko'rganda har kas.

Chinlik

Oltoy! Sen bu yurtga qayta jon berding,
Zulmning qop-qora dastin sindirding.

Yolchin

Senga olqish bo'lsin, senga sharaf-shon!
Hamiyating uchun olqish, ey o'g'lon!

Oltoy

Kishanlar ostida chekdinigz alam.

(hokimni ko'rsatib)

Zavqimizni ko'rsin manov sho'rlik ham.
Bu shahr-u qishloqlar, bu tog'-u adir —
Xiyonatga botmas bugundan taqir.
Boyqushlarning qo'rqinch ovozi tindi,
Zolimlar toptamas sizlarni endi.
Zulmga bosh egmang, ha, mag'rur bo'ling!
Hurriyat yo'lida siz jasur bo'ling!
Saodat parisi kulmas qullarga,
U faqat qo'ngaydir temir qo'llarga.

Parda

2-sahna

Avvalgi sahna... Kechqurun... Qarshidagi pardalar ko'tarib qo'yilgan, dor og'ochi ustiga yirik fonus osilgan, tashqarida chiroyli liboslardagi turk, mo'g'ul, chin qizlari va yigitlari jo'sh urib raqsga tushmoqda. Farangiz kanizaklari bilan yirik, ochiq derazadan ularni tomosha qilib turibdi.

Siyovush

(kirib kelib)

Ko‘zing oydin!

Farangiz

Xo‘sh-xo‘sh?

Siyovush

Amakivachchangiz!

Farangiz

Karshivazmi?

(eshik sari yuradi, ichkariga kirgan Karshivazga.)

Xush kelibsiz!

Karshivaz

(uni quchib, peshonasidan o‘padi)

Farangiz!

Farangiz

Otam nega bizni so‘rab kelmadi?

Karshivaz

Bugun bayram ekanini bilmadi.
Mayli, u kelmasa, sizlar boringiz.

(Atrofni tomosha qilib)

Qanday go‘zal manzara, qanday zo‘r dengiz!

Siyovush

Dengizsiz bu o‘lka misoli qafas,
Havosiz zindondir, bo‘g‘ilur nafas.

Karshivaz

Ajoyib o‘g‘lonlar, go‘zal parilar,
Jo‘shib raqs etarlar, o‘ynashib-kular.

Siyovush

Ha, bugun tantana, kun-tuni bayram.

Farangiz

Xalq uchun ozodlik kuni bu bayram.

Bahrom

Bir yil avval bunda avj edi isyon,
Siyovush bu yurtga berdi yangi jon.

Karshivaz
Tuydim shuhratini butun ellarda,
Zafar dostonlari kezar tillarda
Mumkin bo'lsa, darig' tutmasdan so'zing,
Bo'lib o'tganlarni so'ylasang o'zing.
Siyovush
Men bu yurtga endi kelganim zamon
Ko'rdim — hamma joyda ochlik va isyon.
Xoin ma'murlarga berildi jazo,
Mustabidlik bitdi, yashnadi samo.
Buni ko'rib qo'shni xitoyliklar ham
Bo'ldilar biz bilan ahil va birdam.
Karshivaz
Ofarin, azizim, bu zo'r mahorat!
Bor bo'l! Shuning o'zi go'zal siyosat!

(qo'lini siqadi, shubha bilan.)

Ishonib bo'lmaydi chinlarga zinhor,
Ular siyosatda o'lgudek ayyor.
Siyovush
Yo'q!
Chinda ularni ko'p ezgan xoqon,
Kambag'al dehqonlar...
Karshivaz
Bu hiyla, ishon!
Ular begonadir bizga, unutma!
Har qochoqni turkka barobar tutma!
Siyovush
(keskin)
Yolg'on!..
Karshivaz
Hazir bo'lgin ichgan oshingga,
Bir kun shular yetar sening boshingga.

Qizlar taom va sharob keltirishadi. Shu payt tashqaridan shovqin-suron eshitiladi.

Yolchin
Bu vijdonsizga alhol,
Jazo berilsin darhol!
Oltoy
Xoin qayga qochsa ham —
Qutulmas u muttaham.

Oltoy va Yolchin xaloyiq bilan birgalikda bandi etilgan Hokim va Mushovirni olib kirishadi.

Siyovush
Ne gap?
Oltoy
Bu g'addorlar topib bir chora
Qochmoqchi bo'lishdi...
Yolchin
(Hokimga boshdan-oyoq nazar solib.)
Sho'rlik, bechora!
Siyovush
To'xtang!
Oltoy
Bularni tez osmoqlik kerak!
Jamoat
Osilsin, osilsin!
Oltoy
(Hokimga)
Quturgan ko'ppak!
Hokim
(Siyovushning oyoqlariga yiqiladi)
Shuncha jazo kammi?
Siyovush
Bu ham kam senga!
Karshivaz
Siyovush! Ularni beraqol menga.
Siyovush
Zolim kechirilsa quturar ming bor,
Mazlumlarga qazir yangidan mozor.

Karshivaz

(Siyovushga)

Uning jazosini qo'yib ber bizga!

Farangiz

Ko'na qol qardoshim aytgan bu so'zga!

Siyovush

Tushun, yaralangan zaharli ilon
Agar omon qolsa...

Yolchin

Bunga yo'q imkon.

Oltoy

(Yolchinga)

Bog'lang qo'llarini, haqni bilsinlar!

Karshivaz

Xoqon huzuriga jo'natilsinlar.
Qonunni mensimay qo'yganlar aslo,
Olgaylar albatta omonsiz jazo.

Oltoy

Yo'q, yolg'on! Ishonmang!

Farangiz

(Siyovushga)

Oltoyni jim qil!

Siyovush

Bas!

Yolchin

Xoqon bulardan battarroq qotil.

Oltoy

Siyovush — shoh nasli, xoqonlar nasli,
Har kimga har tilda so'ylar u asli.

Chiqib ketadilar.

Karshivaz

(Siyovushning qo'lini siqib)

Xalq ichra obro'yim to'kmading meni,
Ishon, sog' qo'ymayman undoq xoinni.

Kanizaklar qadahlarni to'ldirishadi.

Farangiz

(o'zi to'ldirgan kattakon qadahni Karshivazga uzatib)

Horg'insiz, bu sharob sizga kuch bersin.

Siyovush

(kanizakka)

Chin elchisi qayda, chaqiring, kirsin.

Birinchi kanizak

(eshik tomon boqib)

Ana u!

Siyovush

Marhamat!

Bashang kiyingan Ko'sa Bahrom bilan birga kirib keladi, o'tirishadi.

Farangiz

(Karshivazni Ko'saga tanishtirib)

Bu qardoshimiz.

Ko'sa

(Karshivazga)

Sizni ko'rib ko'kka yetdi boshimiz.

Siyovush

(qadahlarni to'ldirib)

Bor bo'lsin Karshivaz!..

Bahrom

(icharkan)

Yasha, mingga kir!

Karshivaz

Tashakkur!..

(Raqqosa kiradi)

Bu qiz kim?

Farangiz

(tabassum qilib)

Chinlik paridir.

Ko'sa

U Chin saroyida tengsiz bir inju,
O'ynash-u kuylashda shu qiz birinchi!

Karshivaz

(Farangizga qarab)

Nash'amizga yana nash'a qo'shilsin.

Farangiz

(raqqosaga)

Yangroq ovozingdan dil nurga to'lsin.

(Karshivaz yana bir qadah ichadi.)

Raqqosa

(ham qo'shiq aytib, ham raqsga tushadi)

Tuqqandi onam meni motamli qora tunda,
Iblis bilan tangrining o'pishgani bir kunda.
Ko'zlarimda u kundan mastona jilvalar bor,
Yig'lasam yuzim kular, kulsam ruhim yig'lar zor.
Istaymanki, har ko'ngil mening ishqim-la to'lsin,
Hech kim menga yor emas, faqat asirim bo'lsin.

(Raqqosa chekinadi, Karshivaz chuqur oh uradi.)

Siyovush

Nima gap?

Karshivaz

Buni ul jalloddan so'ra!

(Qo'lini xontaxtaga urib o'rnidan turib ketadi)

O'lganim yaxshidir bu ishdan ko'ra.

Siyovush

Ne bo'ldi?

Karshivaz

Hech!..

Siyovush

Kimga qarshi buncha kin?

Farangiz

Hokim uchunmidir?

Karshivaz

So'ramang!

Siyovush

Nechun?

Karshivaz

Uning qarshisida bu hokimlar — hech!

Siyovush
Kimdir u?
Karshivaz
Qo'ygil, bu savoldan voz kech!
Bag'rimni yondirar zaharli bir o'q,
Unga bas kelguvchi hech qanday kuch yo'q.
Siyovush
Charchading, yot, orom kerakdir senga.
(Qo'shni xonaga olib chiqadi.)
Karshivaz
(Siyovushning bo'ynidan quchib)
Afsus, yetolmadim sening qadringga.
Farangiz
(Bahromga)
Unda bor shundayin kulgili odat,
Bitta qadah ichsa, qo'par qiyomat.
Bahrom
Yo'q-yo'q, bu g'azabda bordir biror sir.

Hammalari chiqib ketishadi. Ko'sa bilan raqqosa kirib keladi.

Ko'sa
(shoshilib qizga yaqinlashadi)
Ayni payti! Menga u zaharni ber.
Raqqosa
Tushirib qo'yibman...
Ko'sa
Yolg'onni bas qil!
Raqqosa
(cho'ntaklarini ko'rsatib)
Mana, yo'q!
Ko'sa
Menga ber, qilmagin hazil!

(Cho'ntaklarini axtaradi va bo'g'ziga chang soladi, shu orada Farangiz eshik ortida paydo bo'lib, ularning suhbatini eshitib turadi.)

Raqqosa

(buklog'liq bir qog'oz chiqaradi)

Mana! Sudobaning bu hiylasidan
Sen-da mahv o'lasan, ishonki, men-da.

Ko'sa

(qog'ozni ochib, kulgancha)

Bu bir zahardirkim, avval kuldirar,
O'ldirar, o'ldirar, keyin o'ldirar.
Bu bir qadahdirkim Siyovush uchun,
Vaqt kelib ko'rsatar o'zining kuchin!..

Raqqosa

(hayajonda)

Hali Sudoba de!

Ko'sa

(esankirab qolgan raqqosaning qo'lidan tutib, xonadan olib chiqmoqchi bo'ladi.)

Bas, o'zingni tut!

Raqqosa

(zahar solingan qadahni olib yerga uradi)

Sinsin, parchalansin bu qonli tobut...

Ko'sa

(g'azabda)

Sen ham Siyovushga bo'ldingmi oshiq?

Raqqosa

Sen kimsan? Kesaksan tuyg'usiz, beishq!

Ko'sa

(cho'ntagidan kichik bir xanjar chiqaradi)

Bu xanjar zaharli, bas, tilingni tiy!

Raqqosa

(uning qo'lidan xanjarni tortib oladi)

Sen vahshiy hayvonsan, vahshiysan, vahshiy!

Ko'sa

Xanjarni menga ber!..

Raqqosa

(chekkaga)

Ablah, yaramas!

Undoq qahramonga o‘lim yo‘qdir, bas!

Ko‘sa

Ber dedim...

(xanjarni olmoqchi bo‘ladi)

Raqqosa

Bermayman!

(xanjarni ortga uloqtiradi)

Ko‘sa

(qizning bo‘g‘ziga chang solib, bo‘g‘a boshlaydi)

Ber!

Raqqosa

(achchiq faryod solib)

Qo‘yib yubor!

Ko‘sa

Xanjarni ber, yo‘qsa...

Farangiz

(xanjarni yerdan olib Ko‘saning ko‘ksiga sanchadi)

Mana, ol, g‘addor!

Ko‘sa

(qulab tusharkan)

Oh, men... o‘lsam agar... sizga... omon yo‘q...

Farangiz

Bas!

Siyovush

(ichkaridagilar bilan chiqib keladi)

Nima bo‘ldi?

Farangiz

Bunda aslo vijdon yo‘q.
Chinlik elchiman deb aldatgan ekan.

Raqqosa

Sudoba sen uchun jo‘nagan ekan.

Siyovush

Shubhasiz, bor bunda allaqanday sir.

Raqqosa

(ko'rsatib)

Qadah ham, xanjar ham zaharlangandir.

Farangiz

Buzmoq isaganda u hayotingni,
Farangizdan oldi mukofotini.

Siyovush

(Raqqosaga razm solib)

Unga sherik erur shubhasiz bu qiz.

Raqqosa

Oxirga yetmadi sherikligimiz.
Seni o'ldirgani kelgandik, rosti,
Negadir so'ng men bu fikrimdan ozdim.

Siyovush

Sabab ne?

Raqqosa

Sababni so'rama zinhor,
Yarali qalbimga tuz sepma bekor!
Bolalikdan saroylarga sotildim,
Shamol kabi eldan-elga otildim.
O'ch izlarkan, bunda senga duch keldim,
Mazlumlarga yordam bermoqchi bo'ldim.

(jasadga boqarkan, g'azab bilan)

Seni o'ldirmoqchi edi bu yovuz,
Men to'sdim yo'lini!..

Bahrom

Ofarin, ey qiz!

Farangiz

Men kelmasam, bu qiz bo'lardi halok.

(Raqqosani quchoqlab o'padi)

Menga yoqib qolding, ey qiz, ruhi pok.

(kanizaklarga)

Boshlang, orom olsin, aylasin huzur,
Shu qiz bilan tushdi baxtimizga nur.

(Raqqosani qo'shni xonaga olib chiqishadi.)

Siyovush

(yonidagilarga)

Oling bu jasadni!..

(olib ketishadi.)

Dahshat naqadar!
Jahondagi barcha g‘azab, fitnalar,
Ehtiroslar yo‘qqa chiqsa ham, faqat
Sudoba topardi yangi bir kulfat!

Karshivaz

(chuqur oh tortib)

Toleying yo‘q ekan, rosti, ochunda,
Bilmam tug‘ilgansan sen qanday kunda.
Zulmat bilan nur urushgan zamonmi,
Savob-gunoh birga tushgan zamonmi?
O‘ylama,
Sudoba qora qismatdir,
Afrosiyob undan ming bor dahshatdir.

Siyovush

Men nima qilibman? G‘alatdir bu so‘z!?

Karshivaz

Go‘yo toj-taxtiga tikkanmishsan ko‘z.

Farangiz

Siyovushmi?

Karshivaz

Shundoq!

Siyovush

Bu bo‘hton, xato!

Karshivaz

Qonunlarga qarshi emishsan hatto!

Siyovush

Qaysi qonunlarga?

Karshivaz

Kim bilsin!?

Farangiz

Yolg‘on!..
Qilmadik qonunsiz ishni hech qachon.

Karshivaz

Yo‘q-yo‘q, bu shubhadan siqilmangiz siz,
Siyovushda yo‘qdir xiyonatdan iz.

(boshqa xonaga chiqadi)

Siyovush

Afrosiyobni tez ko‘rmog‘im darkor,
Yo‘qsa urchib ketar bu fitna takror.

Farangiz

Yo‘q, borma, ko‘ngliga tushsa yomonlik,
Bir senmas, hech kimga bermas omonlik.

Siyovush

Bu og‘ir fitnadir, sen to‘sma yo‘lim,
Kichkina bir dog‘ ham men uchun o‘lim.

(asabiy va jo‘shqinlik bilan)

Kimga ishonayin!? Mana, har diyor,
Har kimning men uchun intiqomi bor.
Eron xiyonat va hiyla o‘chog‘i,
Turon tuhmat ila dahshat quchog‘i!..
Chinga ketsam, ular battar omonsiz!
Saroy chayonlari yasharmi qonsiz?
Ketaman saroydan men endi minba’d,
Olmos-la porlagan toj-taxtga la’nat!

Parda

BESHINCHI PARDA

Tog‘ etagidagi bir qishloq... Ikki-uchta chodir qurilgan, ekin-tikin payti, havo bulutli, atrof tosh-qoyalardan iborat. Chodir oldida **Hokim**, **Mushovir** va **To‘sun** askariy qiyofada suhbatlashib o‘tirishibdi. Askarlardan qaysisidir soqchilikda turibdi, qaysisidir atrofda sayr qilib yuribdi.

Hokim

(g‘azabli odimlar bilan kezinib)

Oh, Siyovush, Siyovush!
Sen kim deb bilding meni!?
Bir kun parchalab tashlar temir bilaklar seni.

Mushovir
Karshivaz bo'lmaganda biz sho'rliklar netardik,
Borsa-kelmas diyorga ziyoratga ketardik.
Hokim
Bundoq vatan xoini omon ekan, erta-kech,
So'nmas Afrosiyobning o'tli g'azab-qahri hech.
Mushovir
Derlar, qo'rqib qochmish Chinga...
To'sun
Bu yolg'on.
Hokim
Yo'q, u qo'rqoq emas.
Mushovir
Xoin bir inson.
To'sun
(chekkaga)
Barcha bu uydirmalar Karshivazning hiylasi!
(ularga)
Xoin emas Siyovush...
Mushovir
Jim tur, shayton bolasi!
Hokim
(atrofdagi askarlarga)
Yo'llarga boqib turing, hushyor bo'ling har dovga,
Shu yerdan o'tadi u, darhol oling qurshovga!
Mushovir
Qochib qutula olmas uchganda ham osmonga.
(uch-to'rt askar bilan nari ketadi.)
To'sun
(chekkaga qarab)
Zap qiziq-da tulkilar hujum qilsa arslonga.
(shu payt ko'k gumburlab,
chaqmoq chaqadi.)
Hokim
Qilich chopar bulutlar, chaqmoq chaqar shiddatkor,
Osmon saltanatida zafarmi, mag'lublik bor!?

Ruboba

(Qiyofasini o'zgartirgan holda, savdogar qiyofasidagi xizmatkor bilan keladi. Achchiq faryod bilan.)

Omonlik!

To'sun

To'xta, ne gap?

Ruboba

Dahshat bosdi jahonni.

Shoshqin bir yo'lchi edik, yurishning yo'q imkoni.

Xizmatkor

Bu yo'llar qayga borar, biz adashdik, ayt, uka?

To'sun

U yo'l Chinga borar, bu — Afrosiyob yurtiga.

Karnay chalinadi. Karshivaz bir necha jangchi bilan yetib keladi.

Ruboba

Bular kimdir?

To'sun

Karshivaz!

(do'stlariga)

Hushyor turing... To'xta, hoy!

(Salomlashish ma'nosida qilichlarini to'qishtiradilar)

Xizmatkor

(ta'zim qilib, Rubobani Karshivazga taqdim etadi)

Taqsir, sizni bu ayol ko'rmoq istar, hoynahoy.

Karshivaz

Qayerdansiz, kimsizlar?

Ruboba

Kaykovusdan elchimiz.

Mana, maktubimiz bor.

Karshivaz

Shundoqmi? Xush kelibsiz.

(bir chekkaga chiqib maktubni o'qiydi)

"Ey ko'nglimning quvonchi, sher bilakli Siyovush!

Fursat yetdi, hazir bo'l, har tadorik ko'rilmish.

Sen bir yondan hujum qil, Chin xoqoni bir yondan,
Tus bilan Zol o'g'li ham yetib borar Erondan.
Ost-ust qiling Turonni, bori lashkarni qiring,
Afrosiyobni menga bandi qilib keltiring.
Imzo: Otang Kaykovus".

(iblislarcha qahqaha urib)

Bu gapga xo'p ishondim.

(To'sunga)

Izzat qiling bularni!

To'sun

(sovuqqina)

Buyursinlar, afandim!

(har ikkalasini chodirga olib ketadi, atrofda karnay ovozi)

Afrosiyob

(Piron bilan birga kelib)

Bu yerga kim buncha chodirlar solgan?

Piron

Yo'l uzoq, askarlar toliqib qolgan.

Afrosiyob

Balki fursat topib Siyovush qochar,
So'ngra boshimizga falokat ochar.

Karshivaz

Hamma yo'l to'silgan. Askarlar hushyor,
Unga qochish yo'li qolmagan zinhor.

Afrosiyob

Kimki qo'lga olsa o'sha badnomni,
Undan ayamayman tuhfa-in'omni.

Piron

Siyovush yo'lidan ozganmi nahot?

(Chin yo'liga boqib, hayrat bilan)

U kim, Siyovushmi? O'shami, hayhot?

Afrosiyob

Xuddi o'zi! Razil! Hushyor turingiz!

Karshivaz

Sog'-so'lida Bahrom bilan Farangiz!

Afrosiyob
Mayli, chodirda dam olsinlar raso,
Xoinlarni ko‘zlar eng oliy jazo.
Piron
Hech qachon to‘g‘riga zavol yo‘q, ayo.

Ketishadi.

Karshivaz
(ayyorona kulgilar bilan, chekkaga)
Tezda sarob bo‘lar u shirin ro‘yo.
Sevin!.. Lashkarboshi bo‘lar u, axir,
Sen esa bo‘lasan tezda bosh vazir.
Afrosiyob
Menimcha, gunohsiz u shonli askar.
Karshivaz
Seni aldamasin shirin so‘z magar.
Hali tog‘lardagi isyon so‘nmagan,
Oltoy ham azmidan ortga do‘nmagan.
Atrof qishloqlar ham unga qo‘shilur,
Kundan-kun lashkari qudratli bo‘lur.
Siyovushning qo‘li yetsa Oltoyga,
Dahshat soladilar bizning saroyga.
Bunda Kaykovus ham izlamoqda yo‘l,
Uzatmoq istaydi Siyovushga qo‘l.
Afrosiyob
Yo‘q-yo‘q,
Siyovushda hiyla yo‘q zinhor.
Karshivaz
(kinoyali)
Sening do‘mbirangda afsona bisyor!
Afrosiyob
Yetar! Jonga tegdi hammasi, yetar!
Karshivaz
Har holda, o‘t-o‘lan tuproqda bitar.
Afrosiyob
U xoin emasdir, emasdir nonko‘r.

Karshivaz

(maktubni uzatib)

Mana bu maktubni o'zing o'qib ko'r.

Afrosiyob

(o'qigan sari gangib qoladi)

"...Sher bilakli Siyovush...
Sen bir yondan hujum qil,
...Har tadorik ko'rilmish.
Chin xoqoni bir yondan
Tus bilan Zol o'g'li ham
Yetib borar Erondan.
Ost-ust qiling Turonni,
Bori lashkarni qiring.
Afrosiyobni menga
Bandi qilib keltiring!"
Ne dahshat?!

Karshivaz

Ne jasorat!

Afrosiyob

Bu eng katta xiyonat!

(To'sunga)

Chaqir, kelsin,
u xoin javob bersin.

To'sun

Itoat!

(Chodirga kirib ketadi)

Afrosiyob

(Karshivazga)

Gunohi fosh bo'lsa gar, bandi qiling o'sha on,
Biror bahona topib boshin uzing beomon.

(maktubni kaftlarida g'ijimlaydi)

Avvalida so'zingni nazarimga ilmadim,
Siyovushning men josus ekanini bilmadim.

(Siyovushni olib kelishadi.)

Farangiz

Oh, sevimli otajonim!

Afrosiyob

Nari tur!

(qahrli va keskin bir ohangda unga va Siyovushga)

Sen ham, u ham toj-taxtimga dushmandir.

Farangiz

Bizmi!?

Afrosiyob

Ha, siz haq yo'lidan ozgandirsiz, bas,
Qonunni buzsa kim, kechirib bo'lmas.
Beri kel!

Siyovush

Buyuring.

Afrosiyob

Maktub bor senga,
Otang chorlamish seni tag'in eski yurtiga.

Siyovush

Yo'q, buni istamayman, jannat bo'lsa ham Eron,
Siyovush u tuproqqa qadam bosmas hech qachon.
Hind o'rmonlaridagi qoplonlarga qo'shilsam,
Himolay boshidagi burgutlarga esh bo'lsam,
Nildagi timsohlarning qo'shilsam ham qo'riga,
Roziman... Ammo tushmam o'rgimchaklar to'riga.
Sudobalar bosh bo'lgan sho'rlik o'lkaga zinhor
Men qadam bosmagayman, ishoning, ey hukmdor!

Afrosiyob

Undoq bo'lsa men senga berayin bir zo'r lashkar,
Kayon shohga hujum qil, Eronni et zer-zabar!

Siyovush

Yo'q, u tuban ketsa ham, men tuban ketolmayman,
Jonimni olganda ham unga qasd etolmayman.

Afrosiyob

(istehzoli kulib)

Orangizda, shubhasiz, uzilmagan torlar bor,
Bu maktubni o'qib ko'r, nelar yozmish shahsuvor.

(Maktubni Siyovushga beradi, Siyovush uni ko'zdan kechiradi)

Karshivaz

(Afrosiyobga yaqin borib, kinoya bilan)

Bizning shonli qahramon siyosatda benazir,
Maktubning javobi ham o'z ichidan chiqadir.

Siyovush

(hayajonda)

Men uchun bir o'lim fatvosidir bu!
Sudobaning yangi fitnasidir bu!

Afrosiyob

Sudobami bu?

Siyovush

Yo'q-yo'q, Kaykovus.

Karshivaz

Barcha hiylalaring o'tmadi, afsus!

Siyovush

(asabiy)

Karshivaz!
Sen menga tekizmagil til,
Nahotki ko'zing ko'r, vijdoning g'ofil?

Afrosiyob

Mening qardoshimni tahqir etma, bas,
Karshivaz tuhmat-u bo'htonni bilmas.

Siyovush

Siz haqsiz, oyoqqa sanchildi tikan,
Soddalik aslida ahmoqlik ekan.

(Karshivazga)

Xiyonat boshimga solganda ko'lka,
Qurolsiz, qo'shinsiz chiqmasdim yo'lga.
Shirin so'zlaringga uchdim men, bilgil,
Mayli, sen qo'lingdan kelganin qilgil.

Afrosiyob

Bas, uning qo'lini bog'langiz puxta!
Ovozin o'chiring!

Farangiz

(otasi qarshisiga tiz cho'kadi)

Rahm eting!

Siyovush

(uni ushlamoqchi bo'lganlarga)

To'xtang!

Farangiz

Rahm eting, achining, xoin emas ul.

Siyovush

Yalinma, yolvorma!

Afrosiyob

(qizini qo'lidan tutib itarib yuboradi)

Yo'qol!

Siyovush

Oh qotil!
La'nat huzuringga kelganim onga,
Nafrat men ishongan qonho'r xoqonga!
Tark etdim Kayonning toj-u taxtini.

(Farangizni ko'rsatib)

Baxt bildim men uning muhabbatini.
Otamdek seni ham bilmadim ayon,
Boshingga in qurmish ilon-u chayon.
Bu bir gunohimmi, so'ylagil ro'y-rost,
O'lkalarni etsam ochlikdan xalos.

(Hokim bilan Mushovirni ko'rsatib)

Haqsiz zolimlarni cho'ktirdim g'amga,
Bilmadimki, bu ish yoqmas tog'amga.
Bilmadimki, qonga botgan taxtu toj
Haqmas, haqsizlikka berarkan rivoj.
Senga xush yoqarkan xalqning faryodi!

(hayajon bilan)

Otam ham, sen ham mazlumlarning jallodi!..

Afrosiyob

Daf qiling, ko'rmasin uni ko'zlarim.

Siyovush

Mana men!.. Tugadi aytar so'zlarim.

(Siyovushni askarlar olib ketishadi)

Farangiz

(otasiga)

Senda yo‘qmi vijdon, yo‘qmi marhamat?
Siyovush! Ketmagil, ketmagil faqat!

(Ketishadi.)

Bahrom

Bu — boshim, mana bu qilich, hoqonim!
Meni o‘ldir, senga haloldir qonim.

Afrosiyob

Xoinning jazosi o‘limdir faqat!

Piron

Shundoq yosh o‘g‘longa qilmasang shafqat,
G‘am qoplab oladi butun jahonni,
Mangu yig‘latadi ona Turonni.
Bir askar

(shoshib kiradi)

Dahshat!.. Holimizni qilib qo‘ydi tang!

Afrosiyob

Siyovushmi?

Yigit

O‘sha! Hamma bilan qilayotir jang.

Karshivaz

Ana, u bamisli quturgan qoplon,
Sog‘-u so‘lga qilich solar beomon.

Jo‘shqin musiqa... Chopishma va ur-sur ovozlari... Siyovush qilich yalang‘ochlab chiqib keladi. Oldinda qochib kelayotgan **Hokim** va **Mushovir**ga hujum qiladi, boshqa jangchilar uni qurshab olishadi, qilich va nayzalarning jarang-jurungi yangraydi. **Bahrom** ham qilich yalong‘ochlab **Siyovush**ga madad beradi.

Afrosiyob

Achinmang, ayamang, uring, bostiring!

Siyovush

Mana, ol!

(hokimni yaralaydi)

Karshivaz

(atrofdagilarga)

Hujumga!

Piron

To‘xtang! Bas qiling!

Karshivaz

Bu senga!

(orqadan qilich soladi)

Siyovush

(yiqiladi)

Sen nomard ekansan, osiy!

Afrosiyob

Xoinlarning shundoq bo‘lgay jazosi!

Karshivaz

Zafarlar qilichi topdi-ku barham!

Siyovush

Sendan yaxshiroqdir tozi itlar ham!..

Afrosiyob

Sho‘rlik!.. Kaykovusga etmading imdod!

Siyovush

Kaykovus jalloddir, sen ham bir jallod!..

(Jim qoladi, qo‘llari ikki yonga osilib tushadi.)

Parda

Tamom

OFAT

TO‘RT PARDALI FOJIA

Ishtirok etuvchilar:

Ofat — 33 yoshda, sho‘x, fusunkor bir ayol.

O‘zdamir — 45 yoshda, Ofatning eri, muharrir.

Olako‘z — 18 yoshda, uning qizi, ixcham jussali, so‘lg‘in yuzli.

Erto‘g‘rul — 30 yoshda, oddiy qiyofali, uzun sochli muharrir.

Yovuz — 30 yoshda, Erto‘g‘rulning do‘sti... muallim.

Iljoy — 50 yoshda, Erto‘g‘rulning onasi.

Xondamir — 53 yoshda, Erto‘g‘rulning tog‘asi... pensneli, ayri soqolli, maorif mudiri.

Oltinsoch — 22 yoshda, Xondamirning qizi... olifta, xudbin va mag‘rur.

Doktor Qoratoy — 35 yoshda, xushbichim va ayyor.

O‘qtoy — 28 yoshda, jiddiy va samimiy... doktor.

Qoplon — 30 yoshda, zobit.

Qo‘rqmas — 30 yoshda, zobit.

Xizmatchi va **boshqalar**.

BIRINCHI PARDA

Hashamatli mehmonxona... o'ng va chapdagi xonalarga ochiladigan eshiklar, qarshida ikki katta deraza, go'zal manzaralar, ilk bahor, oydin kecha...

Parda ochilganda bog'chadan kelayotgan inja va hazin kamon tovushi ikki-uch daqiqa somelar e'tiborini tortadi.

Xondamir (*o'ngdagi xonadan chiqadi, bog'cha tarafdan kelgan Ofatga*). Sizni kutmoqdamiz, xonim afandim. Qayerda qoldingiz? Qizlar nima bo'ldi?

Ofat. Bog'changizga hech to'ymaydilar, suhbatlashib sayr qilmoqdalar.

Xondamir. Bog'chamizga nima deysiz?

Ofat. O'ta go'zal, o'ta shoirona... Sizdagi badiiy zavqqa ta'rif yo'q...

O'zdamir (*ichkaridan baqirib*). Xondamir, Xondamir!..

Xondamir. Boryapman, afandim, boryapman.

Ofat. O'zdamir yana nima istaydi?

Xondamir. Bir shisha konyak tugadi, endi ikkinchisini istaydi.

Ofat. U bu oqshom aqldan ozadi, oh, koshki kelmagan bo'lsam.

Xondamir. Zarari yo'q, do'stining uyi; ne qilsa ham yarashadi.

Ofat. Xo'sh, doktor Qoratoy nima bo'ldi? Hanuz kelmadimi?

Xondamir. Klubda ekan, hozir kelib qoladi.

Ofat. Ammo u ham ko'p nozlanadi-da...

Xondamir. To'g'ri, go'yoki klub mening uyimdan afzal emish.

(*Tashqaridan deraza oldidan o'tib kelayotgan doktorni ko'radi.*) Ana doktor! Doktor Qoratoy.

Ofat (*qaraydi*). Ha, nihoyat kelganga o'xshaydi.

Doktor (*nimsarxush, shod va mamnun holda kirib keladi*). Xayrli oqshom, afandim. (*Ofatning qo'lini o'padi, Xondamirga qo'l beradi.*)

Xondamir. Xush kelibsiz, azizim... (*nimkulgu bilan.*) Faqat men so'z saqlayolmayman, kechikkaningiz uchun sevikli Ofatni juda ranjitdingiz... Bilmadim, sizda nima ko'rgan ekanki, yo'qligingizga aslo toqat qilolmaydi.

Doktor. Tabiiy, men qanchalik ta'zimda bo'lsam, u ham shunchalik iltifotlidir.

Xondamir. Har holda uzr so'rab qo'yarsiz.

Doktor. Shubhasiz afv etarlar... Ajabo, mehmonlardan kimlar bor?

Ofat. Sizdan boshqa hamma...

O'zdamir (*ichkaridan baqiradi*). Xondamir, Xondamir!.. (*Qahqaha.*)

Xondamir. Boryapman, boryapman. (*Ofatga.*) Menga ijozat (*chapdagi xonaga kiradi*).

Ofat. Xondamir chindan ham juda ajoyib, juda istarali odam... Sal dalliroq bo'lsa-da, o'ziga rom qila oladi.

Doktor. Hazil emas-da! Hech bir narsa bilmagani holda maorif mudiri... Yosh bo'lmasa-da, ayollarga o'ch, oz maosh bilan juda boy... Yana nima kerak? Barcha do'stlari orasida "Msyo tovlamachi" nomi bilan shuhrat topgan (*sarxush kulgu bilan*). Menimcha, unga "Johil bilimdon" deyilsa yaxshi bo'lardi.

Ofat. Bo'ldi, jim! Biroz sarxushga o'xshaysan.

Doktor (*nimkulgu bilan*). Sarxush edim, xushyor tortdim.

O'zdamir (*ichkaridan kuchli qahqaha bilan*) Xondamir!

Doktor. Ana, uning ovozini eshitdim-u hushimga keldim. Ha, soyangdan ajralmas eringning ovozi, O'zdamirbeyning na'rasi meni hushimga keltirdi.

Ofat (*xumor boqadi*). Qoratoy!..

Doktor (*uning qo'lini ushlaydi*). Ofat!..

Shu payt uning qo'lidagi kichik bir binafsha dastasi yerga tushadi. **Doktor** darhol olib uzatadi.

Ofat. Bu binafshalar sening egilishingga arziydimi?

Doktor. Oh, men binafshalarni juda sevaman. Chunki u o'ta ma'noli, o'ta sirli bir chechak... bundan tashqari, sening nurdan to'kilmish qo'llaringni o'pganliklari uchun taqdis etaman.

Ofat (*inja kulgular bilan*). Bugun senda, sening holatingda telba bir hayajon ko'ryapman.

Doktor. Zotan, sening ko'nglingni topmoq, sening muhabbatingga noil bo'lmoq har majnunni oqil, har oqilni majnun etishga qodir.

Ofat (*sho'x kulgular bilan*). Oh, bu yolg'on navozishlar, bu soxta sajdalar!.. (*sukut*). Yur, bog'chaga chiqaylik. O'zdamir bizni bu yerda ko'rsa esi og'ib qoladi.

Bog'chaga qarab ketmoqchi bo'ladilar. Qarshilaridan Oltinsoch va **Olako'z** chiqadi. Birining qo'lida kamon, ikkinchisining qo'lida esa bir she'riy kitob bor.

Doktor. Mana Oltinsoch bilan Olako'z!

Ofat. Ha, ikki kabutar, ikki malaksiymo!

Doktor. Biri musiqa parisi, biri she'r ilohasi!..

Ofat. Hamda bir-biridan go'zal, bir-biridan dilbar!..

Doktor (*qizlarga*). Yuringlar, endi biz bilan birga bog'ga chiqsangiz, maylimi?

Oltinsoch. Sizlar boraveringlar, biz ham sal turib boramiz.

Shu payt **O'zdamir** bilan **Qoplon** o'ng tarafdagi xonadan chiqib keladilar. **O'zdamir** g'irt mast, gandiraklaganicha **Qoplon**ning qo'liga osilib olgan.

Ofat (*bog'ni ko'rsatib*). Yo'q, endi birga boramiz.

Xondamir (*qo'lida ikki shisha konyak bilan kelib, Ofatga*). Qayoqqa, jonim, shu yaxshi ishmi? Ayolsiz bir majlis, gulsiz bahorga, bulbulsiz chamanzorga o'xshaydi.

Doktor. Chindan ham, ayol — hayot, hayot esa ayol demakdir.

O'zdamir (*davomli va istehzoli kulgular bilan kuladi, turli harakatlar va qo'l ishoralari bilan*). To'g'ri, ayol har narsadir. U

goh bir chechak... goh bir kapalakdir. U — ham bir malak, hamda... bir o'rdakdir.

Har kimda kuchli nafrat va sarosima...

Xondamir. O'zdamir nima deyayotganingni bilasanmi?

O'zdamir (*takror beparvo kulgular bilan*). Ha, bilaman, ayol hali yosh ekan, toza bir chechak, so'ngra shatoratli bir kapalak; undan keyin esa fusunkor malakdir, faqat ba'zilari, ha, ba'zilari esa balchiqda suringan bir o'rdak, bebosh va daydi bir o'rdakdir.

Ofat. Oh! *(alamli bir holda ortga chekinadi. Doktor Qoratoy uni yiqiladi deb o'ylab qo'lidan tutadi.)*

O'zdamir (*achchiq kulgu bilan*). Oh, baxtiyor doktor! Senga, sening go'zal toleyingga havasim kelayotir.

Xondamir. Yur, azizim, yur!.. Sen ko'p aljirayotirsan. Yur, borib biroz shahmat o'ynaymiz.

O'zdamir (*Ofatni yarimqarash bilan kuzatarkan, ma'noli bir kulgu bilan*). Men ko'pdan mot bo'lganman.

Xondamir. Yur, qani, yur, yana bittadan qadah urishtiraylik.

O'ngdagi xonaga kiradilar. **Qoplon** va **Oltinsoch** ham ularning ortidan ketadi.

Olako'z. Oh, bechora otajonim!..

Ma'yus va shikoyatomuz qarashlar bilan **Ofat**ni kuzatib ichkariga kiradi.

Ofat (*achchiq tabassum bilan doktorga*). Ko'ryapsanmi? Olako'z ham shu manfur nusxaga achinyapti. Faqat meni, mening baxtsizligimni aslo o'ylamaydi.

Doktor. Xo'sh, odam o'zini o'zi o'ylamasa, o'ziga achinmasa, boshqalardan nima kutmoq mumkin? Menimcha, asl qabohat senda... Ha, siz ayollar oyoqlaringizga yiqilganlarni tahqir etasizlar, sizni tahqir etganlarning oyoqlariga yiqilasizlar.

Ofat. Chekkanim shuncha alamlar yetar, iltimos qilaman, bas qil!

Doktor. Yo'q, bu ishga nihoya bermoq lozim. Yo u, yo men! Boshqacha bo'lmaydi.

Ofat. Senga, sendagi ishqning abadiyligiga amin bo'la olsaydim...

Doktor (*uning qo'lini ushlab*). Ofat! Nima demoqchisan?

Ofat. Men butun o'zligimni, butun hayot va saodatimni yo'lingda fido etmoqqa hozirman. Hatto sen uchun jinoyatdan ham tap tortmayman. Faqat shunisi borki, aldanishni istamayman, aldanganimni sezsam, ado bo'laman. Yana aytib qo'yay, men o'ta kinliman, tushunyapsanmi? Meni aldamoqchi bo'lganlarni aslo kechirmayman. Ko'z qorachig'im qadar aziz bo'lsa-da, intiqom olurman, intiqom!.. Ha, men juda kinliman. Meni tahqir etganlar Azroyilning quchog'iga ravona bo'lurlar.

O'zdamir (*ichkaridan baqiradi*). Ofat! Go'zal malagim!.. Ofat, nozli o'rdagim... (*Kuchli qahqaha*).

Doktor. Oh, razil!.. Boyagina axloqsiz ayollarni balchiqda suringan o'rdakka o'xshatgandi, endi esa seni shu nom bilan chaqirmoqda.

Ofat (*doktorni quchoqlab*). O'tinaman, menga rahm qil... Rahm qil-da, meni qutqar. Uf! Bir chora, bir davo, bir zahar, bir otash bo'lgilki, o'zimni o'ldirsam-da, bu qo'pol va chirkin tovushni qayta eshitmayin.

Doktor (*cho'ntagidan bir kichkina shishacha chiqarib, ma'noli bir tarzda*). Chorasi tayyor... Faqat xonimlar uchun emas, yolg'iz erkaklar uchundir.

Ofat (*shishachani olib cho'ntagiga soladi*). Zarari yo'q, avval uni o'ldiraman. So'ngra lozim bo'lsa, o'zim ham shu yo'lni tutaman.

Doktor. Hech tashvishlanma! Bu shunday bir doriki, ichgach, o'n daqiqadan so'ng ta'sir etadi va hech kim hech narsa sezmaydi. Faqat bu yerda har azobga chidab, dorini uylaringda ichirishing lozim.

Olako'z. (*titragan bir holda kelar, Ofatni quchoqlab*). Oh, onajonim, ketaylik, uyimizga ketaylik.

Ofat. Nechun, Olako'z? Nima bo'ldi?

Olako'z. Otamning ahvoli juda yomon!.. Oyog'ida turolmaydi, nima deyayotganini bilmaydi.

Ofat. Mayli, bolam, ketamiz. U seni ham baxtiqaro qiladi, meni ham.

O'ngdagi xonaga kiradilar. Shu payt **Erto'g'rul** va **Yovuz** chap tarafdan chiqadilar.

Erto'g'rul. Oh, bu Olako'z naqadar latif, naqadar ma'sum bir siymo!

Yovuz. U naqadar ma'sum bo'lsa, Ofat ham, shu ishvakor xotin ham shu qadar xafvlidir.

Erto'g'rul. Xafvli bo'lsa ham sharmanda ayol emas...

Yovuz. Yaxshi bilgilki, O'zdamirni abgor qilgan ham Ofatdir, uning o'ynoqiligidir.

Erto'g'rul. Ammo Ofatni jar yoqasiga olib kelgan ham O'zdamirning sarxushligi, O'zdamirning e'tiborsizligi, beparvoligi.

Yovuz. Sen Ofatni yaxshi bilasanmi?

Erto'g'rul. Uning bu shaharga kelganiga ko'p bo'lgani yo'q... Eshitishimcha, aslzoda va yevropacha bir oilaga mansub ekan. Faqat katta bir falokat kutilmaganda oilasini parokanda etgan u bor-budi qo'ldan chiqib, faqirlashgan otasi qizini O'zdamirga bergan... Bu nusxa ham nima qilarini bilmay, bora-bora oilasini o'ylamay qo'ygan... Endi esa har kuni bir mehmonxonada mast-alast kun kechiradi... Uyga kelgan paytlarida esa Ofatni qo'pollik bilan tahqir etarkan... Tabiiyki, Ofat ham bu qo'polliklarga toqat qilolmay, undan soviy boshlaydi va so'ngra Qoratoy kabi tavakkalchilar bilan ko'ngilxushlik qilishga majbur bo'ladi...

Yovuz. Oh, bu ayol shunday otashki, shunday bir olovki, faqat erini, faqat qizini emas, (*o'ziga ishora qilib*) hatto bu baxtiqaro Yovuzni ham kuydiradi, adoyi tamom qiladi.

Erto'g'rul. Xo'sh, seni nima uchun?

Yovuz. Chunki Olako'zni sevaman, hayotim qadar sevaman. Holbuki onasi butun umidlarimni chilparchin qilayotir, butun o'y-xayollarimni ostin-ustun etayotir.

Erto'g'rul. Menga qolsa, Ofat bilan Olako'z ona bilan boladan ko'ra ko'proq opa-singilni eslatadi. Yanayam to'g'rirog'i, opa-sin-

gil ham emaslar... Chunki oralaridagi farq yosh jihatdan naqadar kichik bo'lsa, qiyofa va tabiatlarida ham shu qadar katta farq bor. Har holda bu masalada anglashilmas bir nuqta bor.

Yovuz (*o'ng eshikka qaraydi*). Endi men chiqib turaman.

Erto'g'rul. Nima uchun? Nima bo'ldi?

Yovuz. Chunki nishonling kelmoqda. Qara, naqadar ko'rkam, naqadar mag'rur!..

Erto'g'rul (*qaraydi*). Oltinsochmi?.. Xo'sh, uning nishonlim bo'lganini kimdan eshitding?

Yovuz. Sendan boshqa hammadan.

Erto'g'rul. Faqat o'rtada hanuz rasmiy bir narsa yo'q.

Yovuz. Bugun bo'lmasa, ertaga bo'ladi (*chap eshikdan chiqadi*).

Oltinsoch (*keladi*). Erto'g'rul! Shu paytgacha qayerda eding?

Erto'g'rul. Bog'da seni izlar edim, bir kapalak kabi seni gullardan, chechaklardan so'rar edim.

Oltinsoch (*nafis kulgular bilan*). Yo'q, yo'q, sen meni gullardan, chechaklardan emas, faqat cheksiz-chegarasiz fazolardan, fazolardagi yulduzlardan so'rashing lozim. Yanayam ochiqroq aytaymi?.. (*Istehzoli tabassum bilan.*) Sen meni fazolarga sig'magan qalbingdan izlamog'ing; daholar nazar solgan ruhingdan topmog'ing lozim.

Erto'g'rul. Oltinsoch, men sening har bir so'zingni yuqoridan engan xitoblar kabi muammoli emas, go'dak tabassumi kabi oddiy va ma'sumona ko'rishni istayman.

Oltinsoch (*nimkulgulardan so'ng kinoyali va burgutqarash bilan*). Sening kiyiming va qiyofang kabi oddiy, shundaymi?

Erto'g'rul. Oltinsoch, oh Oltinsoch! Sen mendan kulayotirsan, mening qiyofamni masxara qilayotirsan.

Oltinsoch. Yo'q, men sendan kulmoq uchun emas, faqatgina kulmoqdan zavq olganim uchun kulayotirman.

Erto'g'rul. Bu kulishlardan faqat sen zavq olasan, boshqalarni esa zaharlaysan.

Oltinsoch (*sho'x kulgular bilan*). Ochiq so'zlayinmi, azizim, sen... go'daksan.

Erto'g'rul. Bu so'z hazil bo'lsa ham bir haqiqatdir. Chunki go'dak bo'lmasaydim, bu qiyofatim bilan sen kabi g'urur va hashamat haykaliga maftun bo'lmasdim.

Oltinsoch. Ammo senda, sening olovli ko'zlaringda, o'tkir qarashlaringda shunday bir kuch borki, faqat men emas, balki har kim ham u kuch oldida kichrayadi, kichraymoqqa majbur bo'ladi.

Erto'g'rul. Oh, sening kichrayishingda ham bir buyuklik bor.

Oltinsoch. Albatta, buyuklar kichiklarni buyuk ko'rmoq istarlar, kichiklar esa buyuklarni kichraytirish bilan tasalli topurlar.

Qoplon (*nash'ali va yarimsarxush bir holda o'ngdagi xonadan chiqadi*). Dram, ram, ram... dara... dara... ra, ram, ram... (*deya qo'lidagi kamon qillarini chertadi va Oltinsochga uzatadi*). Musoidangiz bilan, shu sariq torlar titrab, ingrab, bo'zlab sizga yolvorar... Pushti, latif barmoqlaringizni o'pmoq istarlar.

Oltinsoch (*kamonni olib bir chetga qo'yadi*). Ma'zur tuting, juda toliqqanman.

Qoplon. Charchoqni chiqaradigan narsalardan biri ham aslida musiqadir.

Oltinsoch. Faqat bu tasalli chalganlar uchun emas, tinglaganlar uchundir.

Qoplon (*kamonni olib*). Yo'q demang, o'tinaman.

Oltinsoch. Sal keyinroq chalsam-chi?

Qoplon. Yo'q, kutmoqqa imkon yo'q... Uf, men musiqaga bosh egaman. (*Oltinsochning barmoqlarini ko'rsatadi*). Bu sehrli barmoqlar raqsini tomosha qilish bilan kechirgan damlarim eng xush damlarimdir. Xush damlar esa bir lahza ham qo'ldan boy berilmasligi lozim

Shu payt **Yovuz** keladi.

Oltinsoch. Faqat sen sharqi aytishing sharti bilan...

Qoplon (*chap eshikka qarab yuradi*). Juda soz, yur, bo'lmasa.

Oltinsoch. Yo'q, men izdihomni xush ko'rmayman. Mana shu yer yaxshiroq emasmi?

Erto'g'rul (*kinoyali tabassum bilan*). Menimcha, bog' hammasidan shoirona va osuda bir yer. Shuningdek, tabiat sizning musiqa va sharqilaringizni o'parkan, siz ham akatsiya chechaklarining hafif va go'zal bo'ylarini totarsiz.

Oltinsoch. (*Yovuz bilan Erto'g'rulga*). Sizlar bormaysizlarmi?

Erto'g'rul. Yo'q...

Oltinsoch. Bizni rad etasiz, shundaymi?

Erto'g'rul. Shu yerdan tinglasak bo'lmaydimi?

Qoplon (*mamnun bir qiyofada*). Albatta, musiqa va sharqi uzoqdan yana-da yoqimli eshitiladi. (*Oltinsoch bilan bog'ga ketadilar*).

Yovuz (*Erto'g'rulga*). Menga qara, sen Oltinsoch bilan hazilmutoyiba qilib ovunib yuribsan; faqat bu yaxshi ish emas, to'g'ri ketish emas va bu yo'lning oxiri halokatdir.

Erto'g'rul. Nima bo'lsa bo'lar, juda bezdim. Bu bolalarcha nozlar, bu ma'nisiz noz-karashmalar odamni xunob qiladi.

Yovuz. Bu ham o'rtangizdagi sevgining buyukligi va keskinligiga ishora!.. Sen o'ta rashkchi va asabiysan; ayni paytda sovuqqon ko'rinasan, yoxud o'shanday ko'rinmoqchi bo'lasan. Holbuki ko'p o'tmay bir kun qushni uchirib, ovni qochirasan. Ha, arslonlarning bepisandligi ovni tulkilarga yem qiladi.

Shu payt eshitilgan kamonning tovushi, **Qoplon**ning sharqisi atrofga sokinlik baxsh etadi.

SHARQI

Kecha sitamli ruhim xotirlarkan sani birdan
Xulyolarga, savdolarga toldim, go'zalim, man;
Purnash'a ko'ngil olami lohutga ucharkan,
Ko'rdim sani ro'yoda ipak tullar[1] ichinda...

Bir she'ri samoviy kabi og'ushimga kelding,
Gulbo'salar hadya etarding menga... Lekin
Ro'yo yanglig' nogoh suzilib jismi latifing
G'ayb bo'ldi oq, pushti atirgullar ichinda.

[1] **Tul** — harir, parda.

Yovuz. Eshityapsanmi?

Erto'g'rul. Ha, eshityapman.

Yovuz (*istehzoli tabassum bilan*). Mana, gulbo'salar, ipakli ro'yolar; xulyolar va savdolardan bahs etilmoqda.

Erto'g'rul (*asabiy*). Anglab turibman, ha, anglab turibman.

Yovuz. Yolg'iz anglamoq kifoya qilmaydi, anglatmoq ham lozim.

Erto'g'rul. Kimga anglataman, kimga!? Qoplon beandisha bir to'nka, Oltinsoch ham mag'rur bir qoraqush bolasi...

Yovuz. Xo'sh, u holda?

Erto'g'rul (*nihoyatda asabiy*). Yetar, Xudo haqqi, bas qil...

Sukut... **Oltinsoch** bilan **Qoplon** keladi.

Xondamir (*chiqadi, Oltinsochga*). Qayda qolding, qizim? Bu nima degan gap, a? Olako'z senga mehmon bo'lsa-yu sen uni yolg'iz qoldirsang.

Oltinsoch (*kulib otasi bilan o'ngdagi xonaga kiradi*). Menda ayb yo'q, otajon, bu ishda Qoplon aybdor...

Qoplon (*Yovuz va Erto'g'rulga*). Yana nima bo'ldi? Juda alamzada ko'rinasiz?

Erto'g'rul (*titragan bir holda*). Menga qara, sen nima qilyapsan o'zi? Nima qilmoqchi bo'lyapsan?

Qoplon. So'zlaringni tushunmadim.

Erto'g'rul (*achchiq tabassum bilan*). Bu yerda tushunmaydigan hech narsa yo'q...

Qoplon. Nima demoqchiligingni bilmoqchiman...

Erto'g'rul (*birdan g'azabli*). Oh, sen; o'ta manman, quturgan nusxasan, munofiq bir o'g'risan, sen jinoyatchi va qotilsan.

Qoplon. O'g'ri? Qotil? (*istehzoli kulgular bilan*). Aftidan, aqldan ozgan ko'rinasan.

Erto'g'rul (*yanada qizishib*). Ha, munofiq bir o'g'risan. Chunki, mening g'oyayi-a'molimni, muqaddas yodgorligimni iflos qo'llaring bilan sindirib, parchalayotirsan. Chunki, Oltinsochning ko'nglini o'g'irlayotirsan, ha, sen qotilsan, o'ta vahshiy bir qotilsan; chunki, yirtqich maxluq kabi harakatlaring bilan har

lahza qalbimning bir parchasini kemirasan; aql-hushimni yondirib, ko'nglimni tilkalashga intilasan.

Bu shovqin-surondan ichkaridagilar salonga kirib keladilar.

Qoplon (*istehzoli tabassum bilan*). Men yana takror aytaman, sen aqldan ozibsan (*cho'ntagidan revolverini chiqaradi, gulduros-li bir ohangda*). Mana senga eng ajoyib, eng keskin javob!.. (*Nishonga olmoqchi bo'ladi.*)

Yovuz (*qurolni qo'lidan oladi*). Nima qilyapsan?

Erto'g'rul. Meni qo'rqitmoqchimisan? (*Qizg'in va achchiq kulgular bilan*). Qanday buyuk jasorat!

Oltinsoch. Yana nima shovqin, nima bo'lyapti?

Erto'g'rul. Hech, Oltinsoch, hech!..

Oltinsoch (*sho'x kulgular bilan*). Faqat bu qanday "hech"!..

Erto'g'rul. Oh, bu shunday bir "hech"ki, mening butun men-ligim, butun saodatim va hayotim shu "hech"ga, shu mavhum rishtaga bog'liq. Qoplon esa mana shu rishtani kemirmoqda, sen ham kulgularing bilan tomosha qilayotirsan.

Qoplon. (*hayrat bilan*). Haddan ortiq tuhmat, mudhish bir tuh-mat...

Oltinsoch. Erto'g'rul! Sen har narsani o'rta asrlarda ya-shayotgan kabi o'ylaysan. Holbuki, dorilfunun ko'rding!

Erto'g'rul. Ne qilayki, dorilfununda faqat bir bo'ron kabi o'tdim. Shuning uchun o'rta asrlarda yashayotgan kabi o'ylay-man. Hanuz avvalgi qarashlarim bilan fikrlayman, haligacha sira o'zgarmadim.

O'zdamir (*sarxushlarcha va istehzoli kulgular bilan*). Faqat men... men esa o'zgardim; to'g'rirog'i, meni o'zgartirishdi. Se-vimli rafiqam, shu go'zal Ofat meni o'zgartirdi... (*kulgu*). Ha, u o'zgartidi...

Erto'g'rul. Sen ahmoqsan.

O'zdamir. Faqat sen! Sen ham dallisan(*kulgu*).

Ofat. O'zdamir, nimalar deyapsan?

Iljoy. O'g'lim, nima qilyapsan?

Xondamir (*O'zdamirga ishora qilib, nimsarxush*). U sha-robdan esini yo'qotgan, (*Erto'g'rulga*) senda yoshlik sarxushligi

bor. U nima deganini bilmaydi, sen esa bilmaganingni so'ylaysan. Amerika shoirlaridan mashhur Lev Tolstoy deydiki: "Muhabbat bir balodirki, giriftor o'lmagan bilmas" (*Hamma kulib yuboradi*). Demakki, O'zdamir Ofatga, sen esa Oltinsochga shu qadar maftunsizlarki, har so'zdan bir ma'no, har "hech"dan bir muammo chiqarursizlar.

O'zdamir (*istehzoli va beparvo kulgular bilan*). Juda to'g'ri, afandim, juda to'g'ri! (*Kulgu*). Xuddi shunday, Amerika shoiri Lev Tolstoy!.. Maorif mudiri Xondamir!? (*Kulgu*).

Iljoy (*Xondamirga*). Iltimos, aka, sen gapirgin, yo'qsa, bular qizishib ketib, xursandchiligimizni yo'qqa chiqaradilar.

Xondamir. Hatto muhabbat shunday bir olovdirki, u inson qalbini bir marta chulg'adimi, tamom, to o'lguniga qadar bo'zlatadi... Fors tarixshunoslaridan Abu Ali Sino deydiki: "Men har dardga davo topdim, lekin birgina ishqqa, muhabbatga biror chora topolmadim".

O'zdamir (*kinoyali kulgu bilan*). Xuddi shunday, ishq, muhabbat... Fors tarixshunoslaridan Abu Ali Sino!.. Maorif mudiri Xondamir! (*Kulgu*).

Olako'z (*yarim ovoz bilan Ofatga*). Men ketaman, onajon!

Ofat. Nechun, bolam?

Olako'z. O'zim ham bilmayman.

Ofat. Biroz sabr qilsang, birga ketamiz.

Olako'z. Yo'q, kutolmayman.

Ofat. Mayli, sen boraver, men ham hozir boraman.

Olako'z mahzun qadamlar bilan chiqadi: Erto'g'rul asabiy bir qarashlar bilan unga ergashmoqchi bo'ladi.

Iljoy. Qayoqqa, o'g'lim?

Erto'g'rul. Jinnixonaga.

Iljoy. Bu nima deganing, jinnixona bu yerdan yaxshimi?

Erto'g'rul (*Iljoyga alohida*). Albatta... O'zlari bilmasa ham, u yerdagilarni hamma jinni deb biladi. Faqat bular, zanjirsiz devonalar esa, na o'zlarining kimligini biladilar, na atrofdagilarning.

Iljoy. Yana biroz sabr qilsang nima bo'ladi? O'zboshimchaliging uchun tog'ang ranjiydi.

Erto'g'rul. Ranjisa ham ketaman, ranjimasa ham... Menda eshitadigan quloq yo'q... Telba-teskari gaplarga toqat qilolmayman.

Salondan chiqib ketadi.

Xondamir. Yo tavba, bularga nima bo'ldi? Hammalari birin-ketin janjallashib qochib ketdilar.

O'zdamir. Chunki ular bu majlisdagi zavqni tuya bilmaydilar, bu suhbatlardagi nozikliklarni ilg'amaydilar (*istehzoli kulgi*). Olako'z mening qo'polligimdan hurkib qochdi; Erto'g'rul esa sening teran falsafalaringdan (*kulgu*).

Xondamir. Oh, bu o'smirlar, bu yoshlarning hammasi shunday... Hammasi qaysar va asabiy! Holbuki, bunday holat bizning kabi tarbiyali va munavvar oilalarga aslo yarashmaydi.

Iljoy. Bolalik-da, bolalik.

Xondamir (*boshini o'ynatib*). Nima ham derdik, marhamat qiling, xursandchiligimizni davom ettiraylik.

O'zdamir. Men bu yerdan bir qadah sharob ichmaguncha ketmayman.

Xondamir. Hozir, aytaman, keltiradilar.

O'zdamir (*Ofatga razm solib, mamnun bir kulgu bilan*). Yo'q, men faqat go'zal Ofatning, sevimli Ofatning qo'llaridan ichmoq istayman.

Ofat. Yaxshi, tur, borib ichamiz.

Xondamir. Yo'q, shu yerda, faqat shu yerda...

Oltinsoch. Men keltirsam bo'lmaydimi?

O'zdamir. Aslo! Sen faqat Erto'g'rulga ichirishing lozim edi (*kulgu*).

Oltinsoch. Afsuski, u sharobni ham, sharobxo'rlarni ham yomon ko'radi.

O'zdamir (*kulgu*). Asli bu ham bir nav taqvodorlik, bu ham bir dallilik. (*Ofatga*). Qani, go'zalim, bir qadah sharob...

Ofat. Xo'p, olib kelaman, yo'qsa, o'chakishishingdan voz kechmaydigan ko'rinasan.

O'ngdagi xonaga kiradi.

O'zdamir (*loqayd kulgular bilan*). Hozirgina aytdim-ku, men o'zgardim; har xususda o'zgardim; faqat ikki narsada emas: biri eski sharob, biri eski ahbob!.. (*Kulgu*). Doktor Qoratoy yangilardan bo'lsa-da, shubhasiz, bir kun u ham eskiradi, u ham o'z qiymatini topadi. (*Kulgu*).

Ofat (*bir qadah sharob keltiradi*). Marhamat qiling, afandim!

O'zdamir (*turib qadahni oladi*). Nima! Afandim?.. (*Kulgu*). Holbuki, men sening eng ojiz qullaringdan, qiymatsiz itoatgo'ylaringdan biriman.

Xondamir. Qani, ko'raylik-chi, kimning sharafiga icharkan.

O'zdamir. Men shu mumtoz qadahni faqat zulumot va yorug'liklarning, yer va ko'klarning, butun muhit va koinotning sharafiga ichaman. Chunki ular, ularning barchasi, hamohang o'laroq, (*Ofatni ko'rsatadi*) shu favqulodda, shu g'ayrioddiy vujudni his qiladi. Ha, ularning barchasi shu go'zal va fusunkor Ofat oldida bosh egadi. Har kim uni sevadi, olqishlaydi (*ichadi, yig'ilganlar chapak chaladilar*).

Xondamir. Yashasin go'zallik! Yashasin Ofat...

O'zdamir (*mamnun bir qiyofada Ofatga*). Oh, bu sharob avvalgilariga aslo o'xshamaydi, sening qo'llaringni o'par-o'pmas mazasi ham o'zgardi; u ham o'zgardi, u ham go'zallashdi (*hamma o'ngdagi xonaga kiradi*).

Ofat (*eng orqada qolgan doktorga*). Sen ket, ortiq bu yerda qolma!

Doktor. Nechun?

Ofat. Chunki zaharni ichirdim (*mehmonlarga ergashadi*).

Doktor (*xavotir bilan*). Oh, nechun buncha shoshding... (*Soatiga qaraydi*).

Xondamir (*qaytib keladi*). Nega kelmayapsan?

Doktor (*uning qo'lini siqib*). Ijozat bersangiz, ketmoqchi edim.

O'zdamir. Kel, azizim, esingni yo'qotdingmi?

Doktor. Juda muhim ishim bor.

O'zdamir (*ichkaridan*). Doktor!.. Doktor Qoratoy!..

Xondamir. Ko'rdingmi, seni so'rashayotir.

Doktor. Yo'q, afandim, ketishim kerak.

O'zdamir (*qo'lida konyak to'la katta bir qadah bilan keladi*). Doktor Qoratoy!.. Endi bunisi sening sharafingga...

Doktor. E voh, nima qilyapsan? Shu qadah bilan ham konyak ichiladimi axir? (*Qarshilik qilmoqchi bo'ladi.*)

O'zdamir (*zaif va achchiq kulgular bilan*). Ichiladi, albatta, ichiladi... Omon bo'l! (*Ichadi va qadahni bir tomonga otib*). Oh!.. (*deya yiqiladi.*)

Xondamir (*ichkariga*). Liymon keltiring, liymon!..

Doktor (*ko'kragiga quloq tutadi*). Hech narsa lozim emas, endi kech. Yurak xastaligi oxiri bechorani tamom qildi...

Ofat (*qo'lida bir bo'lak liymon bilan keladi*). Nima bo'ldi? Hushidan ketdimi?

Doktor. Ha, hushidan ketdi, faqat qayta hushiga kelmas bo'lib ketdi.

Sukut...

Parda

IKKINCHI PARDA

Erto'g'rulning uyi. Hovuzli, serdaraxt, gulzor bir bog'... Bahorning so'nggi kunlari, kunduzi.

Iljoy (*balkonga chiqadi, gullarni sug'orayotgan xizmatchiga*). Menga qara, Erto'g'rul qayerda?

Xizmatchi. Hozirgina bog' tomonga ketdi.

Iljoy. Shamollab qolib yana tobi qochadi; tez borib, uni chaqirib kel.

Xizmatchi. Xo'p, bosh ustiga...

Ketadi, shu payt Yovuz keladi.

Yovuz. Kimni chaqiradi, Erto'g'rulnimi?

Iljoy. Ha.

Yovuz (*Iljoy bilan qo'l berib ko'rishadi va hovuz chetidagi o'rindiqqa o'tiradi*). Bugun ahvoli yaxshiga o'xshaydi...

Iljoy. Yo'q, aksincha, yanada yomon, yanada xarob...

Yovuz. Nega bunday deyapsiz?

Iljoy. Negaligini hozir keladi, ko'rasiz. Koshki edi, Xondamirning uyiga, o'sha manhus ziyofatga bormagan bo'lsak. Koshki o'sha badbaxt kechani ko'rmagan bo'lsaydik. Mana bir oydan oshdiki, azobini tortamiz. Hanuz Oltinsochning harakatlarini, O'zdamirning falokatlarini unutolmaydi. Oh, ba'zan unutadi, hamma narsani unutadi, hatto o'zini ham.

Yovuz (*o'rnidan turadi*). Shoshmang, doktor Qoratoyni olib kelaman, qani, u nima derkin.

Iljoy. Hozir xabar yubordim, akam bilan birga keladi, lekin o'sha kechadan buyon, na O'zdamirni unutadi, na Xondamir bilan Qoratoyni ko'rishga ko'zi bor. Hatto O'zdamirning o'limini ham Qoratoydan ko'radi.

Yovuz. Xo'sh, Qoratoy nima qilishi mumkin?

Iljoy. Bilmasam, bu haqda bir narsa biladiganga o'xshaydi.

Yovuz. Yo'q, doktor Qoratoy unday odam emas... Faqat Erto'g'rul biroz xayolparast... bekorga o'zini qiynayapti.

Erto'g'rul orqa tarafdan keladi.

Iljoy. Oh, o'zi yolg'iz o'g'il, u ham o'z sog'lig'ining, o'z hayotining dushmani...

Yovuz. Hech tashvish chekmang, hammasi yaxshi bo'ladi.

Iljoy. Oh, qo'rqaman, juda qo'rqaman.

Erto'g'rul (*asabiy kulgular bilan*). Qo'rqma, onajon, aslo qo'rqma!.. Chunki hayotda qo'rqadigan hech bir narsa yo'q... Insonlarini qo'rqitadigan bir kuch bo'lsa, u ham yolg'iz jasoratdir. Men yashamoq uchun titrab-qaqshaganlarni Azroyil quchog'ida ko'rdim; kichik bir uchqundan qo'rqqanlarni doimo olov o'chog'idan topdim.

Iljoy. Ammo o'ylab ko'r, bolam, shunday salqin havoda oddiy bir ko'ylakda bog'ga chiqib bo'ladimi? *(Uyga ketadi).*

Yovuz. Menimcha bu go'daklik va telbalikdir.

Erto'g'rul. To'g'ri, go'daklik va devonalik!.. (*kulgu*). Go'daklik va devonalik! Endi esimga tushdi, bu so'zlar bir oy oldin ham quloqlarimni timdalagandi... O'sha kecha, ha,ha, o'sha kecha Oltinsoch ham meni go'dak degandi; O'zdamir ham dalli deb kulgandi.

Iljoy (*qo'lida bir qalpoq bilan bir plash keltiradi, har ikkisini ham Erto'g'rulga beradi.*). Ol, bolam, havo juda salqin... Yana shamollab qolasan.

Erto'g'rul (*plashni oladi, yarim burilib, qalpoqni o'rindiqqa tashlaydi*). Bilmadim, bu bahordan, bu latif shabbodadan nechun bu qadar qo'rqasan? Daraxtlarni, chechaklarni bezatgan, qushlarni, kapalaklarni erkalagan bahor faqat insonga, faqat menga dushman bo'ladimi?! Holbuki mening vujudim bir chechakdan ko'ra dag'alroq, bir kapalakdan ko'ra qo'polroqdir.

Yovuz (*o'ynoqi va mag'rur odimlar bilan kelayotgan Oltinsochni Erto'g'rulga ko'rsatadi. Nimkulgu bilan*). Chechakdan bahs etayotganding, mana u qarshimizdan chiqdi.

Erto'g'rul (*ma'noli bir qarash bilan*). Ha, u shunday bir chechakki, yuryaptimi, yuguryaptimi? O'ynayaptimi, uchyaptimi? Odam hech payqay olmaydi.

Oltinsoch (*sho'x bir tabassum bilan*). Xayrli kun, afandilar (*Tamanno qiladi*[1])

Iljoy. Xush kelibsan qizim, safo kelibsan (*o'pishib ko'rishadilar*).

Oltinsoch (*Erto'g'rulga*). Qalaysan, xo'sh, nimalar qilayotirsan?

Erto'g'rul (*istehzoli tabassum bilan*). O'rta asrda yashayapman. (*Kulgu*). Ha, o'rta asrda yashayapman.

Oltinsoch. Haliyam unutmadingmi? Unutmadingmi axir?

Erto'g'rul. Men ko'p vaqt o'zimni unutishim mumkin, faqat bu so'zni unutolmayman. (*Achchiq kulgu*). Chunki seni unutolmayman.

Oltinsoch. Minnatdorman, ko'rinadiki, janjaldan juda zavq olasan.

Erto'g'rul. Zotan, butun hayot janjal-u g'avg'odan iborat emasmi?

Yovuz (*o'rnidan turadi, kinoyali bir ohangda Iljoyga*). Bularni xoli qoldirsak yaxshi bo'larmidi?

---

[1]**Tamanno qilmoq** — qo'lni boshga olib borib salomlashmoq yoki xayrlashmoq.

Iljoy. Qani, yur, bittadan qahva ichaylik, urishib yarashganlaridan keyin bular ham keladilar.

Har ikkisi ichkariga kiradi.

Oltinsoch (*sho'x bir tabassum bilan*). Juda g'alati-ku a! Yana eski hol, yana eski sarkashlik...

Erto'g'rul. Na iloj, ko'p urindim, zarracha o'zgarmadim. Ha, yana avvalgi go'daklik, yana avvalgi dallilik...

Oltinsoch (*o'ta jiddiy*). Yo'q, sen mendan kulyapsan, men bilan o'ynashyapsan.

Erto'g'rul. Mana bu ham yangi bir bo'hton, yangi bir tahqir...

Oltinsoch (*titragan bir holda*). Oh, nechun insof qilmaysan?

Erto'g'rul. Insof? (*qah-qah urib kuladi*). Zotan, insof va marhamat Iso bilan birga ko'kka uchmish.

Oltinsoch. Oh, yana kulyapsan.

Erto'g'rul. Faqat bu kulgular achchiq faryoddan boshqa narsa emas.

Oltinsoch. Yo'q, sen mutlaqo haqsiz va o'ta mag'rursan.

Erto'g'rul. Kim biladi, balki men bir oyinadirmanki, sen o'zligingni menda ko'rayotgandirsan. Men avval qanday bo'lsam, hozir ham shundayman, mutlaqo o'zgarmadim, o'zgarmasman ham; faqat, aksincha, sen kundan kunga o'zgarayotirsan va suluvlashayotirsan. Har bir holingda bir yangilik, har bir harakatingda bir buyuklik ko'rinadi (*achchiq kulgu*). Ha, sen bir gulsanki, zaharli tikanlaring ko'nglimni tilkalaydi; sen bir parisanki, olovli tirnoqlaring aql-hushimni kemiradi.

Oltinsoch (*asabiy va alamli*). Oh, sen bir jallodsan, bir Azroyilsan.

Erto'g'rul (*istehzo bilan*). Holbuki Azroyil ham malakdir. Faqat men bir malakning Azroyil bo'lishini orzu qilmasman...

Oltinsoch (*ketmoqchi bo'ladi*). Ha, sen haqlisan...

Erto'g'rul. Qayoqqa?

Oltinsoch. Kelgan joyimga.

Erto'g'rul (*uning qo'lidan tutadi*). Yo'q, ketma! Agar mendan uzoqlashmochi bo'lsang, yanada yaqinroq kel: chunki yong'indan

qutulmoq uchun yolg'iz bir chora bor: u ham bo'lsa olovga kirmoqdir.

Iljoy va **Yovuz** balkonga chiqadilar.

Iljoy. Qayerda qoldingiz?

Yovuz. Sizlarni kutyapmiz.

Erto'g'rul. Boryapmiz.

Iljoy. Nima bo'ldi? Yarashib, kelishib oldingizmi?

Oltinsoch (*istehzoli tabassum bilan*). Ha, yarashdik, faqat olov bilan paxtaning yarashgani kabi.

Erto'g'rul. Ha, kelishib oldik, faqat kurrayi arz bilan popukli yulduz kelishgani kabi...

Iljoy (*Oltinsochning qo'lidan tutib*). Qani, ayt-chi, nechun bizdan qochasan?

Oltinsoch (*Erto'g'rulga qaraydi, achchiq tabassum bilan*). Ba'zi birovlar meni shunga majbur qiladilar (*ichkariga kiradilar*).

Yovuz (*Erto'g'rulga*). Menga qara, Oltinsoch bir kabutar, afsuski, uni uchirib yubormoqchi bo'lyapsan.

Erto'g'rul. Tashvish qilma, uchirmayman.

Yovuz. Shuni yaxshi bilki, u — otash. Holbuki, otash bilan hazillashib bo'lmaydi.

Erto'g'rul (*istehzoli kulgular bilan*). Qoplondan ehtiyot qilayotirsan, shekilli.

Yovuz. Yo'q, u bir dalli, qo'lidan hech ish kelmaydi; faqat doktor Qoratoy, sening bu yangi raqibing yana ham qo'rqinchli, yana ham xafvlidir.

Erto'g'rul. Demak, endi Ofatni tashlab, Oltinsochning iziga tushganmi?

Yovuz. Yana qanday degin! Bir on ham soyasidan ayrilmaydi. Otasi Xondamir esa doktorga nisbatan o'ta iltifotli... Chunki u ham o'zi kabi tavakkalchi, o'lguday sarvat va shuhrat asiri...

Olako'z qora kiyingan holda qo'lida ikki kitob bilan keladi.

Erto'g'rul. Marhamat, xonim afandim (*Qo'l berib ko'rishgach*). Xayriyat, bizni ham xotirga ola bilibsiz.

Olako'z. Ishoning, hech vaqtim yo'q, faqat betobligingizni eshitib keldim.

Erto'g'rul. Tashakkur.

Yovuz. Lekin nimagadir aslo uyingizda bo'lmaysiz.

Olako'z. Chunki har kuni kasalxonaga boraman-da...

Erto'g'rul. Nega? Betobmisiz?

Olako'z. Yarador askarlarga qarayman.

Erto'g'rul. Qaysi kasalxonada?

Olako'z. "Turon" ko'chasida, "Ibn Sino" kasalxonasida...

Erto'g'rul (*ma'noli va mahzun*). Shundaymi, juda soz...

Yovuz. Bular qanday kitoblar?

Olako'z. Roman. Erto'g'ruldan olgandim.

Erto'g'rul. Xo'sh, o'qidingizmi?

Olako'z (*uyalib va kulimsirab*). O'qidim, tashakkur, go'yoki har ikkisi ham mening ruhim, mening hayotimni tasvirlagan bir oyinadir. Bularni tanlab berayotganingizda avvalo meni o'ylaganingiz ma'lum bo'ldi.

Erto'g'rul. Albatta, shunday emasmi axir...

Yovuz (*kulimsirab*). Zotan ruhshunoslik ham, bir nav payg'ambarlikdir.

Erto'g'rul. Yana ham to'g'rirog'i, payg'ambarlik ham bir nav ruhshunoslikdir. Mayli, bu kitoblarning mazmuni nima ekan?

Olako'z. Umidbaxsh bir tasalli; saodat — muhabbatdir.

Erto'g'rul. Tabiiy, muhabbat — saodatdir.

Olako'z (*mahzun bir tabassum bilan*). Demakki, men mas'ud bo'lolmayman.

Yovuz. Nechun?

Olako'z. Chunki sevolmayman.

Yovuz. Yo'q, bil'aks, saodat sizni ta'qib etadi, bir soya kabi izingizdan ayrilmaydi; lekin bir mone, qo'rqinchli bir tush — bosiriq sizni ma'yus etadi.

Olako'z (*biroz asabiylashib*). Ochiqroq so'zlasangiz, tushunmayapman.

Yovuz. O'ylab ko'rsangiz, tushunasiz... Faqat tushunmasangiz yanada mas'ud bo'lasiz.

Olako'z (*titragan bir holda atrofga*). Oh, nimalarni eshitayotirman! Bu sirli so'zlar bir o'q kabi qalbimni parchalamoqda.

Erto'g'rul. Iltimos, o'tinaman, bu telbaga quloq solmang, Oltinsoch ham shu yerda. Marhamat qiling, uchrashib, bir fursat suhbatlashasiz.

Olako'z mahzun va o'ychan odimlar bilan ichkariga kiradi.

Yovuz (*yoqimsiz kulgu bilan*). Men Olako'zni bunchalik asabiy deb o'ylamagandim.

Erto'g'rul (*jahl bilan*). Sen bir to'nkasan, yo'nilmagan o'rmon to'nkasi.

Yovuz. Hech jahling chiqmasin, kirib uzr so'rayman.

Erto'g'rul. Uzring aybingdan ham battar.

Yovuz (*nimkulgu bilan*). Bilasanmi, men bu qizga maftun bo'ldim. Faqat senga nisbatan shu qadar iltifotli ko'rinadiki, asablarimga tegadi.

Erto'g'rul. Yaxshi, o'q otib yoyni yashirmoqdan qanday ma'no bor? Qani, ayt! U qanday mone, u qanday dahshatli tush ekan?

Yovuz. Dahshatli tush uning onasi... U bu shaharda yashar ekan, Olako'z mas'ud bo'lolmaydi.

Erto'g'rul. Ketdik, qani ko'ramiz, sen doimo mana shunday bema'ni gapirmoqdan zavq olasan. (*Holatini o'zgartirib*). Lekin sendan bir iltimosim bor; zinhor uning ko'ngliga ozor berma.

Yovuz. Xo'p, sening hurmating uchun soqov va kar bo'laman.

Ichkariga kiradilar, shu paytda **Ofat** va **Qoplon** keladi. **Ofat**ning bejirim va qora kiyimi, mukammal pardozi, erkin holati va harakati o'zini yanada sho'x, yanada fusunkor ko'rsatadi.

Qoplon. Men qaytib ketmoqchiman, aybga buyurmaysiz deb o'ylayman.

Ofat. Nechun? Erto'g'rulni ko'rmoqchimasmisan?

Qoplon. Yo'q, uni sevintirmoqdan ko'ra ko'proq betoqat qilgan bo'laman.

Ofat. Xo'p, u holda bu yergacha nima uchun kelding?

Qoplon. Unisini o'zim ham bilmayman. (*Unga devonavash bir nigoh bilan nazar tashlaydi*). Ruxsatingiz bilan... (*Qo'lini o'padi*).

Ular ajralishayotganlarida doktor **Qoratoy** kiradi.

Doktor (*istehzoli tabassum bilan uzoqlashgan Qoplonni ko'rsatib*). Yangi sevgingiz bilan tabriklayman.

Ofat (*ayni tarzda*). Kam bo'lmang.

Doktor. Faqat ko'ngil bir bo'lgani kabi, muhabbat ham bir bo'lmog'i lozim.

Ofat (*istehzoli*). Xuddi sizda bo'lgani kabi, shundaymi? (*Asabiy*). Oh! Insofsiz, berahm!.. Sen meni tashlab, Oltinsochga parvona bo'lasan, soatlab izidan ayrilmaysan, oydin kechalarda ajnabiy suyuqoyoq ayollar bilan qayiqda sayr qilasan, bularni unutish mumkin. Faqat men... Men faqat qo'limni o'ptirganim uchun buyuk bir gunoh qilgan bo'lurman, shundaymi?..

Doktor. Chunki sen ayolsan, shuni tushunasanmi?

Ofat (*istehzoli kulgulardan keyin, jiddiy*). Oh, bechora ayollar!.. Butun muhit va qonunlar ularga dushman; butun din va odatlar dushman; butun tabiat va koinot dushman!.. Chunki zaifdirlar, shuning uchun ham nohaqdirlar. Faqat erkaklar tamoman ma'sum, butun axloqsizliklari bilan ma'sumdirlar... Chunki butun qonunlarni yaratgan ular. Shuning uchun ham nohaq emaslar. Nohaq bo'lsalar-da, haqli ko'rinurlar.

Doktor. Ofat, sen erkaklarni emas, meni tahqir etayotirsan.

Ofat (*nihoyatda qizishib*). Jim bo'l, hozir aqldan ozaman. Oh, sen hatto tahqirga ham loyiq emassan. Sen o'zingning so'nik bir orzuying uchun meni qotilga aylantirding, o'z qo'lim bilan erimni zaharlatding, mehnati bilan meni parvarish qilgan bir bechorani mahv etding. Oh, endi esa...

Doktor (*hadik bilan*). O'tinaman, jim bo'l!

Ofat (*achchiq bir tabassum bilan*). Hayhot, men jim bo'lsamda, haqiqat jim bo'lmas (*ichkariga kiradi, Xondamir keladi*).

Xondamir. Nechun ichkariga kirmayotirsan, Erto'g'rulni ko'ra oldingmi?

Doktor. Yo'q, men ham endi keldim.

Erto'g'rul sarv daraxtlari orasida ko'rinadi, ularni tinglaydi.

Xondamir. Tavba, ikki kunning birida xastalik, telbalik!.. Bu bola boshimizga bir balo bo'ldi. Bechora Oltinsoch!.. O'rtada rasmiy bir narsa yo'q bo'lsa-da, hamma bu ikkisini unashtirilgan deb biladi. Oh, qizimni, qizimning istiqbolini mahv etdim.

Doktor. Ha, Oltinsoch bir olmosdir. Siz uni yo'qotgan kabisiz, faqat men u olmosni yana o'zingizga qaytarsam evaziga nima berasiz?

Xondamir (*ta'kidlab*). Nimaiki istasang...

Doktor. Agar istaganim mazkur olmosning o'zi bo'lsa-chi?..

Xondamir (*biroz jimlikdan so'ng*). Lekin Oltinsochning ko'nglini olish sharti bilan.

Doktor. Endi bu mening vazifam... (*atrofga*). O'zdamirni zaharlatganim kabi Erto'g'rulga ham bir chora toparman.

Erto'g'rul (*atrofga*). Oh, inson qiyofasidagi yirtqichlar.

Iljoy (*tashvishlangan holda chiqadi*). Sizlar shu yerdamisizlar? Erto'g'rulga nima bo'ldi, qayerga ketdi u?

Xondamir. Biz hozir keldik, hech narsadan habarimiz yo'q.

Iljoy. Oh, hozir ahvoli yana og'irlashdi. Asabiylashib tashqariga yugurib chiqib ketuvdi.

Doktor. Har holda uni yolg'iz qo'ymaslik, bir kun bo'lsa ham tezroq bu shahardan uzoqlashtirmoq, tabdili havo uchun atrofdagi qishloqlarga yubormoq lozim.

Iljoy. Yordam bering, doktor, biror chorasi bormi?

Doktor. Bundan boshqa chora yo'q, uning faqat vujudi emas, ruhi ham xastalangan... E'tibor qilinmasa, ko'p o'tmay telba bo'lib qoladi!..

Erto'g'rul. Telbami?.. (*Qahqaha*). Xo'sh, telbaning nimasi telba bo'larkan!..

Iljoy (*iltijoli*). Erto'g'rul!..

Erto'g'rul. Iltimos, sen jim tur!

Xondamir (*yaltoqli tabassum bilan*). Doktor seni yaxshi ko'rgani uchun shunday deyapti.

Doktor. Albatta, faqat seni, sening salomatligingni o'ylayapmiz.

Erto'g'rul (*asabiy va qizishib*). Oh, tulkilar, shoqollar!..

Shu payt **Oltinsoch** ham chiqadi.

Iljoy. Yo Xudo, nimalar deyapsan, o'ylasang-chi, ular mehmon... Holbuki mehmonga ehtirom lozim...

Erto'g'rul. Yo'q, ular bu uyga mehmon bo'lib emas, mening o'limimni orzu qilgan ikki jallod kabi kelganlar.

Iljoy. Uzr so'ra, o'g'lim, har ikkisidan ham uzr so'ra!..

Erto'g'rul. Meni afv et, doktor, seni tulki dedim, holbuki sen insonlarni bo'g'izlagan diplomli bir mokinasan; jonli, faqat tuyg'usiz bir sallohxona mokinasisan. (*Xondamirga*) Seni ham shoqol dedim muhtaram tog'a! Holbuki, sen ham maorif supurgisisan, aqli to'pig'ida bo'lgan g'ozsan, g'oz... Tushundingmi? (*Achchiq va telbalarcha kulgular...*)

Oltinsoch (*asabiy*). Faqat bu nazokating bilan sen o'zing kimsan, o'zing!?

Erto'g'rul (*kulgu*). Men ham tushkun bir muhitda tentigan bir sho'rlik!.. So'nik borliqlarni yoqmoq istagan bir uchqun... Panja-tirnoqlar bilan qalbi kemirilgan bir badbaxt, bir bechora... Ma'nosiz raqamlar atrofida daydigan bir nolman, hech narsaman...

Xondamir (*Doktorga*). Gaplarimizni eshitgan ko'rinadi. (*Erto'g'rulga*). Erto'g'rul! O'ylasang-chi, qanday butni sindirayotirsan.

Erto'g'rul. Butparastlikni allaqachon tashlaganman. Shuning uchun but sindirmoqdan juda zavq olaman.

Oltinsoch. Oh, sen bu ketishda aqldan ozasan.

Erto'g'rul. Ha, aqldan ozaman, boya doktor ham shunday dedi. To'g'rimi, afandim!.. (*Doktorga qarab achchiq kulgular bilan kuladi*).

Oltinsoch. Iltimos qilaman, bizni xoli qoldir!

Erto'g'rul (*istehzoli tabassum bilan*). Yo'q, iltimos bilan ketmasman.

Oltinsoch (*qizg'in*). U holda amr etaman.

Erto'g'rul (*istehzoli kulgu bilan*). Modomiki, amr etarkansan ketaman (*kulgu*). Chunki sen g'urur va buyuklik sultonisan. Chunki, sening amringga itoat qilmaslik — haqsizlikdir. Chunki sening har so'zing yashindan porloq, qilichdan keskirdir. (*Ikki-uch qadam bog'chaga qarab yuradi, yana qaytadi*). Qara, mana ketyapman... (*Achchiq va istehzoli kulgular bilan ketadi*).

Parda

UCHINCHI PARDA

Bir yildan so'ng dengiz chetida, bog'da bir xiyobon... Xiyobon bilan dengiz orasida o'rtasi ochiq, maysalar, chirmovuqlar bilan qoplangan bir chordoq... Chordoq ichida — o'ngda, so'lda o'rindiqlar... ufqqa qarama-qarshi... May oyi...

Parda ochilganda yoniq va dardli bir ovozda quyidagi turku eshitiladi;

Man oshiqman, balolar bor boshimda,
Qo'rqinchli girdoblar turmish qarshimda.
Yaralandim, dard chekdim kichik yoshimda,
Sog'aymas yarasi jo'shqin ko'nglimning

Jahon jannat bo'lsa, insonlar malak,
Tog'lar inju sochsa, dengizlar chechak,
Kuldirsa bor yig'lar ko'zlarni falak
Sog'aymas yarasi mahzun ko'nglimning.

Shu payt **Erto'g'rul Yovuz** bilan birga keladi. U endi butunlay o'zgargan. Sog'lom va baquvvat.

Yovuz. Qara!.. Bu turku go'yo sening holingni tasvir etmoqda.

Erto'g'rul. Gapirma, eshit ne demoqda.

(Turku davom etadi)

Sarxushman, kechmadim mayxonalardan,
Oqilman, dars oldim devonalardan,
Kecha oqshom o'rgandim parvonalardan
Sog'aymas yarasi mahzun ko'nglimning.

Yer yuzin qurshasa dilbar malaklar,
Manim ko'zim faqat birini izlar.
Aflotunlar kelsa bo'shdir kadarlar
Sog'aymas yarasi maftun ko'nglimning.

Yovuz. Ha, go'yoki tamomila sening qalbingni o'qimoqda; go'yoki Oltinsochning ayrilig'ida chekkan qayg'ularingni taran-num etmoqda.

Erto'g'rul (*istehzoli kulgu bilan*). To'g'ri aytasan, erib bitgan-imga ishora...

Yovuz. Demak, Oltinsochni endi sevmaysan, shundaymi?

Erto'g'rul. Faqat uni sevmoq emas, hatto muhabbat degan so'zga ham kulgim kelyapti-ki... Endi sevishim mumkin bo'lgan bir qiz topilsa, u ham mutlaqo insonlardan qochmog'i va hech kimni sevmasligi lozim.

Yovuz. U holda Olako'zning ko'nglini qozonishing lozim, chunki u ham tamomila shu fikrdadir.

Erto'g'rul. Nima ham derdim...

Yovuz. Faqat Oltinsoch!? Undagi g'urur va buyuklik topiladi-gan narsami?

Erto'g'rul. Iltimos qilaman, Oltinsochni qo'y, boshqa uning haqida gapirma.

Yovuz. Zotan bugundan keyin zarurati ham yo'q... chunki dok-torga unashildi, bo'lar ish bo'ldi.

Erto'g'rul. Nima? Doktor Qoratoygami?

Yovuz. Ha, bir oydan so'ng to'ylari bo'larmish...

Erto'g'rul. Tamom, mana bu xabardan juda mamnun bo'l-dim. Qalbimda unga oid bir soya, bir tuyg'u, so'nik bir xotira bor bo'lsa, u ham endi o'chadigan bo'ldi. (*Sukut...*). Ajabo, doktorning ma'shuqasi nima bo'ladi? Ofat, u go'zal Ofat nima qiladi?

Yovuz. Nima qilardi; shaharning butun yoshlari, eng barno yigitlari Ofat desa, esini yo'qotadilar. Faqat erkaklar emas, ayollar ham undagi go'zallikka hayron, hatto, ha, hatto o'zi ham o'z hus-niga, o'z ko'zlariga, o'z dudoqlariga maftundir. Pardoz qilarkan, ko'p bora ko'zgudagi rasmini o'pganini ko'rganlar... Ha, u doimo mag'rur va baxtiyordir (*mahzun bir sukutdan so'ng*). Men faqat baxti muzlaganlarni, tolesizlarni o'ylayman; men faqat Olako'zga, u ma'suma qizchaga achinaman. Chunki u ham ochilmasdan so'lgan pushti gulni eslatadi.

Erto'g'rul. Sen uni behuda gulga o'xshatyapsan... Menimcha, Olako'z bo'yni egik bir binafsha. Ofat bir oq nilufar, Oltinsoch esa tikanli bir guldir, tikanli gul.

Yovuz (*atrofga qarab*). Ana ona bilan qizi kelmoqda.

Erto'g'rul. Menga qolsa, ularni ona bilan qizi emas, Ofat bilan Olako'z deyish to'g'riroq bo'ladi.

Yovuz. Juda g'alati, bugun nimagadir birga yuribdilar, holbuki Olako'z doimo tanholikdan zavqlanardi va qo'lidan kelgancha Ofatdan qochardi.

Erto'g'rul. Chunki uning bir otash ekanligini biladi. Kuymayin deya qochadi.

Yovuz. Ha, bir otash, qo'rqinchli va sevimli bir otash!..

Ketadilar, **Olako'z** bilan **Ofat** keladi.

Ofat (*sho'xchan kulgular bilan*). Demak, sen kimsani sevmaysan, shundaymi? To'g'risi, horiqulodda bir tabiat!.. (*Holatini o'zgartirib*). Ko'rinadiki, sen tabiatga qarshi chiqmoq istaysan. Holbuki dunyodagi maysalarni, chekchaklarni, qushlarni, kapalaklarni, insonlarni va hayvonlarni birma-bir ko'zdan kechirsang, sevgidan mahrum hech bir maxluqqa, hech bir jonzotga duch kelmaysan.. Hatto quyoshlar, oylar va yulduzlar orasida ham shunday mustahkam bir robita bor, buzilmas bir joziba qonuni bor.

Olako'z. Tabiiy, har kimda bo'lgani kabi menda ham ko'ngil bor. Menda ham tuyg'u bor. Faqat na choraki, endilikda sevolmayman, sevilolmayman. Shubhasiz, sevsam sevilajagimga ham aminman; afsuski, na sevmoq istayman, na-da sevilmoq; chunki na unisi mumkin, na bunisi...

Ofat. Nechun Olako'z, nechun?.. (*O'rindiqqa o'tiradi*).

Olako'z (*titragan bir holda*). Chunki... qo'rqinchli bir bosiriq umidlarimni bo'g'adi, chunki... badbaxtman (*sukut*).

Ofat. Yo'q, sen baxtiyorsan baxtiyor bo'lajaksan. Chunki go'zalsan, ma'sumsan; har kim sevadi, har kim taqdis etadi. Faqat sen har kimni ham sevmasliging kerak... Har qanday yigitga ham ko'ngil bermasliging kerak. Bilganlarimdan faqat ikki yigit seni mas'ud eta oladi; ulardan biri: Erto'g'rul, biri esa O'qtoydir.

Olako'z (*dovdiragan bir holda o'rnidan turadi*). Qaysi O'qtoy?

Ofat. Sening kasalxonadagi do'sting, yosh operator.

Olako'z. Sen uni qayerdan taniysan?

Ofat. (*nimkulgu bilan*). Mening ko'zlarim juda uzoqni ko'radi. Qalbim eng sirli muhabbatlarni sezadi; senga oid neki bor bo'lsa, hammasini anglayman, hammasini bilaman; hatto ro'yoda ham sendan ayrilmayman. Kecha-kunduz sening kelajagingni, sening saodatingni o'ylayman.

Olako'z (*xo'rsinib*). Hayhot! Kechmishim qorong'u bir tun, kelajagim ham aldamchi bir sarobdir.

Ofat (*turadi, g'amgin*). Oh, sen doim qo'rqinchli xayollar, kulguli iztiroblar ichida o'zingni qo'yarga joy topolmaysan... qara, ana, O'qtoy kelayotir. Sen u bilan biroz suhbatlashib, aylan, men ham yolg'iz o'zim dengiz oqshomini tomosha qilaman. (*Uzoqlashadi, O'qtoy keladi*).

O'qtoy (*qo'l uzatadi*). Aybga buyurma, Olako'z. Seni ko'p kuttirib qo'ydim, shunday emasmi?

Olako'z. Zarari yo'q.

O'qtoy. Bu ayol kim?

Olako'z. Uni Ofat deydilar

O'qtoy. Nechun ayrildingiz, halaqit berdimmi?

Olako'z. Yo'q.

O'qtoy. Kimlardan, ajabo?

Olako'z (*qizargan va titragan bir holda*). Keyin tushuntiraman, endi kel, shom manzarasini tomosha qilaylik. (*Dengizga boqadi, majzub bir holda*). Voy, yo Rabbiy, na qadar go'zal!.. Quyoshning bunday dilbar qizilligini, rangorang bulutlar orasida botganini hech xotirlay olmayman.

O'qtoy. Haqiqatan, botish tarafi go'yo jannat bog'chasi... Quyosh esa uyalganidan qizarib, chechaklar ichiga ko'milgan bir qishloq qiziga o'xshaydi. (*Boshqa tarafga qarab*). Endi mana bu tomonga qara! Yangi chiqayotgan bu so'lg'in oyga, bu zahil chehraga boq!.. Go'yoki rangi za'faron, erib tugayotgan bir oshiq kabi o'z sevgilisini izlaydi.

Olako'z (*sho'x tabassum bilan*). Oh, bu erkaklar juda g'alati; barchasi bir xastalikka mubtalo... Hammasining ham o'zi, so'zi, dardi, o'y-xayoli faqat ishq, mudom ishqdir. Neki ko'rsalar, unda bir go'zallik, bir muhabbat ko'rurlar.

O'qtoy. Albatta, dunyoda go'zallik va muhabbatdan totli yana nima bor!?

Olako'z (*istehzoli*). Ha, go'zallik va muhabbat?!

O'qtoy. Menimcha, butun jahonni xalos etadigan ikki kuch bor; u ham muhabbat va go'zallikdan iboratdir.

Olako'z (*o'rindiqqa o'tiradi, istehzoli tabassum bilan O'qtoyning qo'lidagi kitoblarni ko'rsatadi*). Aftidan, bu fikrlarni qo'lingdagi kitoblardan olgan ko'rinasan?

O'qtoy (*qo'lidagi uch jild kitobni uzatib*). Ha, mutolaa qilsangiz, shubhasizki, nohaq emasligim ma'lum bo'ladi.

Shu payt **Yovuz** bilan **Erto'g'rul** keladi.

Erto'g'rul. Marhabo...

O'qtoy. Marhamat. (*Hammalari yengil tamanno bilan salomlashadilar*).

Olako'z (*kitoblarni bitta-bitta ochadi*). Bu she'r devoni, bu musiqa parchalari, bu esa diniy falsafalar?.. Hammasining ham ruhi, mazmuni, g'oyasi faqat va faqat muhabbatdan iboratdir (*O'qtoyga*). Bular ikki kun menda qolsa bo'ladimi?

O'qtoy. Juda yaxshi, nega bo'lmas ekan.

Erto'g'rul. Ko'raylik-chi, qanday she'rlar ekan... (*Kitoblarni olib ko'radi, betakalluf va beparvo bir qiyofada o'rindiq ustiga tashlaydi; kuchli va istehzoli kulgular bilan*). She'r!.. Musiqa!.. Din!.. (*Holatini o'zgartirib*) . Xudo haqqi, bu kitoblardan, bu mutolaalardan voz kech! Bu doiraga olingan she'rlardan, notaga kirgan musiqalardan qoch! Bu kitoblarni yozgan dinlardan, mahzablardan uzoqlash!

Dunyoda yolg'iz bir she'r, bir musiqa, bir din manbayi borki, u ham tabiatdir.

She'r istaysanmi?

Asli oshiqlar iztirobi, faylasuflar tafakkuri, yetimlarning xo'rsinig'i, kimsasizlarning ko'z yoshlari, yulduzlarning yorqinligi,

oqshomning mahzunligi, kechaning sukuti, fazoning cheksizligi o'zi bir she'rdir. Ha, har oh, har tabassum, har nola, har faryod; har po'rtana, har girdob o'zi bir she'rdir.

Musiqa istaysanmi?

Daryolarning, irmoqlarning allasi, dengizlarning, shalolalarning shovqini, arslonlarning, yashinlarning na'rasi, yengil shabbodaning zumzumasi[1]; yaproqlarning, chechaklarning o'pishishi; bulbullarning, ishoqlarning[2] chug'ur-chug'uri butkul bir musiqadir. Oshufta ko'ngillarning o'tli taronasi; jajji go'daklarning totli qiqir-qiqiri, qo'zichoqlarning ma'rashi ham boshdan-oyoq musiqadir.

Din istaysanmi?

Har yulduzning inja tabassumi, quyoshning charog'on boqishlari, har kuni yangi din, yangi mahzab yaratadi. Har oqshomning bemajol nafasi, har kechaning sassiz qorong'uligi shu kungi quyosh bilan birga shu kungi dinning mozori-adamga[3] ko'milganini e'lon qiladi. Hatto har faslning, har oyning, har haftaning, har kunning Allohlari ham, payg'ambarlari ham, dinlari-yu kitoblari ham bir-biridan ayri, bir-biriga yovdir.

O'qtoy. Demak, sen hamma narsani tabiatda ko'rasan, shundaymi?

Erto'g'rul. Albatta, tabiat hamma narsadir.

Olako'z (*atrofga qaraydi, O'qtoyga*). Ketmaymizmi?

O'qtoy (*kitoblarni olib*). Hali kasalxonaga borishga erta, biroz sayr qilaylik, keyin...

Olako'z. Juda yaxshi (*Yovuz va Erto'g'rulga*). Bizga hamrohlik qilsangiz mamnun bo'lardik.

Erto'g'rul. Faqat ko'nglimiznigina sizga hamroh eta olamiz.

Olako'z. Demak, mendan qochmoqchisiz, shundaymi?

Erto'g'rul. Biz bir ko'rshapalakmizki, mudom quyoshdan qochamiz.

---

[1] **Zumzuma** — mayin qo'shiq *(yarim ovozda)*.

[2] **Ishoq** — haqqush.

[3] **Mozori-adam** — yo'qlik.

Olako'z (*tabassum bilan*). Tashakkur etaman, ammo yana bir gulni oqizib yubordingiz.

Ketadilar,

Yovuz. Nechun bormading?

Erto'g'rul. Balki yolg'iz sayr etmoqchidirlar.

Yovuz. Holbuki o'zi xohlagandi.

Erto'g'rul. U bir lutf va nazokat edi.

Yovuz. Oh, sening bu istig'noli hollaring!..

Erto'g'rul. Bilasanmi, azizim, Olako'z sayr etmoq uchun emas, uzoqdan Ofatni ko'rgani uchun ketdi.

Yovuz. Qani? Qayerda?

Erto'g'rul. Ana, Qoplonbey bilan birga kelmoqda, yur, ketaylik endi...

Boshqa tomonga ketadilar. **Ofat** va **Qoplon** keladi.

Ofat (*kuchli kulgudan keyin*). Oh, yoshlik, go'zallik qanday buyuk saodat!.. (*ko'zlari yoshlanadi, ro'molcha bilan artadi*).

Qoplon (*sarosima bilan*). Ofat bu ne hol? Sen kulyapsanmi, yig'layapsanmi?

Ofat. Ha, kulyapman, faqat ko'z yoshlarim bilan birga; yig'layapman, faqat kulgular bilan birga...

Qoplon. Nechun, ayt, nechun?..

Ofat. Chunki men har qonunga qarshi yaratilgan bir maxluqman. Manim har sevinchimda bir falokat, har falokatimda bir baxtiyorlik bor. Men dushmanimga maftun bo'laman, sevgilimni jallod kabi bo'g'izlayman. Ha, shunday, men yig'lab turib kulaman, kulib turib yig'layman. (*Takror shan va quvnoq kulgular bilan kula boshlaydi*).

Qoplon. Zotan, tabiating ham go'zalliging kabi o'ziga xos!..

Ofat. Ayt, Xudo xaqqi, ayt! Oltinsoch doktorga unashildi, shundaymi?

Qoplon. Ha,

Ofat. Bir oydan keyin to'ylari bo'ladi, to'g'rimi?

Qoplon. Ha.

Ofat. Bir oydan so'ng, o'ttiz kundan so'ng, na qadar kech, na qadar tez!.. (*kulgu*). Bir oy o'ttiz yildan ham uzun, o'ttiz daqiqadan ham qisqadir. (*Kulgu*).

Qoplon. Boya shuning uchun yig'ladingmi?

Ofat. Yo'q... Bu yig'lanajak narsa bo'lsa ham men undan kulaman (*kulgu*). Faqat u dudoqlar kecha mening oyoqlarimni o'pardi, bugun Oltinsochning dudoqlarini so'radi. U nusxa sal avval mening qo'limda o'yinchoq edi, saldan keyin Oltinsochni o'z qo'lida o'ynatadi...

Qoplon. Bo'lar ish bo'ldi... Qo'rqmas ham shu yerda, birga sayr etmaymizmi?

Ofat. Yo'q, juda charchaganman, biroz o'tiraylik (*chordoqdagi o'rindiqqa o'tiradilar*).

Qo'rqmas (*keladi. Yengil bir tamannodan so'ng*). Mumkinmi?

Ofat (*mamnun*). E-ha, kel, qani.

Qo'rqmas Ofatning qo'lini o'padi, **Qoplon** bilan ham qo'l berib ko'rishgach, o'tiradi, shu payt **Ofat**ning qo'lidagi shamsiya yerga tushadi, har ikkisi ham birdan uni olmoq uchun engashadilar. **Qo'rqmas** ilgariroq olib uzatadi.

Ofat. Tashakkur.

Qo'rqmas. Arzimaydi.

Ofat (*Qoplonga*). Anavi yerdagi bufet ochiqmi?

Qoplon. Ochiq, nima istaysiz?

Ofat Bir qadah liymonad bo'lsa, mamnuniyat-la ichardim.

Qoplon (*turadi*). Hozir aytaman, olib keladilar (*ketadi*).

Ofat (*Qo'rqmasga*). Xo'sh, gapir, qayerlarda eding?

Qo'rqmas. Bir oydirki, qishloqda edim, juda shoirona va go'zal kunlar kechirdim.

Ofat. Oh, bir oy, o'ttiz kun!.. O'ttiz yildan uzun, o'ttiz daqiqadan qisqa... (*Alamli kulgulardan keyin*). Ha, o'lmoq istaganlar uchun juda uzun, juda kech... Sevmoq va yashamoq istaganlar uchun tez va qisqa...

Qo'rqmas. Faqat bu nima deganingiz? Bu gaplar xayolingizga qayerdan keldi?

Ofat. So'rama, go'zal bola, unisini hech so'rama!

Qo'rqmas. Ofat! Nechun ismimni aytmaysiz?

Ofat. Chunki menga "siz" deb xitob etasan; chunki ham yosh bolasan, ham go'zal... Shuning uchun bu ism senga yanada uyg'un... (*nimkulgu bilan*). Ha, go'zal bola, bu ham senga mendan yodgor bo'lsin.

Qo'rqmas. Yaxshi, sevikli Ofat! Shunday bo'la qolsin (*Ofatning qo'llarini ushlab*). Oh, seni na qadar sevishimni bilsayding...

Ofat (*sho'x kulgular bilan*). Nechun?.. Juda go'zalmanmi?

Qo'rqmas. Bilmadim, lekin har sahar seni og'ushiga olgan ko'zguga boqib, so'rab ko'r, u nima derkin...

Ofat (*kichik bir ko'zgu chiqarib qaraydi*). Ha, yanglishmaysan: ayniqsa, bu fusunkor ko'zlarni, bu jajji dudoqlarni na qadar sevaman, e voh, Yo Rabbiy, na qadar sevaman (*ko'zgudagi aksini maftun bir holda o'padi*).

Qo'rqmas. Oh, bu tuyg'usiz ko'zgu, bu ma'nisiz shisha parchasi baxtiyor bir raqib kabi ruhimni titratadi, asablarimni zirqiratadi.

Ofat. Nechun, go'zal bola, nechun?

Qo'rqmas. Seni quchgani uchun, bu latif dudoqlarni o'pgani uchun.

Ofat. Faqat shuni unutmaki, bu tuyg'usiz ko'zgu ba'zi xoin yuraklarga nisbatan vafoliroqdir, sadoqatliroqdir...

Qo'rqmas. Ajabo, u xoinyurak kim, nechun ochiqroq so'zlamaysan? Yo'q; sen bir oy avvalgi Ofat emassan.

Ofat (*hazin tabassumlar bilan*). Oh, bir oy!.. O'ttiz kun!.. Aslida, ayriliq chekkanlar uchun o'ttiz yildan ham uzun, sevishib yetishganlar uchun o'ttiz daqiqadan ham qisqadir...

Qo'rqmas. Ofat, senda o'zga hollar ko'rayotirman; bu so'zlar nechun? Bu kinoyalar nechun?..

Ofat. Bir oydan keyin dunyo ostin-ustun bo'ladi, umidlar so'ladi, yig'laganlar kuladi, kulganlar xo'rlanadilar (*hayajondan yoshlangan ko'zlarini artib, o'ta asabiy*). Oh, men nechun bu xoin muhitga tushdim, nechun yaratildim!? Nechun qotil bo'ldim, nechun aldandim!? (*O'rindiqqa suyanadi; qo'llari bilan yuzini bekitadi*).

Qo'rqmas. E voh, nimalar eshitayotirman. Ofat!.. Menga qara, Ofat! Nechun mulohaza qilmaysan, nechun aziyat chekyapsan?

Ofat (*horg'in va hushsiz bir holatda*). Uf, buni o'zim ham bilmayman (*sukut*).

Qo'rqmas (*Ofatni quchoqlaydi*). Ofat! Sevikli Ofat! Bu yerda hech kim yo'q. Qalbingda ne bo'lsa, och, so'zla, unutmaki, Qo'rqmas sening eng ojiz itoatgo'yingdir.

Shu payt Qoplon qo'lida bir guldasta bilan bir shisha liymonad, keladi. Olako'z va O'qtoy ham boshqa tarafdan chiqib keladilar.

Olako'z (*Qo'rqmasning Ofatga yopishib turganini ko'rgach, asabiy va telbavor bir faryod bilan*). Oh, yo Rabbiy!.. (*Deya hushidan ketadi. O'qtoyning quchog'iga yiqiladi*).

Parda

TO'RTINCHI PARDA

Nihoyatda nozik did va nazokat bilan bezatilgan bir xona. O'ngda, so'lda va ro'parada bittadan eshik. Dahlizga qaragan ikki deraza, kunduz... **Olako'z** asabiy va o'ychan bir holda stol oldida o'tiribdi; stol tortmasidan bir dasta maktub oladi, bitta-bitta yirtib stol ostidagi savatga tashlaydi.

Ofat (*yuzi so'lg'in, sochlari parishon, qo'lida ikki maktub bilan keladi*).

Nima qilyapsan, bolam! Nechun bu maktublarni yirtib tashlayotirsan?

Olako'z. Chunki o'tmishni unutmoqchiman.

Ofat. Gunoh emasmi? Ular ko'p aziz va qimmatli xotiralar...

Olako'z (*yana birini yirtib otadi*). Ha, aziz va qimmatli xotiralar... bari yolg'on sajda va muhabbatlar, bari yaltoqli nazokatlar!..

Ofat (*tabassum bilan*). Ayol ruhini erkalagan bir narsa bor bo'lsa, u ham yolg'iz muhabbat va ixlosdir.

Olako'z. Na ilojki, yangi hayotga kirmoq uchun eskilariga vido aytmoqchiman.

Ofat. Modomiki eskilari seni qiynar ekan, ma, ol, yangilarini o'qi! (*Maktublarni beradi.*)

Olako'z. Shubhasiz, yana eski tarona, yana yangi afsona. (*Birinchi maktubni ochib ko'radi.*)

Ofat. Faqat bu tushunarsiz hollaring bilan meni xarob qilasan, xasta jismim kundan-kun ado bo'lib borayotir.

Olako'z (*maktubni o'qib bo'lgach, asabiy*). Oh, qanday noshoyon hollar!..

Ofat. Ne ekan, ajabo?..

Olako'z. Hech... Arzimas bir gap... (*Ikkinchi maktubga qaraydi*).

Ofat. Olako'z, Olako'z! Nechun menga qalbingni ochmaysan, axir?

Olako'z (*titragan bir holda*). Yo Rabbiy! Bu ham o'shanday... Bu ham zaharli bir o'q, bu ham tig'li bir xanjar!..

Ofat. Nima yozilgan, nechun indamaysan?

Olako'z (*maktublarni g'ijimlab savatga tashlaydi va o'rnidan turib ro'paradagi eshikka qarab yuradi, achchiq tabassum bilan*). Menga topinganlar endi ta'na-malomat qilmoqdalar; meni muqaddas deb bilganlar endi tahqir etmoqdalar.

Eshikni ochib chiqadi. Ofat maktublarni savatdan oladi, xavotir bilan qaraydi. Boshqa tortmani ochib bir kichik revolver oladi, diqqat bilan qaraydi, peshonasini nishonga olib turgan bir paytda ro'paradagi eshik barmoq uchi bilan chertiladi. Qurolni yashirib, eshikni ochadi, doktor Qoratoy kirib keladi.

Ofat. Oh, senmisan?.. Kel, qani, seni kutayotgandim.

Doktor (*uning qo'lini o'pib*). Ofat! Nima, betobmisan?

Ofat. Ha.

Doktor. Kechirasan, shu paytgacha bundan bexabar ekanman...

Ofat (*achchiq tabassum bilan*). Buning hayratlanarli joyi yo'q, yorug' kunga chiqqanlar, qora kundagilarni o'ylamaslar. To'yining hozirligini ko'rayotganlar tolesizlar holini bilmaslar.

Doktor. Sen nihoyatda asabiylashgansan, bu hol o'zingni ham, Olako'zni ham badbaxt etadi.

Ofat. Olako'z baxtiyor edi, men uni baxtsiz qildim. Ammo meni baxtsiz qilgan sen bo'lding, yolg'iz sen!..

Doktor. Yo'q, bil'aks, sen yengil-yelpi qiliqlaring bilan o'zingga o'zing qilding, o'zingga o'zing xiyonat qilding.

Ofat (*achchiq kulgu bilan*). Holbuki totli tillar bilan avragan sen... Erimning qotili qilgan sen... Boshi berk ko'chada adashtirgan ham sensan (*qizg'in va asabiy*) . Shu qadar bechora bir qul kabi qarshimda tiz cho'kding, bo'yin egding, keyin meni tashlab boshqalarni tutding. Goh raqqosalarga ilakishding, goh Oltinsochni topding... oh, endi, endi esa meni tahqir etayotirsan, meni aybdor qilayotirsan.

Doktor. Ofat meni bu yerga nega chaqirding?

Ofat. Seni sevganim uchun, senga bosh egganim uchun.

Doktor. Oh, qanday chiroyli yolg'on!..

Ofat. Yo'q, yolg'on aytmayotirman. Uyqusiz kechalar haqqi, yig'lagan ko'zlar haqqi, go'zallik va muhabbat haqqi, men yolg'iz seni sevaman, yolg'iz sen bilan bo'lishni istayman. Ha, ma'sum go'dak nurdan, rangdan qanday rohatlansa, men ham sendan, sening visolingdan shu qadar zavq olaman.

Doktor (*nimanidir sezganday ro'paradagi eshikka qaraydi*). Kimdir keldi. Men ketaman.

Ofat. Yo'q, shoshma, so'zim hali tugamadi; shu yerda biroz kutib tur, keyin ketasan.

Doktor (*o'ng tarafdagi xonaga kiradi*). Faqat ko'p kechikma!

Ofat. Hozir, azizim, hozir (*eshikni ochadi, Qo'rqmas qo'lida bir dasta gul bilan kiradi*). Senmiding?.. Kel!..

Qo'rqmas (*qo'lini o'padi, gulni uzatadi, hayrat bilan*). E voh, qanday buyuk o'zgarish; qanday dahshatli inqilob!..

Ofat. Juda o'zgarganman, shundaymi?..

Qo'rqmas. Shunday, juda... sal qoldiki, tanimasam.

Ofat. Uf, kim bilsin, qay darajada xunuklashdim; bir oy avvalgi Ofat qayerda? Yuz-chehram shunday so'lganki, ko'zguga qarashga jasorat etolmayman.

Qo'rqmas. Oh, men so'lg'in chechaklarni juda sevaman.

Ofat. So'lg'in chechak!.. Ha, so'lg'in bir chechak qanday qurisa, qora tuproqqa qanday o'zini taslim qilsa, men ham... oh, men ham...

Qo'rqmas (*ta'sir va xavotir bilan*). Ofat! Nimalar deyapsan? Nima demoqchisan?

Ofat. Aytmoqchimanki, mening go'zalligim so'nayotir. Chehramda inja burishiqlar, mayda chiziqlar ko'rinmoqda; oh, men unga aslo toqat qilolmayman. Menimcha, go'zal bir ayol doimo go'zal bo'lib qolsin... Go'zallikka vido aytsa, hayotga ham vido aytsin... darajama-daraja so'lmoq har kun oz-ozdan o'zini o'zi o'ldirmoqdir. Yillab yonib-qovrilmoqdan ko'ra bir onda kul bo'lib ko'kka sovurilmoq yana ham yaxshi, yana ham go'zaldir.

Qo'rqmas. Ofat, meni ma'yus qilayotirsan.

Ofat. Yo'q, go'zal bola! Ma'yus bo'lma! Kel, kel, seni ilk va so'nggi bor o'pay (*devonavash bir qiyofada bir-biriga yaqinlashib quchoqlashmoqchi bo'ladilar. Ofat darhol ortga chekinadi va qo'li bilan rad etadi*). Oh, yo'q, qo'y!.. Qo'y, kerakmas. Chunki sening otashli dudoqlaring meni yondiradi, xasta ruhimni yondiradi... (*Ro'paradagi eshikni ochadi*). Uf! Menda boshqa bir holat; ket, bola, ket!.. Aslo, boshqa kela ko'rma, boshqa meni sog'inma!..

Qo'rqmas. Nechun, sevgili Ofat, nechun?..

Ofat. Chunki men sham yanglig' so'naman, kimsasiz zulmatlarga, cheksiz bulutlarga qovushajakman.

Qo'rqmas. Ofat! Bu so'zlarni aslo tushunmayapman. Oh, faqat bir bora, bir boragina o'zimni quchog'ingda ko'rmoq istardim.

Ofat. Juda soz, azizim, kel!.. Kel seni bir boragina bo'lsa ham erkalab sevay (*quchoqlashib o'pishmoqchi bo'lganlarida Olako'z keladi. Har ikkisi sarosima bilan ortga chekinadilar. Sukut... Qo'rqmas ketadi, Ofat Olako'zning qo'llariga osilib*). Kechir meni, kechir; jasoratim butunlay jununga aylandi... men afvga loyiq emasman; faqat yana yolvoraman, meni kechir... (*quchoqlab o'padi*).

Olako'z (*mamnun va jilmayib*). Hech siqilma, onajonim! Sevmoq va sevilmoq bir haqdir. Sening ko'ngling nima istasa, men shuni orzu qilaman. Hatto seni shunday baxtiyor ko'rgach,

ko'nglim ochiladi. Go'yoki har quvonchingga, har saodatingga sherik bo'laman.

Ofat. Oh, sening bu nazokating intiqom qadar mudhishdir.

Olako'z. Har holda men seni juda yaxshi ko'raman.

Ofat. Kim bilsin, balki yaxshi ko'rmaganing uchun yaxshi ko'rarsan.

Olako'z. Yo'q, yolg'iz seni emas; endi men har kimni, har kimni sevmoq istayman (*ro'paradagi eshik barmoq uchi bilan chertiladi*).

Ofat. Ajabo, kim bo'ldi ekan?

Olako'z (*ochadi*). O'qtoy!.. (*Qo'l uzatadi, O'qtoy o'ta jiddiy va sovuqqon ko'rinadi*).

Ofat. Marhamat, azizim, o'tiring... faqat meni kechirasiz... Uzr (*chap eshikdan chiqadi*).

Olako'z. Nimani o'ylayapsan, nechun o'tirmayapsan?

O'qtoy. Chunki... ketmoqchiman.

Olako'z. U holda nega kelding?

O'qtoy. Esdalik uchun bergan rasmimni, mana buni olmoq uchun (*Devordagi rasmlardan birini oladi*).

Olako'z. Oh, ham qo'rqinchli, ham kulgili bir hol! Faqat sababini bilsaydim...

O'qtoy. Sababi ravshan; qo'pollik bo'lsa ham aytaman (*chap eshikka ishora qilib*). Unday bir onaning qizi bilan ko'rishib uchrashmoq, qo'rqinchli girdoblarga tashlanmoqdir.

Asabiy odimlar bilan chiqib ketadi.

Ofat (*keladi*). Ketdimi?

Olako'z. Ha, ketdi.

Ofat. Nimalar deyayotgandi?

Olako'z. Hech...

Ofat. Eshitdim, hammasini eshitdim. Rasmini qaytarib oldi, sendan aloqasini uzmoq istaydi. Yolg'iz u emas, atrofingda parvona bo'lgan butun yoshlar, kichik bir navozishing bilan g'ururlangan yigitlar; endi butunlay sendan qochayotirlar, butunlay seni xo'rlayotirlar. Holbuki hammasiga sababchi qarshingda turgan shu baxtiqarodir (*ro'molcha bilan ko'z yoshini artadi*).

Olako'z. Oh, onajonim! Suyukli onajonim!.. (*Ofatga yopishib o'padi*). Tashvishlanma, bu tahqirlarning hech bir ta'siri yo'q... Chunki men kimsani sevmadim... Shuning uchun xafa emasman (*chapdagi xonaga qarab yuradi, yana qaytadi, Ofatga o'rog'liq bir maktub beradi*). Mumkin bo'lsa, buni Erto'g'rulga yuborsang. Men toliqdim. Ozroq dam olmoqchiman (*chap eshikni ochib chiqadi*).

Ofat (*Maktubning jildini havoga tutib qaraydi, hayrat bilan*). Bu sochlar nima?.. Yo'q, bu maktubda bir sir bor, ko'ray-chi, nimalar yozilgan ekan (*jildni ochadi, turli vaziyatlarda o'qib ko'radi*). "Erto'g'rul, onam xastadir, g'aribdir, uni unutma!.. Mumkin bo'lsa, avvalgi yurtiga, qarindoshlariga yubor. Bir soatdan so'ng meni ko'rmaysan. Alvido!.. Seni butun ruhi-la sevgan va hasratini qabrga olib ketgan Olako'z" (*titragan bir holda*). Oh, yordam bering, yo Rabbiy!..

Erto'g'rul (*xavotir bilan*). Olako'z qayerda?

Ofat. Nima, nima bo'ldi?

Erto'g'rul. Dorixonadan zahar olgan, hozir menga aytishdi.

Ofat. Oh, boyagi muhabbat va nazokatlarining sababini angladim (*Olako'z kirgan eshikni ochmoqchi bo'ladi*). E voh, eshikni zanjirlab olibdi... (*Eshikni qoqadi*). Olako'z!.. Oh, ovoz ham, javob ham yo'q...

Erto'g'rul. Men hozir yon derazadan kiraman (*tashqariga yuguradi*).

Ofat. Olako'z! Och eshikni... Eshikni och, bolam... (*Tashqaridan derazaning urilgani va oynaning singani eshitiladi. Ofat qayta chaqiradi*). Olako'z! Oh, qanday dahshat, qanday qo'rqinchli falokat!..

Erto'g'rul (*bir qo'lida zahar shishasi, bir qo'lida Olako'zning qo'lidan tutib eshikni ochib chiqadi, parishon bir kulgu bilan Ofatga*). Erto'g'rul o'limdan ham baxtiyor ekan, ha, men Azroyildan ham tez harakat qildim.

Ofat (*shishani Erto'g'rulning qo'lidan oladi, achchiq bir tabassum bilan Olako'zga*). Haqlisan, malagim, butun bu falokatlarning sababchisi menman, lekin bundan so'ng jallod bo'lishni xohlamayman, hoziroq yo'l tadorigini ko'raman; chunki sen

bugun baxtiyorsan. Erto'g'rulning xavotiri (*qo'lidagi maktubni ko'rsatadi*) va sening maktubing har ikkovingizni birlashtirdi. Men faqat shuni orzu qilaman.

Olako'z. Bir maktubki, o'lim panjasida yozilgan, uning qanday ahamiyati bo'lsin?

Erto'g'rul (*ma'noli bir tabassum bilan*). O'lim barcha sirlarning onasidir.

Ofat (*Olako'zga*). Bolam, aminmanki, sen Erto'g'rulni sevasan, faqat uning tomonidan sevilajagingga shubha qilasan.

Erto'g'rul. Holbuki Erto'g'rul unga sajda qiladi.

Olako'z. Yo'q.. yo'q... men aslo sevilishga loyiq emasman.

Ofat. Nima uchun? Senmi, sen loyiq emasmisan? (*sho'x bir tabassum bilan*). Holbuki sen butun qizlar ichida porloq bir olmos, dilbar bir chechak, ma'sum bir malaksan.

Olako'z (*asabiy va titroq bir tovush bilan*). Ha, olmos! Faqat dog' tushgan bir olmos! Chechak! Faqat balchiqdagi chechak... Malak! Faqat la'natlangan bir malak...

Ofat. Nechun, oh, nechun?..

Olako'z. Chunki... buzuq bir onaning farzandiman (*go'daklarcha bir ho'ngrak bilan yig'laydi. O'zini Ofatning quchog'iga tashlaydi*).

Ofat (*achchiq kulgu bilan*). Yo'q, men sening onang emasman, sen hali ikki yoshdaligingda onang tarki hayot qilgan.

Olako'z. Oh, yo Rabbiy!.. Nimalarni eshityapman?

Ofat. Ha, otang meni keyin olgan, men esa seni ko'z qorachig'iday asradim, ma'sum bir malak kabi voyaga yetkazdim (*asabiy va hayajonli*). Oh, men axloqsiz emasdim, faqat O'zdamirning sarxushligi, e'tiborsizligi meni mahv etdi... So'ngra doktor Qoratoy yo'ldan urdi; unga mubtalo bo'ldim, qotilga aylandim, otangni zaharladim.

Olako'z. Oh, bas qil!.. Xudo haqqi, bas qil!..

Ofat Ha, men sening onang emasman... Men qotil, jallod, buzuq bir ayolman (*cho'ntagidan ikki-uch parcha qog'oz chiqarib, Olako'zga beradi*). Mana bu qog'ozlarni diqqat bilan o'qi, kimligingni tezda bilib olasan, men ketaman, endi meni unut!..

Seni unga... (*Erto'g'rulni ko'rsatadi*) topshirdim. (*Doktor kirgan xonaga kiradi*).

Erto'g'rul. Qara, ko'rdingmi, o'lim boshqalarni ayirarkan, bizlarni birlashtirdi.

Olako'z (*qog'ozlarga boqarkan, mahzun tabassum bilan*). Oh, demak mening onam nopok emas...

Erto'g'rul. Butun dunyo nopok bo'lsa ham, sening ismatingdan bir zarra kamaymaydi (*Olako'zning yuzini silab*). Faqat Ofatga achinaman... Oh, nechun ko'nglini og'ritding? Bor, yolvorib, yalinib ko'nglini ol!.. Kecha gumrohlik qilgan bo'lsa, bugun to'g'ri yo'lni topa oladi. Iltimos qilaman, bor!

Olako'z. Xo'p, Erto'g'rul, xo'p. (*Eshikka yaqinlashgan paytda o'q ovozi eshitiladi*).

Doktor. Oh, g'addor, xoin, jallod! (*Deya eshikni ochadi, yaralangan holda Olako'zning qarshisida yiqiladi*).

Olako'z. E voh, yo Rabbiy!..

Erto'g'rul. Nima qilding, Ofat, oh, nima qilib qo'yding?

Ofat (*qo'lida qurol, achchiq kulgular bilan*). O'zdamirning o'chini oldim, o'zimning o'chimni oldim (*jasadga*). Sen meni unutding, go'zalligimni tahqir etding; mana go'zalligimning o'chini oldim. Oh, intiqom vahshatlarning eng olchog'idir, lekin o'zimni tiya olmadim, afv et!.. (*istehzoli kulgular bilan*). Oh, sen bu oqshom to'y qilmoqchi eding, Oltinsochga qovushmoqchi eding... Holbuki men bunga rozi bo'lolmayman, chunki... seni juda sevaman (*stol ustidagi guldastalar bilan jasadni bezatadi*). Oh, ha, sendan ayrilishni istamayman, bu dudoqlar mendan boshqasini o'pmasligi lozim (*jasadni quchoqlab o'padi, favqulodda bir hayajon bilan turadi va qo'lidagi revolverni chakkasiga tiraydi*). Endi esa navbat menga keldi.

Erto'g'rul (*darhol qurolni tortib oladi*). Nima qilmoqchisan? Shuning o'zi yetarli emasmi?

Ofat (*achchiq tabassum bilan*). Menga rahming kelyaptimi? (*Asabiy va betoqat*). E voh, yo Rabbiy!.. Oh, aqldan ozyapman.

Olako'z (*mungli*). Onajonim!.. Suyukli onajonim! (*Borib quchoqlamoqchi bo'ladi*).

Ofat (*ortga chekilarkan, bir tarzda*). Nari tur, yaqinlashma... Meni xoli qo'y! (*O'ng tarafdagi xonaga kiradi.*)

Olako'z. Oh, bechora ayol!

Erto'g'rul. Yo'q, uni xoli qoldirib bo'lmaydi, sen ham bor!.. (*Hayajon va xavotir bilan.*) Oh, u o'zini halok etadi... (*Darhol ichkari kirmoqchi bo'ladi.*)

Ofat. Oh, (*deya qo'lida tutgan shishadagi zaharni so'nggi tomchisigacha ichgan holda ularning oldiga chiqadi va shishani yerga uloqtiradi*).

Olako'z. E voh, nima qilding?.. (*Quchoqlaydi.*)

Ofat. Unga... oh, faqat unga yetishmoq... (*holsizlanib jasad ustiga yiqila boshlaydi.*)

Olako'z. Uf, onajonim!.. (*quchoqlab o'ksik ovoz bilan yig'laydi*).

Ofat. Oh! (*Deya zaif bir harakat bilan jon taslim qiladi.*)

Erto'g'rul (*achchiq va ma'noli bir ohang bilan qo'lini stol ustiga urib*). Ofat!.. Ofat!..

Parda

MOROL

To‘rt pardali fojia

Ishtirok etuvchilar

Turxonbey — o‘rta bo‘yli, to‘ladan kelgan bir mulkdor, milliy qiyofada, 48 yoshda.

Morol — Turxonbeyning harami; hassos, ixcham jussali, qorachadan kelgan, qiz, 16 yoshda.

Jamilbey — Turxonbeyning o‘g‘li. Nimjon ko‘rinishli bir yigit, 27 yoshda.

Beypo‘lat — baland bo‘yli qirg‘iyboqishli bir texnik (muhandis), milliy (dog‘istonli) qiyofada, 45 yoshda.

Saltanat — Beypo‘latning singlisi, eski dog‘istonli qiyofasida, 42 yoshda.

Humoy — Beypo‘latning jiyani, Saltanatning qizi... Benihoya go‘zal va ma’lumotli bir qiz, 22 yoshda.

Nodirbey — Advokat, 36 yoshda.

Chingizbey — to‘pchi polkiga mansub bir zobit, 32 yoshda.

Arslonbey — Turxonbeyning do‘stlaridan; xushsurat, merosxo‘r bir boyzoda; milliy qiyofada, 25 yoshda.

Qozi — Badbashara bir qariya; 70 yoshda.

Doktor — o‘rta yoshli bir rus.

Oshiq Sulton — Haq oshig‘i, qishloqli qiyofasida.

Nozli — yangi ruhli, dindor bir ayol, eski qiyofada.

Bayram — Turxonbeyning xizmatchisi, 30 yoshda.

Yoshbirlezgi — Beypo‘latning xizmatchisi.

BIRINCHI PARDA

Voqea Kavkaz shaharlaridan birida bo'lib o'tadi.

Sahna: oqshom vaqti Turxonbeyning uyida devori, to'shamasi holi gilamlar bilan bezalgan, ovrupocha bir qabulxonasi ko'rsatiladi. Devorda Shayx Shomilning rasmi bilan bir katta devor soati va bir oyna osilgan, o'ngda va chapda bittadan eshik, bog'ga qaragan ikki-uch deraza, ikkita katta lampa, kursilar, stollar va boshqalar...

Morol chap tarafdagi ochiq qoldirilgan eshikdan ichkari kiradi, o'z holidan mamnun emasligi yuz-ko'zidan seziladi. Derazalardan birini ochib bog'ni tomosha qiladi, eshitilayotgan bulbul nag'malarini tinglab mahzun va o'ychan bir qiyofada turib qoladi.

Nozli (*o'ng eshikdan kirib*). Morol! Malagim, nimalarni o'ylayotirsan?

Morol. Hech, Nozli opa, hech...

Nozli. Men senga ona o'rnidaman, bolam! Qanday darding bo'lsa, och, so'zla.

Morol. Alloh senga shu qizchasini ko'p ko'rmasin! Bu uyda yana ozmi-ko'pmi sen bilan tasalli toparman.

Nozli (*bog'ni ko'rsatib*). Qara, shu bahor chechaklari, shu bulbul nag'malari naqadar go'zal!.. Borib biroz sayr et, ko'ngling ochilsin.

Morol. Oh, bu go'zal bahor har kimning ko'nglini ochgani holda negadir meni siqadi. Bu rangorang chechaklarning muattar bo'ylari go'yoki meni bo'g'adi. Bu shatoratli bulbullarning sevimli nag'malari go'yo mendan kuladi yoxud mening tolesizligimdan yig'laydi.

Nozli (*yasama bir kulgu bilan*). Xudo haqqi, podshoh saroyiday bir uyda yashagan xonim ham toleyidan shikoyat qiladimi?

Morol. Haqqing bor, Nozli opa!.. Lekin bu muazzam uy, bu muzayyan va go'zal xonalar menga zimiston mozorlardan ham

tor va qayg'ulidir. Uff, baxtiyorlik ichra o'lmoq — kadarlar-u iztiroblar ichra yashamoqdan bir qat xayrli ekan. Ikki yil avval bunday mash'um, qora kunni kim ham eslardi? Ma'sud bir kabutar kabi oddiy va erkin yashardim; maktabni bitirish arafasida ekanman, sho'rlik otam tarki-hayot qildi. Yuz yerdan sovchi kelib turgan bir paytda, kutilmaganda Turxonbey balo yashini kabi ustimizga yoprildi. Uning nomi eshitilishi bilanoq hamma jim bo'lib qoldi. Hatto Arslon ham, sevikli Arslon ham sukut saqlashga majbur bo'ldi.

Nozli. Yaratganga qurbon bo'layin, har narsa uning qo'lida... Bir kun insonni ham badbaxt qiladi, ham xushbaxt...

Morol. Oh.. Nozli opa, inson dunyoga kelmasagina baxtiyor bo'ladi!..

Har ikkisi mahzun va o'ychan bir sukut ila tikilib turadilar. Shu paytda **Bayram** qo'llarini askarchasiga tushirib, oyoqlarini yerga ura-ura yo'g'on va vahimali bir tovush bilan:

"Man bir turkman, dinim, jinsim ulug'dir;
Siynam, o'zim otash ila to'lug'dir
To'lug'dir, to'lug'dir,
Tur! Tur! Tur... "deya chap tarafdagi eshikdan ichkariga kiradi, boshini eggan holda xonaning nargi boshigacha odimlaydi. **Nozli** va **Morol** uning telba va bolalarcha bu harakatini hayrat bilan kuzatadilar.

Bayram (*Boshini ko'tarib ularni ko'rishi bilan shoshib qoladi. Morolga uzr ohangida*). Oh, afv eting, sizning bu yerdaligingizni bilmabman.

Morol (*noziklik bilan*) Bayram, Alloh hammaga aql ulashganda sen qayerda eding?

Bayram (*surlik bilan*). Qo'yko'z mullaning yonida "shakkiyot"[1] o'rganayotgan edim.

Nozli. Voy, seni Xudo ko'tarsin! Yana uyalmasdan javob ham qaytaradi-ya.

(*Bayram ma'nosiz kulgular bilan boshqa xonaga kiradi.*)

[1] **Shakkiyot** — shak-shubha.

Turxonbey (*soqolini taroshlatgan holda kiradi*). Oqshoming xayrli bo'lsin, Morol! Nechuksan, azizam? Ahvoling yaxshimi?

Morol (*mahzunona*). Tashakkur.

Turxonbey (*Morolning qo'lini qo'llari orasiga olib*). Lekin seni biroz o'ychan ko'ryapman. Har holatingda, har boqishingda bir g'amginlik, bir iztirob bor. Bilasanmi, Morolim!.. Bu ma'sum chehrani bir daqiqa ham mahzun ko'rishni istamayman. Bu yerda siqiladigan hech bir narsa yo'q! Ko'ngling neni istasa, qalbingdan neki kechar bo'lsa, hammasi bir onda muhayyo bo'ladi, malagim! Mening bor-u yo'g'im, mulk-u molim, bosh-u jonim sening eng kichik bir orzuying uchun fido bo'lmoqqa hozirdir. (*Nozli lampalarni yoqib chiqadi.*) So'zla, Morolim, so'zla! Nechun bu qadar o'ychansan?

Morol (*yasama bir nazokat bilan*) To'g'risi, yolg'izlik, hamrohsizlik menga juda ta'sir qilayotir.

Turxonbey (*uning so'zlaridan bir ma'no chiqargan kabi qahqaha bilan kulib*). E...yy, ma'lum bo'ldi, gulim, ma'lum bo'ldi... Inshoolloh bir-ikki oydan so'ng o'g'lim Jamil Borjomdan keladi. Tezda unga ham bir qiz unashtiramiz, zo'r bir ziyofat, ajoyib bir to'y majlisi bo'ladi. Ana o'shanda senga ham o'zing kabi go'zal, jajjigina bir o'rtoq topilgan bo'ladi. Istaganingcha o'ynaysan, quvnaysan.

Bayram (*yugurib ichkari kiradi*). Afandim, do'stingiz, advokat Nodirbey kirmoqchi.

Turxonbey. Bor, ayt, marhamat qilsinlar. (*Bayram chiqadi, Turxonbey Morolni o'parkan xo'rsinib.*) Bor, Morolim, sen ham bor... Musofir odam kelyapti.

(*Morol ketmoqchi bo'ladi.*)

Turxonbey (*orqasidan*). Morol!

Morol (*o'girilib qaraydi*). Buyuring?

Turxonbey (*uning ko'zlariga diqqat bilan qarab*). Hech, malagim, hech, boraver! (*Morol chiqadi, Nozli kirib stol ustiga ikki-uch kuldon qo'yib ketadi, Turxonbey Nozliga eshitilarli bir ohangda.*) Go'yoki onasi tug'ar-tug'mas qizalog'ining ko'zlariga qarab ism qo'yganday. Haqiqatan Morol emas, balki morol boqishli bir malak!...

Nodirbey (*kirib*). Assalomu alaykum...

Turxonbey. Vaalaykum assalom, afandim, qani, marhamat qiling.

(*Qo'l berib ko'rishgach, qarama-qarshi o'tiradilar.*)

Nodirbey (*Turxonbeyning soqoli taroshlanganidan hayratlanib*). Bu ne hol, bu ne qiyofa, azizim? Mosholloh, butunlay o'zgarib ketibsiz!

Turxonbey (*Qo'li bilan miyiqlarini silab*). To'g'risi, keyingi vaqtlarda soqoldan nihoyat darajada nafratlanadigan bo'lganmanki, uni ko'rishga aslo ko'zim yo'q.

Nodirbey. Haqiqatan ham, Morol xonimning sizga juda katta ta'siri bor ekan! Sizni bir yil avval ko'rganlar, amin bo'lingki, endi taniy olmaslar.

Turxonbey (*loqaydlik bilan*). E...y, ne qilaylik, azizim, umr o'tarkan hamma ishqning, shaydolikning o'tkinchiligidan so'zlaydi! Faqat yolg'on!.. O'ta bir buyuk yanglishish... Bir sham yonib, erib so'nish vaqtida qanday shiddatli nur sochsa, keksa bir ko'ngil ham ishqqa, muhabbatga qarshi shu darajada bo'hronli bir harorat, xayolga sig'mas bir shiddat ko'rsatadi.

Nodirbey (*tabassumona*). Lekin har nima bo'lsa ham yana biroz oshiqmaslik lozim edi. To'g'risi, men sizning o'rningizda bo'lsam Jamilbeydan uyalgan bo'lardim. Erta-indin kelib shu yoshda qiz olganingizni ko'rsa nima deydi, ajabo?!

Turxonbey. Xudo haqqi, qo'ysang-chi, bola-chaqaning og'ziga qarab o'tiramizmi, a!..

Nodirbey. Xo'sh, Jamil nima deb yozadi? Tez kunlarda kelarkanmi?

Turxonbey. "Huquq"dan diplomini oliboq Borjomga kelgan. Charchog'ini chiqarish uchun yozni o'sha yerda o'tkazarmish.

Nodirbey. Borjomning qayeridan uy ijara olgan?

Turxonbey. Yozishiga qaraganda, Beypo'lat degan bir dog'istonlik muhandis bilan tanishib, uning oilasi bilan bir yerda yasharkan...

Nodirbey. Ehtimol, ko'p o'tmay men ham o'sha yerga ketsam kerak.

Turxonbey. Ishoning, sizni ko'rar-ko'rmas, Jamil sevinchdan o'zini yo'qotadi.

Nodirbey. Qo'limdagi ishlarni yo'lga qo'ya olsaydim, ortiq bu yerda turmasdim.

Turxonbey. Yaxshi xotirimga keldi, bir xushxabar yana...

Nodirbey (*qiziqish bilan*). Ajabo, qanday xushxabar ekan?

Turxonbey. Jamilni uylantirmoqchiman, faqat kelishini kutib turibman.

Nodirbey. Kim bilsin! Balki u hozirgacha birov bilan sevishib, uylanib ham olgandirki, faqat bizning xabarimiz yo'qdir...

Turxonbey. Yo'q, mening o'g'lim bo'lsa, xabarsiz ish qilmas. Unga shunday bir qiz topib qo'yganmanki, tushida ham ko'rmagan. Ham go'zal, ham ota-onasining yakka-yu yagonasi, hamda nihoyat darajada boy.

Nodirbey. Menimcha go'zallik zavqqa oid bir narsadir, sarvat esa, o'ylaganingiz kabi insonni ko'pam ma'sud etolmas. Biror bir qizni sarvati uchun emas, dilxoh va tarbiyali bo'lgani uchun oladilar.

Turxonbey. Nodir! Nodir! Hech bir his, hech bir kuch, hech bir yer yo'qki, u yerda oltin, kumush rol o'ynamasin. Shuni yaxshi bilib qo'yingki, dunyoning butun izzati — butun saodati faqat pul bilan qo'lga kiritiladi.

Nodirbey (*o'rnidan turib*). Ha, hamma narsa pul bilan qo'lga kiritiladi, illo fazilat va insoniyat!..

Turxonbey. Aslo! Aslo... Fazilat ham puldadir, insoniyat ham...

Nodirbey. Yanglishasiz, afandim, sizga inson qiyofasidagi shunday egar-jabduqsiz uzunquloqlarni ko'rsata olamanki, ularning faqat oltindan ishlangan to'qimlarigina yetishmaydi, xolos.

Turxonbey istehzoli qahqahalar bilan kuladi.

Bayram (*shoshilib ichkariga kiradi*). Afandim, oshiq Sulton keldi.

Nodirbey. Qaysi Sulton? Bizning qishloqdagi ishlarimizga qaraydiganmi?

Bayram. Shunday, afandim.

Turxonbey (*Nodirbeyga*). Qanday yaxshi tasodif!.. Uning soz chalishini va qimmatli baxshiyona so'zlarini ko'pdan buyon eshitganim yo'q.

Nodirbey (*Bayramga*). Ayt, ichkari kirsin.

Bayram. O'zi yolg'iz emas, afandim, yonida dog'istonlik bir boy ham bor.

Turxonbey. Yaxshi, ismini so'ramadingmi?

Bayram. Ismi Beypo'lat, afandim.

Turxonbey. Bor, ayt, kirsinlar.

(*Bayram chiqadi*).

Nodirbey. Ajabo, bu qaysi Beypo'lat bo'ldi ekan?

Turxonbey. Fikrimcha, Jamilning do'sti bo'lsa kerak...

Nodirbey. Xo'sh, uning bu yerda qanday ishi bor?..

Turxonbey. U muhandis, ehtimol, temiryo'lni ko'rish uchun kelgandir.

Nodirbey. Ehtimol...

Turxonbey. O'sha bo'lsa, yomon bo'lmasdi, Jamildan yaxshi bir xabar eshitamiz.

Shu payt **Beypo'lat** bilan oshiq **Sulton** ichkari kiradi, salomlashayotib ismlarini bir-birlariga aytadilar. Har uchovi o'tiradi. Faqat oshiq **Sulton** tik turgancha qoladi.

Turxonbey (*Beypo'latga*). Tashrifingiz Borjomdanmi, afandim?

Beypo'lat. Shunday...

Nodirbey. Jamilbeyning ahvoli qalay?

Beypo'lat. Avvallari biroz toliqqan kabi edi, lekin hozir yaxshi. Hamda sizga maxsus salomi bor.

Nodirbey. Minnatdorman.

Bayram (*kirib, Turxonbeyga*). Afandim, Chingizbey odam yuborib, bey afandi uyda bo'lsalar, biznikiga marhamat qilsalar, biroz birga bo'lsak debdilar.

Turxonbey. Aytginki, mehmonlarimiz bor, agar istasa, o'zi biznikiga kelishi mumkin.

Bayram chiqadi.

Oshiq Sulton. (*Turxonbeyga*). Men, qulingiz, ketsam maylimi, afandim?

Turxonbey. Ketishing mumkin, azizim, faqat sozingni olib ortga qaytishing sharti bilan.

Oshiq **Nodirbey**ga qaraydi.

Nodirbey. Zarari yo'q, modomiki shuni istarkanlar, sozingni olgin-u kel, faqat ko'p kechikma!

Oshiq Sulton. Bosh ustiga, afandim... (*Chiqadi.*)

Turxonbey (*Beypo'latga*). To'g'risi, bunday kutilmagan tashrifingiz meni shu qadar sevintirdiki!.. Qanday tashakkur bildirishimni bilmayman.

Beypo'lat. Kam bo'lmang, afandim...

Nodirbey (*Beypo'latga*). Xo'sh? Jamil o'ziga yangi do'stlar topganmi?

Beypo'lat. Aslo, u hech kimga qo'shilmaydi.

Nodirbey. Qiziq, yolg'izlikdan zerikmasmikan?

Beypo'lat. Nechun zeriksin! Shom-u sahar singlimnig qizi Xumoy bilan aylanishga chiqadi.

Nodirbey. Fikrimcha, Jamil tabiatdagi go'zalliklarga o'ta maftun bo'lgan.

Beypo'lat. Uni hech so'ramang!.. Yo u, yo Xumoy xonim kichkinagina bir shalola qarshisida soatlarcha qolib ketadilar.

Turxonbey (*Nodirbeyga*). Ey, tabiatdagi go'zallikka ular maftun bo'lmay, men maftun bo'laymi? Yoshlik shunday bir ne'matki, u bilan har narsa insonga xush ko'rinadi. Umr o'tgani sayin hayotdagi nash'a ham shu darajada ortga qaytadi, nash'a ortga qayta borishi bilan hayot tashvishlari ortadi, hayot tashvishlari ortishi bilan minglarcha g'am-alam insonni chulg'ay boshlaydi. (*Devordagi soatni ko'rsatib*). Mana shu soatning har bir zang urishi hayotimiz uchun berilayotgan eng mudhish zarba demakdir...

Shu payt **Chingizbey** bilan **Arslonbey** kirib keladilar.

Chingizbey (*jiddiy va mag'rur bir ohangda*). Azizim, biz olchoq ko'ngilli "payg'ambar"lardanmiz: tog' bizga kelmasa, biz tog'ning etagiga borarmiz.

Turxonbey (*qahqaha bilan*). Chingiz ismli "payg'ambar"ni hech eshitganmisiz?

Chingizbey (*Turxonbeyga*). Xudo haqqi, sen... sen hali meni tanimadingmi? (*Majlisdagilar bilan ko'rishadilar*).

Turxonbey (*takror kuladi*). O'tir, qani , azizim, o'tir. Sen bilan keyin so'zlashurman (*Chingizbey va Arslonbeylar o'tiradilar*).

Chingizbey (*Beypo'latni diqqat bilan kuzatadi*). Afsuski, bey afandini tanimayapman.

Turxonbey (*Chingizga*). Qanday!? Ha, ha, ha... Beypo'lat hazratlari-ku: Jamilning Borjomdagi do'sti, o'ta olijanob va muhtaram bir zot!

Chingizbey (*takror Beypo'latning qo'lini siqib, samimiy bir jiddiyat-la*). Shubhasiz, Dog'iston tomonlardansiz, shunday emasmi?

Beypo'lat. Shunday, qardoshim!.. Dog'iston turklaridanman.

Chingizbey. Oh, buning uchun naqadar mamnun bo'lganimni bilasizmi?

Beypo'lat. Kam bo'lmang.

Turxonbey (*Beypo'latga*). Afandim, Chingizbeyda Dog'iston xalqiga nisbatan boshqacha bir hurmat, o'zgacha bir muhabbat bor. Dog'istonlik nomini eshitdimi, bas, butunlay o'zini yo'qotadi.

Chingizbey. Nima, haqqim yo'qmi? Uni ayting!.. (*Shayx Shomilning devorga ilig'liq rasmiga yaqinlashib keskin bir ohangda*). Mana, ham fozil, ham jangovar bir dog'istonlik! Mana, shayx Shomil!.. Yolg'iz shu haykali-jalodat, shu keksa qahramon, ilalabad dog'istonlik nomini yashatmoq uchun yetarlidir. Oh, nimadandir bilmadim, doimo shu buyuk siymoga nisbatan qalbimda chuqur bir hurmat, buyuk bir muhabbat his etaman. Shu porloq qiyofada, shu o'ychan ko'zlarda shunday ma'noli bir ulug'vorlik, shunday ulug'vor bir muhabbat borki, faqat do'stlarigina emas, dushmanlari ham bir boqishda lol-u hayron bo'ladilar.

Turxonbey (*o'rnidan turib*). Yasha, Chingiz, yasha!.. To'g'risi, so'zlaringning har biri bir olmos parchasidan ham qimmatlidir. (*Bu orada oshiq Sulton ichkari kiradi.*) O'tir , oshiq, o'tir, qani. (*Eshikka*) Bayram! Bayram! (*Bayramdan javob kelmaydi, Arslonbey uni chaqirish uchun qo'zg'aladi.*)

Turxonbey (*Arslonbeyga*). Iltimos qilaman, aytgin, choy keltirsinlar...

Arslonbey. Hozir, afandim. (*O'ng eshikdan chiqadi.*)

Turxonbey. Kel, Sulton, so'zla-chi, qani!..

Oshiq Sulton. Beylar, afandilar ne amr etadilar?

Chingizbey. O'zing nimani xohlasang, shuni...

Arslonbey (*kirib Turxonbeyga*). Kelyapti, afandim...

Turxonbey. Alloh uning jazosini bersin.

Bayram choy keltiradi, quyib bo'lgach chiqadi.

Arslonbey (*Chingizning qulog'iga hayrat bilan*). Oh, Morol, Morol!.. Morol dema, bir jannat parisi...

Chingizbey (*keskin, faqat past tovushda*). Arslon! Ko'zlarimga yaxshilab bir qara!..

Arslon (*xavotir bilan*). Kechir! Iltimos qilaman.

Chingizbey (*o'sha ohangda*). Vijdoningni qayerda yo'qotgan eding?

Arslonbey (*shoshib*). Chingiz!..

Nodirbey. Qani, Sulton boshla... (*Chingiz va Arslonga tabassum bilan*). Sirli suhbat nojoyizdir, afandilar!..

Oshiq Sulton. (*boshlaydi*). *E...yyy...*

Vijdonlarni porloq tutgan sevgidir,
Sevgisiz ko'ngil yo toshdir, yo temir...
Bir yurakka ikki sevgi yarashmas,
Ko'ngil bir, sevgi bir, buyuk Tangri bir...
(*Naqarot.*)

Turxonbey (*Boshini solintirib, faylasufona takrorlaydi*). Ko'ngil bir, sevgi bir, buyuk Tangri bir...

Oshiq Sulton. Afandilar!...

Sevgidadir faqat Alloh rizosi,
Sevgisiz bir ko'ngil shayton uyasi...
Birodar! Bu dunyo kimsaga qolmas,
Aldanma! Chirikdir asli, asosi...

(*Naqarot.*)

Chingizbey. Yasha, Sulton, yasha!

*(**Oshiq Sulton** bir-ikki marta yo'taladi. Shu payt Bayram yuzi uchgan bir holda ichkari kirib pol(yer)ni ko'zdan kechiradi, cho'ntaklarini titkilab shoshilgan va qiynalgan bir holda chiqib ketadi.)*

Oshiq Sulton. Aaxx...

Inson bir kun tikan, bir kun chechakdir,
Inson goh bir shayton, goh bir malakdir.
Yomonlik, yaxshilik, bil, ne demakdir!
Erta oting doston bo'lur tillarda...

Har tarafdan "Sog' bo'l!", "Bor bo'l!" deb oshiqni olqishlaydilar.

Ne bo'ldilar Iskandarlar, Chingizlar!?
Qonlar to'kib, jonlar yoqib ketdilar!..
Jahonni titratib ost-ust etdilar,
Qonli bir iz qoldirdilar ellarda...
(*Naqarot.*)

Chingizbey (*nafrat bilan*). Oshiq!..

Oshiq. Afandim...

Chingizbey (*eshikni ko'rsatib g'azab bilan*). Bas qil, yo'qol, daf bo'l!..

Turxonbey (*hayrat bilan*). Nega, azizim!? Nima bo'ldiki?

Nodirbey (*ma'noli bir kulgudan keyin*). Zarari yo'q, Sulton, sen ketaver (*Oshiq ketadi*).

Turxonbey (*Chingizga*). Ayb emasmi!.. Nechun ko'nglini sindirding?

Chingizbey (*asabiy*). Xudo haqqi, so'zlatma meni...

Turxonbey. Xo'sh, nima bo'ldi, gapirsang-chi!..

Chingizbey (*qizishib*). Yana nima bo'lishi mumkin!.. Buyuk Chingiz, u yengimas hukmdor tariximizning eng shonli bir qahramoni bo'lgani holda, tahqir etilsa ham hech kim ahamiyat bermayapti.

Turxonbey (*Chingizbeyga*). Bu tahqir emas, azizim, balki tarixda bo'lgan haqiqatdir.

Chingizbey (*u yoqdan bu yoqqa yurib, o'ta asabiy*). Afu eting, afandim! Bunday chirik haqiqatlar bir necha bo'sh boshlargagina sig'ishi mumkin. Muhokamali bir odam, bu kabi bo'htonlarga aslo quloq bermas. (*Yanada shiddatli*). Ozroq insof qilaylik, mana, har millatning tarixi maydonda... Ajnabiylar buyuk Iskandar, buyuk Napoleon deya o'z qahramonlariga obidalar qo'yayotirlar, haykallar tiklayotirlar. Faqat bizlar!.. Bizlar esa Chingiz kabi jahongirlarni, Temur kabi qahramonlarni qonxo'r, vahshiy deya ayblaymiz.

Beypo'lat (*Chingizbeyga*). To'g'risi, bu xususda men sen bilan hamfikrman. Haqiqatan, millatimiz o'ta so'nik, o'ta muhokamasiz... Doimo dushman og'zidan eshitgan bo'htonlarni bir haqiqat bilib, shunga ko'ra so'z so'zlaydi. Bu bo'htonlar, bu haqoratlar Sharq kitoblariga o'ta oshkora bir haqsizlikdir.

Turxonbey (*Nodirbeyga*). Yaxshi, bu xususda sen qanday fikrdasan?

Nodirbey (*O'rindiqdan turib mahoratli bir notiq holatida*). Har kas yaxshi biladiki, men aslo qon to'kilishini xush ko'rmayman. Maxluqotning eng sharaflisi bo'lmish insonlarning hatto zaif, ojiz bir chumoliga ham ozor bermog'i, menimcha, afv etilmas bir jinoyatdir. Faqat, tarixi olam bir daf'a ko'zdan kechirilsin... Hozirga qadar qonsiz, muhorabasiz qaysi voqeaga duch kela bilasiz? Avvalo tarixi muqaddasni oling. Nima topasiz?.. Ilk sahifada Qobil kabi xoin, jallod bir qardosh qora yuzi bilan qarshingizda tikilib turadi. Keyingi sahifalarga nazar tashlang! Minglab diniy-siyosiy qonli sahifalar ko'zlarimizni qamashtiradi. Din va mahzab bayrog'i ostida to'kilgan qonlar bir yonda tursin, siyosat nomidan sodir etilgan zulm-haqsizliklarning hisobini qilish uchun minglarcha, millionlarcha kitob lozim... Yolg'iz Chingiz, yoxud u kabi bir-ikki jahongirni haqsiz ko'rib, boshqalarini haqli ko'rsatmoq, fikrimcha, juda katta bir adolatsizlikdir.

Beypo'lat. Ha, to'g'ri, juda to'g'ri...

Nodirbey. Lekin yana takror aytaman, menimcha, asl qahramonlik yara bog'lamoqdadir, obod etmoqdadir. Hammillatlarini

qilich domiga tortmoqdan, yoqib-yiqmoqdan zavq olganlar, boshqasining falokatidan saodat izlaganlar oddiy bir jalloddan boshqa narsa emasdir.

Chingizbey (*shiddatli kulgu bilan*). Unday bo'lsa, butun insonlar, butun tabiat, butun koinot bir jallod demakdir.

Beypo'lat (*soatiga qarab, hammaga*). Afsuski, suhbatingiz sharafiga muyassar bo'lmoqdan mahrum bo'lmoq fursati yetdi (*Turxonbeyga*). Ijozat berilsa...

Turxonbey. Bu qadar oshiqmasangiz, azizim!..

Beypo'lat. Vazifam, rasmiy vazifalar, afandim, yana biroz kechiksam, zimmamga mas'uliyat tushadi. Chunki sho'ro meni kutmoqda.

Turxonbey. U qanday sho'ro bo'ldi, ajabo?

Beypo'lat. Temiryo'l masalasiga taalluqli, afandim!

Turxonbey. Xo'sh, bu kelib-ketishdan biz ne angladik?

Beypo'lat. Inshoolloh, yana ko'rishamiz.

Bu paytda **Bayram** shoshilib kirib keladi, yana atrofni ko'zdan kechiradi, cho'ntaklarini titkilaydi. Bo'sh qadahlarni yig'ishtirib ko'tarayotganda bir-ikkitasini tushirib yuboradi.

Turxonbey. Nima qilayotirsan?! Aqldan ozdingmi?!

Bayram. Afandim, afv eting... (*Yoshlangan ko'zlarini artib*). Oh, bilmadim, o'g'irladilarmi? O'zim yo'qotdimmi? Ikki oylik maoshim yon cho'ntagimda edi... (*ho'ng-ho'ng yig'lab*). Ketdi, ha, ketdi... Butun mehnatim bekor bo'ldi, ketdi...

Beypo'lat (*keskin va g'azabnok bir ohangda*). Kel bu yoqqa, o'g'lim!

Bayram unga yaqinlashadi va karaxt bir vaziyatda qarab turarkan **Beypo'lat** qattiq va achchiq bir shapaloq tortadi, yig'ilganlar chuqur bir hayrat ichida qoladilar. **Bayram** ham turgan yerida qotib qoladi.

Beypo'lat (*Bayramga*). Yo'qotgan puling qancha edi?

Bayram (*titroq ovozda*). Ikki oltin, afandim...

Beypo'lat (*cho'ntagidan ikki oltin chiqarib Bayramga bermoqchi bo'ladi*). Ol!

Turxonbey (*qarshilik qilmoqchi bo'ladi*). To'xtang, iltimos qilaman! Nima qilyapsiz?

Beypo'lat. Yo'q, afandim, men bilan Bayramning orasiga birov tushishini istamayman. (*Bayram qo'llari bilan ko'z yoshlarini artadi. Turxonbeyga qarab berilgan pulni olishni xohlamasa-da, Beypo'lat zo'rlik bilan hovuchiga soladi va qo'lini uning yelkasiga qo'yib, qattiq va keskin ohang bilan*). Bayram! O'g'lim, diqqat bilan quloq os! So'zimni, nasihatimni tingla!.. Sen bir sodda yigitsan, bu hol senga yarashmas. Sen bir turk o'g'lisan, mard o'g'il aslini unutmas. Er o'g'li er bo'l, ko'nglingni tor tutma!.. Eshit, senga nima deyapman, so'zlarimni unutma!.. (*G'oyat shiddatli va og'ir ohangda*). Hissiyotli bir yigit, na o'ynar... na-da kular.. na-da yig'lar... Chunki o'ynamoq lo'lilarning ishidir, kulmoq go'daklarning haqqidir, yig'lamoq esa tul ayollarga yarashadi... Angladingmi? Mana shunday! Endi ketaver!..

Bayram qadahlarni olib chiqib ketadi.

Beypo'lat. Afandilar! Jasoratimning afv etilajagiga aminman, chunki samimiyatdan ilgari kelgan qusurlar doimo afv etiladi. Mening tabiatim shunaqa o'zi!.. Qayerda bo'yni bukik va miskin bir erkakka duch kelsam, darhol asablarimga tegadi, ayniqsa, u odam turk qavmiga mansub bo'lsa!..

Chingizbey (*Beypo'latga*). Zotan bu buyuk bir maziyyat[1], buyuk bir fazilatdir, afandim!

Beypo'lat (*hammaga*). Bo'lmasa, qayta afv etishingizni so'rayman, Allohga topshirdim, qardoshlar! (*Og'ir odimlar bilan chiqadi, yig'ilganlar ham uning izidan yuradilar*).

Turxonbey (*chiqayotib Beypo'latga*). Kelishingiz bizni na qadar mamnun etgan bo'lsa... amin bo'lingki, ketishingiz shu qadar mahzun etmoqda.

Beypo'lat (*eshik ortida*). Inshoolloh, yana ko'rishurmiz.

Ular boshqa ko'rinmaydilar. So'ngra **Morol** kirib keladi, mehmonlar chiqqan eshikka to'g'ri yurarkan atrofga ko'z tashlab o'yga toladi.

[1] **Maziyyat** — ortiqlik, afzallik.

Nozli (*kelib*). Ketishdimi?

Morol. Ha, ketishdi (*yerda yotgan bir sariq gulni ko'rib, oladi, Nozliga ko'rsatib yarim mahzun, yarim tabassum bilan bir holda*). Qara!.. Bir qara, Nozli opa!.. Oyoqlar ostida ezilgan bir badbaxt gulni, bu xasta chechakni ko'ryapsanmi?! Besh kundan so'ng men ham buning kabi sarg'ayib so'laman!

Nozli (*ta'sirchan va navozishkor bir tovush bilan*). Oh, bolajonim!..

Morol. Shunday, besh kun o'tib men ham shu gul kabi xazon bo'laman.

Nozli (*stol ustida bir sigara qutisini ko'rib, oladi*). Bu nima? Bu kumush qutini kim unutib qoldirdi?

Morol. Kim biladi!.. Yangi kelgan mehmonnikidir.

Nozli. Qara, mana, yozuvi ham bor.

Morol (*olib o'qirkan*). Buni Arslonbeyga yodgorlikka berganlar... (*Chuqur bir oh tortadi.*)

Nozli. Unday bo'lsa, Bayramni chaqirayin-da, tez borib o'ziga bersin.

Morol (*chuqur bir sukut ichida o'yga toladi*).

Nozli. Chaqiraymi?..

Morol. Yaxshi, chaqir!

Nozli o'ng eshikdan chiqadi. **Morol** mahzun bir nigoh bilan qutiga qarab o'yga toladi. Shu payt **Arslonbey** chap eshikdan jadal ichkariga kirib keladi.

Morol. Oh!.. (*deya esankirab qoladi, quti qo'lidan yerga tushadi.*)

Arslonbey. Iltimos, afv eting... G'olibo sizni bezovta qildimmi?

Morol (*uyalib*). Yo'q, yo'q... (*Qutini yerdan olmoqchi bo'ladi.*)

Arslonbey (*zudlik bilan o'zi olib*). Iltimos, aziyat chekmangiz!..

Morol (*yarim noz, yarim uyalish bilan*). Yo'q, nima aziyati bor.

Arslonbey (*gulni olib hidlarkan*). Oh, bilsangiz, bu yodgorlikka... ha, qo'llaringizni o'pmish bu munis gulga, umrim boricha ta'zim qilaman. So'nggi nafasimda ham buni hidlab dunyodan ketajakman (*ta'zimkorona va maftunona qarashlardan so'ngra tashqariga otiladi*).

Morol (*eshikka qarab yuradi, mahzun va dardli bir tovushda, g'amgin va parishonxotir bir holda eshikka suyanadi*).

Parda

IKKINCHI PARDA

Sahna ikki haftadan so'ng. Barjomda sahar vaqti, juda chekkada ochiq va manzarali bir go'sha ko'zga tashlanadi. Yakkam-dukkam sarv daraxtlari va ikki-uch dona arra bilan kesilgan daraxt to'nkasi ham ko'rinadi. **Jamilbey** qo'lida bir kitob, **Beypo'lat** bilan birga, og'ir odimlar-la yurib keladi. Uzoqdan cho'pon nayi chalinadi va bulbul sayrashi eshitiladi.

Beypo'lat. Mana, har doimgi joyimiz!.. shu yerda o'tirib, charchog'ingizni chiqarsak, nima deysiz?..

Jamilbey. O'tiraylik, afandim, bu joy kabi go'zal, ko'z quvnaydigan yer bu atrofda juda kam topiladi.

(*Har ikkisi daraxt to'nkalariga o'tiradilar*)

Beypo'lat (*to'nkalarni ko'rsatib*). Mana, bunday tabiiy maskanlarning o'rindiqlari ham o'ziga xos!..

Jamilbey. Xudo haqqi, bir qarang-a!.. O'rmonlarni ingratgan shu asov musiqa, ruhimizni kuldirgan shu bulbul nag'malari naqadar munis! Naqadar dilbar! Hatto nazarimizga huzur bag'ishlagan shu latif manzaralarni, shu tabiiy go'zalliklarni yana qayerda ham uchratardingiz?!

Beypo'lat. Shunday... Jannatni bu qadar ta'rif, tavsif etadilar, mana bu joy ham jannatdan bir parcha demakdir.

Jamilbey. Shubhasiz?!

Beypo'lat (*ma'qullagannamo*). Ammo sizning bog'ingizning chechaklaridan o'tolmaydi baribir! Turxonbey bilan xayrlashayot-

ganimda oydin bir go'zal kecha edi, ko'zlarim bog'chani yashnatib turgan chechaklarga tushdi, to'g'risi, oilangizdagi husni-tabiatga hayron bo'ldim.

Jamilbey. Yo'q, afandim, u bog'ni avvalgi yil ko'rganingizda edi. Devorlari bo'g'otlarga qadar rangorang chechaklar bilan bezatilgandi. Tovus patlari kabi har qarashda insonga boshqa bir go'zallik arz etardi (*mahzunona*). Faqat bechora onajonim vafot etganiga juda ko'p bo'lgani yo'q... Shu bois ham bu yil bog'ga ham yaxshi qaramadik. To'g'risi, ko'ngil ochilmaguncha, insondagi huzur-halovat ham ostin-ustun bo'ladi. Ortiq hech bir narsaga havas qolmaydi.

Beypo'lat. E..yy, yigitlikda insonning hissiyoti o'ta toshqin, o'ta hayajonli bo'ladi. Qarang-ki, siz bu darajada mahzun bo'lganingiz holda, Turxonbeyda aslo bunday bir hol ko'rinmaydir.

Jamilbey. Uning qayg'u bilan, iztirob bilan nima ishi bor? U yolg'iz o'zini o'ylaydi, o'zining holiga qaraydi. Hali yozadilarki, shu kunlarda uyiga o'n olti yoshli bir kelin ham keltirmish!..

Beypo'lat. Kelin deganingga yodimga tushdi. Turxonbey bilan xayrlasharkanman, u meni bir chetga tortib dediki: "Atrofimizda millioner bir boy bor, o'zi men bilan do'st... hamda ko'zining oq-u qorasi bo'lgan bittagina qizi bor. Endi Jamilni kutmoqdalar, aytgin bolalik qilmasin! Fursat qo'ldan chiqadi, so'ngra pushaymon bo'ladi. Juda kechiksa, bir maktub yozsin, nishon uzugini yuboraylik-da ish bitsin...".

Jamilbey (*yarim kulgu bilan*). Qanday ajoyib fursat. Qanday xushxabar!.. Demakki, toleyimizning yulduzi kulayotgan ekan-u xabarimiz yo'q... (*hayrat bilan*) Alloh, Alloh! Dunyoda qanday ajoyib muhokamalar bor ekan!.. Bunday qorong'u vayronaga tosh otmoq, yo g'aybdan saodat kutmoq, ajabo qaysi devonaning ko'nglidan kechar!.. (*Qizg'in va asabiy*). Demakki, bir qiz va bir o'g'lonni mahv etmak uchun faqat ota-onasining rizosi kifoya emish!..

Beypo'lat. Bu nima demak!.. Shukrki, aqling, kamoling har kimdan ziyoda... Yangicha fikrlab, hal qila olasan, o'z hissiyotingga quloq solasan... Seni majburlay olmasalar kerak!?

Jamilbey. Ko'rinadiki, bizning odatimizdan aslo xabaringiz yo'q... Zo'rlik qilmoq emas, insonni mahv etmoq ham ular uchun ahamiyatsiz bir ish.

Beypo'lat. Sen bu xususda hech tashvish tortma!.. Sizlarning odatlaringizni bilmasam-da, Turxonbeyni ko'rib tanidim... Fikrimcha, u bunday adolatsizlikni aslo ravo ko'rmas.

Jamilbey. Balki man yanglishayotgandirman!.. So'zingizga farishtalar omin degan bo'lsin! (*Atrofga boqib.*) Mana, Saltanat xonim ham keldi.

Beypo'lat. Juda soz, qani kelsin-chi, hamshira xonimda nima xabar bor...

Saltanat (*kelib*). Bir xilvatga chiqib olib yana nima hasbi-hol etayotirsizlar?

Jamilbey (*o'rnidan turib ta'zim bilan*). Hech... Unday bir narsa emas; tabiatning go'zalligidan, insonlardagi yaxshi-yomon hollardan bahs etayotirmiz.

Saltanat (*Jamilbeyga*). O'tir, azizim, o'tir!..

Jamilbey (*bir daraxtga suyanib*). Shunisi yaxshiroq...

Beypo'lat (*Saltanatga*). Humoy qayerda... singlim?

Saltanat. Nishonlisi Shohmorbeydan maktub olgan (*Jamilbeyning holi yomonlashadi*). Fikrimcha, unga maktub yozayotir.

Beypo'lat. Xo'sh, Shohmordan qanday xabar?

Saltanat. Shu kunlarda Qozondan Peterburgga ketgan...

Beypo'lat. Ammo bu zobit toifasi ham juda g'alati-da!.. Aqllisi haqiqatan buyuk bir fazilatga molik bo'ladi, Shohmor kabilar bo'lsa, asl jinnixonalardan boshqa bir yerga yaramaydi. Hozir kim biladi, yana qaysi mayxona burchagida mudrab qolgan...

Saltanat. Hali yosh, uka, sekin-asta tiyilib, esi kirib qoladi.

Beypo'lat (*hayrat bilan*). Kim!.. Shohmormi?.. Afsuslar bo'lsin!_Odam tanimoqda yaxshigina uquvingiz bor!.. Dunyoning butun telbalari tuzalsa ham, ishonginki, u aslo tuzalmas. Uning ismini eshitganim hamono go'yoki Humoyni qarshimda yig'layotgan ko'raman.

Saltanat. Nima qilaylik? Hozir qay bir qizga qaramang, eng birinchi orzusi uylanadigan odami zobit bo'lishidir.

Beypo'lat (*achchiq kulgi bilan*). Bunga shubha yo'q!.. Har kim biladiki, zobit hayoti eng mas'ud bir hayotdir! Xususan, Shohmor kabi bir esi pastning ishi nima bo'lardi?.. Qilichini sharaqlatib vaqtida maosh olmoq, kecha-kunduz klublarda, teatrlarda aljiramoq... Qayerga borsa rafiqasi xonim afandi ham birga... Ajabo, bunday bir betashvish hayotni qaysi bir qiz sevmas?!

Shu payt yaqin atrofda bir miltiq otiladi. **Saltanat** qo'rqib ketadi. **Beypo'lat** va Jamilbey tovush kelgan tomonga qaraydilar.

Jamilbey (*titroq va asabiy*). Ajabo, insonlardagi bu jallodlik, bu xunxo'rlik qachongacha davom etadi! (*Qo'li bilan ishora qilib*). Shu ovchiga, shu vijdonsiz nusxaga u gunohsiz qushchani mahv etmakda qanday ma'no bor deydigan odam yo'q. Bechora biroz avval shoxdan-shoxga qo'nib chug'urlab o'tirardi. Oh, berahm jallod! Madaniy yirtqich!

Saltanat (*Jamilbeyga*) Qiziq!.. Sen buni birinchi marta ko'rayotirmisan?

Beypo'lat (*Jamilning qo'lidan tutib*). Bilasanmi, Jamil! Sen bu asr uchun emas, balki boshqa bir zamon uchun yaratilgansan. Hissiyoting shu qadar najib, shu qadar oliyki, bu muhit sen uchun juda tor, juda qorong'udir... (*Qo'li bilan ko'rsatib*). Qani, yur, bu tarafdan qarshidagi anavi tepalikka chiqaylik; u yer juda manzarali bir joy...

Saltanat. To'g'ri, u yer juda go'zal... Atrofga nazar solgani hamono insonning ko'ngli ochiladi. Faqat Jamilbey biroz zaif, ortiqcha charchoq jismini qiynaydi deb qo'rqaman.

Jamilbey. Ha, doktor ham shunday deydi. Hozirgacha tepalikka chiqib o'zimni charchatmoqni qat'iyan man' etayotir.

Saltanat (*Jamilga*). Humoy kelib bizni so'raydigan bo'lsa, joyimizni aytarsan. Xohlasa, u ham borar; xohlamasa, shu yerda sen bilan birga sayr qilar.

Jamilbey. Yaxshi, afandim, aytaman...

Beypo'lat va **Saltanat** **Jamilbey**ga yengil ta'zim qilib sekin-asta ketadilar.

Jamilbey *(biroz sayr qilgach, mahzun bir holda)*. Humoy, Humoy! Oh, u go'zal xilqatni o'yladim deguncha butun vujudim titraydi. Yashaganim muddatda faqat uning gul yuzini ko'rmoq, uning latif sasini eshitmoq istayman *(holatini o'zgartirib.)* Ha, u meniki, faqat meniki bo'ladi *(biroz o'ylanib ma'yusona.)* Oh, faqat Shohmordan kechmasa-chi?

Bu orada dardli va og'ir bir ohangda shikasta maqomida bo'lgan quyidagi turki o'rmonning noma'lum bir go'shasidan eshitiladi. **Jamilbey** o'ychan va horg'in odimlar bilan biroz tovush kelgan tarafga qarab yuradi. Qo'lidagi kitobi va shapkasini bir tarafga tashlaydi, sahnaning bir burchagida uzanib mazkur tovushni tinglay boshlaydi.

TURKI

Olako'z bir malak ko'rdim, dil berdim.
Dardga tushdim, oh chekmakdan charchadim,
Yosh bo'lsam-da sarg'aydim, so'ldim,
Ishq otashi har on yoqib jonimni,
Qo'ldan oldi sabr-u imkonimni.
Topilmas bo'ldi dardim darmoni,
Faryodim bo'zlatar vahshiy o'rmonni.
Kezib ostin-ustun etdim jahonni,
Yorug' kun ko'rmadim, safo ko'rmadim;
Go'zallarda aslo vafo ko'rmadim.

Humoy *(o'ychan bir holda boshqa tarafdan chiqadi, kezib yurganida Jamilbeyga ko'zi tushadi. Xavotir bilan)*. Jamil! Tur, azizim, tur... Shamollab qolsang, yaxshi bo'lmaydi.

Jamilbey *(javob bermaydi)*.

Humoy. Jamil!

Jamilbey *(shoshib)*. Kim u?

Humoy. Menman, men!.. Qani, tur, uyga bor, bu joy sen uchun yaxshi emas, vujuding o'ta zaif...

Jamilbey *(turadi)*. Oh, Humoy! Sevgili Humoy! Qachon kelding?

Humoy. Ko'p bo'lgani yo'q, azizim, hozirgina...

Jamilbey (*hayrat va sevinch bilan*). Oh, har bir uxlagan odam uyg'ongani zamon boshi uzra sen kabi bir malak ko'rajagini o'ylasa edi, shubhasiz uyquni bedorlikdan afzal bilardi. Mozordan bosh ko'targani zamon inson seni ziyorat etmog'ini bilsaydi, darhol o'limning panjai-qahriga otilgan bo'lardi...

Humoy (*kulimsirab*). Jamil! Senda boshqa bir hol ko'rayotirman, bugun senga bir narsa bo'ldimi?

Jamilbey (*jim qoladi*).

Humoy. Nechun javob bermaysan?

Jamilbey. Hozir ro'yoda ko'rdimki...

Humoy (*taajjub bilan*). Nima ko'rding? Xudo haqqi, ayt!

Jamilbey. So'zlamoqqa tilim bormaydi, Humoy!

Humoy (*hayrat bilan*). Nechun?!

Jamilbey (*o'ylanadi, javob bermaydi*).

Humoy. Nechun jimib qolding? Meni juda taajjublantiryapsan.

Jamilbey. Vaholanki, taajjublanayotgan bo'lsang, eshit!

Humoy. Eshityapman, so'zla!

Jamilbey. Humoy! Ko'rdimki, Borjom mehmonlari sekin-asta tarqalmoqdalar, har kim kelgan yurtiga ketmoqda...

Humoy (*taajjub va yuzlarida kulgu bilan*). So'ngra?

Jamilbey. So'ngra biz ham yo'l tadorigini boshladik. Sendan ayrilmog'imni go'yoki hech o'ylamagandim, ayriliq zamoni yaqinlashgani sayin birdan ko'zlarim yoshlanadi. Toqat qilolmay, yetim bolalar kabi yig'lab-bo'zlamoqqa boshlayman.

Humoy (*inja kulgular bilan*). To'g'risi, g'alati tabiating bor! Xo'sh, ayriliqdan so'ngra takror ko'rishmoq qiyinmi?!

Jamilbey (*biroz o'ylanib, birdan Humoyning qo'llarini qo'llari orasiga oladi*). Humoy!.. Sen meni hech sevasanmi?

Humoy (*nimkulgu bilan*). Yosh bolamisan, Jamil! Xo'sh, hozirga qadar, senga nisbatan qanday bemehrlik ko'rsatdim?

Jamilbey. Demak, meni sevasan, shundaymi?

H u m o y. Shubhasiz...

Jamilbey. Masalan, kim kabi?

Humoy. Sevimli bir aka kabi.

Jamilbey. Yana?..

Humoy. Aziz bir do'st, samimiy bir qadrdon kabi..

Jamilbey (*bolalarcha*). Yana? Yana?

Humoy. Yanasi yo'q, azizim...

Jamil tiz cho'kib, uning qo'lini o'pmak istasa-da, **Humoy** nozik bir harakat bilan ortga chekinadi.

Jamilbey (*asabiy va oshiqona*). Humoy!..

Humoy (*hayrat bilan*). Jamil!..

Jamilbey (*yolvorib*). Rahm qil, Humoy, rahm!

Humoy. Bugun ahvoling juda yomon, Jamil, nima demoqchiligingni bilmayotirman.

Jamilbey (*afsurdahol*). O'zingni bilmaganaga solma, Humoy, xarob qilma meni!.. Sevaman, sevaman seni. Bir majnun kabi sevaman, angladingmi?!

Humoy (*istehzo bilan*). Lekin nishonli bir qiz ekanligimni unutayotirsan... Agar bu harakatingni tog'am bilsa, senga aslo yaxshi bo'lmaydi.

Jamilbey (*achchiq-achchiq kulib*). Bir o'likka Azroyildan bahs etmak g'alati emasmi a!.. Ruhsiz bir jasad parchalanmoqdan hech g'amnok bo'ladimi? Jonsiz bir haykal o'ldirilajagi uchun xavotirga tushadimi? (*mahzunona*). Humoy! Men ko'pdan erib bitmoqdaman. Ko'ryapsanki, hayotdan asar yo'q... Meni yashatadigan yolg'iz, yolg'iz sening muhabbatingdir. Inonki, sendan ayrilsam, faqat o'lim bilan birlashurman. Ha, sevganiga yetishmaganlar faqat mozoristonga yetishurlar.

Humoy (*uch-to'rt qadam uzoqlashib*). Lekin... Lekin!..

Jamilbey (*boshi egik bir holda*). Rahm qil, Humoy, rahm qil!..

Humoy (*yana biroz uzoqlashib*). Yo'q, Jamil, yo'q... Bu hol, aslo shoyoni-marhamatga emas, bo'lsa, faqat nafratga loyiq bo'la oladi!..

Jamilbey (*g'oyat ta'sirchan*). Oh, nafratgami?! (*Zaharxanda bilan*). Men ham mana shuni bilishni istardim. Ayon! Hammasi ayon bo'ldi, Humoy... Ha, mening naqadar olchoq, naqadar sharafsiz, naqadar badbaxt, bir safil ekanligim ayon bo'ldi... (*Asabiy*). Nafrat! Nafrat! Qanday totli mukofot!..

Humoy (*rahmli*). Jamil! Jamil! Nechun o'ylamaysan?

Jamilbey. (*dardli bir tovushda*). Bas, Humoy, bas! Yarali ko'nglimga tutashgan yong'inni, bilgilki, daryolar ham so'ndirolmas (*jadal va telbalarcha odimlar bilan uzoqlashib ketadi*).

Humoy (*Jamil ketgan tarafga qarab nadomat va taassuf bilan*). Oh, qanday falokatli tasodif!.. Sho'rlik xastalikdan butunlay adoyi tamom bo'ladi...

Shu payt **Beypo'lat**ning xizmatchisi qo'lida bir telegraf qog'ozi bilan shoshib **Humoy**ning yoniga keladi.

U nima?

Xizmatchi. Telegrafdir, xonim, Beypo'latga yetkazmoq lozim.

Humoy (*qog'ozni olib qaraydi*). Kim bilsin u hozir qayerda?

Xizmatchi. Ana, kelayotirlar.

Humoy. Bor, ol-da o'ziga ber! (*Humoy sayr qilmoq bahonasida bir tomonga ketadi*).

Beypo'lat (*Saltanat bilan birga kelib telegrafni olib o'qiydi. Boshini o'ynatib, mamnun bir qiyofada*). Qanday yaxshi!.. Qanday yaxshi!..

Saltanat. Qiziq, qayerdan?

Beypo'lat. Peterburgdan...

Saltanat (*qiziqib*). Kimdan? Shohmordanmi?

Beypo'lat. Yo'q, Shohmordan emas, faqat unga taaalluqli...

Saltanat. Xo'sh, nima gap? Nima bo'pti?

Beypo'lat (*keskin va ma'noli bir ohangda*). Shohmorbey yangi sevgani bir rus qiziga uylanib olibdi!..

Saltanat. Nima? Uylanibdimi?

Beypo'lat (*sovuqqonli*). Ha!

Saltanat (*asabiy*). Nishonlisi bo'la turib-a?

Beypo'lat. Ha!

Saltanat (*hayajonli*). Oh, razil! Olchoq!..

Beypo'lat (*Saltanatning qo'lidan tutib, ma'noli bir tabassum bilan*) Kel, jonim, kel!.. Yur, borib, Humoy xonimni tinchlantiraylik (*ketadilar*).

Parda

UCHINCHI PARDA

Voqea bir oydan so'ng, kunduzi Barjomda sodir bo'ladi. O'ng tarafda bir koridor, chapda bir eshikli, ikki derazali, kichik, oddiy bir xona. Deraza oldida bir chorpoya, bir stol, to'rt-besh o'rindiq va stol ustida bir surohiy (grafin), bir-ikki qadah va bir to'p dori shishalari ko'rinadi. Iyul... Peshin payti... **Jamilbey** xastalanib yotoqda uxlayapti.

Humoy (*yuzi uchgan va mahzun bir holda o'ylanadi. Yuzini ko'kka qaratib*). E, voh, yo Rabbim! Bu na falokatli hol!.. Jamilni ozorlaganim u manfur soat, u mash'um daqiqalar koshki bo'lmagan bo'lsaydi!.. Borib oyoqlariga yiqilmoq istayman, faqat, hayhot!..

Saltanat (*Humoyga to'g'ri kelib*). Nimalarni o'ylayotirsan, bolam?

Humoy. Hech!..

Saltanat. Nechun ichkariga kirmayotirsan? Qani, kel, Jamilning ahvolini so'raymiz...

Humoy. To'g'risi, uni bu holda ko'rmoqqa qalbimda quvvat topolmayotirman (*ketadi*).

Saltanat (*chuqur bir oh chekib*). Ko'rgilik... Alloh madad bersin!.. (*eshikni ochib ichkari kiradi, Jamilbeyga yaqinlashib*). Jamil!.. Jamil!.. Yaxshimisan, o'g'lim?..

Jamilbey (*bosinqiragancha,sovuq bir tarzda*). Ha-ha-ha-ha... Qo'ying!.. Qo'ying, jonim!.. Men... Men Allohni ko'rmak istayman.

Saltanat (*ko'zlari yoshlanadi, ro'molcha bilan artib*). Jamil, bolam!..

Beypo'lat (*kirib*). Jamilning ahvoli qanday, singlim?

Saltanat. Hozir uxlayapti, faqat sho'rlik ko'zimga juda behol ko'rinadi. Ayniqsa, bosinqirashi, telba kabi gapirishlari meni tamom ma'yus etayotir.

Beypo'lat. Doktor haligacha kelmadimi?

Saltanat. Yo'q... Birgina doktorning kelishidan nima naf! Nimaki so'rasa, sukutdan boshqa javob ololmas. Yozgan dorisi ham foydasiz... (*Xo'rsinib.*) Jamimlning shifosi, menimcha, faqat hakimlar hakimi, bekaslar panohi bo'lgan Yaratgangagina qolgan...

Beypo'lat. Ha, bu doktorlardan hech bir narsa chiqmas... Zotan ularning butun tushunchasi, yolg'iz bo'zchining mokiisi kabi u yoqdan-bu yoqqa hissiz borib kelmoq, boy bo'lmoq uchun xalqning bor-yo'g'ini g'orat qilmoqdan iborat...

Xizmatchi (*kirib*). Afandim, doktor, kelayotir.

Beypo'lat. Yaxshi, ayt, kirsin.

Xizmatchi chiqadi

Doktor (*kirib, zudlik bilan shapkasini bir tarafga qo'yib ko'rishgandan so'ng to'shakka yaqinlashadi. Saltanatga*). Bu kun xastangiz qanday?

Saltanat. Qandayligini siz yaxshiroq bilasiz; ikki-uch kundan beri ko'zlariga hech uyqu kirgani yo'q edi, lekin hozir bir soatdan ziyoddirki, shunday uxlayotir.

Doktor (*biroz xastaning ko'ksini eshitib ko'radi, so'ngra tomirini silab*). Yaxshi, yaxshi.. bugun juda go'zal!.. (*retsept yozishga mashg'ul bo'ladi*). Tomiri ham yaxshi uryapti, uxlamoq uning uchun juda foydalidir. U endi istirohatga muhtoj... ehtiyot bo'ling, uyg'otib yubormang!

Retseptni beradi, tezda shapkasini olib chiqadi. U chiqqandan so'ng Saltanat va Beypo'lat chuqur o'yga toladilar.

Xumoy (*doktorni dahlizda qarshilab*). Doktor afandi! Bugun bemorning ahvoli qanday?

Doktor. Allohga shukur, juda yaxshi... ortiq tashvishlanadigan bir narsa yo'q...

Humoy. O'tinaman, qo'lingizdan kelganini ayamasangiz.

Doktor. Aslo, aslo, amin bo'lingiz! (*qo'li shapkasida ta'zim etib chiqadi*).

Humoy. Kam bo'lmang, afandim!.. (*deya nari ketadi*).

Shu payt xizmatchi kelib, **Beypo'lat**ga bir tashrif qog'ozi beradi.

Beypo'lat (*qog'ozga qarab Saltanatga*). Advokat Nodirbey!.. Jamilning do'stlaridan muhtaram bir zot... (*Xizmatchiga*). Bor, o'g'lim, ayt, marhamat qilsinlar, hamda shu xonaga... (*Xizmatchi chiqadi*).

Saltanat. Xo'sh, bu xonaga nechun?!

Beypo'lat. Boshqa odam bo'lsaydi, mehmonxonada qabul qilmoq lozim bo'lardi. Faqat u, avvalo Jamilni ko'rishni istaydi. Yaxshisi, hozirdanoq shu yerga kelsin... (*Har ikkisi dahlizga chiqadi. Saltanat tez boshqa xonaga kirmoqchi bo'ladi*).

Beypo'lat (*Saltanatga*). Singlim, Humoyni ham o'zing bilan birga olib kel...

Saltanat. Yaxshi... (*deb chiqib ketadi*).

Nodirbey (*dahlizga kirib Beypo'latga*). Assalomu alaykum!..

Beypo'lat. Vaalaykum assalom, afandim!.. Marhamat, marhamat, qardoshim! (*Ko'rishadilar.*)

Nodirbey. Jamilga nima bo'ldi?

Beypo'lat. Sizga kim aytdi?

Nodirbey. Men bu yerga kecha keldim... tanishlarimdan biri menga shunday ma'lum qildi (*Jamilning xonasiga kiradi*).

Beypo'lat (*xastani ko'rsatib taassuf bilan*). Mana Jamil, avval ko'rganing Jamil emas... Butunlay o'zgargan!..

Nodirbey (*Jamilbeyning to'shagiga yaqinlashib hayrat bilan*). O'zing saqla, yo Rabbim!.. Jamil! Bu ne hol... (*Ko'zlari yoshlanadi, chuqur bir taassuf bilan*). Jamil!.. Jamil!..

Jamilbey (*alahsirab*). Vafosiz malak!.. Oh, jannat qushi.

Nodirbey (*yangi bir narsa kashf etgan kabi boshqa bir vaziyatga kiradi va shoshqin bir holda*). Jamil!, Jamil! Uf... Dushmanlaring ham seni bu holda ko'rmasin!.. (*Jamilbeyning yuz-ko'zidan o'padi*).

Jamilbey (*ko'zlarini yarim ochib alahsiragan bir holda*). Ket... ket! Oh, mendan nima istarsan?

Nodirbey o'yga toladi.

Beypo'lat. Jamil! Jamil! Nodirbey sani ko'rishga keldi...

Jamilbey. Ha... Kim?.. Nodir?.. (*diqqat bilan tikilib*). Oh, Nodir!.. Ko'rayotganim ro'yomi, Nodir! (*To'shakdan turmoqchi bo'ladi*).

Nodirbey (*Jamilni qo'llari orasiga olib*). Yo'q, azizim, yo'q... Ko'rganing ro'yo emas... Menman, men! Seni jonidan ziyoda sevgan Nodir... Tolesiz Nodir...

Jamilbey (*Nodirbeyni quchoqlab*). Ketayotirman, Nodir, ketayotirman. Xayriyatki, so'nggi nafasimda seni yana ko'ra oldim.

Nodirbey. Bolalik qilma, Jamil!.. Xavotiring o'rinsiz. Inshoolloh, bugun-erta yaxshi bo'lasan...

Jamilbey (*achchiq tabassum bilan*). Yaxshi bo'lamanmi? Mening tabibim ajal, istirohatgohim esa mozoristondir.

Nodirbey. Xafa bo'lma, Jamil, Alloh buyukdir.

Jamilbey (*zaharxanda bilan*). Mening dardimdan ham buyukmi?

Nodirbey (*Jamilni to'shagiga yotqizib*). Azizim, biroz uzanib yotgin-da, orom ol, yo'qsa o'zingni qiynaysan...

Jamilbey (*yotadi, faqat shu orada derazadan tashqariga qarab birdan*). Oh, Malaklardan birontasi o'libdimi, deyman? Yana ko'k yuzida motam alomati ko'rinayotir!..

Beypo'lat va **Nodirbey** hayrat bilan bir-biriga boqadi, **Jamil** yuzini devor tarafga o'girib yotadi.

Nodirbey (*Beypo'latga*). Afandim, doktorlar nima deyotir?

Beypo'lat. Qo'rqadigan bir xastalik yo'qligini aytishayotir, menimcha, xastalikning nimadanligini yaxshi farq etmayotirlar.

Nodirbey (*boshini o'ynatib*). Ha, bilmaslar, bila olmaslar ham... chunki ularning dorilfununlarda o'rgangan xastaliklari boshqa, bu esa boshqa bir narsadir...

Bu orada **Saltanat** va **Humoy** kirib keladilar.

Beypo'lat (*Nodirbeyga*). Bu — singlim Saltanat! Bu ham singillarimdan biri Humoy...

Nodirbey har ikkisi bilan ham qo'l berib ko'rishadi va **Humoy**ning ruhini o'qimoq uchun ko'zlariga diqqat qiladi.

Saltanat (*Nodirbeyga*). Xush keldingiz, safo keldingiz, afandim! (*O'rindiqqa o'tiradi.*)

Nodirbey. To'g'risi, sizlarni ziyorat etganim uchun o'zimni juda baxtiyor hisoblayman.

Saltanat. Kam bo'lmang, afandim. (*Taassuf bilan.*) Oh, lekin Jamilbeyning xastaligi...

Nodirbey. Hech tashvish chekmang, inshoolloh o'tib ketadi.

Saltanat. Inshoolloh, beyim, inshoolloh!

Nodirbey (*Humoyga*). Nechun bunday tik turibsiz?

Humoy. Aziyat yetkazishni istamayman.

Nodirbey. Bu yerda aziyat chekadigan hech kim yo'q...

Humoy (*dardli bir ohu nigohi bilan Jamilga qaragandan so'ng mutaassir bir holda Nodirbeyga*). Ruxsatingiz bilan, afandim...

Beypo'lat (*Humoyga*). O'tirsang-chi.. Xo'sh, ketsang, yolg'iz o'zing nima ham qilarding?

Nodirbey (*Humoyga nazokat bilan*). O'tinaman, qanday istagingiz bo'lsa...

Humoy. Tashakkur...

Saltanat. Bor, bolam, sen boraver, hozir biz ham ketamiz...

Humoy mahzun va o'ychan bir holda chiqadi.

Nodirbey. To'g'risi, Jamilning bu holda bo'lishi butun oilangizni mutaassir etgan desam, xato qilmagan bo'lurman.

Beypo'lat. Bunga shubha bormi, afandim?

Saltanat. Oh, boyaqish Humoy! Bechora Humoy!.. Sho'rlik qizcha xastaning xastasi bo'lmish... Na yegani ma'lum, va na ichgani... Yuziga boqsa, bechoraning chekkan azoblari, kechirgan anduhlarni anglashga yosh bola ham aslo qiynalmaydi. Hatto Jamilni bu holda ko'rmaslik uchun xastalanib yotganidan beri xonasiga kirmakka ham jasorat eta olmaydi.

Nodirbey. Bu tabiiy bir holdir. Insonlar orasida ulfat ko'paygani sayin, shubhasizki, ko'ngildagi taassurot va muhabbat ham shu nisbatda orta boshlaydi.

Jamilbey (*alahsirab*). Uf... Kel!.. Kel!.. (*Kulishga o'xshagan bir tarzda, to'xtovsiz*). Ha-ha-ha-ha-ha-ha...

Har uchalasi ham **Jamil**ga qarab o'yga botadilar.

Saltanat (*turib, Nodirbeyga*). Balki, Jamilni bezovta qilayotgandirmiz, afandim, yaxshisi boshqa xonaga kiraylik.

Nodirbey. Xohishingiz...

Beypo'lat. Ha, boraylik, bir qadahdan qahva ichib, bir muddat bu xususda atroflicha so'zlashamiz.

Nodirbey. Yanada yaxshi... (*Saltanat avvalroq dahlizga chiqib ketadi, Beypo'lat va Nodir ham unga ergashadilar. Nodirbey dahlizda Beypo'latning qo'lidan tutib*). Ruxsat bersangiz, afandim, sizga... sizdan shaxsiy masalalar xususida bir-ikki og'iz so'z so'rasam?

Beypo'lat. So'zlang, beyim!..

Nodirbey. Humoy birovga unashilganmi?

Beypo'lat. Avvallari shunday bir gap borday edi, endi esa yo'q...

Nodirbey (*o'yga cho'madi*).

Beypo'lat. Lekin bu savol nimani anglatadir?

Nodirbey. Bilasizmi? Men Jamilning xastaligi haqida boshqa narsalar his etayotirman.

Beypo'lat. Qanday?

Nodirbey. Ehtimol, diqqat qilgandirsiz, men Jamilni ko'rganimda juda muztarib edi...

Beypo'lat. Shunday.

Nodirbey. Lekin u alahsirarkan: "Vafosiz malak! Oh, jannat qushi!" — deyar-demas holi o'zgardi.

Beypo'lat. Ha, juda to'g'ri...

Nodirbey. Men Jamilning xasta bo'lmoqdan ko'ra ko'proq ishq devonasi bo'lganini hukm etaman.

Beypo'lat (*hayrat bilan*). Faqat hozirga qadar biz uning og'zidan unday bir narsa eshitmadik...

Nodirbey. Afandim! Chuqur bir ishq, haqiqiy bir ishq doimo tilsizdir...

Beypo'lat. Bilmadim!.. Lekin u kimni sevadi?

Nodirbey. Fahmimcha, Humoyni...

Beypo'lat. Qanday?.. Humoyni?

Nodirbey. Shunday... hatto ayta olamanki, Humoy ham uni sevadi, faqat o'rtada nozik bir mone' bor, mana shuni kashf eta olmayotirman.

Beypo'lat (*keskin bir tarzda*). Amin bo'lingki, Jamilning sog'ayishi uchun ne mone'ga duch kelinsa-da, uni tag-tugi bilan bartaraf qilishga hozirman, koshki, aytganingiz kabi bo'lsa?

Nodirbey. O'ylab ko'rsam, yanglishmayotirman, chunki bir oy avval Jamildan olganim bir maktubda "Humoy jannat qushidir" — deya yozgandi. Hozir bunday alahsirashi ham ochiq-oydin ishning haqiqatini anglatadi.

Beypo'lat. Bilmadim... Balki shundaydir...

Nodirbey. Humoy esa, hozir bu yerga kelgani zamon to'g'ri Jamilga qaramoqchi bo'ldi, lekin ruhida o'ta chuqur bir iztirob bor edi. Uning xastaligiga, ko'rguligiga o'zi sabab bo'lgan kabi kuchli bir vijdon azobini kechirardi...

Beypo'lat. Shunday... Shunday!..

Nodirbey. So'ngra yarador bir ohu qanday boqsa, u ham Jamilbeyga shunday boqdi. Nihoyat bu yerda tura olmasligini tushunib, darhol ketmoqchi bo'ldi.

Shu paytda sahnaning yorug'ligi sekin-asta kamayib boradi.

Jamilbey (*alahsirab*). Humoy! Humoy!.. Oh... qayerga ketayotirsan?

Har ikkisi hayrat bilan tinglaydi.

Nodirbey. Ana! Eshitayotirmisiz?

Beypo'lat. Eshitayotirman, ha, eshitayotirman.

Nodirbey. Menimcha, bu masalani tezroq hal qilish kerak, yo'qsa...

Beypo'lat. Boraylik, afandim, hozir Jamilga sutini ichirmoq uchun Humoyni Saltanat bilan birga yuboraylik, singlim har ikkisiga diqqat bilan razm solib, ishning mohiyatini anglaydi.

Nodirbey. O'zingiz bilasiz, afandim, lekin Humoy bilan Jamilning yolg'iz bo'lishi menimcha yana yaxshi... Chunki, ishq kimsasiz bir go'dak kabi doimo yolg'izlikdan zavqlanadi.

Beypo'lat. Zarari yo'q... Saltanat dahlizda kutib turadi.

Ketadilar.

Jamilbey (*to'shakdan turadi. Derazadan ufqni tomosha qilib havotir bilan*). Kelayotir... Ana, kelayotir. Menga qarab kelayotir...

(*holati o'zgarib*). Oh, Humoy! Go'zal malak... Yonoqlaringni keltir, o'payin-da, shifo topayin... Duydoqlaringni bir so'rayinki, hayot topayin. Lutf et-da, sevgi parisi kabi quchog'imga kel!.. (*Bezingan bir holda*). Uff! Baxtiyorlik ichida tolesizlik. Qanday buyuk falokat!.. Ham marhamat, ham istig'no! Qanday kulguli haqorat... (*Achchiq-achchiq kulib qo'lini peshonasiga qo'yib, derazaga suyanadi.. Shu payt Saltanat bilan Humoy qo'lida bir qadah sut bilan dahlizda ko'rinadilar*).

Saltanat. Bor, bolam!.. Nima bo'ladi? Yaxshi emas, sutini ichirasan, yarim soatcha o'zi bilan gaplashasan, balki ko'ngli ochilar.

Humoy (*taraddudlanib*). Xo'p, lekin bir oydirki, xonasiga oyoq bosganim yo'q... Endi ko'ziga qanday ko'rinaman!?

Saltanat. Zarari yo'q, qo'zim, hech zarari yo'q... Ishonaver, sani ko'rsa sevinadi. Bor, olmosim, o'ylanma!.. Endi men ketaman.

(*Ketadi.*)

Humoy bir-ikki odim ilgari bosadi. Ikkilangan bir jasorat bilan yarim ochilmish eshikdan sekingina ichkari kiradi. **Saltanat** yana dahlizga qaytadi, keyin **Nodirbey** bilan **Beypo'lat** ham keladilar. **Jamil**ni tinglab hayrat bilan qaraydilar.

Jamilbey (*yana asabiy va telbavor bir tovushda davom etadi*). Oh!.. O'zing asra, Xudoyim!..O'zing asra, yo Rabbiy, uchayotir... Mendan ranjib qochayotir (*kuchli bir sarosima bilan*). Humoy! Humoy!.. Uchmay tur, sabr et, birga uchamiz. Biroq ruh badandan ayrilgach, uchamiz, qo'l ushlashib uchamiz, dudoq dudoqda uchamiz, shu falokat zindonlardan xalos bo'lib qochamiz... Chek-chegarasi yo'q fazolarga qadar uchamiz... (*Humoy hazin bir oh chekib Jamil tomonga ikki-uch odim ilgarilaydi. Jamilbey ma'yusona bir faryod bilan*). Yo'q, yo'q, ketdi! Uchdi, ketdi, Oh, insofsiz!.. Rahmsiz! (*Zada bo'lgan bir holda yuzini devor tomonga o'girib to'shakka yotadi. Humoyning ko'zlari yoshlanadi, yana biroz unga yaqinlashib mutaassirona tikilib turadi*).

Jamilbey (*zo'rg'a*). Uff!

Beypo'lat (*Nodirbeyga*). Oh, Nodir! Sen qanday ruhshunos hakimsan!?

Saltanat. Ha, shunday!.. Bir boqishda dardini bildi.

Nodirbey. Faqat dardni bilmak bilan ish bitmas. Darmonini ham topmoq lozim...

Beypo'lat. Ortiq hech tashvish chekmaylik, hammasi o'z o'rniga tushadi.

Humoy (*titroq tovush bilan*). Jamil! Jamil!

Jamilbey. Oh, ketdi!

Humoy (*dardli va rahmli*). Uff, rahm qil, yo Rabbiy!

Jamilbey. Ha?

Humoy. Jamil!

Jamilbey. Ha!.. (*Deya takror o'griladi, Humoyni ko'rarko'rmas*). Senmi? Humoy, senmisan?! (*Bo'hronli*). Yiqitgan haykalingni tiklamoqqa keldingmi? Yo'qsa, Iso kabi o'lik tiriltirmoqchimisan?! Ha-ha-ha-ha-ha. O'lik hech tirilarmi, a?.. (*Humoyning qo'lidagi qadah tushib sinadi, yanada shoshqinlashib. Jamilbey takror qahqaha bilan kulib*). Humoy, o'lik hech tirilarmi, a?!

Humoy (*bir narsa demoqchi kabi*). Jamil! Nechun...

Jamilbey (*bir Humoyga, bir singan qadahga qarab zaharxanda bilan*). Sho'rlik qadah! Mening qalbim kabi parcha-parcha bo'ldi! (*Humoy ketmoqchi bo'ladi, Jamil xavotir bilan*) Humoy! Qayoqqa? Qayoqqa ketayotirsan? Oh, mendan yana nafratlanyapsanmi?

Humoy. Yo'q, Jamil, yo'q... Sut keltiraman.

Jamilbey. O'tinaman, ketma!.. Lozim emas... Faqat qo'llaringni ber, o'payin, shu yetarli!.. (*To'shakdan tushmoqchi bo'ladi*).

Humoy (*uni ushlab*). Jamil, nechun o'zingni qiynayotirsan?..

Jamilbey (*Humoyni quchadi, qo'lini o'pib, titroq va ma'sumona bir ohangda*). So'yla, Humoy, so'yla! Endi meni sevasan, shunday emasmi?

Humoy. Shunday, Jamil, sevaman.

Saltanat (*dahlizda*). Buyuksan, Allohim!

Beypo'lat va **Nodirbey** mamnunona bir-birlariga qaraydilar.

Jamilbey (*bo'hronli*). Yo'q, yo'q, sen bashar naslidan emassan, Humoy!.. Oh! Sen ajalning panjayi-qahrida bo'zlagan, falokat zanjirlarida ingragan bir asirni qutqarmoq uchun Alloh tarafindan yuborilmish shafqatli, marhamatli bir malaksan!.. (*Har ikkisi mahzun va mamnun bir holda bir-birldariga tikiladilar*).

Beypo'lat (*dahlizdagilarga ma'noli bir ohang bilan*). Qani, ketdik... Muhabbat Humoy va Jamilni birlashtirdi.

Ketadilar,

Parda

TO'RTINCH IPARDA

Sahna birinchi pardadagi kabi **Turxonbey**ning uyini ko'rsatadi. Salonning bog'ga qaragan derazalaridan bitta-ikkitasi ochiq bo'lib, shoirona bir manzara ko'zga tashlanadi. Sentabr... Kunduzi... Deraza ochilganda **Humoy Jamilbey** bilan birga salonga kirib keladi.

Jamilbey. Qara, bir oy avval qayerda edik endi esa qayerdamiz! Barjomda kechirganimiz u shatoratli, u dilbar hayotni hech qachon unutmasman. Hatto u yerning chamanli-chechakli manzaralari naqadar go'zal!..

Humoy (*kulimsirab derazadan bog'ni ko'rsatadi*). Xudo haqqi, bog'ingizdagi gullarning, chechaklarning qay birini u yerda uchrata olasiz?

Jamilbey. O'tinaman uni hech gapirma! U yerda mening qo'limga bir hamishabahor guli tushdiki, ishon, hali uning mislini ko'rmadim.

Humoy. Nima? Hamishabahor?

Jamilbey. Ha...

Humoy. Xo'sh, nechun uni menga ko'rsatmading?

Jamilbey (*kulimsirab*). Agar ko'zguga qarasang, hoziroq ko'rasan.

Humoy (*ko'zlarini suzib*). Yana shoirliging tutdimi? Qani, yur, bog'ga tushaylik-da, biroz sayr qilaylik.

Jamilbey. Yur, tushamiz... (*qo'l ushlashib chap eshikdan chiqadilar. Turxonbey shu eshikdan ichkari kiradi. G'azabnok va o'ychan bir holda besh-o'n qadam yuradi. Endi soqoli avvalgidek taroshlanmagan*).

Nozli (*o'ng eshikdan kiradi, uning holatiga diqqat qilib, xavotir bilan*). Kechiring, afandim, bugun sizda o'zga hollar ko'rayotirman. Xudo ko'rsatmasin! Yana bir narsa bo'ldimi?

Turxonbey (*jahl bilan*). Yana nima bo'lardi! Jamilni maktabga bergan kunim koshki, bo'ynim uzilsaydi... Badbaxt! Millionlarcha gul qizlarni tashladi-yu ketdi, qara, nima bo'ldi?! Orsizlikni, telbalikni pulga sotib olish deb shuni aytadilar. Lekin Humoy!.. Lekin Humoy! O'zing asra, yo Rabbiy!.. Nima bu ochiq-sochiq hollar?!

Nozli. Yaratganga qurbon bo'layin... Kimga solih farzand beradi, sevintiradi, kimga esa Jamil kabi aqlli bir dallini karomat etadi. Nima qilardik? Bularning bari Allohning ishidir, beyim!...

Turxonbey (*achchiq-achchiq kulib*). Ha, Alloh ishidir! (*Jiddiy*). Men qo'shninikiga chiqaman, so'rasalar, aytginki, tezda kelaman... (*Chap eshikdan chiqadi*).

Nozli. Bosh ustiga, afandim...

Morol (*kelib*). Daf bo'ldimi?

Nozli. Ha, ketdi...

Morol (*Turxonbey chiqqan eshikka yaqinlashib*). Ket, ket, Xudoning ikki oyoqli balosi!.. Ketginki, ko'zlarim o'sha burishgan murdor yuzingni ko'rmasin!.. Quloqlarim ko'ngil ozdiruvchi o'sha tovushingni eshitmasin (*eshikni yopadi*). Ilohi!.. Men nima gunoh qildimki, bunday azoblar ichinda mahv bo'lib ketaman!.. (*Derazadan bog'ga qarab asabiy va qayg'uli*). Oh, baxtiyor Humoy!

Nozli. Yaratganning qurboni bo'layin!.. Kimni yig'latadir, kimni kuldiradir.

Bayram (*tashqaridan baqiradi*). Nozli opa! Ey Nozli opa!..

Nozli (*Morolga*). Sabrli bo'l, qizim, qo'limizdan nima keladi?!

O'ng eshikdan chiqadi.

Morol (*ro'molchasini chiqarib ko'z yoshlarini artmoqchi bo'larkan bir rasm tushadi, darhol yerdan olib hasrat-la boqadi,*

ahvoli o'zgaradi). Oh, Arslon! Sevgili Arslon! (*O'pib*). Bir bora seni ko'rsaydim, o'lmasdim. Ha, hech bo'lmasa sening quchog'ingda o'lsaydim, yanada ma'sud bo'lardim.

Bayram (*kirib, mahramona*). Xonim, Arslonbey keldi...

Morol. Yaxshi, nima deydi.

Bayram. Aytadiki, hamma narsa tayyor... Morolga aytginki, vaqtni boy bermasin, hozir foytun keladi...

Morol. Oh, juda soz... Faqat ehtiyot bo'l, kimsa sezmasin! (*Bayramning qo'liga to'rt-besh oltin berib*). Ol, bularni ham uyingga yuborarsan.

Bayram. Minnatdorman.

Morol. Men hozir o'z xonamga ketaman, foytun kelgani hamon xabar berasan.

Bayram. Bosh ustiga, xonim...

Morol (*o'ng eshikdan chiqarkan*). Oh, shu boyqush uyasidan qutula olsaydim...

Humoy bilan **Jamil** qo'llarida bittadan guldasta bilan chap eshikdan kiradilar. Shu payt tashqi eshik taqillaydi.

Jamilbey. Bayram, qara, eshikni qoqqan kim ekan?

Bayram (*tashqariga yugurarkan*). Xo'p, afandim!

Humoy (*Jamilbeyga*). Qani, ketdik, bugungi gazetaga bir ko'z yugurtiraylik, ko'raylik-chi, nima bor, nima yo'q...

Jamilbey. Nima bo'lardi! Har kungi bema'nilik, har kungi falokat!.. Ishda har tarafda haq nomiga bir haqsizlik keladi... (*O'ng eshikdan chiqadilar. Shu payt Turxonbey, Nodirbey, Bayram chap eshikdan kiradilar*).

Turxonbey (*Bayramga*). Jamil qayerda?

Bayram. Xonasida, afandim.

Turxonbey. Yolg'izmi?

Bayram. Yo'q, Humoy xonim ham yonida.

Turxonbey. Unga shubha bormi!.. U Humoydan hech ayriladimi? (*Qizishib va asabiylashib*). Azizim, bu qiz bir balo bo'lib boshimizga keldi; uning dastidan chorsuga, bozorga chiqolmay otirmiz. Qayerga borsang, xalqning og'zida "Jamil-Humoy" so'zidan boshqa bir g'iybat yo'q.

Tashqi eshik qayta taqillaydi, **Bayram** chiqadi.

Nodirbey. Faqat avom jamoatning har bir so'ziga quloq osish to'g'ri bo'larmikan?

Turxonbey (*hiddatli*). Juda yaxshi, avom jamoatga quloq solmadik, lekin bu qizning yuz-ko'zi ochiq yurishiga nima deysan?

Nodirbey. Zotan u to go'daklikdan beri ochiq va erkin o'sgandir.

Turxonbey. Yaxshi, bu harakat shariatga muvofiq keladimi?

Nodirbey. Albatta, bunga shubha bormi?

Turxonbey (*achchiq kulgu bilan*). Yanglishayotirsan, azizim, yanglishayotirsan...

Nodirbey. Bilmadim!.. Faqat menimcha: shariat insonlarning najot va saodati uchun qilingan bir qonundir. Xalqni halokatli o'pqonlarga itaruvchi bir qonun esa o'ta chirik va ma'nisiz bir afsona demakdir. Yana na islom shiori, na turklik tabiati ayollarga "yopin!" — deya aslo majbur etmas va bu hol yolg'iz ehtiyotdan tug'ilgan bir mahkumiyatdirki, u ham erta-kech zoil bo'lur.

Turxonbey. Juda soz, bu shaharda Humoydan boshqa qiz-kelin yo'qmi a?

Nodirbey (*tabassum bilan*). Aytdim-ku... Ko'p o'tmay barchasining Humoyga do'st bo'lganligini ko'rasiz...

Turxonbey. Nima demoqchisan, Nodir? Sen ham esingni yo'qotdingmi?

Nodirbey. To'g'risi, tog' echkisi kabi o'sgan bir ayolga aytilar so'z yo'q... Lekin sog'lom bir tarbiyaga, mustahkam bir axloqqa molik bo'lgan xonimlarning ochiq yurishida hech bir xafv ko'rmayotirman. Shuning barobarida ajnabiylarda bo'lgan ma'nisiz erkinlikka ham aslo tarafdor emasman. Hatto uningbuning quchog'ida o'ynagan, duch kelgan odam bilan qo'ltiqlashib yurgan bir xonim, menimcha, ayollik nomiga buyuk bir isnoddir.

Turxonbey. Adashayotirsan, Nodir, adashayotirsan! Oh, ayollarga hurriyatmi!? (*Achchiq kulgudan so'ng, jiddiy va hayajonli.*) Nodir! Nodir! Dumli yulduzlar tushgan yerlarni qanday zaharlasa,

qanday yoqib-yiqsa, bilgilki, erkin ayollar ham ayni rolni o'ynaydirlar, ayni fasodni yaratadirlar.

Nodirbey. Faqat yangicha fikrlansa, tarbiyali ayollarning sodir qilgan fasodlari, yaratgan fazilatlariga nisbatan arzimas darajadadir.

Turxonbey (*istehzoli kulgular bilan*). Shundaymi? Shundaymi?!

Nodirbey. Shunday... Tariximizning eng shonli qahramonlarini, eng buyuk daholarini vujudga keltirgan ham ayollar emasmi!?

Turxonbey. Afsuski, dunyoning eng buyuk qahramonlari ham ularning latif va yumshoq qo'llari bilan mahv bo'lib ketganlar...

Nodirbey. Lekin bir qism istisno, hech bir ahamiyatga molik bo'lmas...

Turxonbey. Men uni-buni bilmayman. Faqat hozirga qadar qayerda bir falokat, qayerda bir jinoyat eshitgan bo'lsam, u yerda mutlaq bir ayolning qo'li borligini ko'rdim.

Nodirbey (*qahqaha bilan*). To'g'risi, xato muhokama emas! Nima uchundir ayollardagi ma'sumona va malakona xislatlar, ularning bashariyatga bergani ulug'lik va saodatlar bir bor nazaringizni jalb etmaydi-da doimo aksini ko'rasiz, shunday ko'rmoq istaysiz...

Qozi (*boshida mahobatli bir salla, burnining ustida juda eski va katta ko'zoynak bo'lgani holda, Bayram bilan birga kirib keladi*). Assalomu alaykum... (*Turxonbey bilan Nodirbey o'rnidan turarkanlar "valaykum-assalom" — deya salomlashurlar*).

Turxonbey. Marhamat qiling, Qozi afandi, marhamat qiling, qani... (*Bayramga*). Tezda bir chilim hozirla!

Bayram tez chiqadi.

Qozi. Yo'q, zahmat chekmangiz! (*Ora-sira tushib ketayotgan ko'zoynagini qo'li bilan to'g'irlab qo'yadi.*)

Turxonbey. Xo'sh, bu tashrifingiz sababini bilsak bo'ladimi?

Qozi. Faqat bir shar'iy masala yuzasidan keldim. Yo'qsa, o'tirmoqchi emasman.

Turxonbey. Qanday masala ekan? Yaxshilikmi!?

Qozi (*achchiq-achchiq kularkan, hayrat bilan*). To'g'risi, bu tajohuli orifonangiz o'ta ma'nolidir!

Turxonbey. Afv etasiz, so'zlaringizdan hech bir ma'no chiqara olmayotirman.

Qozi. Subhonolloh!.. Shaharda butun erkak-ayol, muslim-g'ayrimuslim — har kimning bilgan bir ishini siz nechun bilmagaysiz?!

Turxonbey. Ajabo, qanday ish, afandim?

Qozi (*boshini o'ynatib*). Taassuflar bo'lsin!.. Taassuf bo'lsin, Turxonbey afandi!.. Ota-bobo tarafdan sizning nomusli, hissiyotli bir oiladan ekanligingizni butun viloyat biladi, lekin... Lekin ming afsuslar bo'lsinki, bunday sharafli bir xonadonni siz isnodga qo'ymoqchi bo'layotirsiz!

Turxonbey (*asabiy*). Iltimos qilaman, nima demoqchisan — qisqa va ochiq so'zla!

Qozi (*birdan baqirib*). Nimani aytamanki, xalq orasiga yangi bir bid'at qo'yayotirsiz... Kelishingiz islom qizi bo'lgani holda bir xristiandan farq qilmaydi (*g'oyat asabiy*). Oh.. Oh!.. Musulmonlik bunday ketadigan bo'lsa, ko'p o'tmay uy-joyimiz Lut shahri kabi yerning tagiga ketadi!

Nodirbey. Afv etingiz, Qozi afandi!.. Avvalo bu vijdoniy bir masaladir. Soniyan, buni siz bid'at bilganingiz holda ma'rifatli ulamo tamomila shariatga muvofiq ko'radi.

Qozi. Kim? Ulamomi?.. (*Zaharxanda bilan*). Bir to'da shariat xoinlari ulamo qatoriga kirdimi?.. Yo'qsa, sizning kabi gumrohlarga qurol bo'lisharmidi?!

Nodirbey. O'ylab ko'rsam, haddingdan oshayotirsan, bu daraja tarbiyasizlikning hojati yo'q...

Qozi (*g'azab bilan o'rnidan turarkan*). Menmi? Oh, sen meni tarbiyasiz deyayotirmisan?

Nodirbey (*keskin*). Ha, aytganlaringga diqqat qilsang, qay darajada og'zi shaloq bir qabih ekanligingni anglarsan!..

Turxonbey. Nodir! Iltimos qilaman, endi bas...

Qozi (*telbavor bir holda baqirib*). Bir olimga bu darajada hurmatsizlikmi?..

Nodirbey (*qahqaha bilan kulib*). Olimlarni tahqir etayotirsan...

Qozi. Oh, g'ofillar!.. Gumrohlar!.. Shariat xoini mal'unlar! (*Eshikni shiddat bilan ochib chiqadi.*)

Turxonbey. Yo'q, yo'q, unda hech bir qabohat yo'q... Butun bu razolatlarni sodir etgan mening g'ururs iz, sharafsiz o'g'limdir (*g'azabli va asabiy bir holda baqirib*). Oh, Jamil, Jamil! Alloh senga xush kun ko'rsatmasin...

Jamilbey (*titragan bir holda kirib*). Yana nima gap? Nima bo'ldi?..

Turxonbey. Yana nima bo'lsin! Yana nima bo'lsinki, do'st-dushman ichida bizni yerga kiritding.

Jamilbey. Menmi?

Turxonbey. Allohni sevsang, gapirtirma meni!..

Jamilbey. Agar mening bu shaharda bo'lishim sizni azoblasa, daf bo'lib ketishga hozirman.

Nodirbey. Bu so'zlarning nima hojati bor, azizim!

Turxonbey (*Jamilga*). Uzun gapni xohlamayman, bir haftaga qadar yo u qiz bu shahardan ketadi, yo men...

Jamilbey (*darg'azab*). Yo'q, bir hafta juda uzoq... Hoziroq!.. Ha, hoziroq qulligingizdan xalos bo'lamiz.

Turxonbey. Marhamat!.. Marhamat! Omad yor bo'lsin!

Jamil chiqmoqchi bo'ladi.

Nodirbey (*to'xtatmoqchi bo'lib*). Nimalar qilayotirsan, Jamil! Devonamisan?

Jamilbey. Bas, Nodir, endi bas...

Nodirbey (*qat'iyat bilan*). Xudo haqqi, bolalikni qo'y!

Jamilbey. Shuni yaxshi bilib qo'yingki, butun dunyo mani bu fikrimdan voz kechtirolmaydi.

Turxonbey (*achchiq-achchiq kulib, Jamilga*). Rostdan ham ketasanmi?

Jamilbey (*alamli va asabiy*). Ha, ketayotirman, otajonim! Omon bo'ling!.. (*O'ng eshikdan chiqadi.*)

Nodirbey (*Turxonbeyga*). Azizim, so'zni biroz muloyimroq so'zlasangiz bo'lmaydimi?..

Turxonbey (*qizishib*). Nodir! Nodir! Endi men Jamil ismli o'g'ilni tanimayman, zarari yo'q, daf bo'lib ketsin!.. Ota so'zidan chiqmoq nima bo'lishini keyin tushunadi!..

Bayram (*chap eshikdan tez kirib Turxonbeyga*). Afandim, shahar hokimi politsiya yuboribdi, sizni zudlik bilan ko'rmoqchi.

Turxonbey. Yaxshi, ko'raylik-chi, bu nima derkin? (*tashqariga chiqadi. Bayram ham orqasidan ketadi. Nodirbey asabiy va o'ychan bir holda bir quyiga, bir yuqoriga qarab turadi. Shu payt o'ng eshik nazokat bilan chertiladi.*)

Nodirbey. Kim u?

Humoy (*yuzini o'chgan bir holda kirib*). Nodir! Jamil sizni ko'rmoqchi, men ham Turxonbey bilan vidolashmoqqa keldim...

Nodirbey (*shoshib*). Alloh, Alloh... Qanday noshoyon hollar! (*G'oyatda qizishib va asabiylashib.*) Kattalarimiz shunday! Qariyalarimiz bunday!.. Yoshlarimiz unday!.. Odam o'ylasa boshi qotadi... Har tarafga qarasang, yo ifrot[1]dir yo tafriq[2]. Kimsa kimsani tushunmaydi!.. Kimsa kimsani tinglamaydi!.. Na vahshiylar bo'lib vahshiymiz, na madaniylar bo'lib madaniy!..

Humoy (*mahzunona*). Ha, juda to'g'ri, afandim!.. Lekin nima qilaylik!? (*O'ng eshikdan chiqadilar.*)

Morol inja, nimshaffof bir sholga o'rangan holda **Nozli** bilan birga kiradi. Kuchli bir iztirob ichida bir narsa izlagan kabi alanglab turadi.

Nozli (*xavotir bilan*). Yana ko'zimga juda parishon ko'rinayotirsan? Nima gap? Nima bo'ldi! Rangi-ro'ying nechun bu qadar o'chgan?

Morol. Bayram qayerda?

Nozli. Nima qilmoqchisan?

Morol (*iztirobli*). Oh!

Nozli. Morol! Senda bir gap bor, faqat mendan yashirayotirsan... Har dardingga sherik bo'lganimni bilganing holda, nechun qalbingni menga ochmaysan?

Morol. Uf, har daqiqa mudhish xulyolar, iztirobli xayollar aqlimni kemiradir, nima demoqchiligimni o'zim ham bilmasman.

[1] **Ifrot** — haddan oshish.

[2] **Tafriq** — bo'linish, ayrilish.

Nozli. So'zla, bolam, so'zla!.. Sen uchun qo'limdan kelganini ayamayman. So'zla, hech tortinma!..

Morol. (*Nozlining quchog'iga suqilarkan, mahzunona*). Ketayotirman, Nozli opa, ketmoqchiman.

Nozli (*hayrat bilan*). Qayerga?

Morol (*uyalib*). Oh... Arslonbeyga so'z berdim, ko'ngil berdim...

Nozli (*esankirab*). Nima?! Qochmoqchimisan?

Morol (*titroq tovushda*). Ha.

Nozli. (*muloyimlik bilan*). Morol! Morol!.. Hayot besh kunlikdir, Faqat nomu...s! Nomus abadiydir!

Morol (*qiynalib*). Uf, nima qilay, yo Rabbiy!

Nozli (*keskin*). Morol! Bolam! Allohning amri... Payg'ambarning shariati... oyoq ostida toptalmaydi, qizim! Tushunyapsanmi? Hali buni jallodsifat Turxonbey sezib qolsa, inonki, seni aslo sog' qo'ymas!

Morol (*asabiy*). Oh, hozirgacha o'shanday bir nazokatda bo'lsaydi u, juda mamnun bo'lardim!

Nozli. Uf, bolam!

Morol. So'zla, Alloh uchun so'zla! Ajabo, xoin bir jallod qo'lida uvol bo'lish shariatga itoat demakmi?

Nozli. Qizim, bir o'yla!.. Kimsasiz onang, U sho'rlik xotin — oyog'ida turadigan holi yo'q ekan, endi bunday dahshatli bir xabarni eshitsa, nima bo'ladi?!

Morol. Ortiq toqatim qolmadi. Yetar! Oh, boshqa so'zlama! (*Shu payt "Nozli! Hoy Nozli" — degan Jamilbeyning tovushi eshitiladi.*)

Nozli. Hoziroq kelaman, olmosim, tashvish tortma! Alloh karimdir (*o'ng eshikdan chiqadi*).

Morol. Alloh karimdir! (*Ma'yus bir holda o'ylanadi*).

Bayram (*chap eshikdan ichkari kiradi*). Xonim, Arslonbey keldi, sizni kutmoqda.

Morol. Aytginki, ahvolim yaxshi emas, bugun ketolmayman.

Bayram (*o'ylanadi*).

Morol Bor, boraver!.. Bor, ayt! Agar ichkariga kirmoqchi bo'lsa, zinhor kiritma!

Bayram. Bu nimasi?!.. Shu kunga qadar ketmoqqa so'z bermaganmiding?

Morol (*g'azab bilan*). Sen aytilgan ishni qil!

Bayram. Yaxshi... (*Chiqadi.*)

Morol (*sarosimali va telbavor bir holda*). Oh, yo, Rabbiy! Har ikki tarafim ham tahlikali jarlik... Bu yerda qolsam, Turxonbeyning murdor nafasi, qochsam, nomus, iffat masalasi mani tamom qiladi, meni mahv etadi.

Arslonbey chap eshikdan tez yurib kiradi, **Morol** cho'chib bir tomonga chekinadi.

Arslonbey. Morol!

Morol. Oh, Arslon! (*Yana biroz chekinadi.*)

Arslonbey. Morol! Bu nima ahvol?

Morol. Hech, Arslon! Hech...

Arslonbey (*Morolning qo'llarini silab*). Unday bo'lsa, nimaga turibsan? Yur, ketaylik.

Morol. Yo'q, yo'q, Arslon, endi ketmayman. Endi bundan so'ngra...

Arslonbey. Xudo asrasin, nima demoqchisan!

Morol. Ha, endi bundan keyin meni unut!.. Bu chorasiz badbaxtni unut!

Arslonbey. Morol, Morol!.. Oh, nimalar eshitayotirman!?

Morol (*iztirobli*). Iltimos, yo Rabbiy!

Arslonbey. Morol!?

Shu holda **Turxonbey** keladi, ularni bu holatda ko'rib, esankirab qoladi.

Morol. Oh, Arslon!.. Arslon!..

Turxonbey (*darhol revolver chiqaradi. Morolning so'zini bo'lib, achchiq qahqaha bilan*). Ha!.. Sendagi vafo shumi hali!?

Morol (*mazlumona*). Yolvoraman, beyim!

Turxonbey. Uzun so'z lozim emas... Ma, bu sening haqqing... (*Revolver otiladi, Morol "oh" deya yiqila boshlaydi. So'ngra Arslonbeyni nishonga olib*). Bu esa..

(*Revolver otilmaydi*).

Arslonbey (*tashlanib*). Oh, nomard! Olchoq! U, malak kabi bir begunoh (*darhol Turxonbeyning ko'ksini yaralaydi va tashqariga yuguradi*).

Turxonbey. Xoin!.. Vijdonsiz!.. (*deya Arslonni ta'qib qiladi*).

Morol (*hazin va dardli bir tovushda*). Uf... (*Dahlizda yana bir-ikki o'q ovozi eshitiladi*).

Humoy (*sarosima) ila kirib*). E voh, bu ne falokat!.. (*Morolni quchoqlab*). Morol!.. Morol!..

Morol (*mahzun va achchiq tabassum bilan*). Oh, Humoy, senmisan?

Humoy. Sevgili Morol, qaysi jallod seni bu ko'yga soldi?

Morol. Hech so'rama!..

Nodir bilan **Jamil** keladi, fojiali manzarani ko'rib "oh" deya qotib qoladilar. Ayni paytda **Turxonbey** ham ko'ksini o'ng qo'li bilan ushlagan holda ortga qaytadi. Sarosimaga tushgan va nadomatli bir jallod qiyofasi ila qarab turadi.

Morol. Humoy!.. Alvido!.. Oh, mendan onamga... salom! Unutma!.. Uf!.. Al...vido!.. (*Jon taslim qiladi*).

Humoy (*alamli bir faryod bilan*). Oh, Morol!.. Morol!.. Morol!.. (*Deya o'pib, bag'riga bosadi va shiddatli qichqiriqlar ichida bo'g'ilib darmonsizlanib qoladi.*)

Lekin **Humoy** va **Morol**ning oxirgi so'zlari davom etayotgan bir paytda **Nodir** bilan **Jamil**ning sobit va dilgir nigohlari uzoq vaqt yuqoridan pastga o'laroq **Turxonbey** yuziga qadalib qoladi.

Parda

Ganja, 1913

MUNDARIJA

Ulug‘ shoir va dramaturg *(Ibrohim Haqqul)*.....3
Shayx San’on. *Usmon Qo‘chqor tarjimasi*.....9
Payg‘ambar. *Tohir Qahhor tarjimasi*.....114
Amir Temur. *Usmon Qo‘chqor tarjimasi*.....200
Siyovush. *Usmon Qo‘chqor tarjimasi*.....261
Ofat. *Azimjon Shoimov tarjimasi*.....353
Morol. *Azimjon Shoimov tarjimasi*.....396

H 84 Husayn Jovid [Matn]: nasr/to'plovchi va nashrga tayyorlovchi Azimjon Shoimov. – Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti", 2022. – 440 b.
ISBN 978-9943-8725-6-1

UO'K 821.512.162-3
KBK 84(5Ozar)

TURKIY ADABIYOT DURDONALARI

HUSAYN JOVID

59-jild


Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *Sunnat Xo'jaahmedov*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Dono To'ychiyeva*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog'ozi. "PT Astra Serif" garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 27,5. Nashriyot-hisob tabog'i 25,52.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 126-1/22 Buyurtma raqami № 22-342

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining "O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

"O'zbekiston" NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.



TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

HUSAYN JOVID